



SHAVKAT MIRZIYOYEV

NIYATI ULUG' XALQNING ISHI
HAM ULUG', HAYOTI YORUG'
VA KELAJAGI FAROVON
BO'LADI

3

«O'ZBEKISTON»





SHAVKAT MIRZIYOYEV

**NIYATI ULUG' XALQNING ISHI
HAM ULUG', HAYOTI YORUG'
VA KELAJAGI FAROVON
BO'LADI**



TOSHKENT – «O'ZBEKISTON» – 2019

UO‘K 323.(575.1)

KBK 66.3(50‘)

M 54

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev asarlarining 3-jildi uch bo‘limdan iborat bo‘lib, uning birinchi bo‘limiga mamlakatimiz siyosiy-ijtimoiy hayotidagi eng muhim voqealar munosabati bilan so‘zlangan nutq va ma‘ruzalar kiritilgan.

Kitobning ikkinchi bo‘limidan xorijiy davlatlar va nufuzli xalqaro tashkilotlar rahbarlari bilan uchrashuvlardagi nutq va ma‘ruzalar, uchinchi bo‘limidan esa yurtimizda keng nishonlanib kelayotgan umumxalq bayramlari, tarixiy sanalar, turli xalqaro anjumanlar, tadbir va marosimlar munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

ISBN 978-9943-25-820-4



© «O‘ZBEKISTON» NMIU, 2019

**YANGI O‘ZBEKISTON:
TARAQQIYOT SARI
DADIL ODIMLAR**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING OLIY MAJLISGA MUROJAATNOMASI

Hurmatli senator va deputatlar!

Qadrli yurtdoshlar!

Muhtaram mehmonlar!

2019-yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Parlamentga Murojaatnomasini bayon etishga ruxsat bergaysiz.

Bugun biz shiddat bilan o‘zgarib borayotgan zamonda yashamoqdamiz. Dunyo miqyosida manfaatlar kurashi, raqobat tobora avj olib, xalqaro vaziyat keskinlashib bormoqda.

Biz kelgusi yil uchun amaliy rejalar tuzar ekanmiz, xalqaro maydondagi ana shunday murakkab vaziyatni hisobga olgan holda, taraqqiyotimizning ustuvor yo‘nalishlarini aniq-ravshan belgilab olishimiz zarur.

Aziz do‘stlar!

Biz har bir yilga ezgu niyat bilan nom beramiz va o‘z oldimizga ulkan marralarni qo‘yamiz.

Buyuk Imom Buxoriy hazratlarining «Al-Jome’ as-Sahih» asari «**Barcha ezgu amallar niyatga bog‘liq, har bir kishiga faqat niyat qilgan narsasi beriladi**»

degan hadis bilan boshlanishida albatta juda chuqur ma'no bor.

Biz 2018-yilga **«Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili»** deb nom berib, Davlat dasturi doirasida 21 trillion so'm va 1 milliard dollarga teng 76 mingta loyihani amalga oshirganimiz o'tgan yili yaxshi niyat bilan boshlagan ishlarimizning natijasini ko'rsatib turibdi.

Sanoat, qishloq xo'jaligi, kapital qurilish, transport-kommunikatsiya, servis va xizmat ko'rsatish sohalarida salmoqli yutuqlar qo'lga kiritildi.

Ayniqsa, har qachongidan ham og'ir bo'lgan bu yilgi mavsumda mirishkor dehqon va fermerlarimiz fidokorona mehnat qilganlarini alohida ta'kidlashni istardim.

Aholi farovonligini oshirish maqsadida joriy yilda ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar miqdori o'tgan yillarga nisbatan sezilarli ravishda oshirildi. Xususan, pedagog xodimlarning ish haqi so'nggi 10 yilda birinchi marta 50 foizgacha ko'paytirildi.

Ko'rilgan chora-tadbirlar tufayli aholining real umumiy daromadlari 2017-yilga nisbatan 12 foizga oshdi.

«Har bir oila – tadbirkor», «Yoshlar – kelajagimiz» kabi dasturlar doirasida 2 trillion so'mga yaqin mablag' ajratilib, joylarda 2 ming 600 dan ortiq biznes loyihalari amalga oshirildi.

Bu yildan boshlab, soliqlarning prognozdan oshirib bajarilgan qismi hisobidan hududlarda 5,5 trillion so'm qo'shimcha mablag' qoldirildi.

Bu, o'tgan yilga nisbatan 6 barobar, 2016-yilga nisbatan esa – shunga e'tibor berishingizni so'rayman – 32 barobar ko'pdir.

Hurmatli yurtdoshlar!

Yakuniga yetib borayotgan yil barchamiz uchun muqaddas Vatan timsoli bo'lgan qishloqlarimiz, mahallalarimizni obod qilish bo'yicha ulkan ishlar boshlangan yil bo'ldi.

Xususan, **«Obod qishloq»** va **«Obod mahalla»** dasturlari xalqimiz tomonidan katta mamnuniyat bilan kutib olindi. Joriy yilda bu boradagi qurilish va obodonlashtirish ishlariga 3 trillion so'm mablag' yo'naltirildi.

Natijada 416 ta qishloq yangicha qiyofaga ega bo'ldi.

O'tayotgan yilda hayotimizning boshqa sohalarida, jumladan, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat va san'at, sport sohalarini rivojlantirish yo'lida ham muhim qadamlar qo'yildi. Ayniqsa, yurtimiz yoshlari Indoneziyada bo'lib o'tgan Osiyo va Paraosiyo o'yinlarida, Argentinada o'tkazilgan o'smirlar Olimpiadasida yuqori o'rinlarni olgani barchamizni quvontirdi.

Hurmatli parlament a'zolari!

Xalqaro munosabatlarda ochiq va amaliy, faol tashqi siyosat olib borilayotgani tufayli ishonchli hamkor sifatida mamlakatimizning xalqaro obro'si tobora ortib bormoqda.

Barcha qo'shnilarimiz bilan do'stona va o'zaro ishonch ruhidagi munosabatlarni yanada mustahkamlash bizning asosiy vazifalarimizdan biriga aylandi.

2018-yilda 18 ta davlatlararo rasmiy tashriflar amalga oshirildi va 52 milliard dollarlik 1 ming 80 ta loyiha bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom va Osiyo taraqqiyot banklari, boshqa xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikdagi investitsiyalar hajmi 8,5 milliard dollarni tashkil etdi.

Bugungi kunda yurtimizda, chet el investitsiyalari hisobidan qiymati 23 milliard dollarlik 456 ta loyiha amalga oshirilmoqda.

Xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikka tahdidlar tobora kuchayib borayotganini hisobga olib, biz yangi Mudofaa doktrinasini qabul qildik.

Qurolli Kuchlar tarkibidagi barcha qo'shin turlarining tuzilma va vazifalari qayta ko'rib chiqildi.

Armiya va xalq birligini ta'minlash maqsadida barcha hududlarda harbiy-ma'muriy sektorlar tashkil etildi.

Albatta, yil mobaynida amalga oshirgan ishlarimiz ro'yxatini uzoq davom ettirish mumkin. Lekin bunday misollarni keltirish, qayd etishdan maqsad – ko'krakka urib maqtanish emas. Biz bundan mutlaqo yiroqmiz. Bizning maqsadimiz – o'tgan bir yillik taraqqiyot yo'limizni xolisona va tanqidiy baholashdan iborat.

Fursatdan foydalanib, islohotlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlab kelayotgan, barcha qiyinchilik va sinovlarni mardona yengib, o'zining fidokorona mehnati bilan jonajon Vatanimiz ravnaqiga ulkan hissa

qo'shayotgan olijanob xalqimizga chin qalbimdan minnatdorlik bildiraman.

Muhtaram anjuman ishtirokchilari!

Yana sanoqli kunlardan keyin yurtimizga yangi – 2019-yil kirib keladi. Yangi yil arafasida an'anamizga ko'ra 2019-yilga qanday nom berish to'g'risida bugun sizlar bilan maslahatlashib, bir qarorga kelsak, ayni muddao bo'ladi.

Albatta, biz bu haqda ko'p o'yladik. Joylarda xalq bilan muloqotlar davomida va murojaatlarda bildirilgan fikrlar, taklif-mulohazalarni atroflicha ko'rib chiqdik.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan.

Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi.

Shu o'rinda bir savol tug'iladi: investitsiya deymiz, islohotlar deymiz, modernizatsiya deymiz.

Lekin bu o'zgarishlardan ko'zlangan asosiy maqsad nima o'zi?

Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson millati, tili va dinidan qat'i nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugun hayotdan rozi bo'lib yashashi – bizning bosh maqsadimizdir.

Bu yoʻnalishda oldimizda ulkan vazifalar turibdi. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi birinchi navbatda ijtimoiy sohadagi islohotlarimiz samarasi bilan chambarchas bogʻliq.

Yoshlarimizga munosib taʼlim berish, ularning ilm-fanga boʻlgan intilishlarini roʻyobga chiqarishimiz kerak. Shu maqsadda maktabgacha taʼlim tizimini rivojlantirishimiz, oʻrta va oliy oʻquv yurtlarining moddiy-texnik bazasini, ilmiy va oʻquv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilashimiz kerak.

Xalqimiz salomatligini mustahkamlash, sogʻlom turmush tarzini qaror toptirish biz uchun hayotiy muhim masaladir. Takror aytaman, tinchlik va sogʻliqni taʼminlasak, qolgan hamma narsaga erishamiz.

Nogironligi boʻlgan shaxslar, boquvchisini yoʻqotganlar, yolgʻiz keksalar, umuman, koʻmakka muhtoj qatlamlarni qoʻllab-quvvatlash, albatta, ustuvor vazifamiz boʻlib qoladi.

Kelgusi yilda tadbirkorlik, biznes uchun yanada qulay muhit yaratish, yangi ish oʻrinlari tashkil etish, aholi daromadlarini koʻpaytirish, pensiya taʼminotini yaxshilash boʻyicha ham koʻp ishlar qilishimiz lozim.

Shularning barchasini hisobga olib, 2018-yilda boshlagan ishlarimizni mantiqiy davom ettirish va yuksak bosqichga koʻtarish maqsadida, men kirib kelayotgan yangi – 2019-yilga **«Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»**, deb nom berishni taklif etaman.

Aziz do'stlar!

Yilga bunday nom berganimiz barchamizga juda katta vazifalar va mas'uliyat yuklaydi. Investitsiyalarni qanday qilib ko'paytiramiz, ijtimoiy muammolarni qanday hal qilamiz, degan savollar oldimizda ko'ndalang bo'lib turibdi.

«Oynayi jahon» orqali bizni kuzatib turgan xalqimiz ana shu savollarga bizdan javob kutishga to'la haqli.

Bu vazifalarni hal qilishga bugundan boshlab kirishmasak, bor kuch va imkoniyatlarimizni shu yo'lda safarbar etmasak, ko'zlagan maqsadga, marraga erishish qiyin bo'ladi.

Har bir rahbar – u vazir yoki markaziy idora boshlig'i bo'ladimi, deputat yoki senator bo'ladimi, kompaniya yoki xo'jalik birlashmasi raisi, viloyat yoki tuman hokimi bo'ladimi – barcha-barchamiz bu ishni eng birinchi vazifamiz, deb bilishimiz zarur.

Biz faqat investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz.

Iqtisodiyotdagi ijobiy natijalar esa ijtimoiy sohada to'planib qolgan muammolarni tizimli hal etish imkonini yaratadi.

Buni hammamiz chuqur tushunib olishimiz va ishimizni shu asosda tashkil etishimiz shart.

Qadrli yurtdoshlar!

Iqtisodiyot sohasida oldimizda turgan vazifalar haqida gapirganda, avvalo, keng qamrovli iqtisodiy islohotlar

negizida quyidagi maqsadlar mujassam ekanini qayd etish lozim:

- ochiq iqtisodiyot, sog‘lom raqobat, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash uchun zarur sharoitlarni yaratish;

- iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy sektorni jadal rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlarini ko‘paytirish;

- iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, mehnat unumdorligini oshirish orqali yuqori iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash;

- «yashirin» iqtisodiyotga qarshi kurashish, uning hajmini keskin qisqartirish;

- valutani erkinlashtirish siyosatini izchil davom ettirish, barqaror monetar siyosatni amalga oshirish;

- iqtisodiyotni rivojlantirishga doir strategik vazifalarni ro‘yobga chiqarishga qodir malakali kadrlarni tayyorlash.

Bu maqsadlarga erishish uchun quyidagi ustuvor vazifalarni amalga oshirish talab etiladi.

Birinchidan, biz makroiqtisodiy barqarorlikni va yuqori iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini ta‘minlashimiz shart.

Avvalo, inflyatsiyani jilovlamasdan turib, makroiqtisodiy barqarorlikka erishish mumkin emas.

Jahon tajribasini puxta o‘rganib, xalqaro ekspertlarni jalb etgan holda, monetar siyosatni takomillashtirish va narx-navo barqarorligini ta‘minlash konsepsiyasini ishlab chiqishimiz zarur.

O'tish davrida iqtisodiyot sohasida statistik hisobotlarni to'g'ri yuritish va davlatning iqtisodiy salohiyatini aniq baholash juda muhimdir.

Shu orqali yalpi ichki mahsulotni xolisona baholashga erishish mumkin.

Shu maqsadda Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Xalqaro valuta fondining Milliy hisoblar tizimini respublikamizda 2020-yil 1-yanvardan boshlab to'liq joriy etishimiz lozim.

Iqtisodiyotning barqaror o'sishi, birinchi navbatda, yetakchi sohalar rivojiga bevosita bog'liqdir.

Qaysi sohada yuqori qiymatga ega mahsulot yaratilsa, biz ana shu sohani birinchi navbatda qo'llab-quvvatlaymiz.

Shuning uchun iqtisodiyot rivojiga jiddiy turtki beradigan sohalarni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishimiz lozim.

Vazirlar Mahkamasi mamlakatni 2030-yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan kompleks rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqib, xalqaro ekspertlar ishtirokida muhokama qilishni kelgusi yil 1-aprelgacha yakunlasin.

Budjet mablag'laridan samarali foydalanish tizimini yanada takomillashtirish zarur.

Budjet hisobidan mablag' ajratiladigan har qanday dastur yoki loyihaning sifat va miqdor ko'rsatkichlaridan iborat, natijaga yo'naltirilgan indikatorlari bo'lishi kerak.

Vazirlar Mahkamasiga ikki oy muddatda ushbu vazifalarni amalga oshirish yuzasidan taklif kiritish topshiriladi.

Kelgusi yil uchun Davlat budjeti defitsiti 4,5 trillion so'm atrofida bo'lishi va yalpi ichki mahsulotga nisbatan 1,1 foiz bo'lishi rejalashtirilmoqda.

Vazirlar Mahkamasi va Hisob palatasi hozirdan boshlab qo'shimcha imkoniyat va manbalar hisobidan budget daromadlarini ko'paytirish, shu orqali kutilayotgan defitsitni kamaytirish yuzasidan aniq choralar ko'rsin.

Shuningdek, bir oy muddatda tashqi bozordagi o'zgarishlarning iqtisodiyotimizga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha «Yo'l xaritasi»ni ishlab chiqish lozim.

Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan Raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasini ishlab chiqishimiz kerak. Shu asosda «Raqamli O'zbekiston – 2030» dasturini hayotga tatbiq etishimiz zarur.

Raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga o'stirish, korrupsiyani keskin kamaytirish imkonini beradi. Nufuzli xalqaro tashkilotlar o'tkazgan tahlillar ham buni tasdiqlamoqda.

Shuning uchun Hukumatga ikki oy muddatda raqamli iqtisodiyotga o'tish bo'yicha «Yo'l xaritasi»ni ishlab chiqish topshiriladi. Bu borada axborot xavfsizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish zarur.

Ikkinchidan, iqtisodiyotimiz rivojining muhim sharti bo'lgan faol investitsiya siyosatini izchil davom ettiramiz.

2019-yilda barcha manbalar hisobidan qariyb 138 trillion so'mlik yoki 2018-yilga nisbatan 16 foiz ko'p investitsiyalarni o'zlashtirish mo'ljallanmoqda.

Bu borada to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar miqdori joriy yilga nisbatan qariyb 1,5 barobar oshirilib, 4,2 milliard dollarga yetkaziladi. Natijada 142 ta zamonaviy korxona ishga tushiriladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijasi jahondagi yetakchi xalqaro reyting agentliklari tomonidan e'tirof etilayotganini alohida ta'kidlash lozim.

Masalan, dunyodagi nufuzli «**Fitch Ratings**» va «**Standart & Poor's**» reyting agentliklari birinchi marta mamlakatimizning xalqaro suveren kredit reytingini belgiladi.

Ana shu reyting baholari «**Barqaror**» prognoziga ega bo'lib, bu yaqin 12–18 oy davomida ushbu ko'rsatkichning pasayish ehtimoli kamligini bildiradi.

O'zbekiston erishayotgan bunday reyting baholari ko'pgina rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan yuqori ekanini qayd etish lozim.

Ushbu reyting agentliklari O'zbekistonda valuta, savdo va narx siyosati erkinlashgani, davlat boshqaruvidagi institutsional o'zgarishlar, mamlakat oltin-valuta va budjet zaxirasi yetarli ekani, davlat qarzining kamligi singari omillarga alohida e'tibor qaratmoqda.

Kelgusi yilning birinchi choragida yurtimiz tarixida ilk marta O'zbekistonning suveren davlat obligatsiyalarini xalqaro moliya bozorlariga chiqaramiz.

Bu borada biz **«J.P.Morgan»**, **«Citibank»**, **«Deutsche Bank»** kabi yetakchi xalqaro investitsiya banklari bilan hamkorlik olib bormoqdamiz.

Xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakatimizning investitsiya salohiyatini to'la namoyon etish choralarini ko'rishimiz kerak.

Biz iqtisodiyotimizga sarmoya kiritishga intiladigan investorlar uchun hududlar va tarmoqlar bo'yicha investitsiya loyihalarini puxta shakllantira olsak, bu masalada ijobiy natijaga erishish mumkin.

Bu borada erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarida biznes subyektlarini joylashtirish, ularga imtiyoz va preferensiyalar berishni tashkiliy va huquqiy jihatdan tartibga solish lozim.

Birinchi navbatda, eksportga mahsulot chiqarayotgan, innovatsion va yuqori texnologik ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan tadbirkorlarga va chet ellik investorlarga shunday imkoniyat yaratish kerak.

Shu maqsadda Vazirlar Mahkamasiga bir oy muddatda aniq kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish, jumladan, mamlakatimizni Global raqobatbardoshlik reytingiga kiritish bo'yicha tegishli ishlarni amalga oshirish topshiriladi.

Uchinchidan, bank va moliya tizimida islohotlarni jadal davom ettirish, sohaga zamonaviy bozor mexanizmlarini keng joriy etish zarur.

Bugungi kunda bank tizimidagi eng asosiy muammo – ular kapitalining asosiy qismi, ya'ni, 83 foizi davlatga tegishli ekanidir. Bu, o'z navbatida, bank sektorida sog'lom raqobatga to'siq bo'lib, xizmat ko'rsatish sifatiga salbiy ta'sir qilmoqda.

Hukumat va Markaziy bank xalqaro moliya institutlari ko'magida bank-moliya tizimini rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli strategiya ishlab chiqishi lozim.

Bunda bank tizimiga xususiy va xorijiy kapital kirib kelishi hisobidan biz davlat banklari ulushini bosqichma-bosqich kamaytirib boramiz. Bu esa sohada raqobat muhitini yaxshilashga, tijorat banklari faoliyatini, kreditlash sifati va madaniyatini har tomonlama oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, moliya bozorlari, jumladan, fond bozorini rivojlantirish ham yangi iqtisodiy sharoitda asosiy maqsadlarimizdan biri bo'lishi kerak.

Yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish va obligatsiyalar chiqarish orqali bank xizmatlari ko'lamini yanada kengaytirish, ilg'or axborot texnologiyalari asosida bank tizimini rivojlantirish zarur.

Investorlar mamlakatimizda o'zini imkon qadar erkin his qilishlari uchun valuta bozorini yanada erkinlashtirish talab etiladi.

To'rtinchidan, fuqarolarimiz soliqlardan qochish emas, uni vaqtida to'lashdan manfaatdor bo'lishi kerak.

2019-yildan boshlab joriy etilayotgan yangi soliq konsepsiyasining eng asosiy g'oyasi soliq yukini kamaytirish, sodda va barqaror soliq tizimini qo'llashni ko'zda tutadi. Shu orqali iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirish, tadbirkor va investorlar uchun har tomonlama qulay muhit yaratishga erishish mumkin.

Afsuski, yalpi ichki mahsulotda «yashirin» iqtisodiyotning ulushi katta bo'lib, bu mamlakat rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Soliq yukini kamaytirish, biznes yuritish uchun yanada qulay sharoitlar yaratish «yashirin» iqtisodiyotga barham berishning yagona yo'lidir. Shuning uchun bu borada ta'sirchan choralarni nazarda tutadigan alohida dastur ishlab chiqishimiz zarur.

Bundan tashqari, o'zimizda ishlab chiqarilgan va import qilinayotgan yuqori likvidli mahsulotlar markirovkasini joriy etish bo'yicha jadal ish olib borish talab etiladi.

Yangi tahrirdagi Soliq kodeksida mamlakat taraqqiyotining tayanchi bo'lgan insofli, halol soliq to'lovchilarni rag'batlantirish, yashirin faoliyat yuritadiganlarni esa jazolash ko'zda tutilishi shart.

Ma'lumki, soliq stavkalari pasaytirilishi yoki ayrim soliqlar bekor qilinishi bilan budjetga tushadigan mablag' albatta kamayadi.

Buni samarali soliq ma'muriyatchiligi orqali bartaraf etish va budjet barqarorligini ta'minlash mumkin. Aynan shunga erishish birinchi galdagi vazifamizdir.

Soliq ma'muriyatchiligi shunday bo'lishi kerakki, qo'shilgan qiymat solig'i keng joriy qilinsa ham, bu holat iste'mol tovarlarining narxi o'sishiga olib kelmasligi shart va zarur.

Moliya vaziri va Davlat soliq qo'mitasi raisi soliq ma'muriyatchiligi samaradorligi hamda budjet va iste'mol mahsulotlari narxining barqarorligini ta'minlashga shaxsan mas'ul etib belgilanadi.

Soliq yukini kamaytirish hisobiga barchaga bir xil adolatli soliq rejimini joriy etish, soliq imtiyozlarini bosqichma-bosqich bekor qilish lozim.

Zero, berilgan imtiyoz raqobat muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini tadbirkorlarning o'zlari ham e'tirof etmoqdalar.

Vazirlar Mahkamasiga ikki oy muddatda ana shu masala bo'yicha «Yo'l xaritasi» ishlab chiqish vazifasi topshiriladi.

Beshinchidan, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishlar jadal davom ettiriladi.

Buyuk alloma Najmiddin Kubro hazratlari «**Muvaffaqiyatni – sa'y-harakatda, muvaffaqiyatsizlikni esa – loqaydlik va dangasalikda ko'rdim**», deb bejiz aytmaganlar.

Haqiqatan ham, biz faqat faol tadbirkorlik, tinimsiz mehnat va intilish orqali taraqqiyotga, farovon hayotga erisha olamiz.

Jahon bankining biznes yuritish sohasidagi reytingida mamlakatimiz qurilish bo'yicha 134-o'rinni egallagan.

Bu esa sohada ko'plab muammolar borligidan dalolat beradi.

Misol uchun, qurilish sohasida ruxsat berishga oid 17 ta tartib mavjud bo'lib, ularni olish uchun o'rtacha 246 kun sarflanadi. Bu adolatsizlik emasmi?

Vazirlar Mahkamasi zudlik bilan ushbu sohaga doir norma va qoidalarni takomillashtirish choralarini ko'rib chiqishi kerak.

Oltinchidan, iqtisodiyotni boshqarishda davlat aralashuvini keskin kamaytirish lozim.

Bugungi kunda mamlakatimizda 603 ta aksiyadorlik jamiyati faoliyat yuritayotgan bo'lsa, ularning 486 tasida davlat ulushi 52 trillion so'mni tashkil etmoqda.

Yoqilg'i-energetika, neft-gaz, kimyo, transport va bank sohalarida davlat ishtiroki yuqori darajada saqlanib qolayotgani ularni bozor mexanizmlari asosida rivojlantirish, investitsiyalar jalb etishga to'sqinlik qilmoqda.

Ayrim vazirliklar o'zi nazorat qiladigan sohadagi korxonalarda ta'sischi ekani erkin va sog'lom raqobatga yo'l bermayapti, buniyam bugun ochiq aytish kerak. Bunday tizimni endi o'zgartirmasak, ushbu tarmoqlarda ham va umuman, iqtisodiyotda barqaror rivojlanishga erishib bo'lmaydi.

Davlat aktivlari tartibsiz boshqarilayotgani ham samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, hozirgi vaqtda 972 ta davlat korxonasi aktivlarining atigi 21 foizi Davlat raqobat qo'mitasi tomonidan, qolgan

79 foizi vazirlik va idoralar hamda xo'jalik birlashmalari tomonidan boshqarilmoqda.

Bunday yondashuv so'nggi 27 yil davomida davlat korxonalarini qanday ahvolga olib kelgani hech kimga sir emas. Aviasozlik sanoati kabi butun bir soha yo'q bo'lib ketdi.

Mavjud tizimni tartibga solish maqsadida Davlat aktivlarini boshqarish markazi faoliyatini tubdan takomillashtirish, uni mustaqil agentlik etib qayta tashkil qilish lozim.

Bu Agentlik davlat mulkini boshqarish, davlat korxonalarini isloh qilish, aksiya va obligatsiyalar chiqarish yo'li bilan ularni moliyaviy sog'lomlashtirish, xususiylashtirish jarayonlariga bosh-qosh bo'ladi.

Vazirlar Mahkamasiga bir oy muddatda mazkur taklifni amalda joriy etish vazifasi topshiriladi.

Yettinchidan, biz erkin bozor tamoyillarini o'rnatmoqchi ekanmiz, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini isloh qilish va rivojlantirish orqali sog'lom raqobat muhitini yaratishimiz shart.

Bu borada birinchi qadam sifatida «O'zbekenergo» va «O'zbekiston havo yo'llari» tizimini tubdan isloh qilish haqida qarorlar qabul qildik.

«O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi qayta tashkil etilib, parvozlarni amalga oshirish, aeroportlarni boshqarish va aeronavigatsiya xizmatlari bir-biridan ajratildi.

Kelgusi yilda boshqa strategik tarmoqlarni ham, jumladan, «O'zbekneftgaz», «O'zkimyosanoat» jamiyat-

lari, Navoiy kon-metallurgiya kombinatini bosqichma-bosqich isloh qilishni davom ettiramiz.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi va uning narxini belgilash amaliyotini butunlay qayta ko'rib chiqib, bozor tamoyillarini joriy etish zarur.

Vazirlar Mahkamasiga ushbu masalalar yuzasidan ikki oy muddatda Hukumat dasturlari va «yo'l xaritalari»ni ishlab chiqish topshiriladi.

Sakkizinchidan, iqtisodiyotimizni jahon bozoriga integratsiya qilish va eksportni qo'llab-quvvatlash ustuvor vazifadir.

Kelgusi yili eksport hajmini 30 foizga oshirib, 18 milliard dollarga yetkazishni maqsad qilib qo'y-moqdamiz.

Biz eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotga o'tishimiz, ichki bozorda raqobat muhitini shakllantirishimiz zarur.

Shuningdek, transport-logistika tizimini takomillashtirish ham eng dolzarb masaladir. Chunki dengizga chiqish imkoniyatimiz cheklangani uchun mahsulotni eksport qilishda ko'plab qiyinchiliklar paydo bo'lmoqda.

Shu bois, «Uzbekistan Airways» va «O'zbekiston temir yo'llari» kompaniyalari tovarlarimizni eksport qilish bo'yicha zamonaviy logistika yo'nalishlarini yaratishlari zarur.

Vazirlar Mahkamasi eksport yuklarini qo'shni davlatlardan temiryo'l orqali imtiyozli narxlarda o'tkazish bo'yicha muzokaralar olib borishi kerak. Shu

bilan birga, Jahon bankining **«Logistika samaradorligi indeksi»**dagi mamlakatimiz o'rnini yuqori pozitsiyaga ko'tarish choralarini ko'rish lozim.

Kelgusi yilda bojxona tartiblarini keskin soddalashtirish, bojxona nazorati punktlari hamda yuklarni rasmiylashtirish postlarini tubdan isloh qilish zarur.

Yurtimizning barcha hududlarida zamonaviy talablarga javob beradigan, «yagona darcha» tamoyili asosida faoliyat ko'rsatadigan bojxona komplekslarini barpo etish kerak.

Vazirlar Mahkamasiga bir oy muddatda yuqorida qayd etilgan masalalar bo'yicha «Yo'l xaritasi»ni ishlab chiqish vazifasi topshiriladi.

To'qqizinchidan, hududlarni kompleks rivojlantirish tadbirlarini izchil davom ettirish lozim.

Iqtisodiyotdagi tizimli o'zgarishlar natijasida yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi joriy yilda 35 foizdan 37 foizga ortishi kutilmoqda. Biroq ayrim shahar va tumanlarda bu o'ta muhim masalaga yetarlicha e'tibor berilmayapti.

Oqibatda, respublikaning 27 ta tumanida sanoatning ulushi viloyat ko'rsatkichining 1 foiziga ham yetmaydi. Shu sababli, har bir tuman va shahar sanoatini rivojlantirish bo'yicha o'rta va uzoq muddatli dasturlar ishlab chiqish kerak. Bu masalani, avvalo, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar rahbarlari alohida nazoratga olishi kerak.

Yangi yilda «**Obod qishloq**» va «**Obod mahalla**» dasturlari ijrosi uchun 4 trillion soʻmdan ziyod mablagʻ ajratish koʻzda tutilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizning urbanizatsiya darajasi 35,5 foizni tashkil etadi va hozirdan boshlab zarur choralar koʻrilmasa, ushbu koʻrsatkich yaqin kelajakda pasayishi mumkin.

Bosh vazir A.Aripov mamlakatimiz aholisining urbanizatsiya darajasini 2030-yilga qadar 60 foizga yetkazish boʻyicha Davlat dasturi ishlab chiqish uchun shaxsan masʼul etib belgilanadi.

Bu borada faqat poytaxt va viloyat markazlari boʻlgan shaharlarni emas, avvalo, hududlarda joylashgan shahar va posyolkalarni kompleks rivojlantirish eʼtibor markazida turishi kerak.

Qishloq joylarda namunaviy uy-joylar qurish dasturlaridan bosqichma-bosqich shahar va posyolkalarda koʻp qavatli uylar qurishga oʻtishimiz lozim. Muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi ham uy-joylarni qurish dasturlari bilan uzviy bogʻliq holda rivojlanishi darkor.

Bu ishlarga Iqtisodiyot vazirligi bosh-qosh boʻlishi lozim.

Shu bilan birga, ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun maxsus jamgʻarma tuziladi. Binolar va inshootlar joylashgan yer uchastkalarini xususiylashtirishdan tushgan mablagʻlar ana shu jamgʻarmada toʻplanadi.

Biz bu yangi tizim orqali hududlarimiz qiyofasini yanada obod qilishga va aholi farovonligini oshirishga erishamiz.

O‘ninchidan, qishloq xo‘jaligi sohasini boshqarish tizimini isloh qilish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish borasidagi ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash eng muhim vazifamizdir.

Keyingi yilda klaster usulida paxta yetishtirishni kamida 52 foizga yetkazish uchun 48 ta paxta-to‘qimachilik klasterini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

Shu bilan birga, g‘alla va meva-sabzavot klasterlari faoliyatini har tomonlama rivojlantirish kerak. Bu soha biz uchun nisbatan yangi ekanini inobatga olib, uni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, jumladan, kredit tizimini soddalashtirish, xarajatlarni subsidiyalash, yer ajratish bilan bog‘liq tartiblarni qayta ko‘rib chiqish talab etiladi.

Urug‘chilikda asl navlarni yaratish maqsadida tajriba-seleksiya ishlarini tubdan jonlantirish lozim.

Buning uchun urug‘chilik va seleksiya bilan shug‘ullanadigan institutlarning moddiy-texnik bazasini yaxshilash, davlat-xususiy sheriklik asosida urug‘chilik klasterlarini tashkil qilish talab etiladi.

Qishloq xo‘jaligi ekinlari va chorvachilik bo‘yicha yangi tarmoqlarni rivojlantirishimiz zarur.

Bugungi kunda fermer xo'jaliklarining yillik chorva ozuqasiga bo'lgan ehtiyojining faqat 35 foizi mahalliy imkoniyatlar hisobidan qoplanmoqda.

Shu sababli yangi yerlarni o'zlashtirish orqali ekin maydonlarini kengaytirish evaziga chorvaning ozuqa bazasini mustahkamlash, shuningdek, baliqchilik, par-randachilikni rivojlantirish hisobidan oziq-ovqat mahsulotlari hajmini keskin ko'paytirishimiz kerak.

Yana bir muhim vazifa – suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini keng qo'llashdan iborat.

Vazirlar Mahkamasiga ikki oy muddatda bu masala bo'yicha «Yo'l xaritasi»ni ishlab chiqish topshiriladi.

Qishloq xo'jaligi maqsadlarida yer berish tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish kerak.

Yerdan samarali foydalanib, mo'l hosil olayotgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklariga o'z faoliyatini kengaytirishi uchun qo'shimcha yer maydonlarini ajratish lozim.

Agrar sohada eng katta muammo – fermerlarning qishloq xo'jaligi sohasida yetarli bilimga ega emasligidir.

To'g'ri, ularda kuch-g'ayrat, tashabbus, yerga mehr bor, ko'pchiligining ko'zi yonib turibdi.

Lekin, afsuski, birgina xohish bilan biz yuqori hosildorlikka va pirovard natijaga erisha olmaymiz.

Bizga qishloq xo'jaligi texnologiyalarini mukammal egallagan, zamonaviy ishlab chiqarish va innovatsiya usullaridan xabardor fermerlar suv bilan havodek zarur.

Fermerlar kengashi Qishloq xo'jaligi va Suv xo'jaligi, Innovatsion rivojlanish vazirliklari bilan hamkorlikni kuchaytirishi, fermerlarni o'qitish va qayta tayyorlash dasturlarini ishlab chiqishi lozim.

Qishloq xo'jaligidagi islohotlardan maqsad – iqtisodiy foyda ko'rish bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, xalq farovonligini oshirishdan iboratdir. Buni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz zarur.

Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda **«2019–2024-yillarda mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash milliy dasturi»**ni qabul qilishi kerak.

Qishloq xo'jaligi vazirligi mamlakatimizda mevasabzavot yetishtirish bo'yicha klaster tizimi qanday holatda ekanini chuqur tahlil qilib, 2019-yil 1-martga qadar bu boradagi mavjud to'siqlarni bartaraf etishga doir takliflarni kiritsin.

Hurmatli parlament a'zolari!

Iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy himoya o'zaro uzviy bog'liq tushunchalar bo'lib, ularni bir-biridan ajralgan holda tasavvur qilib bo'lmaydi.

2019-yil – **«Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»**da ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur.

Birinchidan, aholi o'rtasida ishsizlikni kamaytirish, odamlar va oilalarning daromadini oshirish lozim.

Hukumat bir oy muddatda 2019-yil uchun bandlikka ko'maklashishning yangi davlat dasturini tasdiqlashi kerak.

Bu borada ishsizlarni kasbga o'qitish, ularga huquqiy va boshqa maslahatlar berish hamda boshqa ijtimoiy yordam usullaridan keng foydalanish kerak.

Xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish uchun mehnatga munosib haq to'lash tizimini shakllantirish va aholi real daromadlarini oshirishimiz zarur.

Eng kam oylik ish haqi miqdorini belgilash tartibini qayta ko'rib chiqish, soliq va boshqa to'lovlarning eng kam ish haqi miqdori bilan bog'liq bo'lishiga barham berish kerak.

Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda ushbu masalani hal etish yuzasidan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqsin.

Ikkinchidan, pensiya va nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibini qayta ko'rib chiqish, pensiya tizimini tubdan isloh qilish zarur.

Xabaringiz bor, yaqinda ushbu masala bo'yicha Prezident farmoni qabul qilindi. Unga ko'ra, 2019-yil 1-yanvardan boshlab, ishlaydigan barcha pensionerlarga pensiyalar to'liq miqdorda to'lanishi belgilandi.

Shuningdek, pensiyani hisob-kitob qilish uchun ish haqining maksimal miqdorini eng kam oylik ish haqining 8 barobaridan 10 barobarigacha oshirish bo'yicha yangi tizim joriy etilmoqda.

Islahotlarning keyingi bosqichida ushbu cheklovlar ham butunlay bekor qilinadi.

Ayni vaqtda nogironligi bo'lgan bolalar va ularning oila a'zolarini, boquvchisini yo'qotganlarni o'n olti yoshgacha ijtimoiy muhofaza qilish masalasi doimo e'tiborimiz markazida turishi kerak. Umrini nogiron farzandiga qarash, uni parvarish qilishga bag'ishlagan onalar uchun alohida ijtimoiy nafaqa turini joriy etamiz.

Uchinchidan, ilm-fan, zamonaviy va uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish zarur.

Xalqimizda «**ta'lim va tarbiya beshikdan boshlanadi**» degan hikmatli bir so'z bor. Faqat ma'rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi.

Shu sababli, ta'lim sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimi prinsipiga asoslanishi, ya'ni, ta'lim bog'chadan boshlanishi va butun umr davom etishi lozim.

Rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'liq sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15–17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko'rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi.

Binobarin, inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart.

Shu yo'ldagi muhim amaliy qadam sifatida bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasini bugungi 34 foizdan 2019-yilda 44 foizga yetkazamiz.

Umumiy o'rta ta'lim tizimini bugungi kun talablari asosida tashkil etish, farzandlarimiz har tomonlama kamol topishi uchun barcha sharoitlarni yaratish lozim.

Xususiy maktablar tashkil etish, davlat-xususiy sheriklik imkoniyatlaridan keng foydalanish kerak.

Oliy ta'lim tizimida tahsil olish uchun teng imkoniyat yaratishga qaratilgan ishlarni yanada kuchaytirishimiz zarur.

O'zbekistonda oliy va o'rta maxsus ta'lim maskanlari bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish o'tgan davrda 9–10 foiz darajasida bo'lib kelayotgan edi. So'nggi ikki yilda ko'rilgan chora-tadbirlar tufayli, biz bu raqamni 15 foizdan oshirishga erishdik.

Lekin bu hali yetarli emas. Chunki dunyodagi rivojlangan davlatlar tajribasiga qaraydigan bo'lsak, bu ko'rsatkich ularda 60–70 foizni tashkil etadi.

Shuning uchun 2019-yilda mamlakatimizda bitiruvchilarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 20 foizga yetkazish va kelgusi yillarda oshirib borish – muhim vazifamizdir.

Oliy o'quv yurtlari nufuzini oshirish, nodavlat ta'lim maskanlari sonini ko'paytirib, sohaga yuqori malakali kadrlarni jalb etish va raqobatni kuchaytirish lozim.

Yoshlarimizga bir vaqtning o'zida bir nechta oliy o'quv yurtiga hujjat topshirish imkoniyatini berishimiz,

o'ylaymanki, ularning ta'lim olish huquqlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim muassasalariga real imkoniyatlardan kelib chiqqan holda, qabul kvotalarini mustaqil belgilash tizimini joriy etish kerak.

Bakalavriat yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga xorijda o'qishni davom ettirish imkoniyatlari yanada kengaytiriladi.

Chunki jamiyatimizda oliy ma'lumotga ega, yuksak malakali mutaxassislar qancha ko'p bo'lsa, rivojlanish shuncha tez va samarali bo'ladi.

Vazirlar Mahkamasi ushbu takliflar yuzasidan ikki oy muddatda tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqishi kerak.

Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy salohiyatni yanada oshirish, ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash ko'lamini kengaytirish – eng muhim masalalardan biridir.

Har bir ishlab chiqarish sohasida tarmoq ilmiy tadqiqot muassasalari, konstruktorlik byurolari, tajriba-ishlab chiqarish va innovatsion markazlar bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Biz mamlakatimizda investitsiyalarni faqatgina iqtisodiyot tarmoqlariga emas, balki ilmiy ishlanmalar «nou-xau»lar sohasiga ham keng jalb qilishimiz kerak.

Vazirlar Mahkamasiga ikki oy muddatda ilmiy tadqiqot tashkilotlari faoliyatini tubdan isloh qilish hamda ilmiy ishlanmalar bo'yicha amaliy natijadorlikni oshirish yuzasidan aniq takliflar tayyorlash topshiriladi.

To'rtinchidan, xalqimiz genofondini mustahkamlash maqsadida tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash va ko'lamini kengaytirish lozim.

Bizning bosh maqsadimiz – nafaqat kasallikni davolash, balki uning oldini olishdan iborat.

Tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish jarayonida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini kengaytirish lozim. Davlat tomonidan ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar doirasi belgilanib, pullik va bepul davolanish o'rtasida aniq chegara o'rnatilishi kerak.

Sog'liqni saqlash vazirligi Moliya vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda davlat shifoxonalarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritсин.

Nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni kuchaytirish kerak. Kelgusi yilda Rossiya, Janubiy Koreya, Germaniya, Italiya tibbiyot institutlari bilan qo'shma fakultet va filiallar ochish bo'yicha amaliy choralarni ko'ramiz.

Navbatdagi dolzarb muammo – aholi o'rtasida onkologik kasalliklar ko'payib borayotgani bilan bog'liq.

Misol uchun, yurtimizda yiliga 22 mingdan ortiq bemorda onkologik kasallik aniqlanmoqda.

Bu, o'z navbatida, mazkur kasallikka qarshi kurash tizimini takomillashtirishni talab etib, yuqori texnologik tibbiy yordamga ehtiyojni kuchaytirmoqda.

Ushbu yo'nalishdagi kasalliklarni barvaqt aniqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga bir oy muddatda alohida

qaror va dastur qabul qilish, uni moliyalashtirish manbalarini aniq belgilash vazifasi yuklatiladi.

Ko'payib borayotgan bir qator jiddiy kasalliklar profilaktikasi bo'yicha xalqaro institutlar, nufuzli xorijiy shifoxonalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish zarur.

Xalqimiz genofondini saqlash uchun homilador ayollar va bolalarning ovqatlanish ratsioni bo'yicha amaldagi me'yorlarni xalqaro standartlar asosida qayta ko'rib chiqish lozim.

Vazirlar Mahkamasiga uch oy muddatda bu borada o'rta va uzoq muddatga mo'ljallangan dastur ishlab chiqish vazifasi topshiriladi.

Beshinchidan, xotin-qizlar va yoshlarni davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish lozim.

Bu borada joriy yilda ko'rilgan amaliy choralarga qaramasdan, haligacha og'ir turmush sharoitida yashab, ish bilan ta'minlanmagan 13 mingdan ziyod xotin-qizlar borligi achinarlidir.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi va Xotin-qizlar qo'mitasi hududiy hokimliklar bilan birgalikda bir oy muddatda ana shunday ayollarni ish bilan ta'minlashga qaratilgan dastur ishlab chiqishi zarur.

Markaziy bank, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri rahbarlariga 2019-yilda turmush sharoiti og'ir bo'lgan 1 ming 600 nafar xotin-qizlarni imtiyozli kreditlar asosida arzon uy-joylar bilan ta'minlash vazifasi topshiriladi.

Mamlakatimiz aholisining qariyb yarmini tashkil etadigan yoshlar bilan ishlash masalasi, bundan buyon ham eng asosiy vazifalarimizdan biri bo‘lib qoladi.

Yoshlarni tadbirkorlikka keng jalb etish, ularning bandligini ta’minlash maqsadida **«Yoshlar – kelajagimiz»** jamg‘armasi faoliyatini yanada kengaytirish zarur.

2019-yilda jamg‘arma uchun 2 trillion so‘mdan ziyod mablag‘ ajratish va shu orqali 50 mingdan ortiq yangi ish o‘rni yaratish lozim.

Farzandlarimizning turli radikal va zararli g‘oyalar ta’siriga tushib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik – asosiy vazifamizdir. Bu boradagi ishlarni yangicha yondashuvlar bilan davom ettirishimiz kerak.

Jumladan, davlat-xususiy sheriklik asosida yangi madaniyat va istirohat bog‘larini tashkil etish, ularni zamonaviy yoshlar maskanlariga aylantirish choralarini ko‘rish zarur. Ushbu bog‘lar tarkibida birinchi navbatda sport maydonchalari, amfiteatr va kichik sahnalar, kutubxona, «Kitob kafelari» bo‘lishi lozim.

Bugungi kunda yoshlarimizning bilim va ma’lumot olishining asosiy manbayi Internet ekani hech kimga sir emas.

Shu sababli tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlagan holda, jamoat joylarida bepul «vay-fay» hududlarini tashkil etish choralarini ko‘rishimiz kerak.

Vazirlar Mahkamasiga bir oy muddatda ushbu masalalar bo‘yicha dastur ishlab chiqish yuklatiladi.

Oltinchidan, aholi turmush sharoitini yaxshilash, uni munosib turarjoy bilan ta'minlash, xalqimiz farovonligini oshirish doimo e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Kelgusi yilda ham arzon uy-joylar qurish dasturi izchil davom ettiriladi.

Namunaviy uylarning loyihalarini takomillashtirish, energiyani tejaydigan texnologiyalarni qo'llash, zamonaviy va arzon qurilish materiallaridan foydalanishga alohida ahamiyat berish kerak.

Ayni paytda yurtimizdagi 34 mingdan ortiq ko'p qavatli uylarning aniq holatini yana bir bor o'rganib, bu masala bo'yicha amaliy choralar ko'rish zarur.

Hukumat uch oy muddatda ko'p qavatli uy-joy fondini to'liq xatlovdan o'tkazishni ta'minlashi kerak.

Dunyodagi yirik megapolislarning bu boradagi tajribasini o'rgangan holda, renovatsiya dasturini, ya'ni, eskirib qolgan ko'p qavatli uylar o'rnida eng zamonaviy sharoitga ega bo'lgan yangi uylar qurish dasturini ishlab chiqish lozim.

Ma'lumki, kommunal xo'jalik sohasi uzoq yillardan buyon ko'plab e'tirozlarga sabab bo'lmoqda.

Shuning uchun 2019-yildan boshlab tarmoqda davlat-xususiy sheriklik bo'yicha investorlar bilan hamkorlikda ishlashni boshlaymiz.

Uy-joy mulkdorlari shirkatlarida ma'muriy xarajatlarni kamaytirish uchun professional boshqaruv kompaniyalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash kerak.

Kelgusi yilda aholini markazlashgan tarmoqlar orqali toza ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasini hozirgi 65 foizdan 75 foizga yetkazishimiz lozim.

Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqishi zarur.

Yettinchidan, jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish yana bir dolzarb vazifadir.

Sportni jadal rivojlantirish, xalqaro musobaqalarda yuksak natijalarga erishgan sportchilarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga bundan buyon ham katta ahamiyat beramiz.

Yosh avlodimiz o'rtasida sportni ommalashtirish maqsadida eng chekka tumanlarda ham bolalar va o'smirlar sport maktablarini tashkil etamiz.

2020-yilda Tokioda o'tkaziladigan yozgi Olimpiadaga puxta tayyorgarlikni hozirdan boshlashimiz lozim.

Yana bir muhim masala – mamlakatimizda qishki sport turlari bo'yicha xalqaro talablar darajasida sportchilar tayyorlash samarali tizimini yaratish kerak.

Poytaxtimizda barpo etilayotgan «Humo» muz sporti saroyi, shuningdek, yaqinda Toshkent viloyatining Amirsoy dam olish maskanida ishga tushiriladigan zamonaviy majmua ham ayni shu maqsadlarga xizmat qiladi.

Afsuski, hozirga qadar yurtimizda Olimpiya yoki Osiyo o'yinlari kabi nufuzli sport musobaqalari o'tkazilmagan.

Shu bois yaxshi niyat bilan kelgusida yozgi Osiyo o'yinlaridan biriga mezbonlik qilish bo'yicha istiqbolli reja ishlab chiqishni boshlashimiz kerak.

Vazirlar Mahkamasiga uch oy muddatda bu masala bo'yicha tegishli dastur loyihasini tayyorlash topshiriladi.

Sakkizinchidan, turizmni rivojlantirish, sohaga investitsiyalar jalb etish, kadrlar salohiyatini oshirish bo'yicha kompleks choralar ko'rishimiz lozim.

Bizda turizm ko'pincha qadimiy shaharlarimiz, tarixiy-madaniy yodgorliklar doirasida cheklanib qolmoqda.

Vaholanki, mamlakatimizning betakror tabiati, milliy qo'riqxonalar, tog'li hududlarda turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud.

Ayniqsa, tibbiyot turizmi, ziyorat turizmi va ekoturizmni rivojlantirish nafaqat iqtisodiyot, balki ijtimoiy sohalar rivojiga ham katta turtki beradi.

Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda 2019–2025-yillarda Turizmni rivojlantirish milliy konsepsiyasini ishlab chiqishi va ijrosini ta'minlashi zarur.

Shu asosda 2025-yilda yurtimizga tashrif buyuradigan xorijiy sayyohlar sonini 7 million nafarga, turizm eksportidan keladigan yillik daromadni esa 2 milliard dollarga yetkazish lozim.

To'qqizinchidan, oldimizga qo'ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbayi bo'ladigan milliy g'oyani rivojlantirishimiz zarur.

Xususan, milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim.

O'tmishga berilgan baho albatta xolisona, eng muhimi, turli mafkuraviy qarashlardan xoli bo'lishi zarur.

Afsuski, yurtimiz tarixini o'rganishda o'tgan davrda arxeologik tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmadi.

Shuning uchun Fanlar akademiyasining Arxeologiya va San'atshunoslik institutlari faoliyatini, oliy o'quv yurtlari va muzeylardagi arxeologik izlanishlarni chet ellik hamkorlar bilan birga tashkil etish zarur.

Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak.

Shu maqsadda, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tarkibida **«O'zbekiston tarixi»** kanalini tashkil etib, ilmiy jamoatchilik, ijodkor ziyolilarimiz bilan birgalikda uning dasturlarini puxta shakllantirish kerak.

Mamlakatimiz muzeylarida saqlanayotgan tarixiy eksponatlarni to'liq xatlovdan o'tkazish, har bir muzeyning katalogini yaratish lozim.

Vazirlar Mahkamasiga bir oy muddatda bu borada tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish vazifasi yuklatiladi.

Aziz do'stlar!

Barchamizga ayonki, islohot – bu yangilanish, o'zgarish degani. Islohotlar ijobiy natija berishi uchun, avvalo, rahbarlarimiz va odamlarimiz o'zgarishi kerak. Inson o'zgarsa, jamiyat o'zgaradi.

Bu maqsadga erishish uchun birinchi navbatda, barcha darajadagi rahbarlar va xalq deputatlari, barcha yetakchilar o'z faoliyatini tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik asosida tashkil etishlarini bugun hayotning o'zi talab etmoqda.

Zamonaviy, oqilona boshqaruv tizimini joriy etish – oldimizga qo'ygan vazifalarni bajarishning asosiy shartidir.

Bu borada quyidagi dolzarb masalalarga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

Birinchidan, parlamentning muhim qarorlar qabul qilish va qonunlar ijrosini nazorat etish faoliyatini kuchaytirish lozim.

Hozirgi kunda Konstitutsiyaga muvofiq, parlament Bosh vazirni tasdiqlaydi. Lekin vazirlarni lavozimga qo'yishda qatnashmaydi.

Shuning uchun Hukumat a'zolari parlament oldida mas'uliyatni yetarli darajada his etayotgani yo'q. Shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasi a'zolarini Oliy Majlis tomonidan tasdiqlash amaliyotini kiritishni taklif etaman.

Bo'lajak vazir parlament a'zolari oldida sohani rivojlantirish bo'yicha o'z dasturini himoya qilsin va unga erishish yo'llarini asoslab bersin.

Bir soʻz bilan aytganda, lavozimga munosib ekanini isbotlasin.

Ayni vaqtda joylardagi mahalliy kengashlarda ham viloyat va tuman idoralari rahbarlarini tasdiqlash boʻyicha mana shunday amaliyotni joriy etish kerak.

Parlament nazoratining taʼsirchan shakllaridan biri boʻlgan Davlat budjetini qabul qilish va uning ijrosini koʻrib chiqishga alohida ahamiyat berishimiz zarur. Bu ishni yuqori professional darajada yoʻlga qoʻyish uchun **Oliy Majlis qoshida Davlat budjeti boshqarmasini tashkil etish maqsadga muvofiq boʻlur edi.**

**Ikkinchidan, ijro hokimiyati tizimini optimal-
lashtirish, maʼmuriy islohotlarni davom ettirish va
davlat boshqaruvida zamonaviy menejment usullarini
keng qoʻllash zarur.**

Barcha davlatlarda Hukumat islohotlar ijrosi uchun javob beradigan yuqori vakolatli organ hisoblanadi.

Hozirgi kunda Hukumat komplekslari tarkibiga 160 dan ortiq idora va tashkilotlar kiradi, Bosh vazirning soha va tarmoqlar boʻyicha 8 nafar oʻrinbosari mavjud.

Lekin Vazirlar Mahkamasi va uning tarkibidagi idoralarning islohotlar jarayonidagi oʻrni bugungi kun talabiga javob beradimi? Bu savolga, afsuski, ijobiy javob berolmaymiz.

Vazirlar va kompaniya rahbarlari arzimagan masala boʻyicha ham Vazirlar Mahkamasiga qatnashga oʻrganib qolgan. Oqibatda, Hukumat faqat kundalik joriy masalalarni hal qiladigan tuzilmaga aylanib bormoqda.

Iqtisodiyot va ijtimoiy sohadagi muammolarni chuqur tahlil qilish va joylardagi haqiqiy ahvolni o'rganish esa e'tibordan chetda qolmoqda.

2019-yilga **«Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»** deb nom berganimiz munosabati bilan Tashqi ishlar vazirligi va uning chet eldagi vakolatxonalari ham o'z ishini qayta ko'rib chiqishlari lozim bo'ladi.

Bundan buyon bizning xorijdagi elchilarimizga ham talab o'zgaradi. Ularning faoliyatiga birinchi navbatda investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha qanday ishlayotganiga hamda ana shu investitsiya miqdoriga qarab baho beriladi.

Shu munosabat bilan, Vazirlar Mahkamasiga uch oy muddatda yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklarni bar-taraf etish, Hukumat va uning tarkibiga kiruvchi vazirlik hamda idoralar faoliyatini optimallashtirish va takomil-lashtirish, ish samaradorligini oshirish, rahbar kadrlarning shaxsiy javobgarligi va mas'uliyatini kuchaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va ijrosini ta'minlash vazifasi yuklatiladi.

Prezident qabulxonalarining ikki yillik ish tajribasi shuni ko'rsatdiki, biz yaqin o'tmishda xalqdan, uning tashvish va muammolaridan ancha uzoqlashib qolgan ekanmiz.

Biz fuqarolar bildirgan fikr-mulohaza va tak-liflarni inobatga olib, davlat boshqaruv tizimini isloh qilishimiz, ilg'or davlat menejmenti va «aqlli» bosh-qaruv prinsiplariga bosqichma-bosqich o'tishimiz lozim.

Bu shuni bildiradiki, endi davlat muassasalari bevosita fuqaro bilan ishlashga o'tadi.

Davlat idoralari xalqqa, jumladan, tadbirkorlarga yaqin ko'makchi bo'lishi zarur.

Davlatning boshqaruv sohasidagi ba'zi funksiyalarini davlat-xususiy sheriklik asosida, jumladan, «outsorsing» shaklida xususiy sektorga topshirish lozim.

Uchinchidan, davlat boshqaruvida samaradorlikni oshirish maqsadida davlat xizmatiga malakali mutaxassislarni jalb etishga qaratilgan yagona kadrlar siyosatini shakllantirish zarur.

Bugun oddiy bir haqiqatni tan olishimiz kerak. Davlat idoralarida malakali va yetuk kadrlar yetishmayapti.

Hanuzgacha davlat xizmatchilarining maqomi belgilanmagan, davlat xizmatiga qabul qilishning oshkora mexanizmlari ishlab chiqilmagan.

Bu boradagi muammolarni hal etish uchun, avvalo, davlat xizmatchilari faoliyatini xolisona baholash bo'yicha samarali tizim joriy etish zarur.

E'tiboringizni yana bir muhim masalaga qaratmoqchiman.

Davlat organlarida ertaga, istiqbolda qanday vazifalar dolzarb bo'lishi, sodda qilib aytganda, besh, o'n, yigirma yildan keyin qanday muammolar oldimizda ko'ndalang bo'lishini prognoz qiladigan tizim hali shakllangani yo'q.

Prezident Administratsiyasiga tarmoqlar faoliyatini samarali boshqarishda strategik tahlil, rejalashtirish va prognoz tamoyillariga asoslangan uzoq muddatli

davlat siyosati Konsepsiyasini ishlab chiqish vazifasi yuklatiladi.

Bunda davlat boshqaruvi idoralarida strategik tahlil va prognozlashtirish tuzilmalarini tashkil etish lozim.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida alohida Ekspert kengashi tashkil etilib, unga xorijiy mamlakatlarning nufuzli olimlari va amaliyotchilari jalb qilinishi lozim.

To'rtinchidan, mahalliy hokimiyat organlarining vakolat va mas'uliyatini qayta ko'rib chiqishimiz, ularning mustaqilligini yanada oshirishimiz lozim.

Hududlarni rivojlantirishga oid masalalarni hal etishda aksariyat hokimlarda mas'uliyatni o'z zimmasiga olib, mustaqil qaror qabul qilish va tashabbuskorlik yetishmayapti.

Ma'lumki, 2018-yilda Toshkent shahrida eksperiment tariqasida davlat boshqaruvining yangi tartibi joriy etilib, shahar hokimi va tuman hokimlariga moliya, iqtisodiyot, investitsiya, qurilish, uy-joy va kommunal xizmat sohalari rahbarlarini tayinlash vakolati berildi.

Natijada 30 dan ortiq komissiya va kengashlar tugatilib, ularning vakolatlari tegishli hududiy organlarga berildi. Samarasiz ishlayotgan 12 ta davlat unitar korxonasi tugatildi.

Davlat budjetiga tushadigan mablag'larning bir qismini mahalliy budjetlar ixtiyorida qoldirish tartibi o'rnatilgani tufayli Toshkentda soliq tushumi prognozga nisbatan 2 trillion so'mga ko'paydi.

Davlat boshqaruvi sohasida ijobiy natija berayotgan ana shu eksperimentni endi boshqa hududlarda ham joriy etishimiz zarur.

Kelgusida hokimning ayni vaqtda xalq deputatlari Kengashi raisi sifatida faoliyat ko'rsatishiga doir tartib bekor qilinishi lozim.

Oliy Majlis palatalari rahbarlariga (N.Yo'ldoshev, N.Ismoilov) 2019-yil davomida ushbu masalalarni parlamentda atroflicha muhokama qilib, amaliy choralar dasturini qabul qilish tavsiya etiladi.

Kelgusi yili mamlakatimizda Oliy Majlis va mahalliy kengashlarga navbatdagi saylov o'tkaziladi.

Yurtimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lgan ushbu siyosiy jarayonni milliy qonunchiligimiz va xalqaro standartlar asosida yuqori saviyada o'tkazish uchun har tomonlama tayyorgarlik ishlarini boshlashimiz zarur.

Beshinchidan, xalq bilan uzluksiz muloqot va inson manfaatlari uchun xizmat qilish barcha darajadagi rahbarlar uchun nafaqat majburiyat, balki hayotiy tamoyilga aylanishi shart.

Aholi bilan to'g'ridan to'g'ri va ochiq muloqotlar tashkil etish, jismoniy va yuridik shaxslarning O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga murojaat qilish huquqini ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratish yangi yilda ham faoliyatimizning muhim va ajralmas qismi bo'lib qoladi.

Hurmatli senator va deputatlar!

Sizlarga ma'lumki, yurtimizda so'nggi yillarda qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq sohasini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bu o'zgarishlar inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, odil sudlovga erishish, huquqni muhofaza qilish idoralari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan.

Men bu masalaga Konstitutsiya kuniga bag'ishlangan anjumanda atroflicha to'xtalib o'tganim uchun bu haqda batafsil gapirmoqchi emasman.

Faqat mazkur sohada oldimizda turgan asosiy ustuvor vazifalarga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

Birinchidan, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash maqsadida sudyalikka nomzodlarni tanlash va tayinlash tizimini yanada takomillashtirish lozim.

Sudyalar korpusini shakllantirish tizimini sud hokimiyatining mustaqilligi prinsipiga to'liq moslashtirish, bu jarayonda keng jamoatchilik ishtirokini ta'minlash zarur.

Buning uchun tuman, shahar va viloyat sudi sud-yalarini tanlash va tayinlash vazifasini Sudyalar oliy kengashi to'liq o'z zimmasiga olishi maqsadga muvofiqdir. Bu borada jamoatchilik fikri va sudyalarning ular oldida hisobot berish masalasi o'z ifodasini topishi zarur.

Ikkinchidan, xalqimiz tinchligi va xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikning barvaqt oldini olish ishlarini yangi bosqichga ko'tarish talab etiladi.

Joriy yilda ushbu yo'nalishda ko'pgina ishlar qilindi.

Jumladan, soha xodimlari uchun munosib mehnat va turmush sharoitlarini yaratish maqsadida profilaktika inspektorlari uchun 6 yarim mingdan ziyod xizmat uylari, 1 ming 100 ta shaxsiy uy-joy, 7 mingta shaxsiy avtomobil berildi.

Shu bilan birga, Milliy gvardiya xodimlari uchun ham 1 ming 800 ta uy-joy quriladi.

2018-yilda 3 ming 205 ta mahallada bironta ham jinoyat sodir etilmagani ham shu ishlarimiz natijasi, desak, to'g'ri bo'ladi. Lekin xotirjamlikka berilishga hali erta.

Odamlar tinch yashashi uchun butun mamlakatimizda jinoyatdan xoli muhit yaratishimiz shart.

Biz Ichki ishlar vazirligi tizimida vakolat va funksiyalarni quyi bo'g'inga tushirib, uni chinakam xalqchil tizimga aylantirishimiz zarur.

Bu borada ilmiy yondashuv va ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jadal joriy etamiz.

Har bir jinoyat yoki huquqbuzarlikning barvaqt oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha har qaysi hudud o'z tajribasini yaratishi kerak.

Bu boradagi ishlar samarasini oshirish uchun ichki ishlar vaziri, Milliy gvardiya qo'mondoni va Bosh prokuror respublika hududlariga shaxsan mas'ul etib belgilanadi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashda, birinchi navbatda, ijobiy natijaga erishgan profilaktika inspektorlari va mahalla faollarini rag'batlantirishni kuchaytirish zarur.

Vazifasini sidqidildan bajargan xodimlarga yangi tuzilgan Maxsus jamg'arma hisobidan ustama haq to'lanadi va ularning mehnatlari qo'shimcha rag'batlantiriladi.

Bugungi kunda nomiga faoliyat ko'rsatayotgan «Mahalla posboni» lavozimini tugatish vaqti keldi.

Uning o'rniga profilaktika inspektorining jamoat tartibini saqlash bo'yicha yordamchisi lavozimi joriy etiladi.

Bu lavozimga joylarda malakali huquqshunos, masalaga qonun nuqtayi nazaridan yondashadigan fidoyi kadrlar ishga olinadi.

Biz qanchalik qiyin bo'lmasin, chekka-chekka hududlarda ham «Jinoyat haqiqati va adolati» tamoyilini albatta joriy etishimiz kerak. Ya'ni, jinoyat so'zsiz fosh etilishi va aybdor jazolanishi shart.

Bu masalaga faqat huquq-tartibot organlarining vazifasi, deb qaramasdan, butun jamiyatimiz birlashib, qattiq kurash olib borishi zarur.

Uchinchidan, jinoyat qonunchiligini yanada takomillashtirish va liberallashtirish bo'yicha ishlarni davom ettirish lozim.

Nega deganda, Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslari qariyb 25 yil oldin qabul qilingan. O'tgan davrda jamiyatdagi munosabatlar, odamlarning yashash tarzi, ongi, dunyoqarashi o'zgardi.

Shu sababli bu kodekslar bugungi davr talablariga javob bermay qoldi.

Ma'lumki, qonunchilikda jazoni og'irlashtirish yoki yengillashtirishga oid moddalar bor.

Lekin ular tergovchi yoki sudyaning ixtiyoriga, ya'ni, inson omiliga to'liq bog'liq bo'lib qolmasligi kerak.

Aks holda, biz uchun muqaddas bo'lgan adolat mezoni buziladi.

Shuning uchun jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilikni tubdan qayta ko'rib chiqish zarur.

Shu maqsadda Bosh prokuror rahbarligidagi idoralaro komissiya 2019-yil 1-iyulga qadar Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslarining yangi loyihalarini tayyorlashi lozim.

Hurmatli yig'ilish qatnashchilari!

Mamlakatimizning konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini turli tahdidlardan himoya qilish, tinchlik va barqarorlikni yanada mustahkamlash – barcha yutuqlarimizning bosh garovidir.

Bu borada quyidagi vazifalar dolzarb ahamiyatga ega.

Birinchidan, mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini, Qurolli Kuchlarning jangovar salohiyatini oshirish, milliy mudofaa sanoati kompleksini shakllantirish, har qanday xavf-xatarga qarshi doimo shay turishimiz lozim.

Mamlakat mudofaasini harbiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha boshlangan islohotlarni mantiqiy yakuniga yetkazish kerak.

Mudofaa vazirligi ikki oy muddatda mudofaa sanoati kompleksiga kiradigan korxonalarni rivojlantirish dasturini ishlab chiqsin.

Yana bir muhim masala. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanib, davlatimiz chegara xavfsizligini kuchaytirish va nazorat sifatini oshirish lozim.

Qurolli Kuchlarimizda jangovar ruhni yuksaltirish, askar va ofitserlarimizni jismoniy va ma'naviy jihatdan barkamol etib tarbiyalashga e'tiborni yanada kuchaytirishimiz kerak.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tizimini har tomonlama takomillashtirish muhim vazifalarimizdan biri bo'lishi lozim.

Ikkinchidan, ekologik xavfsizlik, suv va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish e'tiborimiz markazida turishi zarur.

Suv xo'jaligi vazirligi 2019-yil davomida mintaqadagi davlatlar ekspertlari bilan birgalikda Markaziy Osiyoda suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha takliflarni ishlab chiqishi lozim.

Hozirgi vaqtda Orol fojiasi tufayli 5,5 million gektardan ortiq maydonda Orolqum sahrosi paydo bo'ldi.

Har yili 100 million tonna qum va tuz havoga ko'tarilmoqda. Bu esa Orol halokati global muammo ekanini yana bir bor isbotlamoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Orolbo'yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha ko'ptomon-

lama sheriklik asosida «Trast fondi»ning tuzilishi o‘zbek diplomatiyasining katta yutug‘i bo‘ldi.

Biz O‘zbekiston tashabbusini qo‘llab-quvvatlagani uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi janob Antoniu Guterrish hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti institutlaridan, hamkor davlatlardan minnatdormiz.

Biz Orol dengizining suvsiz qolgan hududida yashil o‘rmonlar barpo etishga alohida e‘tibor bermoqdamiz.

Agar mustaqillik yillarida O‘zbekiston bo‘yicha 1 million 220 ming gektarga yaqin o‘rmonzor yaratilgan bo‘lsa, shundan 400 ming gektardan ortig‘i aynan Orolbo‘yi hududida barpo etilgan.

Bu masalada qabul qilinayotgan maxsus dasturga ko‘ra, Orol dengizining suvsiz hududida kelgusi yilda yana 500 ming gektar o‘rmonzor barpo etiladi.

Aholining hayot sharoitini yaxshilash maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi shahar va qishloqlarida yangi qurilishlar amalga oshiriladi.

Xususan, Mo‘ynoq tumanida barcha zarur infratuzilmalarga ega bo‘lgan zamonaviy shaharcha bunyod etiladi.

Uchinchidan, ochiqlik, o‘zaro teng va manfaatli hamkorlikka asoslangan tashqi siyosat sohasidagi faoliyatimizni davom ettirish va uning samaradorligini yanada oshirish choralarini ko‘rishimiz zarur.

Siyosiy-iqtisodiy munosabatlar doirasini kengaytirish uchun chet davlatlarda O‘zbekistonning yangi vakolatxonalarini ochish, xodimlar sonini ko‘paytirish kerak.

Xalqaro maydonda mamlakatimiz siyosiy-iqtisodiy manfaatlarini ilgari surish uchun davlatimizning tashqi iqtisodiy va siyosiy faoliyatiga doir qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish lozim.

Vazirlar Mahkamasi va Xavfsizlik kengashi apparatiga ushbu masalaga doir qonun loyihasini 1 aprelgacha ishlab chiqish topshiriladi.

Biz kelgusi yilda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar, birinchi navbatda, Rossiya Federatsiyasi bilan, shuningdek, Xitoy Xalq Respublikasi, Amerika Qo'shma Shtatlari, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Koreya Respublikasi va Yaponiya bilan munosabatlarimizni yanada rivojlantirishga qaratilgan faol tashqi siyosat olib boramiz.

Bizni o'zaro mushtarak tarixiy-madaniy va ma'naviy qadriyatlar bilan bog'lab keladigan musulmon dunyosi mamlakatlari bilan hamkorlikni bundan buyon ham mustahkamlashga alohida e'tibor qaratamiz.

Ayni shu maqsadlardan kelib chiqqan holda, biz xorijiy sheriklarimiz bilan o'zaro manfaatli aloqalarni barcha sohalarda amaliy mazmun bilan yanada boyitish tarafdorimiz.

Biz o'z tashqi siyosatimizda Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan aniq va ravshan strategiyaga tayanamiz.

Bu borada O'zbekiston mintaqadagi qo'shni davlatlar bilan, shuningdek, Turkiya, Hindiston, Pokiston, Eron bilan amaliy va o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirishni muhim vazifa, deb biladi.

Ushbu strategiyani amalga oshirishda qo'shni Afg'oniston alohida o'rin egallaydi.

Biz xalqaro hamjamiyatni Afg'oniston hukumati rahbarligida tinchlik muzokaralarini boshlash zaruratini qo'llab-quvvatlashga da'vat etdik.

Shu munosabat bilan, 2018-yilning mart oyida Afg'oniston bo'yicha o'tkazilgan yuqori darajadagi Toshkent konferensiyasi zamonaviy Afg'oniston tarixida xalqaro miqyosdagi eng qamrovli anjuman bo'lganini ta'kidlash lozim.

Konferensiya yakuni bo'yicha qabul qilingan, uning barcha qatnashchilarining yakdil pozitsiyasi ifoda etilgan **«Toshkent deklaratsiyasi»** Afg'onistonda tinchlik o'rnatish bo'yicha o'ziga xos Dastur bo'ldi.

Aynan ushbu konferensiyadan so'ng Afg'onistondagi barcha siyosiy kuchlar, jumladan, «Tolibon» harakati ishtirokida muzokaralar jarayonini boshlashga qaratilgan xalqaro harakatlar yanada faollashdi.

O'zbekiston Afg'oniston rahbariyati va mamlakatning yetakchi siyosiy kuchlari, jumladan, «Tolibon» harakati vakillari bilan bir qator muhim muzokaralar o'tkazdi.

Ushbu siyosiy kuchlar afg'on muammosini hal qilishda O'zbekiston samarali vositachi bo'la olishi mumkinligini e'tirof etdilar.

Ma'lumki, Afg'onistondagi vaziyatni barqaror etishning muhim sharti – mamlakatni iqtisodiy jihatdan tiklashdan iborat.

Bu borada biz Afg'onistonda transport va logistika, energetika, savdo va ta'lim sohalarida yirik qo'shma loyihalarni amalga oshirishga kirishdik.

O'zbekiston tomonidan qurilayotgan Surxon – Puli Xumri elektr uzatish liniyasi, Termiz shahrida afg'on fuqarolarini o'qitish uchun ochilgan Ta'lim markazi, bojxona terminaliga ham ega bo'lgan «Termiz-kargo» logistika markazi, Mozori Sharif – Hirot va Mozori Sharif – Kobul – Peshavor temiryo'l liniyasi loyihalari ishlab chiqilayotgani shundan dalolat beradi.

O'zbekiston afg'on muammosini yechish uchun bundan buyon ham har tomonlama yordam ko'rsatadi.

Biz uchun eng muhim pirovard natija – Afg'onistonda tinchlik muzokaralarini boshlash va milliy yarashuvga erishishdan iborat.

Hurmatli do'stlar!

O'zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida o'z an'analariga doimo sodiq bo'lib, bu yo'ldan hech qachon og'ishmasdan ilgari boradi.

Mamlakatimizda turli millat va diniy konfessiyalar vakillari o'rtasida o'zaro hurmat, do'stlik va ahillik muhitini mustahkamlashga birinchi darajali e'tibor qaratiladi.

Bu – bizning eng katta boyligimiz va uni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash barchamizning burchimizdir.

Xabaringiz bor, yaqinda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining yalpi majlisi tomonidan

muhim bir hujjat – «**Ma’rifat va diniy bag’rikenglik**» rezolyutsiyasi qabul qilindi.

Ushbu rezolyutsiyani qabul qilish tashabbusi 2017-yil sentabr oyida Bosh Assambleyaning 72-sessiyasida O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan edi.

Bizning taklifimizni Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo bo‘lgan 193 ta davlat keng qo‘llab-quvvatlagani jahon hamjamiyati tomonidan O‘zbekistonning sa’y-harakatlariga berilgan yuksak baho va e’tirof sifatida barchamizga katta mamnuniyat va g‘urur-iftixor bag‘ishlaydi.

Ushbu imkoniyatdan foydalanib, bugungi anjumani-mizda ishtirok etayotgan xorijiy davlatlarning muhtaram elchilariga, xalqaro tashkilotlar vakillariga samimiy minnatdorlik bildirishga ruxsat etgaysiz.

Aziz vatandoshlar!

Mamlakatimiz taraqqiyotining bugungi bosqichida har bir yil ulkan dastur va loyihalarni amalga oshirish, yurtimizni ravnaq toptirish bo‘yicha yangi-yangi yutuqlar, bilim va tajribalar davri bo‘lib qolmoqda.

Biz yangi yildan boshlab siyosiy hayotimizda yana bir amaliyotni joriy etamiz. Kirib kelayotgan yilning bosh hujjati bo‘lgan Murojaatnomada bayon qilingan har bir ustuvor yo‘nalish bo‘yicha Bosh vazir va hukumat a’zolari amalga oshirilgan ishlar haqida Senat va Qonunchilik palatasi oldida har chorakda hisobot berib boradi.

Bu jarayon ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritilishi lozim.

Shu tariqa fuqarolar Murojaatnomada belgilab berilgan vazifalarni bajarish bo'yicha hukumat qanday ish olib borayotganidan xabardor bo'ladi.

Ya'ni, hukumat faoliyatiga xalqning o'zi baho beradi.

Hammamiz bir haqiqatni yaxshi tushunamiz, 2019-yil uchun belgilab olgan reja va dasturlarimizni amalga oshirish, albatta oson bo'lmaydi.

Hali faqat qog'ozda bo'lgan bu reja va dasturlarni amaliy ishlarga, real natijaga aylantirish uchun barchamiz birgalikda qattiq mehnat qilishimiz kerak.

Bu yo'lda bizga ishonch va ilhom, g'ayrat va shijoat beradigan beqiyos bir kuch-qudrat borki, biz unga tayanib, o'z maqsadlarimizga albatta yetamiz.

Bu – hayot sinovlarida toblangan, so'zida qat'iy turadigan, ishning ko'zini biladigan, mehnatkash, mard va matonatli xalqimizdir.

Biz bugun ko'pmillatli xalqimizga, barchamizning umidimiz va suyanchimiz bo'lgan yoshlarimizga ishonib, marrani katta olmoqdamiz.

Aziz farzandlarimiz, nabiralarimiz baxtini, kamolini o'ylab, el-yurtimizning, xalqimizning yorug' kelajagini ko'zlab, oldimizga ulkan vazifalar qo'ymoqdamiz.

Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi.

Biz demokratik islohotlar yo'lidan hech qachon ortga qaytmaymiz. Qanchalik qiyin bo'lmasin, faqat oldinga – yangi, yuksak marralar sari boramiz.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga hissa qo‘shish – Yaratganning o‘zi bizga bergan tarixiy imkoniyat, desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

Barchamiz buni chuqur anglashimiz, qadriga yetishimiz zarur.

Jonajon Vatanimiz oldidagi farzandlik burchini sharaf bilan bajarish hammamizga nasib etsin!

Fursatdan foydalanib, sizlarni, butun xalqimizni yaqinlashib kelayotgan yangi – 2019-yil bilan chin qalbidan samimiy tabriklayman.

Barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, ishlaringizda omad va muvaffaqiyatlar tilayman.

Ezgu orzu-niyatlarimizni, rejalarimizni amalga oshirishda Yaratganning o‘zi barchamizga madadkor bo‘lsin.

E’tiboringiz uchun rahmat.

2018-yil 28-dekabr

BILIMLI AVLOD – BUYUK KELAJAKNING, TADBIRKOR XALQ – FAROVON HAYOTNING, DO‘STONA HAMKORLIK ESA TARAQQIYOTNING KAFOLATIDIR

Assalomu alaykum, qadrli vatandoshlar!

Muhtaram mehmonlar!

Xonimlar va janoblar!

Sizlar bilan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligi munosabati bilan mana shu muhtasham saroyda ko‘rishib turganimdan mamnunman.

Barchangizni, butun xalqimizni ushbu qutlug‘ ayyom bilan chin qalbimdan muborakbod etib, ezgu tilaklarimni izhor qilishga ijozat bergaysiz.

Xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasi bo‘lgan Konstitutsiyamiz yurtimizda demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish, O‘zbekistonning xalqaro maydonda munosib o‘rin egallashida mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mamlakatimiz 26 yil davomida bosib o‘tgan g‘oyat murakkab va sharaflı yo‘l Bosh qomusimizning hayotbaxsh kuchi va ulkan salohiyatidan dalolat beradi.

Asosiy qonunimiz negizida yaratilgan Harakatlar strategiyasi bugungi kunda jonajon Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarishda, innovatsion va industrial rivojlanish sari odimlashda beqiyos o‘rin egallamoqda.

Xalq bilan doimiy muloqotda bo'lish, odamlarning tashvish-muammolarini hal etish, ularni rozi qilish faoliyatimiz mezoniga aylanmoqda.

Boshlagan ulkan islohotlarimizni samarali amalga oshirishda ushbu masalalarning ahamiyati kun sayin tobora ortib borayotganini hayotning o'zi ko'rsatmoqda.

Aynan shu **sababli Bosh qonunimizni chuqur o'rganish, anglash, hayotga joriy etish va unga so'zsiz amal qilish – barchamizning sharafligi burchimizdir.**

Aziz yurtdoshlar!

Inson qadr-qimmatini e'zozlash, buning uchun har qanday holatda ham adolatni qaror toptirishga qodir bo'lgan odil sudlov tizimini shakllantirish biz uchun o'tgan ikki yil davomida eng ustuvor vazifaga aylandi.

Buyuk sohibqiron Amir Temur bobomiz Oqsaroy peshtoqiga **«Adolat – davlatning asosi va hukmdorlar shioridir»**, degan hikmatli so'zlarni yozdirgani bejiz emas, albatta. Ushbu ulug'vor g'oya inson qadr-qimmatini oliy darajaga ko'tarish borasidagi amaliy harakatlarimiz poydevoriga aylandi.

Shu yil noyabr oyida Samarqand shahrida o'tkazilgan Inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumida dunyodagi taniqli siyosatchilar, ko'zga ko'ringan olim va ekspertlar tomonidan bu borada o'tgan qisqa davrda amalga oshirgan ishlarimizga munosib baho berildi. Ta'kidlash kerakki, ushbu anjuman O'zbekistonning jahondagi obro'si va nufuzini yanada oshirdi. Eng

muhammadiy, Osiyo forumi inson huquqlari bo'yicha xalqaro amaliyotga «Samarqand ruhi» degan tushuncha va tamoyilni olib kirdi.

Bugungi kunda yurtimizda inson huquq va erkinliklarini qonuniy himoya qilish bo'yicha salmoqli ishlar qilinmoqda. Jumladan, shaxsni ayblashda qonunga zid usulda olingan ma'lumotlardan dalil sifatida foydalanganlik uchun qat'iy javobgarlik belgilandi.

Fursatdan foydalanib, yana bir bor takrorlayman: **sudyaning ongida – adolat, tilida – haqiqat, dilida – poklik hukmron bo'lishi kerak.**

Bu borada Alisher Navoiy bobomiz «**Zulm qilma, insofli bo'l, xalq uchun «adl qasri», ya'ni, «adolat qo'rg'onini» bunyod et**», deb aytgan so'zlarida qanchalik chuqur ma'no bor.

Adolat qo'rg'oni qachon paydo bo'ladi? Qachonki sud organlari, sudyalalar qonunga, odillik tamoyillariga qat'iy amal qilib, o'z vazifasini halol va vijdonan ado etsa, bunga erishish mumkin.

Keyingi ikki yilda sudlar mustaqilligini ta'minlash bo'yicha ham muhim choralar ko'rildi. Jumladan, joriy yilning o'zida 1 ming 881 ta jinoyat ishi dalillar yetarli bo'lmaganligi sababli tugatildi, sudlar tomonidan 590 nafar shaxs oqlandi. Vaholanki, bu raqam 2016-yilda – e'tibor bering – bor-yo'g'i 28 tani, 2017-yilda esa 263 tani tashkil etgan edi.

Shuningdek, 5 ming 462 nafar shaxsga nisbatan tergovda asossiz qo'yilgan moddalar ayblovdan chiqarib tashlandi, 2 ming 449 nafar shaxs esa sud zalidan ozod qilindi.

Sudlarda ishlarni yillar davomida qayta-qayta ko'rish amaliyotiga butunlay chek qo'yildi.

Insonparvarlik tamoyili asosida mutlaqo yangi amaliyot joriy etilmoqda. Buning natijasida jinoyat yo'liga adashib kirib, qilmishiga chin dildan pushaymon bo'lgan 993 nafar fuqaro, jumladan, 456 nafar yigit-qiz hamda 113 nafar ayollar Yoshlar ittifoqi, mahallalar va xotin-qizlar qo'mitalarining kafilligi bilan jazodan ozod qilindi.

Shuningdek, jazoni o'tayotgan 3 ming 333 nafar, jumladan, faoliyati man etilgan tashkilotlarga kirib qolgan 646 nafar mahkum afv etilib, oilasi bag'riga qaytarildi.

Ulug' bayram – Konstitutsiya kuni munosabati bilan bugun maxsus Farmonni imzoladim. Unga ko'ra, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lib, tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan va ayni paytda ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tayotgan 136 nafar shaxs afv etildi.

Bir paytlar diniy ekstremistik guruhlariga aloqasi bor, deb nazoratga olingan 20 mingdan ziyod fuqaro «maxsus hisoblar»dan chiqarildi.

Man etilgan tashkilotlarga adashib kirib qolgan, qilmishiga pushaymon bo'lib, tuzalish yo'liga o'tgan fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha Respublika idoralararo komissiyasi tuzildi.

Joylarda sudyalikka nomzodlarning shaxsiy va kasbiy sifatlarini o'rganish uchun jamoatchilik komissiyalari tashkil etildi.

Adolat, ochiqlik va oshkoralikni ta'minlash maqsadida sudda ishlarni elektron taqsimlash tizimi amaliyotga kiritildi. Endilikda inson aralashuvisiz ishni qaysi sudya ko'rishini elektron dastur belgilaydi.

Sud-tergov faoliyatida ochiqlik va qonuniylikni ta'minlash, sarson-u ovora bo'lish va ortiqcha sarf-xarajatga yo'l qo'ymaslik maqsadida «elektron jinoyat ishi» va «masofadan turib so'roq qilish» tizimlari ham joriy etilmoqda.

Fuqarolarimiz huquq va erkinliklarini ta'minlash borasida advokatlarning vakolatlari kengaytirildi.

Bularning barchasi inson huquqlarini ta'minlash bo'yicha olib borayotgan islohotlarimiz natijasidir.

Ayni paytda sud-huquq islohotlari jarayonida sudyalikka nomzodlarni tanlash, shaxsiy va kasbiy sifatlarini o'rganishning chinakam demokratik va oshkora tizimini joriy etish lozim. Xususan, jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda, nomzodlarni sudyalik lavozimiga tavsiya etish tartibini qonun bilan mustahkamlab qo'yishni maqsadga muvofiq, deb hisoblayman.

Munosib topilgan nomzodlarni kamida bir yil o'qitib, tayyor sudya sifatida lavozimga tayinlash tizimini joriy etish zarur. Buning uchun Sudyalar oliy kengashi qoshida Sudyalar oliy maktabini tashkil etishni taklif qilaman.

Afsuski, ayrim sudyalar tomonidan hali ham adolatsiz qarorlar qabul qilinmoqda. Bu esa, o'z navbatida, fuqarolarning odil sudlovga bo'lgan ishonchiga putur yetkazmoqda.

Shu boisdan ham, **kasbiy mahorat va madaniyatni oshirish, har qanday holatda ham qonun, adolat va insonparvarlik tamoyillariga asoslanib ish ko'rish – har bir sudyaning eng ustuvor vazifasi bo'lmog'i lozim.**

Sudlar tomonidan qabul qilingan har bir qaror, eng avvalo, adolatli, qonuniy va asosli bo'lishi shart. Shundagina odamlarimizda har qanday holatda ham adolat qaror topishiga bo'lgan ishonch yanada mustahkamlanadi.

Joriy yilda xavfsizlik xizmati idoralarining vazifa va vakolatlari to'liq qayta ko'rib chiqilib, barcha darajadagi xodimlar faoliyatiga xolisona baho berildi.

Ilk bor **«O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida»gi** qonun qabul qilinib, unga asosan davlat manfaatlarini ichki va tashqi tahdidlardan ishonchli himoya qilish yangi tuzilgan maxsus idoraning asosiy vazifasi etib belgilandi.

Ekstremizm va terrorizm xavfi, mamlakatimiz konstitutsiyaviy tuzumi va iqtisodiyotiga tajovuzlar saqlanib qolayotgan bugungi tahlikali zamonda Davlat xavfsizlik xizmatining mard va jasur askar va ofitserlari har qanday buzg'unchi kuchlarga qarshi murosasiz kurashishi va Vatanimiz himoyasida mustahkam qalqon bo'lishi zarur.

Xabaringiz bor, yaqinda Mudofaa vazirligi qo'shinlarining jangovar tayyorgarligini tekshirish maqsadida Chirchiq shahrida bo'lib o'tgan dala o'quv mashqlari keyingi ikki yilda mamlakatimiz mudofaa qudratini

mustahkamlash bo'yicha amalga oshirilgan keng qamrovli ishlarning yaqqol namunasi, desam, to'g'ri bo'ladi. Biz bu boradagi ishlarimiz ko'lamini yanada kengaytirgan holda, tizimli ravishda davom ettiramiz.

Shu bilan birga, fuqarolarimiz tinchligi, jamoat xavfsizligini ta'minlash, Ichki ishlar va Milliy gvardiya qo'shinlari bo'linmalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha ham qator ijobiy ishlar qilindi.

Jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarlikning barvaqt oldini olish borasidagi sa'y-harakatlarimiz, avvalo, keng jamoatchilikning ishtiroki bilan umumiy jinoyatchilikni 36 foizga kamaytirishga erishildi. 3 ming 205 ta yoki 35 foizdan ziyod mahallada esa birona ham jinoyat sodir etilmadi.

Bundan buyon ham jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha barcha yo'nalishlar, jumladan, «Xavfsiz shahar», «Xavfsiz hudud» loyihalarida belgilangan vazifalarni samarali va to'liq amalga oshirish Ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya faoliyatida eng ustuvor yo'nalish bo'lib qolmog'i lozim.

Konstitutsiyamizda kafolatlangan fuqarolarning erkin harakatlanish huquqlarini ta'minlash maqsadida propiska va viza berishdagi qiyinchiliklar bartaraf etildi.

Dunyodagi 39 ta mamlakat fuqarolariga viza berish tartibining soddalashtirilgani, elektron viza tizimi joriy qilingani natijasida yurtimizga bu yil qariyb 4 million xorijlik sayyoh tashrif buyurdi.

Uzoq yillar mamlakatimizda istiqomat qilib, jamiyat ravnaqiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan va biz bilan vatandosh bo‘lishni orzu qilgan 2 ming 528 nafar shaxs O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilindi.

Davlat va jamiyat rivojiga, xalqning adolatga bo‘lgan ishonchiga jiddiy putur yetkazadigan xavf – **korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi keskin kurashish** borasida ham aniq choralar ko‘rilganini alohida ta’kidlash lozim.

Mana shunday og‘ir jinoyatni sodir etgan 1 ming 177 nafar mansabdor shaxsning jinoiy javobgarlikka tortilgani buning yaqqol dalilidir.

Korrupsiyaga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar qanchalik harakat qilmasin, xalqimiz bu jirkanch illatga murosasiz bo‘lmas ekan, ta’sirchan jamoatchilik nazoratini o‘rnatmas ekan, bu baloga qarshi samarali kurashni tashkil eta olmaymiz.

Bu illat bilan nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, balki har bir jamoa jiddiy kurashishi kerak. Shuning uchun har bir davlat idorasida jamoatchilik tomonidan nazorat qilinadigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘z ichki dasturlari bo‘lishi shart.

Jahon tajribasiga nazar tashlasak, AQSH, Rossiya, Buyuk Britaniya, Bolgariya, Gretsiya, Latviya, Estoniya kabi ko‘plab mamlakatlarning parlamentlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha komissiya va qo‘mitalar mavjud.

Ana shu ilg‘or xorijiy tajribalar va Konstitutsiyamiz talablari asosida Oliy Majlis palatalarida Korrupsiyaga

qarshi kurashish bo'yicha qo'mitalar tashkil qilishni taklif etaman. Ushbu qo'mitalar barcha bo'g'indagi davlat idoralarida korrupsiyaga qarshi kurashni yanada kuchaytirishga vakillik organi sifatida munosib hissa qo'shishi lozim.

Yana bir muhim masala – xalqimizga xos bo'lgan insonparvarlik va bag'rikenglik tamoyillari asosida jazoni o'tayotgan shaxslarning haq-huquqlarini ta'minlash tizimini ham takomillashtirish vaqti keldi.

Ma'lumki, Konstitutsiyamizda barcha fuqarolarning ta'lim olish huquqi kafolatlangan. Shuni inobatga olgan holda, mahkum shaxslarning kelgusida ijtimoiy hayotga moslashuvi uchun ko'mak berish maqsadida jazoni ijro etish muassasalarida masofadan turib ta'lim olish tizimini joriy etish lozim. Shuningdek, ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning saylash huquqini cheklovchi normalarni kelgusida xalqaro me'yorlar asosida qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Hurmatli vatandoshlar!

Xalqimizning farovon hayot kechirishi uchun munosib sharoit yaratish – Konstitutsiyamizning bosh maqsadidir.

Islahotlar natijasida aholining turmush darajasi va real daromadlari albatta oshib bormoqda. Shunday bo'lsa-da, bu borada hali Hukumat, markaziy iqtisodiy idoralar hamda barcha darajadagi hokimliklar oldida ko'plab vazifalar turibdi.

Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini ta'minlashning eng samarali yo'li bu – tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash ekanini hayotning o'zi ko'rsatmoqda.

Konstitutsiyamizda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik erkinligi, barcha mulk shakllarining tengligi va davlat tomonidan birdek muhofaza etilishi kafolatlangan. Lekin, iqtisodiyotda davlat aralashuvining yuqoriligi va byurokratiya, soliq, bojxona hamda bank tizimidagi mavjud muammolar ichki investitsiyalarni ko'paytirishga va xorijiy sarmoyadorlarni yanada kengroq jalb etishga hali ham to'siq bo'lib kelmoqda.

Mashhur xitoy faylasufi Sun Szining hikmatli bir gapi bor: **«Soliqlarni haddan ziyod kuchaytirish turli talon-torajlikni keltirib chiqaradi, dushmanlarning boyishiga xizmat qiladi, oqibatda, davlat inqirozga uchraydi».**

Ko'p yillar davomida soliq yukining yuqori bo'lgani mamlakatda «xufiyona» iqtisodiyot ulushining ortib ketishiga sharoit yaratdi.

Mavjud vaziyatni hisobga olib, biz avvalambor iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish uchun **Soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini** qabul qildik. Bu konsepsiya ustida biz uzoq ishladik. Mazkur hujjat loyihasi mamlakatimiz jamoatchiligi, biznes hamjamiyati, xalqaro moliyaviy tashkilotlar, nufuzli ekspertlar tomonidan keng va atroflicha muhokama qilindi.

Konsepsiya asosida soliq siyosatida muhim o'zgarishlar joriy qilinmoqda. Jumladan, jismoniy shaxslar uchun hozirgacha amal qilib kelgan eng yuqori 22,5 foizlik daromad solig'i stavkasi o'rniga 12 foizlik

stavka belgilandi, 8 foizlik sug'urta badali esa bekor qilindi.

Biznes hamjamiyati uchun eng og'ir hisoblangan yagona ijtimoiy to'lov stavkasi ilgari 25 foiz o'rniga 12 foiz etib belgilandi.

Budjetdan tashqari pensiya, yo'l va ta'lim bo'yicha maqsadli jamg'armalarga 3,2 foiz miqdoridagi majburiy to'lov bekor qilindi.

Bojxona to'lov stavkalari qayta ko'rib chiqilib, 3,5 mingga yaqin tovarlar bo'yicha boj miqdori va 800 ga yaqin tovarlar bo'yicha aksiz solig'i stavkalari kamaytirildi.

Mamlakatimizda ishlab chiqarilmaydigan mahsulotlar uchun xomashyolarga, shuningdek, asbob-uskuna va texnikalarga nisbatan davlat boji olinmaydigan bo'ldi.

Tadbirkorlik subyektlari moliyaviy-xo'jalik faoliyatini rejali tekshirish bekor qilindi. 138 ta litsenziya va ruxsat berish bilan bog'liq talablar soddalashtirildi, ularning 42 tasi butunlay tugatildi.

Tadbirkorlik faoliyati uchun yer maydonlarini ajratishdagi to'siq va g'ovlarni bartaraf etish, tizimdagi korrupsiya holatlariga barham berish maqsadida yer maydonlarini elektron auksion orqali ajratish tartibi joriy etildi.

Mulk egasiga zararning o'rni to'liq qoplanmaguncha davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarini olib qo'yish va ko'chmas mulkni buzish tartibi bekor qilindi.

Investor va tadbirkorlarga yetkazilgan mulkiy zararni to'liq qoplab berish tartibi kafolatlandi.

Shu bilan birga, kelgusi yildan boshlab tadbirkorlarimizni mahsulotlar, ish va xizmatlarni eksport qilishda foyda solig'i va yagona soliq to'lovidan ozod etish nazarda tutilmoqda.

Turizmni jadal rivojlantirish, turistlarga munosib infratuzilma yaratish, xizmatlar sifatini yanada oshirish, hududlarning turistik salohiyatidan unumli foydalanish va yangi ish o'rinlari tashkil etish, milliy turizm mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlar davom ettirilmoqda.

Mehmonxonalarning infratuzilmasi, dam olish maskanlari va boshqa sohalarni rivojlantirish uchun 2 trillion 300 milliard so'm mablag' yo'naltiriladi. Buning natijasida minglab yangi ish o'rinlari yaratish mo'ljallanmoqda.

Bundan tashqari, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa shaharlarda mashhur brend mehmonxonalarni tashkil etish choralari ko'rmoqdamiz.

Kelgusi yilda ham faol tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, investorlar uchun keng sharoitlar yaratib berish, ayniqsa, inflyatsiya darajasini pasaytirishga qaratilgan ishlarni davom ettiramiz.

Jumladan, inflyatsiya darajasini prognoz ko'rsatkichlari doirasida saqlab turish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilmoqda.

Birinchidan, biz samaradorligi past bo'lgan va yetarlicha yangi ish o'rinlari yarata olmayotgan yirik

davlat korxonalariga imtiyozli kreditlar ajratishni qayta ko'rib chiqishimiz lozim.

2019-yilda kreditlar berishda budjet hamda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi xarajatlari ko'paymasligi kerak.

Ikkinchidan, milliy valutamiz hamda iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash uchun pul-kredit siyosatini tartibga solishning zamonaviy vositalarini joriy etishimiz zarur.

Uchinchidan, asosiy turdagi oziq-ovqat va boshqa iste'mol tovarlarini ishlab chiqaruvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz va bu orqali narxlar barqarorligini ta'minlashimiz kerak. Qishloq xo'jaligi sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirishga alohida e'tibor qaratiladi.

To'rtinchidan, strategik ahamiyatga ega bo'lgan tovarlar bo'yicha narxlarning shakllanish mexanizmlarini tubdan qayta ko'rib chiqish hamda ular faqat birja savdolari orqali sotish, shu asosda erkin raqobat muhitini yaratish talab etiladi.

Beshinchidan, aholining ehtiyojmand qatlamini ijtimoiy himoya qilish maqsadida elektr energiyasi, tabiiy gaz va kommunal xizmatlar uchun to'lovlarning bir qismini davlat tomonidan kompensatsiya qilish choralarini ko'rishimiz lozim.

Oltinchidan, mamlakatimizda ishlab chiqarilmaydigan iste'mol tovarlari importi bo'yicha tariflarni tartibga solishning moslashuvchan mexanizmlarini joriy qilish kerak.

Yettinchidan, respublikamizning iqtisodiy ahvoli og‘ir hisoblangan 27 ta shahar va tumanini kompleks rivojlantirish maqsadida, avvalo, yirik investitsiya loyihalarini ushbu hududlarda amalga oshirish zarur.

Ochiq aytish kerak: agar biz yurtimizda barqaror iqtisodiyot qurmoqchi bo‘lsak, dunyodagi rivojlangan mamlakatlar kabi boy va farovon yashamoqchi bo‘lsak, chala-chulpa, yuzaki emas, balki qanchalik qiyin va murakkab bo‘lmasin, haqiqiy bozor iqtisodiyotiga o‘tishimiz shart.

Yagona yo‘limiz shu. Bu – Asosiy qonunimiz talabi. Boshqa yo‘l yo‘q. Biz boshlagan islohotlarimizni qat’iy davom ettiramiz va ular albatta o‘zining ijobiy natijasini beradi.

Oldimizda juda mashaqqatli yo‘l turibdi, lekin aholining og‘irini yengil qilish uchun davlat tomonidan barcha choralar ko‘riladi.

Ishonchim komil, mehnatsevar, tadbirkor va uddaburon xalqimiz erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida samarali mehnat qilishga va munosib hayot kechirishga albatta qodir.

Aziz do‘stlar!

Xabaringiz bor, bu yil mamlakatimiz aholisi 33 million kishidan oshdi. Bu, albatta, kichkina raqam emas.

Shuning uchun ham, fuqarolarimizning ijtimoiy huquqlarini ro‘yobga chiqarish, jumladan, ular uchun munosib sharoit yaratish, yoshlarni o‘qitish va kasbga tayyorlash, ish va uy-joylar bilan ta‘minlash kabi hayotiy masalalarni hal etishimiz lozim.

Konstitutsiyamizda har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega ekani mustahkamlab qo'yilgan. Bu muhim hayotiy qoidaning ijrosini ta'minlash – xalqimiz genofondini asrash yoki oddiy qilib aytganda, davlat va jamiyat taraqqiyotining kafolatidir, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Yurtimizda amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar natijasida fuqarolarimizning o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 1990-yildagi 67 yoshdan 2017-yilda 74 yoshni tashkil etdi. Bolalar o'limi 3 barobar kamayishiga erishildi. Biz bu boradagi natijalarimizni yanada mustahkamlashimiz zarur.

Mamlakatimizda aholi salomatligini yanada yaxshilash bo'yicha muhim amaliy dasturlar qabul qilinmoqda.

Mana, kuni kecha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan **Sog'liqni saqlash tizimini 2019–2025-yillarda rivojlantirish konsepsiyasi** qabul qilindi.

Bugungi kunning talabi bo'lgan xususiy tibbiyot muassasalarini rivojlantirish bo'yicha ham sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Ko'rilgan choralar tufayli 2018-yilning o'zida 400 dan ortiq xususiy tibbiyot maskanlari tashkil etildi.

Biz **«Tarbiya go'daklikdan boshlanadi»**, degan hikmatli so'zga amal qilib, ta'lim-tarbiya sohasidagi o'zgarishlarni uning eng quyi bosqichi – maktabgacha ta'lim tizimidan boshladik.

Qiyoslash uchun faqat bitta misol keltirmoqchiman. So‘nggi ikki yilda yurtimizda bolalar bog‘chalari soni 1 ming 400 taga ortib, 6 ming 367 taga yetdi.

Davlat-xususiy sheriklik asosida barpo etilayotgan xususiy maktabgacha ta’lim maskanlari so‘nggi bir yilda ikki barobar ko‘paydi va 568 tani tashkil etmoqda. Yana mingta shunday bog‘cha ochish bo‘yicha amaliy ishlar boshlangan.

Joriy yilda xalq ta’limi tizimini isloh qilish, pedagog-o‘qituvchilar uchun munosib mehnat sharoitini yaratish bo‘yicha ham sezilarli ishlar amalga oshirildi. O‘qituvchilarning ish haqi bosqichma-bosqich ko‘paytirilib, ularni rag‘batlantirishning yangi mexanizmlari joriy qilinmoqda.

Ta’lim tizimining keyingi bosqichi – oliy ta’lim sohasida ham salmoqli islohotlar olib borilmoqda.

So‘nggi ikki yilda mamlakatimizda 5 ta yangi oliy ta’lim muassasasi hamda 12 ta nufuzli xorijiy oliy o‘quv yurtining filiallari tashkil etildi.

Mamlakatimiz taraqqiyoti uchun iste’dodli kadrlarni yetakchi xorijiy ta’lim markazlarida tayyorlash va malakasini oshirish maqsadida «El-yurt umidi» jamg‘armasi tashkil etilganidan xabaringiz bor.

Qanday og‘ir bo‘lmasin, tan olishimiz kerak, yurtimiz ravnaqi uchun eng zarur yo‘nalishlar bo‘yicha izlanuvchan, iste’dodli yosh kadrlarni chetda, rivojlangan davlatlarda o‘qitishga majburmiz. Shuning uchun ham Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, oliy o‘quv yurtlari, mamlakatimizdagi ilmiy markazlar **«El-yurt**

umidi» jamg'armasi bilan yaqin hamkorlikda samarali ish olib borishi kerak. Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni bajarish hamda xalq bilan muloqotlarda bildirilayotgan takliflar asosida kelgusida ijtimoiy sohada quyidagi vazifalarni amalga oshirishimiz lozim bo'ladi.

Birinchidan, O'zbekistondagi ijtimoiy himoya modelini real talablar asosida umume'tirof etilgan xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish zarur.

Bu borada nogironligi bo'lgan, boquvchisini yo'qotgan shaxslarni, ehtiyojmand va nochor oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, jumladan, ularni arzon uylar bilan ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratib kelayotganimiz barchangizga ma'lum. Joriy yilning o'zida 21 ming 500 dan ziyod ana shunday oila arzon uy-joylar bilan ta'minlandi.

Bundan tashqari, 30 ming 500 ga yaqin nogironligi bo'lgan shaxslarga umumiy qiymati 3,6 milliard so'mlik protez-ortopediya buyumlari va rehabilitatsiya vositalari ajratildi.

Ularning 16 ming nafari rehabilitatsiya markazlarida davolandi va bu maqsadlar uchun qariyb 17 milliard so'm mablag' sarflandi.

Ana shunday xayrli ishlarimizni kelgusida ham tizimli ravishda davom ettiramiz, albatta.

Konstitutsiyamizda aholining muhim ijtimoiy huquqi sifatida kafolatlangan pensiya ta'minoti kelgusi yillarda ham eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qoladi. Jumladan, 2019-yildan boshlab pensiya to'lovi-

ning yuqori chegarasi eng kam oylik ish haqining 8 barobaridan 10 barobariga oshiriladi va ishlayotgan pensionerlarga pensiyalar to'la miqdorda to'lanadi.

Ikkinchidan, tibbiyot xodimlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularga munosib mehnat sharoitlari yaratish hamda rag'batlantirish tizimini yanada takomillashtirish zarur.

Shifokorlik kasbini egallash oson ish emasligini, bu insondan mashaqqatli mehnat, mustahkam iroda va matonat talab etishini ortiqcha tushuntirishga hojat yo'q, deb o'ylayman. Lekin, shu o'rinda savol tug'iladi: biz tibbiyot xodimlariga yetarli sharoit yaratib berdikmi? Ularning maoshlari, mehnat sharoitlari qilayotgan xizmatlariga munosibmi? Afsuski, yo'q.

Joriy yil 1 dekabrda tibbiyot xodimlari oyligini oshirdik, bu – birinchi qadam. Kelgusi yilda bu borada boshlagan ishlarimizni davom ettiramiz.

Aholiga kafolatlangan tibbiy yordam ko'rsatishni ta'minlash maqsadida kelgusida majburiy tibbiy sug'urta tizimini joriy etishimiz kerak.

Uchinchidan, xalq ta'limi sohasidagi ta'lim standartlari va o'qitish uslublarini ilg'or xorijiy tajribalar asosida, o'quvchining individual qobiliyatini ro'yobga chiqarish nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqish lozim.

Farzandlarimizning qobiliyatini ro'yobga chiqarishga bolalikdan e'tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko'plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar yetishib chiqadi. Men bunga ishonaman.

To'rtinchidan, kasb-hunar kollejlari, afsuski, aksariyat hollarda real talab bo'lmagan kasblar bo'yicha quruq diplom beradigan dargohga aylanib qoldi.

Men hududlarga tashrif buyurganimda odamlar bilan ko'proq muloqot qilishga harakat qilaman. Hayron qolasiz, joylarda oddiy quruvchi, traktorchi yoki mexanizator yo'q. Ishning ko'zini biladigan yer tuzuvchi yoki suvchi topish amrimahol. Ko'p joylarda kollejlarni bitirgan bolalarni kerakli kasbga qayta o'qitishga to'g'ri kelmoqda.

Qani, kasb tarbiyasi? Qani, mehnat bozorini o'rganish? Afsuski, hech kim bu masala bilan jiddiy shug'ullanmayapti.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan birga iqtisodiyotning real sektoridagi talabni kamida 10–15 yil oldin prognoz qilib, shunga qarab mutaxassis tayyorlash choralarini ko'rishi zarur.

Beshinchidan, aholi bandligini ta'minlash va ishsizlikni kamaytirish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan zarur choralar ko'rishimiz lozim.

Savol tug'iladi: mamlakatimizda haqiqiy ishsizlar soni qancha? Iqtisodiyotning norasmiy sektorida necha foiz aholi band? Xorijga ish qidirib ketganlarning soni-chi?

Biz bir narsani to'g'ri tushunishimiz kerak: bitta ishsiz odam – o'nta muammo degani. Bu muammolar ishsiz odamning o'ziga, oilasi va mahallasiga, jamiyatga keltiradigan zararini hisoblasak, masalaning naqadar jiddiy ekani yanada oydinlashadi.

Biz bu yil qabul qilgan **«Har bir oila – tadbirkor»** hamda **«Yoshlar – kelajagimiz»** dasturlari doirasida sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizning tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ularga o‘z biznesini yo‘lga qo‘yishi uchun katta imtiyozlar berildi. Kelgusi yilda ham biz ushbu dasturlar ijrosini qat’iy nazoratga olib, har tomonlama qo‘llab-quvvatlaymiz.

Biz yoshlarimizda tadbirkorlik tashabbusini rivojlantira olsak, ularga mablag‘lardan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatsak, nafaqat iqtisodiy, balki ko‘plab ijtimoiy muammolarni ham hal etgan bo‘lamiz.

Oltinchidan, qishloq joylarda yangi namunaviy loyihalar asosida arzon uy-joylar va shaharlarda ko‘p-qavatli uylar qurish bo‘yicha ishlarimizni takomillash-tirish kerak.

Ayrim hududlarda uylarning sifati bo‘yicha Virtual qabulxonaga odamlar shikoyat bilan murojaat qilmoqda. Aynan fuqarolarimizning talab va istaklarini inobatga olib, ehtiyojmand aholi qatlamlari uchun bunyod etila-yotgan arzon uylar sonini oshirish va sifatini yaxshilash bo‘yicha yaqinda alohida dastur qabul qildik. Ushbu dastur ijrosiga mas’ul bo‘lgan mutasaddi idoralar o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishlari va xalqimizni rozi qilishlari shart va zarur.

Hurmatli yurtdoshlar!

Keyingi ikki yilda fuqarolarimizning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish, turmush

sharoitlarini yaxshilash, yillar davomida to'planib qolgan muammolarni hal etishga qaratilgan 90 ta qonun hamda 2 mingdan ziyod farmon va qarorlar qabul qildik.

Qabul qilingan qonun hujjatlarida belgilangan 13 mingdan ortiq topshiriqlarning 20 foizi muddatida ijro qilinmagan. Bu Vazirlar Mahkamasi, qator davlat va xo'jalik boshqaruvi idoralari rahbarlari va mahalliy hokimliklarning ishga mas'uliyatsiz yondashayotganidan dalolat bermoqda.

Biz markazda va joylarda ortiqcha majlislarni keskin kamaytirib, ko'proq amaliy ishlar va aniq natija bilan shug'ullanishimiz kerak. Nega deganda, odamlar quruq majlisbozlikdan charchadi.

Olib borayotgan islohotlarimiz va davr talabidan kelib chiqqan holda, Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tubdan takomillashtirish, uni chinakam ijro hokimiyatining oliy organiga aylantirish vaqti keldi, deb o'ylayman.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, chuqur ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar hech qaysi mamlakatda osonlikcha amalga oshirilgan emas.

Islohotlar albatta eskicha yashash, eskicha ishlashga o'rganib qolgan ayrim mansabdorlarga yoqmaydi. Buniyam ochiq aytishimiz kerak. Chunki o'zgarish, yangilanish ularning tinchi va oromini, huzur-halovatini buzadi. Lekin hayot davom etar ekan, hayot talabi bo'lgan islohotlar ham izchil davom etishi muqarrar. Bu haqiqatni va talabni barcha darajadagi rahbarlar chuqur anglab olishlari zarur.

Qadrli anjuman ishtirokchilari!

Sizlarga yaxshi ma'lumki, qonunlar ijrosi ustidan parlament nazoratini tashkil etish Senat Raisi va Qonunchilik palatasi Spikerining konstitutsiyaviy vakolati hisoblanadi. Lekin, afsuski, parlamentning bu sohadagi faoliyatida tub o'zgarish sezilmayapti. Jumladan, joriy yilda davlat organlari va mansabdor shaxslarga Senat bor-yo'g'i 2 ta, Qonunchilik palatasi esa 3 ta parlament so'rovi yuborgan, xolos.

«Parlament majlislarida markaziy organlar va hududlar rahbarlari hisobotlarini eshitdik», deb maqtanamiz. Lekin savol tug'iladi: bunday hisobotlar bo'layotgan bo'lsa, ularning natijalari bo'yicha qanday hujjatlar qabul qilindi va ijroga yo'naltirildi? Faoliyati qoniqarli bo'lmagan qaysi vazir yoki hokimga nisbatan munosabat bildirildi?

Xalq vakillarining qat'iy pozitsiyasi qayerda qoldi?

Misol uchun, qaysi senator yoki deputat Soliq siyosati konsepsiyasi ijrosi bilan qiziqib, Moliya vazirligi yoki Davlat soliq qo'mitasi rahbarlariga so'rov yubordi?

Eng asosiy kamchilik shuki, Oliy Majlis hali-hanuz haqiqiy bahs-munozaralar maydoniga aylangani yo'q.

Shu munosabat bilan Oliy Majlis palatalarida qonunlar ijrosini ko'rib chiqish, rahbarlar hisobotini eshitish bilan cheklanmasdan, bevosita joylardagi ahvolni tizimli ravishda o'rganish va tegishli takliflar ishlab chiqish amaliyotini yo'lga qo'yish zarur, deb hisoblayman.

Yana bir inkor etib bo'lmaydigan haqiqat borki, fuqarolarda ham islohotlarga nisbatan daxldorlik hissi shakllanishi kerak. Ana shundagina ko'zlagan maqsadlarga erishib, oldimizga qo'yilgan vazifalarning to'liq uddasidan chiqamiz.

Bu jarayonda kuchli va ta'sirchan jamoatchilik nazoratining o'rni beqiyosdir. Shu maqsadda kelgusi yildan boshlab «**Jamoat fikri**» portalini ishga tushirishga qaror qildik.

Hammamiz yaxshi tushunamiz, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari g'oyat muhim o'rin tutadi.

Men ommaviy axborot vositalari faoliyatini muntazam kuzatib boraman. Lekin, afsuski, islohotlar mohiyati, qabul qilinayotgan qonun va qarorlar ijrosi bilan bog'liq muammolar, aholi murojaatlari yuzasidan gazeta, tele va radiokanallarda tanqidiy maqola, ko'rsatuv va eshittirishlar juda kam.

Vaholanki, islohotlar jarayonida ommaviy axborot vositalari xalq manfaatlarining chinakam himoyachisiga aylanishi lozim. Buning uchun ulardan shijoat, professional mahorat, xolislik va chuqur tahliliy salohiyat talab etiladi.

Jamiyatimizdagi keng ko'lamli islohotlar samarasini ta'minlash uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirishimiz zarur, deb hisoblayman.

Birinchidan, Oliy Majlis palatalarining parlament so'rovlari va parlament eshituvlari qonun va qarorlar ijrosini hamda islohotlarimiz samaradorligini ta'minlovchi ta'sirchan vositaga aylanishi kerak.

Ikkinchidan, deputat va senatorlarimiz bevosita joylarga chiqib, aholini tashvishga solayotgan muammolarni tizimli ravishda chuqur o'rganib borishlari zarur. Ularni hal etish bo'yicha Hukumat va hokimliklar oldiga vazifa qo'yishi va talab qilishi, shuningdek, qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha aniq choralarni ko'rishlari ayni muddao bo'lur edi.

Uchinchidan, o'ylaymanki, qonunosti hujjatlarini qabul qilish amaliyotidan voz kechish va to'g'ridan to'g'ri qo'llanadigan qonunlar qabul qilish vaqti keldi.

Misol uchun, hozirgi vaqtda xorijiy investitsiyalar sohasida 8 ta qonun, 14 ta farmon va 100 dan ortiq qonunosti hujjatlari mavjud.

Lekin mahalliy va chet ellik investorlarga bizda nechta farmon yoki qaror borligi emas, balki ularning aniq va samarali ishlashi uchun yaxlit tizim mavjudligi muhim.

Men hurmatli deputatlarimizdan qonun loyihalarini ishlab chiqishda shunchaki kuzatuvchi yoki ekspert emas, balki tashabbusni o'z qo'llariga olib, bevosita loyiha tashabbuskori va ijodkori bo'lishlarini iltimos qilaman. Ulardan saylovchilar, xalqimiz ham shuni kutmoqda.

Bu borada zudlik bilan o'z ahamiyatini yo'qotgan qonunlar ro'yxatini shakllantirishimiz, amaldagi mavjud muammolarni chuqur va tanqidiy ravishda o'rganib, eng ilg'or xalqaro tajribalar asosida to'g'ridan to'g'ri amaliyotga qo'llanadigan qonunlar qabul qilishimiz lozim.

To'rtinchidan, har bir qonun yoki qarorning yaratilishi sohadagi mavjud muammolarni chuqur tahlil etishni, xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganishni, bir so'z bilan aytganda, mashaqqatli mehnatni talab etadi.

Har qanday qonun hujjatini qabul qilishdan pirovard maqsad – xalqimizning turmush sharoitini yaxshilash ekanini unutmasligimiz zarur.

Bu jarayondagi eng asosiy masala – qonun hujjatlari-ning mazmun-mohiyatini ijrochilar va aholiga o'z mud-datida yetkazib berish, ularni amalga oshirishni qat'iy ta'minlashdan iborat. Bu borada adliya idoralarining rolini yanada kuchaytirish vaqti-soati keldi.

Hurmatli yurtdoshlar!

Har qanday qonun ma'lum huquq berish bilan birga, zimmamizga majburiyat ham yuklaydi.

Asosiy qonunimiz bilan barcha fuqarolar zim-masiga Konstitutsiya va qonunlarga amal qilish, boshqalarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish majburiyati yuklatilgan.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning shakllanishi, avvalambor, tarbiya va muhit bilan bevosita bog'liqdir.

Birgina misol. Kanadaning 1 milliondan ortiq transport vositasi mavjud bo'lgan Kalgari shahrida joriy yilning 10 oyida avtohalokatlar tufayli 10 nafar shaxs nobud bo'lgan.

O'zingiz solishtirib ko'ring: jami 2 yarim milliondan ziyod avtotransport mavjud bo'lgan bizning yurtimizda esa, shu davrda 1 ming 600 dan ortiq kishi avtohalokat

qurboni bo'lgan. Bu – og'ir kulfat, katta yo'qotish emasmi?!

Biz yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirdik. Lekin shuning o'zi bilan muammoni to'liq yechish mumkinmi? Menimcha, yo'q!

Buning sababi jamiyatda huquqiy madaniyatning yetarli darajada shakllanmagani bilan bevosita bog'liq.

Biz jamiyatimizda huquqiy madaniyatni lozim darajada shakllantirmas ekanmiz, huquqbuzarlikka chek qo'ymas ekanmiz, qonunni buzish holatlari davom etaveradi.

Qonunlarga hurmat odamlarimizning huquqiy ongi va madaniyati asosida shakllanadi. Ya'ni, ayrim kishilar jazodan qo'rqib qonunga itoat etsa, boshqalar bolalikda olgan tarbiyasiga ko'ra qonunni hurmat qiladi.

Shu bois birinchi navbatda aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida huquqiy tarbiyani keng yo'lga qo'yishimiz lozim.

Oddiy qilib aytganda, farzandlarimizga bolalik paytidan «yaxshi» va «yomon», «mumkin» va «mumkin emas» degan tushunchalar o'rtasidagi farqni o'rgatishimiz, o'zimiz esa ularga doim shaxsiy namuna bo'lishimiz kerak.

Albatta, maktablarda «huquq» darslari o'tiladi, lekin ularning mazmuni yuzaki o'qitishdan iborat bo'lib, huquqning tarbiyaviy ahamiyati ikkinchi o'ringa tushib qolgani ham sir emas.

Mutasaddi idoralar tomonidan amalga oshirilayotgan qonunchilik targ'iboti ham tizimli yo'lga qo'yilmagan.

Shuning uchun huquqiy bilimlarni, qonunlarning mazmun-mohiyatini ta'lim maskanlari, ommaviy axborot vositalari, Internet resurslaridan, adabiyot, san'at, diniy muassasalar imkoniyatlaridan foydalangan holda, samarali usullar bilan targ'ib qilishimiz zarur.

Afsuski, biz Asosiy qonunimiz haqida Konstitutsiya bayramiga o'n-o'n besh kun qolganda gapira boshlaymiz. Holbuki, Konstitutsiyani, uning g'oyalarini o'rganish va o'rgatish barchamizning doimiy vazifamiz bo'lmog'i zarur.

Esingizda bo'lsa, bu masala bo'yicha bundan ancha yillar oldin Oliy Majlis qarori ham qabul qilingan edi. Lekin o'tgan davrda siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy hayotimizda ko'p narsa o'zgardi. Binobarin, endi bu qarorni yangilash, unga zamon ruhini singdirish zarurati paydo bo'lmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, Bosh qomusimizning har bir moddasi biz uchun dasturilamalga, hayotimiz qoidasiga aylanishi zarur. Buning uchun Asosiy qonunimizni umumta'lim maktablarida, oliy o'quv yurtlarida, mahalla va mehnat jamoalarida tizimli ravishda o'rganish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqishimiz kerak.

Biz jamiyatimizda shunday huquqiy madaniyatni shakllantirishimiz kerakki, unga muvofiq Konstitutsiya va qonunlarga amal qilish, boshqalarning huquq va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish majburiyat emas, balki kundalik qoida va odatga aylanishi shart.

Muxtasar qilib aytganda, fuqarolarimiz qonunlarni buzishdan ko'ra, ularga amal qilishdan manfaatdor bo'lishlari lozim.

Yana bir fikrga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

Afsuski, jamiyatimizda hanuzgacha boqimandalik kayfiyati butunlay barham topgani yo'q.

Barchamiz bir narsani tushunib olishimiz kerak: yaxshi yashash uchun eng avvalo yaxshi mehnat qilish, huquq va erkinlik bilan birga, javobgarlik va mas'uliyatni ham chuqur his etishimiz zarur. Bunga erishish esa, faqat va faqat o'zimizga bog'liq.

Ko'zlagan marralarimiz qanchalik yuksak va mashaqqatli bo'lmasin, ularga yetish uchun barcha imkoniyatlarimiz mavjud. Ajdodlarimiz merosi, xalqimizning ilmiy va bunyodkorlik salohiyati hamda tadbirkorlik fazilati bizga bu yo'lda beqiyos kuch-qudrat manbayi bo'lib xizmat qiladi.

Biz xalqimizning farovon hayotini, farzandlarimizning yorug' kelajagini ta'minlash uchun bundan buyon ham bir tan-u bir jon bo'lib, bor salohiyat, bilim va tajribamizni safarbar etishimiz lozim.

Yurtimiz tinchligi, Vatanimiz ravnaqi, fuqarolarimizning huquq va erkinliklarini ta'minlash, o'g'il-qizlarimizning ilmga, hunarga bo'lgan intilishlarini har tomonlama kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash kelgusida ham islohotlarimiz markazida bo'ladi.

Biz tashqi siyosatimizda uzoq va yaqin qo'shnilarimiz bilan do'stlik aloqalarini ko'z qorachig'idek asrab-

avaylab, barcha sohalarda o‘zaro hamkorlikni yanada rivojlantiramiz.

Chunki: **Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa – taraqqiyotning kafolatidir!**

Fursatdan foydalanib, bugungi marosimda ishtirok etayotgan, bizga xayrixoh bo‘lgan, mamlakatimiz bilan samarali hamkorlik qilib kelayotgan xorijiy davlatlarning muhtaram elchilarini, xalqaro tashkilotlar vakillarini bugungi bayram bilan samimiy qutlab, ularning xalqlari va mamlakatlariga tinchlik va ravnaq tilashga ijozat bergaysiz.

Qadrli do‘stlar!

Aziz vatandoshlarim!

Sizlarni bugungi Konstitutsiya bayrami bilan yana bir bor samimiy muborakbod etaman.

Barchamizga kelgusi yilda ham sog‘-salomat va xush kayfiyatda uchrashish nasib etishini Yaratgandan so‘rab qolaman.

E’tiboringiz uchun rahmat.

*O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul
qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan
tantanali marosimdagi ma’ruza*

2018-yil 7-dekabr

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT MUSTAQILLIGINING
YIGIRMA YETTI YILLIGIGA
BAG‘ISHLANGAN TANTANALI
MAROSIMDAGI NUTQ**

Assalomu alaykum, qadrli vatandoshlar!

Muhtaram mehmonlar!

Xonimlar va janoblar!

Avvalo, siz, azizlarni, sizlar orqali butun xalqimizni eng buyuk, eng aziz bayramimiz – Mustaqillik kuni bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etishga ijozat bergaysiz.

Biz uchun yangi davr, erkin va ozod hayotni boshlab bergan shu qutlug‘ sanada xalqimiz qanday mashaqqatli va ayni vaqtda sharaflı yo‘lni bosib o‘tganini yana bir bor chuqur his etamiz.

Mana shunday ulug‘ ayyomda butun hayotini ozodlik uchun kurashga bag‘ishlagan, bu yo‘lda jon fido qilgan ota-bobolarimiz, mard va jasur yurtdoshlarimiz xotirasiga hurmat bajo keltiramiz.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoschisi, Birinchi Prezidentimiz muhtaram Islom Abdug‘aniyevich Karimovning barhayot nomlarini hurmat va ehtirom bilan yodga olamiz.

Aziz do'stlar!

Mustaqillik tufayli biz dunyo hamjamiyatining teng huquqli a'zosi bo'lib, yorug' kelajagimizni o'z qo'limiz bilan bunyod etmoqdamiz.

Istiqlol yillarida erishgan yutuqlarimizga tayanib, **milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari** dadil qadam qo'ymoqdamiz.

Mamlakatimiz taraqqiyotini yanada yuksak bosqichga ko'tarish maqsadida Harakatlar strategiyasini qabul qildik. Bu noyob hujjatda belgilangan ulug'vor vazifalarni ro'yobga chiqarishga qat'iy kirishganimiz biz uchun yangi ufq va imkoniyatlar ochib bermoqda.

Dunyo miqyosida raqobat keskinlashib borayotgan hozirgi murakkab davrda mamlakatimizni ilm-fan yutuqlari, yuqori texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish va yangilash eng muhim vazifamizga aylanmoqda. Ana shunday o'tkir talabni chuqur anglagan holda, biz 2018-yilni yurtimizda **Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili**, deb e'lon qildik.

Bu borada qabul qilingan Davlat dasturida 11 trillion 200 milliard so'm va 1 milliard 300 million AQSH dollari hajmidagi ishlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan. Dastur ijrosini ta'minlash uchun keng ko'lamdagi ulkan ishlar olib borilmoqda.

Yurtimizda faol investitsiya siyosati yuritilmoqda, zamonaviy korxonalar barpo etilmoqda, soliq tizimi tubdan isloh qilinib, tadbirkorlik va xususiy mulkni

rivojlantirish, barcha soha va tarmoqlarda innovatsiya, ilm-fan yutuqlari, yangicha va ijodiy yondashuvlarni joriy etishga alohida e'tibor berilmoqda. Qishloq xo'jaligida zamonaviy, istiqbolli tarmoqlarga asos solish, klaster tizimini yo'lga qo'yish, fermer xo'jaliklarining natijadorligini kuchaytirish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Ana shunday ulkan sa'y-harakatlarimiz natijasida yurtimizda **makroiqtisodiy barqarorlik ta'minlanmoqda.**

Biz uchun eng ustuvor vazifa bo'lgan aholining hayot darajasi va sifatini yuksaltirish bo'yicha katta hajmdagi ishlar amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, «**Obod qishloq**» va «**Obod mahalla**» dasturlari mamlakatimizning eng chekka hududlariga ham yangilanish nafasini, bunyodkorlik ruhini olib kirmoqda. Odamlarning fikri, dunyoqarashi o'zgarmoqda, qishloqda turmush madaniyati oshib bormoqda.

Butun mamlakatimizni qamrab olgan mazkur dasturlar doirasida 416 ta qishloq va 105 ta mahallada qurilish va obodonlashtirish ishlari jadal davom etmoqda. Bularning barchasi jonajon O'zbekistonimizning yangi, obod qiyofasini yaratish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Aholimizning zamonaviy uy-joyga bo'lgan talab va ehtiyojlarini ta'minlash maqsadida joriy yilda 13 ming 900 dan ziyod oilaga mo'ljallangan 335 ta ko'pqavatli turarjoy foydalanishga topshirildi. Yil oxirigacha bu raqam 2017-yilga nisbatan 2 barobar ko'payadi.

Ana shu yo'nalishdagi ishlar qishloq joylarda ham yangilangan loyihalar asosida olib borilmoqda. Hozirgi kunga qadar qishloqlarda 40 mingta oila yangi xonadonlarga ko'chib kirdi.

Bu borada biz ilgari yetarlicha e'tibor bermagan muhim masala – ya'ni, kam ta'minlangan, nogironligi bo'lgan insonlarga alohida g'amxo'rlik ko'rsatilmoqda. Buning tasdig'ini o'tgan 2 yilda 1000 nafardan ortiq shu toifaga mansub insonlar uy-joy bilan ta'minlangani misolida ko'rish mumkin.

Albatta, barchamizni xursand qiladigan bunday o'zgarishlar ming-minglab oilalar hayotiga shodlik va baxt olib kelmoqda.

Hech shubhasiz, hayotda mana shunday quvonchli voqealar yuz berganda insonning qaddi ham, qadri ham ko'tariladi. Bunday damlarda adolat haqida gapirmasangiz ham odamlar haqiqat va adolat borligiga ishonadi.

Ilohim, yurtimizda uy to'ylari, hovli to'ylari yanada ko'paysin, bu xonadonlarda yangi hayot boshlayotgan odamlar murod-maqsadiga yetsin!

Aholi bandligini ta'minlash, har bir oilada tadbirkorlik muhitini yaratish bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'rilmogda.

Keyingi ikki yilda mamlakatimiz bo'yicha 700 mingdan ortiq yurtdoshlarimiz ish bilan ta'minlangani, tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga 25 trillion so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratilgani ana shunday sa'y-harakatlar natijasidir.

Muhtaram yurtdoshlar!

Biz mamlakatimizda qanday dastur va rejalar qabul qilsak, ularning barchasida umidimiz, kelajagimiz bo'lgan yoshlarimiz manfaatlarini alohida hisobga olmoqdamiz.

Bu haqda so'z yuritganda, mamlakatimizda yangi oliy o'quv yurtlari, xorijdagi nufuzli universitetlarning filiallari tashkil etilayotgani, qabul kvotalari oshirilgani, ko'pgina yo'nalishlar bo'yicha sirtqi bo'limlar ochilganini alohida qayd etish lozim.

Ayni vaqtda buyuk allomalarimiz nomidagi maxsus maktablar, hududlarimizda atoqli adiblarimiz nomidagi ijod maktablari ish boshlagani, yoshlarimiz o'rtasida turli tanlov va festivallar, sport musobaqalari muntazam o'tkazib kelinayotgani ularning ilmiy va ijodiy kamolotida katta rol o'ynamoqda.

Jamiyatimizda **«Qonun va adolat – ustuvor»**, **«Jinoyatga jazo muqarrar»** degan muhim prinsiplarni ta'minlash, sud, prokuratura, ichki ishlar organlari, advokatura tizimi faoliyatini takomillashtirish, ularni tom ma'noda inson huquq va manfaatlari himoyachisiga aylantirish bo'yicha ham salmoqli ishlar qilinmoqda.

Ana shunday o'zgarishlar tufayli biz yillar davomida deyarli unutib qo'ygan tartib-intizom, qonun-qoida, odamlarning haqli talablari bilan hisoblashish kabi eng muhim tamoyillar hayotimizda tobora chuqur o'rin egallamoqda.

Xalqimizga xos kechirimli, rahm-shafqatli bo'lish, bag'rikenglik va olijanoblik fazilatlari asosida jamiyatimizda sog'lom ijtimoiy muhit mustahkamlanib bormoqda.

Bilib-bilmay noto'g'ri yo'lga kirib qolgan, o'z qilmishidan chin dildan pushaymon bo'lgan fuqarolarni kechirish, ularni oilasi bag'riga, foydali mehnatga qaytarishga qaratilgan tadbirlar haqida sizlar yaxshi xabardorsiz.

Kuni kecha qabul qilingan Prezident farmoniga binoan qilmishiga chin dildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan, ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tayotgan 261 nafar shaxs Mustaqillik bayrami munosabati bilan afv etilgani shu ezgu ishlarimizning davomi bo'ldi.

Tasavvur qiling, 261 inson taqdiridagi bunday o'zgarish – bu avvalo ularning oilasi, farzandlari, otionalari, yaqinlari hayotiga nur olib kirdi, quvonch olib kirdi, deganidir.

Aziz yurtdoshlar!

Bugun bir fikrni to'la ishonch bilan aytish mumkin: **butun jamiyatimizni qamrab olayotgan ana shunday ezgu ishlarimiz tufayli hayotimizda fayz-u baraka, millatlararo do'stlik va mehr-oqibat tuyg'ulari kuchayib bormoqda.**

Eng muhimi, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirish yo'lida olib borayotgan ichki va tashqi siyosatimiz el-yurtimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda.

Xalqimizning roziligi – bizning, birinchi navbatda, Prezident sifatida mening, barcha bo‘g‘indagi rahbar va mutasaddilar, deputat va senatorlar, butun davlat idoralarining faoliyatiga berilgan eng oliy va eng adolatli bahodir.

Agar xalqimiz bizdan rozi bo‘lsa, Yaratgan ham albatta rozi bo‘ladi.

Bu haqiqatni hech kim hech qachon unutmasligi zarur.
Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Mana, bugun Vatanimiz mustaqilligining 27 yilligi munosabati bilan davlatimizning yuksak unvonlari, orden va medallari bilan taqdirlangan yurtdoshlarimizga ana shu mukofotlar markazda va joylarda tantanali ravishda topshirildi.

O‘zining ko‘p yillik fidokorona mehnati bilan el-yurtimiz o‘rtasida katta obro‘-e‘tibor topgan bu insonlarni o‘z nomimdan, sizlarning nomingizdan yana bir bor tabriklab, ezgu tilaklarimni bildirishga ruxsat etgaysiz.

Jonajon O‘zbekistonimizda, barcha shahar va qishloqlarimizda sizlar kabi fidoyi odamlar safi yanada kengayib, olijanob mehnatingiz samarasidan avvalo o‘zingiz, oilangiz, el-yurtimiz bahramand bo‘lsin!

Xonadonlaringizdan baxt-u saodat, fayz-u baraka hech qachon arimasin!

Qadrli yurtdoshlar!

Bugun milliy taraqqiyotimizning yangi bosqichiga qadam qo‘yar ekanmiz, biz yutuqlarimiz bilan birga xato va kamchiliklarimizni ham chuqur tahlil qilib,

ularni bartaraf etish haqida o'ylashimiz tabiiydir. Chunki bu ishlarni o'zimiz qilmasak, hech kim chetdan kelib muammolarimizni hal qilib bermaydi.

Bu haqda so'z borganda, yurtimizda xalq bilan muloqotning mutlaqo yangi va samarali tizimi joriy qilinganini aytish o'rinli, deb o'ylayman. Bugungi kunda xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qila boshlagani uchun ham odamlarning fikri, dunyoqarashi o'zgarmoqda, el-yurtimiz o'z kuchi va imkoniyatlariga, ertangi kunga ishonch bilan qaramoqda.

Shuning uchun bir haqiqatni ta'kidlab aytmqchiman: **xalq bilan bevosita muloqot olib borish, uning dard-u tashvishlari bilan yashash, el-yurtimizni rozi qilish – bu vaqtinchalik kampaniya emas. Bu – xalqimizning farovon hayotini, yurtimiz ravnaqini ta'minlashga qaratilgan uzoq muddatli strategiyadir.**

Aziz do'stlar!

Bugungi tahlikali zamonda bebaho boyligimiz bo'lgan tinch-osoyishta, erkin va obod hayotni har tomonlama asrab-avaylash va mustahkamlash eng asosiy vazifamiz bo'lib qolmoqda. Shu maqsadda Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini oshirishga bundan buyon ham alohida e'tibor qaratamiz.

Biz dunyo miqyosidagi keskin va beshafqat raqobatga bardosh berish uchun iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, jahon bozorida munosib o'rin egallash, mamlakatimizning eksport salohiyatini yanada oshirishga erishmog'imiz zarur.

Tadbirkorlik faoliyati erkinligini, xususiy mulk daxlsizligini yanada kengroq ta'minlash – oldimizda turgan muhim vazifadir.

Bu borada yirik ishlab chiqarish korxonalari bilan birga, turizm, kichik biznes, oilaviy tadbirkorlik, dehqon va tomorqa xo'jaliklarini, hunarmandchilik va kasanachilikni rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratamiz.

Ayniqsa, aholi salomatligini mustahkamlash, xalqimiz hayotini yanada yaxshilash, kam ta'minlangan qatlamlarni ijtimoiy muhofaza qilish, ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdorini oshirish doimiy e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish maqsadida biz **«Yoshlar – kelajagimiz» Davlat dasturini** qabul qildik. Ushbu dastur ijrosi uchun shu yilning o'zida 786 milliard so'm mablag' yo'naltirilmoqda. Buning natijasida, jumladan, 100 mingdan ortiq yoshlarimizning bandligi ta'minlanadi.

Yosh oilalarni zamonaviy uy-joylar bilan ta'minlash, yoshlarni ishga joylashtirish, kasb-hunarga tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha belgilangan katta ishlar izchil davom ettiriladi.

Hurmatli vatandoshlar!

Shu kunlarda Indoneziyada 45 ta mamlakat vakillari o'rtasida bo'lib o'tayotgan yozgi Osiyo o'yinlarida navqiron sportchilarimiz shijoat va mahorat ko'rsatib, 15 ta oltin, 19 ta kumush, 23 ta bronza medalni qo'lga kiritganlari hammamizga quvonch bag'ishlaydi.

Mamlakatimiz shuhratini dunyoga tarannum etayotgan sportchi yoshlarimizga, ularning ota-onalari, ustoz va murabbiylariga sizlarning nomingizdan, butun xalqimiz nomidan chuqur minnatdorlik bildirishga ruxsat bergaysiz.

Qadrli anjuman qatnashchilari!

Biz jahon hamjamiyati bilan, barcha uzoq-yaqin davlatlar, birinchi navbatda, qo'shni mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni yanada kuchaytiramiz.

Turli xalqaro tashkilotlar, nufuzli moliya institutlari bilan keng tarmoqli hamkorlikni rivojlantirish bizning milliy manfaatlarimizga to'la javob beradi va biz bu yo'lni qat'iy davom ettiramiz.

Fursatdan foydalanib, bugungi tantanali marosimda ishtirok etayotgan xorijiy davlatlarning muhtaram elchilariga, xalqaro tashkilotlar vakillariga, chet ellik sheriklarimizga, O'zbekistonning barcha do'stlariga sizlarning nomingizdan, o'z nomimdan samimiy hurmat-ehtirom va ezgu tilaklarimizni bildirishga ijozat etgaysiz.

Aziz va muhtaram vatandoshlarim!

Barchangizni O'zbekiston davlat mustaqilligining yigirma yetti yillik bayrami bilan yana bir bor chin qalbdan samimiy tabriklayman.

Mana shu ulug' ayyomda barcha yutuqlarimizning ijodkori va bunyodkori bo'lgan mehnatkash, mard va saxovatli, bag'rikeng va olijanob xalqimizga farzandlik mehrim bilan ta'zim qilaman.

Fursatdan foydalanib, ko'nglimdagi eng ezgu tilaklarni bildirmoqchiman.

Bugun barchamiz nuroniy oqsoqollar, muhtaram faxriylarimizga mustahkam sog'liq, uzoq umr tilaymiz.

Mo'tabar, duogo'y onaxonlarimizga chin yurakdan farzandlik tashakkurimizni bildiramiz.

Xonadonlarimiz ko'rki va farishtasi bo'lgan munis ayollarimiz doimo sog'-omon, baxtli-saodatli bo'lsinlar!
Chunki ayol, ona baxtli bo'lsa – jamiyat baxtlidir.

Vatanimiz va xalqimizga o'zining bilim va zakovati, ma'naviy salohiyati bilan xizmat qilayotgan ilmiy va ijodkor ziyolilarimizga yangi-yangi yutuqlar yor bo'lsin!

Yurtimizda yashayotgan barcha millat va elat vakillari o'rtasidagi do'stlik va hamjihatlik yanada barqaror bo'lsin!

Azm-u shijoatli yoshlarimizning, barcha farzandlarimizning baxt-u kamolini, omadini bersin!

Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, xalqimiz omon bo'lsin!

Mustaqilligimiz abadiy bo'lsin!

2018-yil 31-avgust

MAQOM – MUSIQA SAN’ATI DURDONASI

Muhtaram xalqaro anjuman ishtirokchilari!

Qadrli do‘stlar!

Xonimlar va janoblar!

Bugun bag‘rikeng, mehmondo‘st, san’atsevar o‘zbek diyorida katta bayram, katta shodiyona.

Jonajon Vatanimizning go‘zal va betakror maskanlaridan biri Shahrisabz zaminida, buyuk Amir Temur bobomiz bunyod etgan muazzam Oqsaroy maydonida Xalqaro maqom san’ati anjumani tantanali ravishda ochilmoqda. Shu munosabat bilan siz, azizlarni, o‘z hayotini noyob musiqa durdonasi bo‘lmish maqom san’atiga bag‘ishlagan fidoyi insonlarni chin qalbimdan muborakbod etaman.

Bugungi tantanamizda ishtirok etayotgan yuqori martabali mehmonlarimiz – UNESCO, Osiyo folklor ijodiyoti tashkiloti kabi nufuzli xalqaro tuzilmalar vakillariga alohida minnatdorlik bildiramiz.

Rossiya Federatsiyasi Prezidentining maslahatchisi Vladimir Ilich Tolstoyga, Qirg‘iziston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi Sultanbay Rayevga, Qozog‘iston Respublikasi madaniyat va sport vaziri Aristanbek Muhamed o‘g‘liga, Tojikiston Respubli-

kasi madaniyat vaziri Shamsiddin Orumbekzodaga, Ozarbayjon Respublikasi madaniyat vaziri Abulfas Garayevga, Turkiya Respublikasi madaniyat va turizm vazirining birinchi o'rinbosari Ahmat Xaluk Dursunga o'z tashakkurlarimizni bildiramiz. Ularning yurtlarida ham mana shunday san'at bayramlari ko'p bo'lsin va ularda qatnashish bizga ham nasib etsin.

Yana bir qator davlatlarning madaniyat sohasi rahbarlarini, xorijiy mamlakatlarning O'zbekistondagi muhtaram elchilarini samimiy qutlab, chuqur minnatdorlik bildirishga ruxsat etgaysiz.

Biz sizlarning timsolingizda tinchlik va ezgulik namoyandalarini, xalqimiz va madaniyatimizning haqiqiy do'stlarini ko'ramiz.

Xush kelibsiz O'zbekistonga, xush kelibsiz Shahrisabzga!

Hurmatli anjuman qatnashchilari!

Mamlakatimizda birinchi bor o'tkazilayotgan ushbu san'at bayramida dunyoning 73 davlatidan kelgan 300 ga yaqin ishtirokchilar va mehmonlar qatnashmoqda. Ularning orasida nafaqat o'z yurtida, balki jahon miqyosida ham mashhur xonanda va sozandalar, madaniyat va san'at arboblari, musiqashunos olimlar borligi barchamizga katta mamnuniyat bag'ishlaydi.

Bugun Shahrisabzning moviy gumbazlari ostida jahondagi ko'plab xalqlar va mamlakatlarning musiqiy xazinasiga aylangan, o'zining teran falsafasi, ilohiy qudrati bilan ming-minglab qalblarni maftun etadigan maqom sadolari baralla yangramoqda.

Haqiqatan ham, biz uchun bebaho badiiy qomus bo'lgan maqom san'ati asrlar, necha yuz yillar davomida inson ruhini, uning dard-u armonlarini, ezgu intilishlarini yuksak pardalarda ifoda etib kelmoqda.

Sharq mumtoz adabiyoti, tasviriy san'ati, ilm-u ma'rifat, islomiy qadriyatlardan oziqlangan maqom san'atiga – ana shunday buyuk madaniy meros rivojiga o'zbek xalqi ham munosib hissa qo'shgani bilan biz haqli ravishda faxrlanamiz.

Bu noyob boylikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, undan dunyo ahlini bahramand qilish, kelgusi nasllarga bezavol yetkazish turli qit'a va mamlakatlar vakillarini bu go'zal maskanda mujassam etgan anjumanimizning asosiy maqsadidir.

Qadrli do'stlar!

Bugungi san'at forumini aynan Shahrisabz shahrida tashkil etganimiz bejiz emas, albatta.

Bu shahar o'zining 2700 yillik ko'hna tarixi davomida og'ir va mashaqqatli sinovlarni, tahlikali zamonlarni o'z boshidan kechirdi. Ammo har qanday murakkab davrlar, urush va bosqinlar, tabiiy ofatlar ham uni tarix sahifasidan o'chira olmadi.

Shahrisabz buyuk sarkarda va davlat arbobi, madaniyat va san'at homiysi Sohibqiron Amir Temur bobomiz kamolga yetgan mo'tabar maskan sifatida ham dunyoga ma'lum va mashhurdir.

Bu shahar qadim-qadimdan ulug' alloma va shoirlari, san'at va madaniyat ahli, qo'li gul ustalari, mohir

hunarmandlari bilan shuhrat qozonib keladi. Uning bag‘ridagi noyob me‘moriy obidalar, nodir yodgorliklar bu haqiqatni yaqqol tasdiqlaydi.

Bugungi kunda xalqimizning bunyodkorlik salohiyati, fidokorona mehnati bilan Shahrisabz yurtimizning eng obod maskanlaridan biriga, zamonaviy madaniyat va turizm markaziga aylanib borayotgani barchamizni quvontiradi.

Muhtaram mehmonlar!

Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida joylashgan O‘zbekiston zamini qadimiy sivilizatsiya, madaniyat va san‘at beshiklaridan biri bo‘lib kelayotgani, o‘ylaymanki, sizlarga yaxshi ma‘lum.

Samarqand viloyatining Mo‘minobod qishlog‘idan topilgan 3 ming yillik nay cholg‘usi, Termiz yaqinidagi Ayritom arxeologik yodgorligida aks etgan sozandalar tasviri va boshqa ko‘plab misollar milliy musiqa san‘atimiz, hech shubhasiz, boy va qadimiy tarixga ega ekanidan dalolat beradi.

Buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy bobomizning aynan «navo», ya‘ni, musiqiy ohang degan so‘zni o‘zlariga taxallus qilib, butun dunyoda shuhrat topganini barchamiz yaxshi bilamiz.

Xalqimiz badiiy tafakkurining mahsuli bo‘lgan «Shashmaqom», ya‘ni, olti maqomni, ta‘bir joiz bo‘lsa, olti azim daryoga qiyoslash mumkin. Bu daryolar asrlar davomida jahon madaniyat ummoniga quyilib, uni har tomonlama to‘ldirib, boyitib kelmoqda.

Shuning uchun ham bu muazzam musiqiy durdona UNESCO tomonidan jahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgani chuqur ma'no va ahamiyatga ega, deb o'ylayman.

Azaldan san'atni, musiqani butun qalbi bilan sevadigan, ijod ahlini munosib qadrlaydigan el-yurtimiz bugungi anjumanni katta quvonch va hayajon bilan kutib olmoqda.

Bugun biz ana shunday ulkan ma'naviy boylikning shakllanishi va taraqqiyotida, bu umrboqiy san'atning bizgacha yetib kelishida beqiyos xizmat ko'rsatgan ulug' shoir va mutafakkirlar, bastakor va sozandalar, buyuk hofizlarning xotirasini hurmat-ehtirom bilan yod etamiz.

Aziz do'stlar!

Bugungi zamonda barcha ezgu niyatli insonlarni birlashtirish, yoshlarni yuksak gumanistik ideallar ruhida tarbiyalashda musiqa san'atining o'rni va ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab, baholab bo'lmaydi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Agar biz asl, haqiqiy san'atni bilmoqchi, o'rganmoqchi bo'lsak, avvalo, mumtoz maqom san'atini bilishimiz, o'rganishimiz kerak.

Agar biz san'atni, madaniyatni ko'tarmoqchi bo'lsak, avvalo, mumtoz maqom san'atini ko'tarishimiz kerak.

Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizning ongi va yuragidan chuqur joy olishi

uchun bor imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur.

Maqom san'atining madaniy hayotimizdagi ana shunday beqiyos ta'sirini inobatga olib, mamlakatimizda bu borada keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Albatta, sizlar anjuman kunlarida hamkasb do'stlaringiz, san'at muxlislari bilan muloqotda bo'lib, ana shunday ishlar bilan atroflicha tanishish imkoniga ega bo'lasizlar.

O'ylaymanki, bugungi anjuman oldimizda turgan muhim nazariy-amaliy muammolarni atroflicha muhokama qilish, bu borada xalqaro tajriba, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet imkoniyatlaridan keng foydalanish, turli madaniy va ijodiy tashkilotlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, o'zaro bordi-keldilarni yo'lga qo'yish bo'yicha takliflar ishlab chiqishi ayni muddao bo'lur edi.

Shu ma'noda, anjuman doirasida o'tkaziladigan «Maqom musiqa san'ati va uning jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bu yo'lda muhim qadam bo'lishi tabiiy.

Fursatdan foydalanib, bugungi san'at va nafosat bayramini yuksak saviyada o'tkazish uchun o'zini ayamadan, fidokorona mehnat qilgan barcha insonlarga, mehmondo'st va olijanob Qashqadaryo viloyati va Shahrisabz ahliga anjuman ishtirokchilari nomidan, xalqimiz nomidan samimiy minnatdorchilik bildirishga ijozat bergaysiz.

Muhtaram do'stlar!

Aziz mehmonlar!

Sizlarning bevosita ishtirokingizda boshlanayotgan bugungi xalqaro anjuman bardavom bo'lib, uzoq va yaqin mintaqalarda maqom san'ati rivojini yangi bosqichga ko'tarish uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi, deb ishonaman.

Barchangizni xalqaro maqom anjumanining ochilishi bilan yana bir bor chin qalbimdan tabriklayman.

Dillarni dillarga, ellarni ellarga payvand etadigan maqom san'atimiz hamisha gullab-yashnasin!

Uning fidoyilari doimo bor bo'lsin, omon bo'lsin!

Barchangizga sihat-salomatlik, olijanob faoliyatingizda yangi ijodiy yutuqlar, anjuman ishiga muvaffaqiyatlar tilayman.

Katta rahmat sizlarga, yana bir bor xush kelibsiz O'zbekistonga!

E'tiboringiz uchun tashakkur.

*Xalqaro maqom san'ati anjumanining
ochilish marosimidagi nutq*

*Shahrisabz,
2018-yil 6-sentabr*

MUQADDAS ONA, AYOL ZOTI – CHINAKAM MEHR BULOG‘I

Assalomu alaykum, muhtarama opa-singillar!

Hurmatli do‘stlar!

Bugun mana shunday dilbar, qutlug‘ bahor ayyomida siz, munis onalarimiz, hurmatli opa-singillarimiz, suluv qizlarimizni o‘zlaringiz kabi go‘zal bayramingiz – Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan chin qalbidan muborakbod etaman.

Sizlarning timsolingizda butun O‘zbekiston xotin-qizlarini tabriklab, barchangizga chuqur hurmat-ehtirom va ezgu tilaklarimni bildiraman.

Qadrli yurtdoshlar!

Hammamiz yaxshi tushunamiz, «**Mehr – hayotning ustuni**» degan so‘zlarda chuqur ma’no va mazmun mujassam.

Bu haqda gapirganda, **muqaddas ona, ayol zoti – chinakam mehr bulog‘i, mehr quyoshi**, desak, har tomonlama to‘g‘ri bo‘ladi. Shu quyosh bor ekan, mehr-oqibat, ezgulik va adolat, vafo va sadoqat kabi buyuk qadriyatlar necha asrlardan buyon bezavol yashab kelmoqda.

Shu bois **bugungi quvonchli ayyomda avvalo dunyoda «fidoyi» degan so‘zga eng munosib bo‘lgan Ona siymosi oldida ta’zim qilamiz. Hayotimiz quvon-**

**chi, xonadonlarimiz ko'rkli bo'lmish aziz ayollari-
miz sha'niga eng go'zal tilaklarimizni izhor etamiz.**

Yer yuzida so'z va soz san'ati, shoir-u hofiz, rassom va haykaltarosh paydo bo'libdiki, ona va ayol zoti yuksak pardalarda tarannum etib kelinadi. Ulug' shoirimiz Erkin Vohidov aytganlaridek, **«Olamda ayol madhiga doston tugamaydi»**. Chunki, ayol siymosi Yaratganning tengsiz mo'jizasi bo'lib kelgan va hamisha shunday bo'lib qoladi.

Bizga mana shu yorug', go'zal olamni yanada go'zal va yorug' qilib turganlaringiz uchun katta rahmat sizlarga!

Biz – O'zbekistonning mard o'g'lonlari, er yigitlari siz, azizlarga bo'lgan hurmatimiz, mehr va muhabbatimizni oilalarimiz, el-yurtimiz hayotini yanada obod va farovon qilishga qaratilgan amaliy ishlarimiz bilan izhor etishga intilmoqdamiz.

Biz xalqimiz roziligini, avvalo, siz, muhtarama onalarimiz, opa-singillarimizning roziligi deb tushunamiz. Sizlarning sog'-salomat bo'lib, baxtli bo'lib yashashingizni amalga oshirayotgan barcha-barcha islohotlarimizning asosiy maqsadi va mezoni deb bilamiz. Bu yo'lda erishgan natijalarimiz faqatgina birinchi qadamlar bo'lib, sizlarning qo'llab-quvvatlashingiz, duolaringiz, hech shubhasiz, bizga cheksiz kuch-g'ayrat bag'ishlaydi.

Qadrli opa-singillar!

Ma'lumki, hozirgi vaqtda mamlakatimiz aholisining qariyb 50 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Lekin

sizlarning barcha sohalardagi samarali mehnatingiz, farzandlar tarbiyasi, oila hayotidagi ulkan xizmatlaringizni hisobga olib aytadigan bo'lsak, jamiyatlardagi o'ringiz, O'zbekistonimiz erishayotgan yutuqlardagi beqiyos hissangizni hech narsa bilan o'lchab, baholab bo'lmaydi.

Bugungi kunda davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1 ming 400 ga yaqin opa-singillarimiz rahbarlik lavozimlarida ishlamoqda. Xotin-qizlarning ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida 82 foizdan ziyodni, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat va san'at sohalarida 72 foizni, qishloq xo'jaligida 45 foizdan ortiqni, sanoatda 38 foizni tashkil etmoqda. Va sizlarning sidqidildan qilayotgan mehnatlaringiz davlatimiz, xalqimiz tomonidan munosib taqdirlanmoqda.

Mustaqillik yillarida 2 ming 180 nafardan ortiq xotin-qizlarimiz yuksak davlat mukofotlariga sazovor bo'lgani ham shundan dalolat beradi. Ularning orasida o'nlab O'zbekiston Qahramonlari, fan arboblari, xalq o'qituvchilari, xalq shoirlari, xalq artistlari borligini alohida ta'kidlab aytmogchiman. Bugungi davramizda turli jabhalarda astoydil mehnat qilayotgan ana shunday jonkuyar, oqila, mehr-oqibatli ayollarimizni, ularning davomchilari bo'lgan iste'dodli qizlarimizni ko'rib turganimdan xursandman. **Ularning barchasi O'zbekiston insoniy salohiyatining oltin fondini tashkil etadi, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.**

Mamlakatimiz taraqqiyotini yangi, yanada yuksak bosqichga ko'tarish yo'lidagi samarali mehnatingiz, ezgu fazilatlaringiz bilan hammaga o'rnak bo'lib kelayotganingiz uchun sizlarga o'z nomimdan, ko'pmillatli butun xalqimiz nomidan chuqur minnatdorlik bildiraman.

Hurmatli yurtdoshlar!

Barchangizga ma'lumki, biz **«Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»** Prezident farmonini qabul qildik. O'tgan qisqa davrda ushbu farmon doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1 ta farmoni, 2 ta qarori, hukumatimizning 6 ta qarori va 4 ta farmoyishi qabul qilindi.

Ana shu hujjatlar asosida ilgari imkoniyatlari cheklanib, faoliyati susayib qolgan Xotin-qizlar qo'mitasi va uning hududiy bo'limlari butunlay yangi asosda tashkil etildi. Ularga qo'shimcha vakolat va imkoniyatlar berilib, samarali faoliyat yuritishi uchun zarur sharoitlar yaratildi. Hozirgi kunda ushbu tizimda katta bilim va hayotiy tajribaga ega bo'lgan 10 mingdan ortiq opa-singillarimiz xizmat qilmoqda.

Xotin-qizlar qo'mitasining hududiy bo'limlari qoshida «Huquqshunos ayollar», «Ilm-fan va ayol», «Ijodkor ayollar», «Tashabbuskor ayollar», «Ayol va salomatlik», «Faxriy ayollar» jamoatchilik uyushmalari tashkil etildi. «Yil ayoli», «Ibratli oila» tanlovlari o'tkazilmoqda. Eng

asosiysi, amalga oshirilgan ana shunday muhim chora-tadbirlar bugun o'z samarasini bermoqda.

O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi va yurtimizdagi siyosiy partiyalar o'rtasidagi hamkorlik kuchaytirilib, 3 mingga yaqin yetakchi xotin-qizlardan iborat kadrlar zaxirasi shakllantirilgani e'tiborga loyiqdir. Ayni vaqtda ijtimoiy faol ayollarni rahbarlik lavozimlariga tayyorlab borish, ularni o'qitish, malakasini oshirish tizimi yaratilmoqda. Bularning barchasi mamlakatimizda xotin-qizlar harakati katta salohiyat va istiqbolga ega ekanini ko'rsatadi.

Xabaringiz bor, bu yil yurtimizda milliy parlamentimiz va mahalliy Kengashlarga saylovlar bo'lib o'tadi. Ana shu saylovlarga ayollarimiz ham katta tayyorgarlik ko'rmoqda. Shu maqsadda joylarda «Deputatlikka start» aksiyalari tashkil etilayotganini biz albatta qo'llab-quvvatlaymiz.

Sizlarga ma'lumki, hozirgi paytda mamlakatimiz deputatlar korpusining 30 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. O'tgan ikki yillik tajribamizni, ayollarning siyosiy ongi va saviyasi oshib borayotganini inobatga olib, bu raqamni ancha ko'paytirsak, o'ylaymanki, adolatdan bo'ladi.

Xotin-qizlar qo'mitasining xalqaro faoliyati ham kuchayib bormoqda. Masalan, yangi tuzilgan O'zbekiston ixtirochi ayollari markazi tashabbusi bilan yurtimiz olimalari o'tgan yili Koreya Respublikasida tashkil etilgan xalqaro forumda munosib ishtirok etdilar.

Muhtaram do'stlar!

Bugungi davramizda O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan Fransiya Respublikasining Favqulodda va muxtor elchisi Violan de Vilmor, Xitoy Xalq Respublikasining Favqulodda va muxtor elchisi Tzyan Yan, BMT Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi doimiy vakili Xelena Freyzer, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining mamlakatimizdagi turli vakolatxonalarining rahbarlari bo'lgan Ashita Mittal, Mieko Yabuta, Lian Kuppens, Mariya del Pilar Alvarez-Laso xonimlarni ko'rib turganimizdan g'oyat mamnunmiz.

Mamlakatimiz bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga munosib hissa qo'shayotgan ana shu hurmatli mehmonlarimizni Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan qutlab, ezgu tilaklarimizni bildirishga ijozat bergaysiz.

Aziz opa-singillar!

Barchangizga ma'lumki, biz uchun mehr-muhabbat qo'rg'oni bo'lgan oila institutini mustahkamlash keyingi paytda yurtimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ana shu siyosatni belgilaydigan muhim hujjat – **O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasi** qabul qilindi. Mazkur konsepsiyani hayotga tatbiq etish maqsadida «Oila» ilmiy-amaliy tadqiqot markazi qayta tashkil etildi.

Oila masalasini kompleks o'rganib, mavjud holatni tahlil etish, monitoring qilish va baho berishga, ilmiy tadqiqotlar orqali oila farovonligini oshirishga xizmat qiladigan yangi tizim yaratildi.

Ilgari Adliya vazirligi tasarrufida bo'lgan fuqarolik holatiga oid hujjatlarni qayd etish idoralari tuman va shahar hokimi o'rinbosari – Xotin-qizlar qo'mitasi raisiga bo'ysundirildi. Hozirgi vaqtda ular tomonidan oila institutini mustahkamlash, ajralishlarning oldini olish bo'yicha faol ish olib borilmoqda.

Albatta, bu borada belgilangan chora-tadbirlarning mazmuni, sifati va samarasini oshirish uchun hali ko'p ish qilishimiz kerak. Bugungi kunda izchil amalga oshirilayotgan **«Obod qishloq»** va **«Obod mahalla»**, **«Yoshlar – kelajagimiz»**, **«Har bir oila – tadbirkor»** kabi dasturlar ayni shu maqsadlarga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Bugun **«Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida»**gi qarorni imzoladim.

Bu qarorda ayollarning mehnat va pensiya sohasidagi huquqlari, gender tengligini ta'minlash bo'yicha mutlaqo yangi kafolatlar belgilab berilmoqda. Ayollarga o'z biznesini tashkil etish, biznes g'oyalarini tayyorlashda yordam berish, uzoq vaqt davomida bola tarbiyasi bilan band bo'lgan, og'ir iqtisodiy ahvolga tushib qolgan ayollarni talab katta bo'lgan kasbga tayyorlash va ishga joylashish uchun ularga ko'maklashish maqsadida Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari tashkil etilmoqda. Ayollarga tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari uchun 100 milliard so'm ajratiladi. Bu mablag' ularga imtiyozli

kredit sifatida beriladi. Mazkur mablagʻlarning kamida 50 foizi qishloq joylarda yashayotgan xotin-qizlar oʻrtasida tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yoʻnaltiriladi.

Biz opa-singillarimizni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash maqsadida bu boradagi ezgu ishlarni bundan buyon ham davom ettiramiz.

Qadrli yurtdoshlar!

Xalqimizda «**El sogʻligʻi – yurt boyligi**» degan maqol bor. Haqiqatan ham, tinchlik bilan sogʻliqni asrasak, qolgan hamma narsaga erishamiz.

Bu masalada hurmatli ayollarimizning salomatligini mustahkamlash biz uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Hozirgi paytda barcha hududlarimizda perinatal, skrining, reproduktiv salomatlik va diagnostika markazlari faoliyat koʻrsatmoqda. Tugʻuruq boʻlimlari, koʻp-tarmoqli poliklinikalar va qishloq oilaviy poliklinikalari soni ortib bormoqda. Ushbu tibbiyot maskanlarida ayollar va qiz bolalar yil davomida chuqurlashtirilgan koʻrikdan oʻtkazilib, ularga doimiy patronaj xizmati koʻrsatilmoqda. Bu esa onalar va bolalar salomatligini mustahkamlash uchun zamin yaratishi shubhasiz.

Xotin-qizlarda uchraydigan kasalliklarni barvaqt aniqlash va davolash ishlari samarali tashkil etilayotgani tufayli ayollar oʻrtasida kasalliklar qariyb 2 barobar, onalar oʻlimi 3 marta, goʻdaklar oʻlimi esa salkam 4 marta kamaydi. Oʻtkazilgan skrining tekshiruvlari natijasida 2018-yilda 5 ming nafar chaqaloqda ogʻir nuqsonlar bilan tugʻilish xavfi bartaraf etildi.

O'tgan yildan boshlab biz bu borada yana bir katta ishni boshladik. Ya'ni, barcha shahar va tumanlar, ayniqsa, uzoq va borish qiyin bo'lgan hududlardagi markaziy poliklinikalar va qishloq oilaviy poliklinikalari qoshida ayollar uchun maslahatxonalar va bolalar salomatlik markazlari tashkil qilinmoqda.

Yaxshi bilasizlar, men **«Bog'chaga borgan bola bilan bog'chaga bormagan bolaning o'rtasida katta farq bor»**, degan fikrni, hayotiy haqiqatni takror-takror aytishdan, uni hamma joyda da'vat qilishdan char-chamayman. O'tgan davrdagi ikki yillik tajribamiz va joylarda aholi bilan olib borayotgan muloqotlarimizdan kelib chiqib, ana shu fikrga qo'shimcha qilib aytmoqchiman: **«Bog'chaga borgan bolaning onasi bilan bog'chaga bormagan bolaning onasi o'rtasida ham katta farq bor»**. Chunki har kuni tarbiyachilar, pedagog mutaxassislar, psixologlar, tibbiyot xodimlari bilan muloqotda bo'lib, bolasidagi ijobiy o'zgarishlarni ko'rib, onalarning ham bilimi, hayotiy tajribasi, madaniy saviyasi oshadi. Bolalari bilan birga ular ham ijtimoiy-ma'naviy tarbiya muhitiga, jamiyatga yaqinlashadi, faollashadi. Shularning barchasini hisobga olib, biz maktabgacha ta'lim sohasiga ulkan e'tibor bermoqdamiz.

O'ylaymanki, mehribon onalar, buvijonlar sifatida buning ahamiyatini sizlar hammadan ko'ra ko'proq tushunasizlar.

Bugungi kunda mamlakatimizda 7 ming 104 ta maktabgacha ta'lim maskani faoliyat ko'rsatmoqda.

Keyingi 2 yil davomida 2 ming 211 ta yangi bog‘chalar tashkil etilib, ularga qo‘shimcha 243 ming bola qabul qilindi. Boshqacha aytganda, yurtimizda bog‘cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta‘lim muassasalari bilan qamrab olish darajasi so‘nggi bir yarim yilda 12 foizga oshib, 38 foizni tashkil etmoqda.

Biz yaqin 4–5 yilda yurtimizdagi bog‘cha yoshidagi barcha bolalarni maktabgacha ta‘lim muassasalariga to‘liq qamrab olish vazifasini o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yganmiz. **Bu – bizning ayollarimiz, bolalarimiz oldidagi qarzimiz, kerak bo‘lsa, kelajak oldidagi muqaddas vazifamiz va biz uni albatta ado etamiz.**

Oliy ta‘lim sohasida ham katta o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, Rossiya, Hindiston, Italiya, Singapur, Latviya kabi davlatlarning 14 ta universitet va institutlarining filiallari faoliyat ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, viloyatlarda tashkil etilgan respublika oliy o‘quv yurtlarining 23 ta bo‘limi ham ish olib bormoqda.

Bugungi kunda yurtimizdagi oliy ta‘lim maskanlarida 373 ming 500 ga yaqin yoshlarimiz ta‘lim olmoqda. Ulardan 168 ming 470 nafarini, ya‘ni, 45,1 foizini qizlar tashkil etishi alohida e‘tiborga loyiq.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Mamlakatimizda bolalar va xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, ularning bilim olishi, mehnat qilishi, munosib hayot kechirishini ta‘minlash bo‘yicha erishilayotgan natijalar nafaqat yurtimiz aholisi, balki

xalqaro hamjamiyat, xususan, Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan ham e'tirof etilmoqda.

Bu borada ba'zi misollarga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

Oxirgi ikki yilda xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb etish, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida kreditlar ajratish hajmi 2 barobar oshirildi.

Qiyoslash uchun aytadigan bo'lsak, agar 2014–2016-yillarda tijorat banklari tomonidan xotin-qizlarga tadbirkorlik uchun jami 3 trillion 800 milliard so'm kredit ajratilgan bo'lsa, birgina 2018-yilning o'zida esa bu ko'rsatkich 3 trillion 361 milliard so'mni tashkil etdi.

O'ylaymanki, mana shu raqamlarning o'zi ham ko'p narsadan dalolat beradi.

Bundan tashqari, yangi tashkil etilgan Xotin-qizlarni va oilani har tomonlama qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'lari hisobidan yillik to'lovi 7 foiz bo'lgan imtiyozli kreditlar berish tizimi joriy etildi. Bu maqsadlar uchun o'tgan yili 50 milliard so'm ajratildi. Bu esa ayollarning oiladan, farzand tarbiyasidan ajralmagan holda, hunarmandlik, kasanachilik, tomorqa xo'jaligi bilan shug'ullanishi uchun zarur sharoitlar yaratib berishga xizmat qiladi.

Xotin-qizlar qo'mitasi tashabbusi bilan joylarda 2018-yilda 2 mingdan ziyod kichik sex tashkil etilib, 18 mingga yaqin xotin-qizlar ish bilan ta'minlandi.

Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlarida «Hunarmand» uyushmasi bilan hamkorlikda «Ustoz-shogird»

tizimi asosida ishsiz xotin-qizlar bandligini ta'minlash yo'lga qo'yildi. Hozirgi vaqtda bu tajribani barcha hududlarda qo'llash bo'yicha ish olib borilmoqda.

Xotin-qizlarning haq-huquqlarini himoya qilish maqsadida hududlarda zo'rlikdan jabr ko'rgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish bo'yicha 155 ta markaz, «Ishonch telefonlari» tashkil etildi.

Xabaringiz bor, o'tgan qisqa davrda yurtimizda uyma-uy yurib, ijtimoiy-ma'naviy muhitni o'rganish, mavjud muammolarni hal etish bo'yicha samarali tizim yaratildi. Ushbu tizim asosida 2018-yilda 47 ming 690 nafardan ortiq og'ir sharoitda yashayotgan, shuningdek, 13 ming 344 nafar nogironligi bo'lgan xotin-qizlarning muammolari joyida o'rganildi.

Ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida ana shunday xotin-qizlarning 14 ming 750 nafardan ziyodiga tibbiy yordam ko'rsatildi, 13 ming 636 nafari ishga joylashtirildi, 24 ming 660 nafardan ortig'iga 21 milliard 540 million so'mga yaqin moddiy yordam berildi. Shu toifaga mansub, uy-joyga ehtiyoji bo'lgan opa-singillarimizga 4 mingga yaqin arzon uy-joylar topshirilib, davlat tomonidan ularning boshlang'ich badallari to'lab berildi. Ana shu turarjoylar atrofida tikuvchilik sexlari tashkil etilib, qariyb 1 ming nafar xotin-qizlar ish bilan ta'minlandi.

Biz bu ishlarni bundan buyon ham albatta izchil davom ettiramiz. Jumladan, 2019-yilda 1 ming 576 nafar sharoiti og'ir xotin-qizlar uy-joylar bilan, shu toifaga mansub 13 ming nafardan ziyod qizlar ish bilan ta'minlanadi.

Xotin-qizlarni va oilani har tomonlama qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan og'ir sharoitda yashayotgan, nogironligi bo'lgan 1 ming 460 nafardan ziyod xotin-qizlarga arzon uy-joylar uchun 54 milliard 580 million so'mdan ortiq boshlang'ich badallar to'lab berildi.

Albatta, haqiqatan ham ko'makka muhtoj bo'lgan bunday ayollarga keyingi 10 yilda arzon uy-joylar berilganini hech kim eslay olmasa kerak. Chunki bunday tizimning o'zi yo'q edi.

Shuningdek, joriy yilda og'ir ijtimoiy ahvolda yashayotgan, nogironligi bo'lgan 15 ming 282 nafar ayolga tibbiy yordam ko'rsatiladi. Shu toifaga kiradigan 10 mingga yaqin xotin-qiz nogironlik aravachasi, eshitish va harakatlanish vositalari bilan ta'minlanadi.

Ayollarning mehnat va turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin. Lekin **o'zining uy-joyiga, ish o'rniga ega bo'lgan har bir ayolning ortida oilasi, farzandlari, ota-onasi, yaqinlari borligini hisobga oladigan bo'lsak, qancha xonadonga quvonch kirgani, qancha odamning ruhi ko'tarilib, ularda hayotga, kelajakka ishonch paydo bo'lgani biz uchun eng muhim natijadir.**

Muhtaram yig'ilish ishtirokchilari!

Barchangiz yaxshi bilasiz, xalqimiz, millatimiz qiz farzandlarini doimo asrab-avaylab, mehr bilan voyaga yetkazadi. Ularni «ona qizim» deb ardoqlaydi. **Chindan ham, qizlarimiz – bizning kelajagimiz, millatimiz**

genofondini asraydigan, munosib davom ettiradigan insonlardir va ularni jismoniy hamda ma'naviy barkamol etib tarbiyalash – ezgu burchimiz.

Ayniqsa, hozirgi kunda qizlarimizga zamonaviy ta'lim, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida tarbiya berish, ularni kasb-hunarga o'rgatish, oilaga tayyorlash o'ta dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda barcha ta'lim maskanlari va mahallalarda faoliyat ko'rsatayotgan **«Qizlarjon»**, **«Qiz bola va yosh oila»**, **«Mustaqil hayot ostonasida»**, **«Orasta qizlar»** kabi klublar faoliyatini real hayotga, yoshlarimizning orzu-intilishlariga yanada yaqinlashtirish kerak, deb o'ylayman.

Shu o'rinda yaqinda Namangan viloyatida aytgan bir fikrimni yana takrorlamoqchiman.

Agar siz farzandingizga dang'illama uy qurib bersangiz – vaqti-soati kelib, u eskirishi mumkin. Agar eng zo'r mashina olib bersangiz – uyam tez orada eskirishi mumkin. Agar unga moddiy boylik, pul qoldirsangiz – uyam bir kun sarf bo'lib tugashi mumkin. Ammo dunyoda hech qachon eskirmaydigan, yo'qolmaydigan bebaho bir boylik borki, u ham bo'lsa, farzandingizga bergan bilim va hunardir. Lekin bilim va ma'rifatni qayerdan, nimadan olish mumkin? Avvalo, kitob degan xazinadan.

Men yurtimiz yoshlari o'rtasida o'tkazilayotgan **«Eng yaxshi kitobxon»** ko'rik-tanlovini muntazam kuzatib boraman. Bu bellashuvlarda qizlarimizning eng yuqori

o‘rinlarni egallayotgani ularning intellektual salohiyat va tirishqoqlik bobida hammani qoyil qoldirayotganidan dalolat beradi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, «**Qizlar kutubxona-si**» nomli mobil ilova yaratilib, ishga tushirilgani e’tiborga loyiq.

Bugungi kunda buyuk shoiramiz Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan qizlarimiz soni 283 nafarga yetdi. Ularning ko‘pchiligi hokimiyatlar, turli vazirlik, idora va tashkilotlarda, ommaviy axborot vositalari, ta’lim-tarbiya sohasida muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqda. Bu mukofotning eng katta ahamiyati shundaki, unga sazovor bo‘lgan har bir qizimizga yuzlab, minglab yoshlar havas qilib, ularga ergashadi. Yoshlar uchun ibrat timsoli – yetakchilik, liderlik timsoli paydo bo‘ladi. Eng muhimi, bunday ibrat o‘z qizlarimiz orasidan, o‘zimizning ma’naviy muhitdan yetishib chiqmoqda. Ularni ko‘rib, yoshlarimizda **o‘ziga, o‘z kuchi va salohiyatiga ishonch, kelajakka intilish paydo bo‘lmoqda.**

Mana, bugungi davramizda Zulfiya nomidagi davlat mukofotining bu yilgi yangi sovrindorlari ham ishtirok etmoqda. Bugun sizlarning huzuringizda ularga ana shu mukofotlarni tantanali ravishda topshiramiz.

Hurmatli anjuman qatnashchilari!

Barchamiz yaxshi tushunamizki, biz bunday yig‘ilishlarda nafaqat yutuqlarimiz haqida gapirishimiz, ayni vaqtda kamchilik va nuqsonlarimiz haqida ham ochiq-oshkora so‘z yuritib, ularni hal qilish yo‘llarini birgalikda izlashimiz zarur.

Takror aytaman, xalqimiz, avvalo, siz, hurmatli opasingillarimiz bilan maslahatlashib ish olib borsak, xato albatta kam bo'ladi.

Shu ma'noda, ayollar o'rtasida huquqbuzarlikning barvaqt oldini olish masalasi ham doimiy e'tiborimiz markazida turishi lozim. Bu borada, birinchi navbatda, huquqbuzarlikka moyilligi bo'lgan shaxslar bilan yakka tartibda ish olib borish hamda jazoni ijro etish maskanlaridan ozod qilingan xotin-qizlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, muqaddam sudlangan, diniy ekstremistik oqimga daxldorlikda gumon qilinganlar ro'yxatidan chiqarilgan 3 ming nafardan ziyod ayol va notinch oilalarda yashayotgan xotin-qizlarga amaliy yordam berishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Ayni vaqtda sudlarda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida Xotin-qizlar qo'mitalari vakillari **jamoatchilik asosida himoyachi** bo'lib ishtirok etmoqda. Bunday yangi amaliyot natijasida 2018-yilda jinoyat sodir etgan va huquqbuzarlikka qo'lgan 893 nafar xotin-qiz kafillikka olinib, jazodan ozod etildi.

Oilaviy muammolar tufayli kelib chiqadigan jinoyatlarni keskin kamaytirish maqsadida 10 ming 14 ta notinch oila bilan profilaktika ishlari olib borildi va 71 foiz shunday oilaning notinchligi bartaraf etildi.

Xotin-qizlar, mahallalar, profilaktika inspektorlari-ning hamkorlikda olib borgan ishlari va ko'rilgan

choralar natijasida xotin-qizlar o'rtasida jinoyatchilik 2018-yilda 34 foizga kamayganini alohida ta'kidlash lozim.

Bundan tashqari, Oliy sud bilan Xotin-qizlar qo'mitasi o'rtasida memorandum imzolaniib, ajrashish uchun ariza bergan shaxslarni dastlab Xotin-qizlar qo'mitasida suhbatdan o'tkazish va ajrim yuzasidan xulosasini olish yo'lga qo'yildi.

Keng jamoatchilik vakillari o'zaro hamkorlikda olib borgan ishlar tufayli 2018-yilda ajralish yoqasiga kelib qolgan oilalarning 26 mingga yaqini yarashtirildi. Eng muhimi, buning natijasida 36 ming 500 nafarga yaqin bola ota yoki ona mehridan judo bo'lishdan saqlab qolindi.

Yurtimizda to'g'ri yo'ldan adashgan insonlar bo'lmasligi uchun bu boradagi ishlarni **jaholatga qarshi ma'rifat** asosida izchil davom ettirishimiz zarur.

Fursatdan foydalanib, siz, azizlarga, bugun meni eshitayotgan barcha yurtdoshlarimizga da'vat qilib aytmoqchiman: xalqimiz, Vatanimiz taqdiri va kelajagiga bevosita daxldor bo'lgan bu masalada hech kim befarq bo'lib chetda turmasligi kerak. Bu borada nafaqat xotin-qizlar qo'mitalari, nafaqat mahalla faollari, balki barchamiz birgalikda qattiq ish olib borsak, vaziyat ijobiy tomonga albatta o'zgaradi.

Bu maqsadga erishishda biz xotin-qizlarimizning og'irini yengil qilish, ularning hayotiy muammolarini yechish, orzu-intilishlari, qobiliyat va salohiyatini ro'-

yobga chiqarish uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor imkoniyatlarini ishga solamiz. Siz, aziz opa-singillarimiz bu masalada avvalo o'z'laringiz tashabbuskor bo'lib, faol ishtirok etasizlar, deb ishonaman.

Muhtaram do'stlar!

Sizlarga ma'lumki, onalik va bolalikni himoya qilish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha ibratli faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar uchun «**Mo'tabar ayol**» nishoni ta'sis etilgan edi. Bu yil 8-mart bayrami arafasida ushbu mukofot bilan 260 nafar opa-singillarimiz taqdirlandi.

Fursatdan foydalanib, ularni sizlarning nomingizdan, o'z nomimdan samimiy tabriklayman.

Bugungi bayram munosabati bilan Vatanimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligini oshirish, sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, oilalarni mustahkamlash borasidagi munosib xizmatlari uchun xotin-qizlarimizdan bir guruhi davlatimizning yuksak unvonlari, orden va medallari bilan taqdirlandi. Mukofotlanganlar orasida o'zining noyob iste'dodi bilan Vatanimiz shuhratini dunyoga tarannum etgan atoqli olimlarimiz, shoir va adiblarimizning sadoqatli umr yo'ldoshlari ham borligini alohida ta'kidlamoqchiman. Ularning ko'pchiligi bugungi davramizda ishtirok etmoqdalar.

Haqiqatan ham, o'zining ilmiy va adabiy maktabini yaratgan ulkan olim va ijodkorning rafiqasi bo'lish oson emas. Buni bilgan biladi, bilmaganlar bilib qo'ysa, faqat foyda bo'ladi.

Mana shunday mehribon, oqila, zukko opa-singillari-miz o'z umr yo'ldoshlari – mashhur ilm-fan va adabiyot namoyandalarini doimo qo'llab-quvvatlab, ularga ilhom bag'ishlab kelganlari, ma'naviy tayanch bo'lib, fidoyilik namunasini ko'rsatganlari har qanday yuksak tahsinga loyiq.

Yuksak unvonlar, orden va medallar bilan taqdirlangan opa-singillarimizni, Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo'lgan qizlarimizni chin qalbidan tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, yangi-yangi muvaffaqiyatlar, oilaviy baxt tilayman.

Munis va mehribon opa-singillar!

Biz sizlarning mana shunday ochilib, hayotdan rozi bo'lib yurishingiz uchun, sizlarning baxt-u saodatingiz uchun doimo sidqidildan xizmat qilishga tayyormiz.

Istaymizki, mana shunday quvonchli kunlarimiz ko'p bo'lsin!

Barchangizni bugungi bahor va nafosat, go'zallik bayrami bilan yana bir bor samimiy tabriklayman.

Iqbolingiz baland, umringiz uzoq, rizq-u nasibangiz ziyoda bo'lsin!

Hamisha sog'-omon bo'linglar!

*Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlab
o'tkazilgan tantanali marosimdagi nutq*

2019-yil 7-mart

KO‘PTARMOQLI «HUMO ARENA» SPORT KOMPLEKSINING TANTANALI OCHILISH MAROSIMIDAGI NUTQ

Assalomu alaykum, aziz vatandoshlar!

Hurmatli Xalqaro xokkey federatsiyasi prezidenti
Rene Fazel janoblari!

Muhtaram mehmonlar!

Xonimlar va janoblar!

Avvalo, sizlarni Navro‘z bayrami arafasida, go‘zal bahor kunlarida O‘zbekiston zaminida samimiy qutlayman. Barchangizga chuqur hurmatim va eng ezgu tilaklarimni bildirishdan benihoya mamnunman.

Bugun poytaxtimiz markazida ishga tushirilayotgan zamonaviy sport koshonasi – «Humo arena»ga tashrif buyurib, quvonchimizga sherik bo‘layotganingiz uchun sizlarga katta rahmat!

Ushbu tantanali marosimda ishtirok etayotgan jahon sporti yulduzlari, mashhur madaniyat va san‘at arboblari, diplomatlar va xalqaro tashkilotlar vakillari, yetakchi kompaniyalar rahbarlariga qarata aytmoqchiman:

Xush kelibsiz, mehmondo‘st O‘zbekiston zaminiga!

Aziz do‘stlar!

Bugun biz yurtimizda keng ko‘lamli islohotlar va jadal o‘zgarishlarni amalga oshirmoqdamiz. **Va bu yo‘lda jismoniy sog‘lom va barkamol avlodni voyaga**

yetkazish bizning ustuvor vazifamiz va biz buning uchun bor kuch va mablag'larimizni safarbar etamiz.

Shu ma'noda, biz jismoniy tarbiya va sportga alohida e'tibor bermoqdamiz.

Bugungi kunda mamlakatimizning barcha hududlarida, hatto eng olis tumanlarda ham zamonaviy va foydalanish uchun qulay sport infratuzilmasi barpo etilmoqda. Keyingi ikki yilda mamlakatimizda sport bilan doimiy shug'ullanadiganlar soni ikki barobar ko'paydi.

Yurtimiz sportchilari turli xalqaro musobaqalarda mingdan ziyod medallarni qo'lga kiritdi, ulardan 400 dan ortig'i oltin medallardir. Hozirgi vaqtda boks, dzyudo, erkin kurash, badiiy gimnastika, shaxmat va boshqa sport turlari bo'yicha O'zbekistonda shakllangan maktablar butun dunyoda ma'lum-u mashhurdir.

Mamlakatimizda o'tkazilayotgan nufuzli xalqaro musobaqalar, jumladan, dunyo va qit'a chempionatlari soni yil sayin ortib bormoqda. Biz 2030-yilda O'zbekistonda yozgi Osiyo o'yinlarini o'tkazish tashabbusi bilan chiqdik.

Hurmatli xonimlar va janoblar!

Biz sportchilarimiz qishki sport o'yinlari, jumladan, eng qiziqarli bo'lgan figurali uchish, xokkey, tog'-chang'i sporti, fristayl, snoubord va boshqa sport turlari bo'yicha Vatanimiz sha'nini munosib himoya qilishiga intilmoqdamiz.

O'tgan asrning yetmishinchi yillaridayoq Toshkentda «Yubileyniy» muz sporti saroyi, «Binokor» xokkey jamoasi, Toshkent viloyatida tog'-chang'i trassasi mavjud bo'lgan.

Bizning bu borada erishgan yutuqlarimiz orasida fristayl bo'yicha qishki Olimpiya o'yinlari va jahon chempionatida qo'lga kiritilgan oltin medallar, figurali uchish bo'yicha Osiyo o'yinlari va boshqa xalqaro musobaqalarda erishilgan 70 dan ziyod medallar borligini ta'kidlash lozim.

Biz sport sohasidagi ana shunday shonli an'analarni davom ettirishni o'z burchimiz deb bilamiz.

O'tgan yili mamlakatimizda to'rtta xokkey klubi tashkil etildi. Bu yil fevral oyida shaybali xokkey bo'yicha birinchi bor O'zbekiston chempionati o'tkazildi.

O'zbekiston sportchilari yaqinda Krasnoyarskda o'tkazilgan Jahon qishki universiadasiida ilk bor ishtirok etdi.

Ushbu zamonaviy muz saroyining ishga tushirilishi O'zbekiston sporti tarixida yangi bosqichni boshlab beradi, desak, o'ylaymanki, mubolag'a bo'lmaydi.

Mazkur inshoot o'zining ilg'or me'moriy va muhandislik-qurilish yechimlari, texnik jihozlanish darajasiga ko'ra noyobdir. Biz hamkorlarimiz – yetakchi kompaniyalarning eng so'nggi ishlanmalarini jalb etishga harakat qildik.

Ishonchim komilki, «Humo arena» yuksak malakali sportchilarni tayyorlash va O'zbekistonda yirik xalqaro

musobaqalar tashkil etish va eng asosiysi – yoshlarimizni qishki sport turlariga keng jalb etishga xizmat qiladi.

Bunday majmua va markazlarni biz kelgusida yurtimizning boshqa hududlarida ham barpo etamiz.

Shu munosabat bilan bugungi tadbirda ishtirok etayotgan hurmatli mehmonlarimiz – mashhur sportchi va murabbiylar – dunyo sporti yulduzlariga murojaat qilib, aytmoqchiman: **biz sizning qo‘llab-quvvatlashingiz, bilim va mahoratingiz, ulkan professional tajribangizga ishonamiz.**

Qadrli do‘stlar!

Bizning poytaxtimizga uzukka ko‘z qo‘ygandek yarashib turgan, sizlarning ishtirokingizda foydalanishga topshirilayotgan bu zamonaviy sport saroyi ushbu yo‘nalishdagi ishlarning dastlabki amaliy natijasidir.

To‘liq ishonch bilan aytish mumkinki, barcha xalqaro talablarga javob beradigan ushbu noyob kompleks sportni sevadigan xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz qalbidagi orzuning amaliy ifodasi bo‘ldi.

Ana shu orzuni haqiqatga aylantirgan, qisqa muddatda shunday ulug‘vor majmuani barpo etgan loyiha-chi, me‘mor, quruvchi va muhandislarga, chet ellik mutaxassislarga, bu ezgu ishga hissa qo‘shgan barcha insonlarga chuqur minnatdorlik bildirishga ijozat bergaysiz.

Hech shubhasiz, bugungi kun milliy sportimiz tarixida yorqin sahifa bo‘lib qoladi.

Butun ko'pmillatli xalqimizni, ushbu tadbirimizning barcha ishtirokchilari va mehmonlarini bugungi tarixiy voqea – «Humo arena» sport saroyining ochilishi bilan chin qalbimdan tabriklayman.

Barchangizga tinchlik-omonlik, ulkan zafarlar va yangidan yangi muvaffaqiyatlar tilayman.

E'tiboringiz uchun katta rahmat.

2019-yil 15-mart

NAVRO‘Z UMUMXALQ BAYRAMIGA BAG‘ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI TABRIK SO‘Z

Assalomu alaykum, muhtaram vatandoshlar!

Qadrli mehmonlar!

Xonimlar va janoblar!

Shu tarovatli kunlarda tabiat uyg‘onib, go‘zal diyorumizga barchamiz orziqib, sog‘inib kutgan Navro‘zi olam kirib kelmoqda.

Ming yillar davomida ma’naviy hayotimizning ko‘rk-u ziynati bo‘lib kelayotgan bu ajoyib, xosiyatli bayram bugun qalblarimizga yana cheksiz quvonch va zavq bag‘ishlamoqda.

Azim poytaxtimizning markazida bunyod etilib, yaqinda foydalanishga topshirilgan muhtasham «Humo» koshonasida siz, azizlarni, sizlar orqali ko‘p millatli butun xalqimizni Navro‘z bayrami bilan chin qalbdan tabriklashni o‘zim uchun katta sharaf deb bilaman.

Mana shunday fayzli, shodiyona ayyomda barcha shahar va tumanlarda, qishloq va ovullarda Navro‘z saylini o‘tkazayotgan barcha-barcha yurtdoshlarimga yuksak hurmatim va eng ezgu tilaklarimni izhor etaman.

Hayotingiz bahor tongidek tiniq, baxtli va farovon bo‘lsin!

Sharqona Yangi yilimiz – Navro‘zi olamning qadami qutlug‘ va barakali kelsin!

Hurmatli do‘stlar!

Ayni shu betakror va dilbar faslda barchamiz o‘zimizni yasharib ketgandek, vujudimizga yangi kuch-g‘ayrat, azm-u shijoat kirgandek his etamiz. Necha yuz yillik an‘ana va qadriyatlarimizni yangitdan kashf etamiz, qanday buyuk tarix, qanday buyuk madaniyat vorislari ekanimizni yana bir bor anglaymiz. Va bundan qalblarimiz g‘urur va iftixorga to‘ladi.

Bu yilgi Navro‘z bayrami ushbu muazzam saroyda o‘tayotganida o‘ziga xos ramziy ma‘no bor, albatta. Afsonaviy Humo qushi – ezgulik va baxt timsoli, Navro‘z esa bahor va baxt ayyomidir. Bu ikki ulug‘ timsol, ya‘ni, Humo va Navro‘z falsafasi o‘zaro uyg‘un bo‘lib, hayotimizni yanada mazmunli va munavvar etgay, inshoolloh.

Aziz yurtdoshlar!

Barchamizga ma‘lumki, Navro‘z – yangi kun, yangi fasl demakdir.

Bugun ona tabiat bag‘rida yangilanish va yasharish fasli boshlanmoqda.

Jonajon O‘zbekistonimiz ham bugun o‘z milliy taraqqiyotining yangi davriga qadam qo‘ymoqda.

Bu – erkinlik va ozodlikning yangi davri, bunyodkorlik va farovonlikning yangi, yuksak bosqichidir.

Bu – «Xalq manfaati hamma narsadan ulug‘» degan ezgu g‘oya amaliy ishlar bilan o‘z tasdig‘ini topayotgan

davrdir. Yangi-yangi uy-joylar, zamonaviy korxonalar, ta'lim, tibbiyot, madaniyat va sport maskanlari, obod qishloq va shaharlar yurtimiz chiroyiga chiroy qo'shayotgan davr bu.

Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, madadga muhtoj insonlar va oilalarga chinakam ko'mak va yordam berish, mehr-oqibat ko'rsatish hayotimiz qoidasiga aylanib borayotgan davr bu.

Bu – jahon hamjamiyati bilan, eng avvalo, yaqin qo'shnilarimiz bilan do'stlik va hamkorlik eshiklari keng ochilayotgan zamondir.

Bu – o'zgarib, kuch-qudratga to'lib borayotgan, dunyo ahli e'tirof etayotgan yangi O'zbekistondir.

Ayni vaqtda bularning barchasi – biz tanlagan olis va mashaqqatli yo'ldagi dastlabki qadamlardir.

Bugun ko'pni ko'rgan, mard va olijanob xalqimiz o'zining fidokorona mehnati bilan, kelajakka mustahkam ishonchi bilan shonli tariximizning yangi sahifasini yaratmoqda.

Ushbu qutlug' ayyomda mana shunday mehnatkash, matonatli, bag'rikeng, Vatanga sadoqatli xalqimizga farzandlik mehrim bilan chin yuragimdan ta'zim qilaman.

Muhtaram do'stlar!

Navro'z o'zining o'lmas ruhi, umuminsoniy g'oyalari bilan bashariyat hayotidan tobora chuqur o'rin egallamoqda. Barchangizga ayonki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining qarori bilan 21-mart – butun dunyoda Xalqaro Navro'z kuni sifatida keng nishonlanmoqda.

Fursatdan foydalanib, bizga hurmat va ehtirom ko'rsatib, mana shu muhtasham koshonamizga tashrif buyurgan chet davlatlarning muhtaram elchilarini, xalqaro tashkilotlar vakillarini, barcha xorijiy mehnatlarimizni, olis va yaqin mamlakatlar xalqlarini Navro'z bayrami bilan tabriklab, ularga tinchlik, ravnaq va farovonlik tilashga ruxsat bergaysiz.

Aziz va muhtaram vatandoshlar!

Bepoyon yurtimizni qamrab olgan xalq sayillarida bugun «**Har kunimiz Navro'z bo'lsin!**» degan ezgu tilaklar yangramoqda.

Haqiqatan ham, Navro'z o'zining buyuk qudrati bilan tabiatni uyg'otmoqda. Islohotlar esa jamiyatni, xalqimizning ong-u tafakkuri, beqiyos salohiyatini uyg'otmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohot va o'zgarishlar ayni shu ulug' maqsadga – har kunimiz Navro'z bo'lishiga, ya'ni, el-yurtimiz hayotining obod va farovon bo'lishiga qaratilganini siz, azizlar yaxshi bilasiz. Biz shu yo'lda o'z oldimizga ulkan marra va vazifalarni qo'ydik va ularni xalqimiz bilan birga albatta amalga oshiramiz.

Bugun mirishkor dehqon va fermerlarimiz katta orzuniyatlar bilan yangi mehnat mavsumini boshlamoqda. Barchamizning tilagimiz bitta: yilimiz qutlug' kelsin, hosilimiz mo'l bo'lsin, mehnatingizdan baraka toping, qadrli do'stlar!

Muhtaram otaxon va onaxonlar!

Munis opa-singillar!

Qadrli aka-ukalar!

Xalqimizning ishonchi va tayanchi bo'lgan navqiron yoshlar!

Aziz farzandlarim!

Hammamiz uchun suyuqli va ardoqli Navro'z bayrami bilan barchangizni yana bir bor chin dildan tabriklayman!

Navro'z har bir xonadonga, butun el-yurtimizga tinchlik-xotirjamlik, baxt-u saodat, qut-baraka olib kelsin!

Barcha ezgu niyat va maqsadlarimiz amalga oshsin!

Vatanimiz yanada obod, xalqimiz doim omon bo'lsin!

Navro'zi olam barchamizga muborak bo'lsin!

2019-yil 21-mart

FOLKLOR SAN'ATI – INSONIYATNING BOLALIK QO'SHIG'I

Muhtaram festival ishtirokchilari!

Qadrli do'stlar!

Xonimlar va janoblar!

Avvalo, siz, azizlar bilan jonajon O'zbekistonimizda, go'zal Surxondaryo zaminida ko'rishib turganimdan baxtiyorman.

Barchangizni Xalqaro baxshichilik san'ati festivalining tantanali ochilishi bilan chin yurakdan muborakbod etaman.

Yurtimizda birinchi bor o'tkazilayotgan ushbu san'at bayramida dunyoning 74 ta davlatidan 160 dan ziyod vakillar qatnashmoqda. Ularning orasida atoqli madaniyat arboblari, folklor san'ati namoyandalari, ommaviy axborot vositalari xodimlari borligi bizga katta mamnuniyat yetkazadi.

Bugungi festivalimizda ishtirok etayotgan hurmatli mehmonlarimiz: UNESCOning Osiyo va Tinch okeani boshqarmasi boshlig'i Andrey Shevelevga, Islom hamkorlik tashkilotining tuzilmasi – AYSESKOning Madaniyat bo'yicha direktori Rxiami Salihga, Jahon hunarmandlar kengashi Osiyo va Tinch okeani mintaqasi rahbari Gada Rida Xijjaviga, Qirg'iz Respublikasi Prezidentining maslahatchisi Sultanbay Rayevga,

Qozog'iston Respublikasi madaniyat va sport vaziri Aristanbek Muxamed o'g'liga, Tojikiston Respublikasi madaniyat vaziri Shamsiddin Orumbekzodaga, Turkmaniston madaniyat vazirining o'rinbosari Qurbanmurat Miradaliyevga, Afg'oniston Islom Respublikasining Balx viloyati hokimi Muhammad Is'hoq Raxguzar va boshqa xorijiy do'stlarimizga chuqur tashakkur izhor etishga ijozat bergaysiz.

Siz, muhtaram mehmonlarimizni biz xalqimiz va madaniyatimizning yaqin do'stlari sifatida qabul qilamiz. Butun el-yurtimiz nomidan barchangizga samimiy hurmat va ehtiromimizni bildiramiz.

O'zbekistonga xush kelibsizlar!

Aziz do'stlar!

Insoniyat yaratgan bebaho madaniyat durdonalari eng avvalo har qaysi millatning folklor san'atida mujassam topgani hammamizga yaxshi ma'lum. **Turli xalqlarning milliy o'zligini, ularning tili va hayot tarzini, an'ana va urf-odatlarini ifoda etadigan baxshichilik san'ati umumbashariy madaniyatning uzviy qismi sifatida barchamiz uchun qadrlidir.**

Jahon madaniy merosining bu o'lmas asarlari bizga insoniyatning nasl-u nasabi, tarixiy ildizlari, olijanob ideallari bir ekanini, binobarin, turli millat va elat vakillarining kelajak sari intilishlari ham mushtarak ekanini anglatadi.

Ayni vaqtda hozirgi globallashuv davrida, tijorat vositasiga aylangan «ommaviy madaniyat», shou-

biznesning salbiy ta'siri tobora kuchayib borayotgan murakkab zamonda har qanday milliy madaniyatning bulog'i bo'lgan folklor san'atiga e'tibor va qiziqish, afsuski, susayib borayotgani ham sir emas. Holbuki, **folklor san'ati, ta'bir joiz bo'lsa, bu – insoniyatning bolalik qo'shig'idir.**

Mana shunday noyob va buyuk san'at bugungi kunda shunchaki madaniy yodgorlik namunasiga aylanib, ko'p joylarda unutilib ketayotgani, himoya va muhofazaga muhtoj bo'lib turgani – bu ham davrimizning achchiq haqiqatidir. Bu haqiqat ushbu go'zal va betakror san'atning chinakam fidoyilari sifatida siz, azizlarni hammadan ko'ra ko'proq tashvishga solayotganiga ishonaman.

Shu sababli tengsiz ma'naviy boyligimiz bo'lmish mumtoz san'atni, xalq ijodining nodir namunalarini asrab-avaylash va rivojlantirish, uni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish jahondagi ilg'or fikrli olimlar va san'atkorlarning, davlat va jamoat arboblari, barcha madaniyat ahlining ezgu burchidir.

Shu ma'noda, biz xalq ijodiyotini, turli o'lkalarda baxshi, jirov, oqin, manaschi, shoir, oshiq kabi nomlar bilan ataladigan, o'z timsolida ham shoirlik, ham sozandalik, ham xonandalik mahoratini mujassam etadigan insonlarning nodir iste'dodini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz zarur. Bugun o'z ishini boshlayotgan Xalqaro baxshichilik san'ati festivali ayni

shunday ulkan va muhim maqsadga qaratilganini alohida ta'kidlamogchiman.

Bu borada, avvalo, baxshichilik san'atining ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini chuqur o'rganish va mustahkamlash, uni milliy madaniyatning o'ziga xos «tashrif qog'ozi»ga aylantirish uchun birgalikda jiddiy ish olib borishimiz kerak.

Xususan, baxshichilik sohasida shakllangan ijodiy maktablar, «ustoz-shogird» an'analarini qayta tiklash va rivojlantirish, baxshi-shoirlar, folklorshunos olimlar, o'qituvchi va mutaxassislarning ijodiy va ilmiy faoliyatini har tomonlama rag'batlantirish, madaniyat va san'at muassasalari qoshida baxshichilik to'garaklari tashkil etish, baxshi-shoirlar ijodiga keng yo'l ochib berish, to'y-tomoshalar, turli bayram va madaniy tadbirlarda ularning doimiy ishtirokini ta'minlash, shu yo'nalishda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, o'zaro tajriba almashishni yo'lga qo'yish, baxshichilik san'atini keng targ'ib etish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, televideniye va Internet imkoniyatlaridan samarali foydalanish, folklor asarlarining audio va video variantlarini ko'paytirish maqsadga muvofiqdir.

Agar biz bu noyob san'atni saqlab qolish uchun bugun barchamiz birgalikda harakat qilmasak, ertaga, afsuski, kech bo'ladi, kelgusi avlodlar, tarix bizni kechirmaydi.

Bu borada O'zbekistonda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan ishlar haqida qisqacha to'xtalib o'tishga ijozat bergaysiz.

Yurtimizda xalq ijodiyotini asrab-avaylash va yuksaltirish maqsadida mashhur «Alpomish» dostonining ming yilligi keng nishonlandi. Bugun biz to'planib turgan mana shu go'zal maydonda bu ulug' badiiy obida sharafiga muhtasham haykal o'rnatildi. Samarqand shahrida atoqli baxshilarimiz xotirasiga bag'ishlangan yodgorlik majmuasi bunyod etildi. Davlatimiz tomonidan «O'zbekiston Respublikasi xalq baxshisi» faxriy unvoni ta'sis qilindi.

Termiz shahrida yangi tashkil etilgan baxshilar maktabida, respublikamizdagi bolalar musiqa va san'at maktablarida yuzlab yoshlarimiz milliy folklor san'atini mehr qo'yib o'rganmoqdalar. Yurtimizda 100 tomlik «O'zbek xalq ijodi yodgorliklari» majmuasi nashr etilmoqda. Uning 59 jildi aynan xalq dostonlaridan iborat ekanini qayd etish lozim. Shuningdek, ko'p tomlik «Qoraqalpoq folklori» to'plami ham chop etildi. Bularning barchasi ushbu nodir san'at ma'naviy hayotimizda benihoya muhim o'rin tutishidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, baxshi-shoirlar tomonidan ijro etilayotgan asarlarni yozib olish, ularni ilmiy o'rganish ishlari muntazam davom etmoqda. Sohaga oid kitob va albomlar, filmlar va teleko'rsatuvlar yaratilmoqda. Baxshilarimiz xalqaro ko'rik-tanlovlarda, xorijiy

davlatlarda o'tkazilayotgan O'zbekiston madaniyati kunlarida munosib ishtirok etib kelayotgani el-yurtimizni mamnun qiladi.

Albatta, bunday yutuqlar o'z-o'zidan, bo'm-bo'sh zaminda paydo bo'lgan emas.

O'zbek baxshichilik maktabi dunyoga Ergash Jumanbulbul o'g'li, Islom shoir, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'ltan shoir, Bola baxshi, Esemurat jirov, Sherna baxshi, Mardonaqul Avliyoqul o'g'li, Qodir baxshi Rahimov singari mashhur namoyandalarni bergani bilan har qancha faxrlansak arziydi. Bugungi kunda ana shu ijodiy an'analar ularning izdoshlari bo'lmish Shomurod Tog'ayev, Shoberdi Boltayev, Abdunazar Poyonov, Qahhor va Abdimurod Rahimovlar, Qalandar baxshi, Gulnara Altemberganova, G'ayratdin Otemuratov, Shodmon Xo'jamberdiyev, Ilhom Norov kabi o'nlab iste'dodli ijrochilar tomonidan yanada boyitilmoqda.

Ushbu quvonchli ayyomda baxshilik san'atini ilmiy o'rganishdek muhim ishga katta hissa qo'shgan atoqli shoir Hamid Olimjon, Hodi Zarif, Muzayyana Alaviya, Mansur Afzalov, Buyuk Karimiy, Zubayda Husainova singari fan arboblarning xotirasini hurmat bilan yod etamiz. Bugun ularning ishlarini munosib davom ettirayotgan To'ra Mirzayev, Jalg'as Xushniyozov, Safarboy Ro'zimboyev, Shomirza Turdimov, Mamatqul Jo'rayev, Toshtemir Turdiyev, Jabbor Eshonqulov va boshqa jonkuyar olimlarimizning nomlarini minnatdorlik bilan tilga olamiz.

Ayni paytda o'zbek milliy folklor san'atini chuqur o'rganib, uni dunyo miqyosida keng targ'ib etib kelayotgan koreyalik Ing-Yong O, germaniyalik Karl Rayxil, turkiyalik Fikrat Turkman, Selami Fidakor singari xorijiy olimlarga samimiy rahmat aytamiz.

Qadrli festival ishtirokchilari!

Biz ushbu nufuzli anjumanni aynan ko'hna va nav-qiron Surxon o'lkasida o'tkazayotganimiz bejiz emas, albatta.

Surxondaryo deganda, avvalo, ulug' aziz-avliyolar, allomalarga vatan bo'lgan, mard va olijanob, oriyatli el yashaydigan tabarruk zamin ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi.

Ko'hna Zarautsoy va Teshiktosh g'orlari, Bobotog' va Boysundagi petroglif rasmlar, Baqtriya va Kushon kabi davlatlar, Dalvarzintepa, Kampirtepa, Xolchayon singari noyob yodgorliklar bu zamindagi qadimiy sivilizatsiya va madaniyatdan guvohlik beradi.

Vohaning go'zal tabiatini, Oltinsoy, Sangardak, Xonjizza, Sayrob, Darband kabi suluv go'shalarini bir bora ko'rgan, bepoyon qir-adirlarda baxshilardan doston va termalar tinglagan inson bu diyorga umrbod maftun bo'lib qoladi.

Surxondaryo – azaldan baxshilar yurti sifatida nom qozongan. Mamlakatimizning Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo, Samarqand, Jizzax, Xorazm viloyatlari bilan bir qatorda Surxondaryo, xususan, Sherobod dostonchilik maktabi butun mintaqamizda ma'lum va mashhur.

Xalqimizning fidokorona mehnati bilan Surxondaryo O'zbekistonning eng obod hududlaridan biriga, zamonaviy ilm-fan, madaniyat va turizm maskaniga, mana endi xalqaro baxshichilik san'ati markaziga aylanib borayotgani barchamizni quvontiradi.

San'at va musiqani chin dildan sevadigan, ijod ahlini yuksak qadrlaydigan Surxon eli ushbu anjumanni katta shod-u xurramlik bilan kutib olmoqda.

Bugungi davramizda jahonning uzoq va yaqin mamlakatlaridan tashrif buyurgan o'nlab mashhur baxshilar, folklor guruhlari, sohaning jonkuyar namoyandalarini ko'rib turganimizdan g'oyat xursandmiz.

Kelinglar, aziz do'stlar, ularni chin qalbimizdan qutlab, barchalariga ijodiy yutuqlar tilab, hurmat va olqishlarimizni izhor etaylik!

Hurmatli yurtdoshlar!

Aziz mehmonlar!

Sizlarning ishtirokingizda ochilayotgan ushbu festival dunyodagi eng nufuzli san'at anjumanlari qatoridan mustahkam o'rin egallaydi, deb ishonaman.

Baxshilar nafaqat xalq o'tmishining aks sadosi, ayni paytda bugungi kunning ham jarangdor ovozidir.

Go'zal yurtimiz hayoti bilan tanishgan siz, azizlar o'z fikr va tuyg'ularingiz haqida, bag'rikeng va mehmondo'st xalqimiz, uning madaniyati va betakror qadriyatlari haqida yangi-yangi qo'shiq va dostonlar yaratishingizga tilakdoshmiz.

Festival doirasida o'tkaziladigan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishiga ham muvaffaqiyatlar tilayman.

Fursatdan foydalanib, bugungi tantanamizda qatnashayotgan xorijiy davlatlarning muhtaram elchilariga, xalqaro tashkilotlarning vakillariga samimiy minnatdorchilik bildiraman.

Aziz vatandoshlar!

Bugungi san'at va nafosat bayramini baland saviyada o'tkazish uchun astoydil mehnat qilgan barcha-barcha insonlarga, mehmondo'st va olijanob Surxondaryo ahliga chin yurakdan tashakkur bildirishga ruxsat etgaysiz.

Barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, yangi yutuqlar yor bo'lsin!

E'tiboringiz uchun rahmat.

*Xalqaro baxshichilik san'ati festivali ochilishiga
bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutq*

2019-yil 6-aprel

XOTIRA VA QADRLASH KUNIGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQ

Assalomu alaykum, qadrli yurtdoshlar!

Muhtaram faxriylar!

Hurmatli mehmonlar!

Siz, azizlarni, ko'p millatli butun xalqimizni Ikkinchi jahon urushida erishilgan G'alabani 74 yilligi bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etaman.

Bugun barchamiz avvalo buyuk G'alabaga beqiyos hissa qo'shgan, mana shu yorug' kunlarga yetib kelolmagan aziz insonlarni yod etamiz, ularning xotirasi, pok ruhlari oldida ta'zim qilamiz. Shafqatsiz urushda, mashaqqatli mehnat frontida mardlik va jasorat ko'rsatgan barcha faxriylarimizga yuksak hurmat va ehtirom, chuqur minnatdorlik bildiramiz.

Hech shubhasiz, oradan qancha yillar, zamonlar o'tmasin, buyuk G'alabani qadr-qimmati va ahamiyati tobora ortib boraveradi.

Ming-minglab jasur ota-bobolarimiz dunyodagi ko'plab xalqlar qatorida bu mudhish urushda chinakam qahramonlik ko'rsatdilar. Bu so'nmas jasorat, mana, 74 yildirki, biz uchun mardlik maktabi, g'urur-iftixor manbayi bo'lib kelmoqda va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.

Haqiqatan ham, 9 may – G'alaba kuni el-yurtimizning asl farzandlari besh yil davomida mardona

jang qilib, yovuz dushmanni tor-mor etgan, mislsiz talafotlar evaziga erishgan shon-sharaf ayyomidir.

Bu – hech qachon unutilmaydigan, hech qanday kuch bizdan tortib ololmaydigan buyuk tarix, qudratli ma'naviy boyligimiz desak, ayni haqiqat bo'ladi.

Biz bu tarixdan kuch-quvvat olamiz. Bu tarix bizni tinchlikni asrab, barcha xalqlar bilan do'st va hamkor bo'lib, yorug' kelajak bunyod etishga da'vat etadi.

Ushbu tantanali, ayni vaqtda ma'yus kunlarda o'tmishdan zarur saboq va xulosalar chiqarish uchun urush davriga qayta-qayta murojaat qilishimiz tabiiydir.

Insoniyat tarixidagi eng dahshatli bu urushda 1 yarim milliondan ortiq O'zbekiston fuqarosi qatnashgan. Ularning yarim milliondan ziyodi halok bo'lgan, 133 ming nafarga yaqini bedarak yo'qolgan. 60 mingdan ortiq vatandoshimiz esa urushdan nogiron bo'lib qaytgan.

O'zbekistonlik 120 mingdan ziyod askar va ofitser jang maydonlaridagi jasorati uchun jangovar orden va medallar bilan mukofotlangan. Ularning orasida 280 nafar Sovet Ittifoqi Qahramoni, 82 nafar uchala darajadagi «Slava» ordeniga sazovor bo'lgan jasur insonlar borligini alohida ta'kidlash lozim.

O'sha olovli yillarda O'zbekistonda yetti yoshdan yetmish yoshgacha butun xalqimiz **«Hamma narsa – front uchun, hamma narsa – g'alaba uchun!»** deb yashadi, orom va halovatdan voz kechib, tinimsiz og'ir mehnat qildi. Respublikamiz frontning mustahkam ta'minot bazasiga aylandi.

Yurtimizdan jang maydonlariga 2 mingdan ziyod samolyot, ko'plab qurol-yarog'lar, harbiy-sanitariya

poyezdlari, yuzlab dala oshxonalari, palatkalar, ulkan miqdorda oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa mahsulotlar yetkazib berildi.

O'zbekiston ahli urush hududlaridan ko'chirib keltirilgan 1 millionga yaqin insonga boshpana berib, o'z nonini ular bilan baham ko'rdi. Ayniqsa, ota-onasi, oilasidan judo bo'lgan 200 ming nafar begunoh bolalarni «**Sen yetim emassan!**» deb bag'riga bosib, mehr-muruvvat ko'rsatdi.

Albatta, bu raqamlar – shunchaki statistik ma'lumotlar emas. Bu raqamlar boshimizdan kechirgan mudhish urush oqibatlarini hech qachon unutmaslikka chaqiradi. Shu bilan birga, bugungi tinch va go'zal hayotning qadriga yetib, doimo hushyor va ogoh bo'lishga, yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Hurmatli vatandoshlar!

Barchangizga ma'lum, Ikkinchi jahon urushida, mehnat frontida ishtirok etgan mo'tabar faxriylarimizga yuksak e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib kelmoqda.

Bugungi ozod va erkin hayot uchun, farzandlarimizning baxti va kamoli uchun biz ularning oldida cheksiz qarzdormiz.

Bu aziz insonlarni asrab-avaylash, ularning sog'salomat va mazmunli umr kechirishlari uchun barcha sharoitni yaratib berish – hammamizning muqaddas insoniy burchimizdir. Ayniqsa, rahbar va mutasaddilar buni birinchi navbatda chuqur his etishlari lozim.

Biz shu maqsadda boshlagan ishlarimizni bundan buyon ham izchil davom ettiramiz, shu yo'lda davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.

Aziz do'stlar!

Xabaringiz bor, kelgusi yili G'alabaniyning 75 yillik bayrami xalqaro miqyosda keng nishonlanadi.

Hozirgi kunda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari bilan birga bu qutlug' sanani munosib kutib olish va yuqori saviyada o'tkazish uchun katta tayyorgarlik ko'rmoqdamiz. Jumladan, O'zbekiston xalqi-ning buyuk G'alabaga qo'shgan munosib hissasini aks ettiradigan, g'oyat muhim tarixiy ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan kitob-albom nashrga tayyorlanmoqda.

Ayni vaqtda Toshkent shahrining eng ko'rkam mas-kanlaridan birida ushbu shonli sanaga bag'ishlab ulkan G'alaba bog'ini barpo etamiz. Bu borada loyiha-qurilish ishlarini boshlab yuborganimizni bugun sizlarga ma'lum qilmoqchiman.

Albatta, bu bog' va uning tarkibida bunyod etiladigan shon-shuhrat muzeyini eng go'zal va puxta ishlangan loyihalar asosida yaratamiz. Ammo bu muhtasham yodgorlik majmuasining ma'no-mazmuni, muzey ekspozitsiyasini shakllantirishda biz muhtaram faxriylarimiz, tarixchi olimlarimiz, ijodkor ziyolilarimiz, keng jamoatchilikning fikr-mulohazalari, taklif va tavsiyalariga tayanamiz.

Shuning uchun buyuk G'alabaga hissa qo'shgan vatandoshlarimiz hayoti, jasorat va matonatini yanada

chuqurroq o'rganishimiz, bu haqda yangi ilmiy tadqiqotlar, badiiy asarlar, kinofilm va spektakllar yaratishimiz kerak. Yoshlarimiz kimlarning jasorati tufayli qariyb 75 yil mobaynida urush balosini ko'rmasdan, tinch va baxtli zamonda yashayotganimizni bilishi va buning qadriga yetishi zarur.

Mana, barchamiz guvohmiz, o'sha dahshatli janglarda ishtirok etgan, urushning azob-uqubatlarini ko'rgan kishilar soni, afsuski, kamayib bormoqda. Hatto ularni tanigan, bilgan odamlar safi ham kamaymoqda. Bunday insonlar, ularning har bitta so'zi oltinga teng bo'lib bormoqda.

Shuning uchun urush haqidagi, urush qahramonlari haqidagi ma'lumotlarni ulardan yozib olib, xalqimizga yetkazishimiz kerak. Joylarda, ta'lim-tarbiya maskanlarida **«Mahallamiz qahramonlari»**, **«Vatan himoyachilari»** degan tasviriy ko'rgazmalar tashkil etsak, o'ylaymanki, nur ustiga nur bo'ladi.

Bu ko'rgazmalarda urush ishtirokchilari bilan birga mustaqillik yillarida tinch-osoyishta hayotimizni himoya qilish yo'lida mardlik ko'rsatgan askar va ofitserlarimiz to'g'risida ham ma'lumotlar o'z aksini topishi maqsadga muvofiqdir.

Shu tariqa biz o'z tariximizni, ajdodlarimizga xos jasorat va matonat tuyg'usini, jangovar an'analarni kelgusi avlodlarimizga meros qilib qoldirishga erishamiz. Bu ishlarni bugun qilmasak, ertaga kech bo'lishi mumkin.

Fursatdan foydalanib, men barchangizni tarixni o'rganishda yanada uyg'oq, yanada faol bo'lishga chaqirmoqchiman. Tarixga sergak qaragan odamgina doimo hushyor va ogoh bo'lib yashaydi. Bugungi vaziyatga ham, kelgusi jarayonlarga ham xolis va haqqoniy baho bera oladi. Bu esa hozirgi murakkab va shiddatli zamonda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, yuksak taraqqiyotga erishishning eng muhim shartidir.

Aziz do'stlar!

Urush qahramonlari haqida gapirar ekanmiz, tabarruk Ona siymosi ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Chunki el-yurt himoyasini or-nomus ishi deb biladigan mard va botir o'g'lonlarni voyaga yetkazgan ulug' zot – onadir. Urushning barcha azob-uqubatlarini eng ko'p tortgan insonlar ham mushtipar onalarimizdir.

Bamisoli sabr-bardoshdan yaralgan, urush yillarida muqaddas Vatan timsoliga aylangan bunday metin irodali onalar yurtimizda ko'plab topiladi.

So'zinning isboti uchun bir misol keltirmoqchiman. Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi Xonobod qishlog'ida Zulfiya aya Zokirova ismli bir mo'tabar onaxon yashab o'tganlar. Tom ma'noda buyuk bu insonning jasoratini ta'riflashga til ojiz.

Turmush o'rtog'i Xolmat aka vafot etgach, Zulfiya aya besh o'g'il va bir qizni tarbiyalab voyaga yetkazganlar.

Hammamiz yaxshi bilamiz, ona zoti uchun farzand dog'ini ko'rishdan ham og'ir yo'qotish yo'q. Zulfiya aya Zokirova Ikkinchi jahon urushida bir emas, besh azamat

o'g'lidan – Isoqjon, Ahmadjon, Mamajon, Vahobjon, Yusufjon ismli aziz farzandlaridan judo bo'lgan.

O'zingiz ayting, qadrli do'stlar, har qanday odamni ham yiqitib, yakson qiladigan taqdirning bunday beshafqat zarbasiga bardosh berish mumkinmi?

Lekin Zulfiya Zokirovadek matonatli, qahramon o'zbek ayoli bunga bardosh bera oldi. Shunday fojiali qismatga besh marta ko'ksini qalqon qilib, besh marta ham mardona oyoqqa turdi. Buning uchun odamda qanchalik kuchli iroda, qanchalik metin sabr-bardosh bo'lishi kerak!

Yovuz urush tufayli ayaning to'rt kelini beva, besh nabirasi yetim bo'lib qoldi. Uning o'zi esa bir umr motamda yashadi. Lekin hech qachon umidsizlikka tushmadi, o'g'illarining so'nmas xotirasi, yorug' kunlar yodi bilan, kelinlari, nabiralarining hayoti, orzu-umidlari bilan yashadi.

«Joyi chiqsa, turmush qilinglar, men sizlardan mingdan-ming roziman», deydi Zulfiya aya kelinlariga. Lekin ular ham Zulfiya ayadan o'rnak olib, unga madad bo'lib, barchasi o'z yoriga, oilasiga sodiq qoladi, boshqa turmush qurmaydi.

Mana, o'zbek ayollarining, o'zbek xalqining haqiqiy jasorati va matonati!

Mana, sevgi va sadoqat madhiyasi, uning yengilmas kuch-qudrati!

Mana, yoshlarimiz, farzandlarimiz kimdan namuna va o'rnak olishlari kerak!

Hayotda biron-bir qiyinchilikka duch kelsa, umidsizlikka tushmasdan, ularni bardosh bilan yengib o'tishda Zulfiya Zokirova va uning oilasi yosh avlodimiz uchun chinakam ibrat maktabi emasmi?

«**Yaxshilar yodi hech qachon unutilmaydi**», deydi xalqimiz. Biz ezgu niyat bilan barpo etadigan G'alaba bog'i markaziga Zulfiya Zokirova va uning frontdan qaytmagan besh o'g'li, sadoqatli kelinlari xotirasiga atab muhtasham haykal o'rnatdik, unga «**Matonat madhiyasi**» deb nom bersak, nima deysizlar?

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Bugungi yangi hayot, beqiyos o'zgarishlar ham-mamizdan yangicha safarbarlikni talab etmoqda. Mana shu jarayonda tinchlikni asrash, dunyodagi taraqqiy-parvar xalqlar, davlatlar bilan hamkorlikni kuchaytirish bosh vazifamizga aylanmoqda.

O'zbekiston tashqi siyosatida uzoq-yaqin barcha davlatlar, avvalo, qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli, do'stona aloqalarni rivojlantirish bundan buyon ham ustuvor yo'nalish bo'lib qoladi.

Ayni vaqtda yana bir haqiqatni ham hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak. Eng katta, bebaho boyligimiz bo'lgan tinchlikka raxna solish, turli xalqlar o'rtasida urush olovini yoqish, milliy va diniy ziddiyatlarni avj oldirishga urinayotgan kuchlar ham yo'q emas. Bunday yovuz kuchlarga qarshi kurashda avvalo doimiy hushyorlik va ogohlik, jaholatga qarshi — ma'rifat, butun xalqimizning birligi va hamjihatligi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Shu maqsadda mustaqilligimiz va tinch hayotimizning ishonchli himoyachisi bo'lgan Qurolli Kuchlarimizning jangovar qudrati va salohiyatini yanada oshirish, xalq va armiya birligini mustahkamlash bo'yicha ulkan ishlarni amalga oshirmoqdamiz.

Hozirgi g'oyat murakkab va tahlikali zamonda yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni turli zararli ta'sirlardan asrash yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ana shu vazifalarni muvaffaqiyatli ado etishda muhtaram faxriylarimizning jasorati, shonli an'analari, hech shubhasiz, biz uchun hamisha ibrat bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, sizlar barcha ishlarimizda dono maslahatgo'y, tog'dek tayanch bo'lib, xalqimizni rozi qilish yo'lidagi islohotlarimizga o'z amaliy ishlaringiz, duolaringiz bilan madad berib kelmoqdasiz. Va biz buni yuksak qadrlaymiz, sizlar bilan cheksiz faxrlanamiz!

Fursatdan foydalanib, bugungi tinch va ozod, erkin hayotimiz, musaffo osmonimiz uchun o'z nomimdan, ko'pmillatli O'zbekiston xalqi nomidan sizlarga yana bir bor chuqur minnatdorchilik bildiraman.

Barchangizga sihat-salomatlik, baxt-saodat, xonadonlaringizga qut-baraka tilayman. Doimo hayotimizga fayz berib, el-yurtimiz ardog'ida bo'lib yurishingizni Yaratgandan so'rayman.

Baxtimizga hamisha omon bo'ling!

G'alaba bayrami barchamizga muborak bo'lsin!

Katta rahmat sizlarga!

2019-yil 9-may

OLIJ MAJLIS SENATINING YIGIRMANCHI YALPI MAJLISIDAGI NUTQ

Assalomu alaykum, muhtaram Senat a'zolari!

Hurmatli yalpi majlis qatnashchilari!

Avvalambor, bugun siz, azizlar bilan uchrashib, barchangizni sog'-salomat, yaxshi kayfiyatda ko'rib turganimdan mamnunman.

Shu imkoniyatdan foydalanib, sizlarga o'zimning yuksak hurmatim va samimiy tilaklarimni bildiraman.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining bugungi yalpi majlisi barqaror milliy taraqqiyotimizning yangi bosqichida, jamiyatimiz hayotining barcha soha va tarmoqlarida keng ko'lamli va shiddatli demokratik islohotlar jadal olib borilayotgan mas'uliyatli bir davrda bo'lib o'tmoqda.

Hozirgi kunda ko'pmillatli xalqimiz mamlakatimizda qabul qilingan Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan ustuvor maqsad va vazifalarni amalga oshirish yo'lida bahamjihat bo'lib, qat'iyat va fidoyilik bilan mehnat qilmoqda.

Oldimizga qo'ygan ulkan marralarga erishish uchun davlatimiz va jamiyatimizning barcha kuch va imkoniyatlari safarbar etilmoqda. Ayniqsa, davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish, qonun

ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirish va liberallashtirish, ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini mustahkamlash, samarali tashqi siyosat olib borishdek ustuvor yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xalq bilan doimiy va tizimli muloqot asosida umumiy soni 33 milliondan ortib borayotgan aholimizning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash borasida yangi qadamlar qo'yilmoqda. Jumladan, iqtisodiyot sohasida ijtimoiy yo'naltirilgan haqiqiy bozor munosabatlarini joriy etish, tadbirkorlik, xususiy mulk rivojiga keng yo'l ochib berish, zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari va infratuzilmalarini tashkil etish masalalariga birinchi darajali ahamiyat berilmoqda. Yangi ish o'rinlari yaratish, zamonaviy uyjoylar, yo'l va ko'priklar, bolalar bog'chalari, maktablar va oliy o'quv yurtlari, shifoxonalar, madaniyat va san'at, sport maskanlarini barpo etish, bir so'z bilan aytganda, xalqimizning hayoti obod va farovon bo'lishiga erishish, uni rozi qilish – barcha bo'g'indagi rahbar va mutasaddilarning faoliyat mezoniga aylanmoqda.

Albatta, hayotimizdagi bunday ulkan miqyosdagi iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy-huquqiy islohotlarni amalga oshirishda milliy parlamentimiz – Oliy Majlis va uning yuqori palatasi bo'lmish Senatning, siz, hurmatli

senatorlarimizning faoliyati g'oyat muhim ahamiyatga ega ekanini hammamiz yaxshi bilamiz.

Biz Senat deganda, birinchi navbatda, milliy parlamentimizning siyosiy, huquqiy va madaniy salohiyatini amalda namoyon etadigan, xalq manfaatlarining chinakam ifodachisi va haqiqiy himoyachisi bo'lgan katta bir kuchni tasavvur qilamiz.

Yodingizda bo'lsa, bundan ikki yil oldin, ya'ni, 2017-yil 12-iyul kuni siz, muhtaram xalq noiblari bilan uchrashib, parlamentimiz faoliyatini bugungi shiddatli davrning o'tkir talablari asosida yanada takomillashtirish bo'yicha eng muhim vazifalarni belgilab olgan edik.

Men yaxshi eslayman, o'sha uchrashuvda **«Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo'lishi kerak»**, degan fikr o'rta qo'yilgan edi.

Ana shu dasturiy g'oyani amalga oshirish uchun Oliy Majlisga Murojaatnomalarimizda ham O'zbekistonning bugungi ijtimoiy-siyosiy hayotida milliy parlamentarizmni rivojlantirish bilan bog'liq masalalarga alohida e'tibor qaratilgani sizlarga yaxshi ma'lum. Bu borada, jumladan, Oliy Majlis palatalarining jamiyatimiz va davlatimiz hayotidagi o'rni va nufuzini oshirish, ularning ishini samarali tashkil etish uchun zarur sharoit yaratish, deputatlar va senatorlar faoliyatining moddiy-tashkiliy ta'minotini yaxshilashga qaratilgan muhim chora-tadbirlar ko'rildi.

O'tgan davr mobaynida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tizimli demokratik jarayonlarda Senat tomonidan qonun ijodkorligi bilan birga ta'sirchan parlament nazoratini olib borish, joylarga chiqib, aholimizni qiynayotgan, bezovta qilayotgan muammolarni o'rganish, ularni ham qonuniy, ham amaliy nuqtayi nazardan hal qilish yuzasidan bir qator e'tiborga loyiq ishlar amalga oshirilayotganini albatta e'tirof etish lozim.

Biz o'z faoliyatimizni boshlagan dastlabki kunlardan e'tiboran siz, hurmatli xalq vakillari bilan barcha muhim vazifalarimiz qatorida ikkita eng asosiy masalaga alohida ahamiyat qaratish haqida kelishib olgan edik. Bularning **birinchisi – jamiyatimizda tinchlik va osoyishtalikni saqlash bo'lsa, ikkinchisi – aholimizning sog'lig'ini muhofaza qilishdir.**

Hammamiz tushunamiz, **tinchlik va sog'liq – bu har bir inson, butun xalqimiz uchun hech narsa bilan o'lchab, baholab bo'lmaydigan buyuk ne'matdir.** Shuning uchun ham mana shu ikki sohada biz ahvolni tubdan o'zgartirib, ijobiy natijalarga erisha olsak, butun jamiyatimizdagi vaziyat va ijtimoiy muhit keskin o'zgaradi, men bunga aminman.

Shu maqsadda biz parlament a'zolariga katta ishonch bildirib, Qonunchilik palatasiga – sog'liqni saqlash sohasida, Senatga esa ichki ishlar organlari tizimida islohotlarni amalga oshirishda bosh-qosh bo'lishni taklif etgan edik.

Bugungi kunda ichki ishlar organlari faoliyatini samarali tashkil etish, jinoyatchilikning oldini olish, huquqbuzarliklar profilaktikasini yo'lga qo'yish, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish, fuqarolar ongida «**Qonun – ustuvor, jinoyatga jazo muqarrar**», degan yuridik tamoyilni qaror toptirish borasida erishilayotgan yutuqlarda Senat a'zolarining ham munosib hissasi bor.

Ayni vaqtda mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, jamiyatimizning barcha jabhalarini erkinlashtirish, xalqimizning hayot darajasi va turmush sifatini yanada yaxshilash, O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yuksaltirish bilan bog'liq g'oyat dolzarb, kechiktirib bo'lmaydigan vazifalarni bajarishda Senatning roli va ta'sirini oshirishni hayotning o'zi talab etmoqda.

Bu haqda gapirganda, men Senat faoliyatida o'z yechimini kutib turgan bir qator muhim masalalarga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

Birinchidan, Senatning qonunchilik faoliyatida, ishni to'g'ri tashkil qilishda talabchanlik va jonkuyarlik, tashabbuskorlik va izchillik yetishmayotganini qayd etish lozim.

Misol uchun, 2015–2018-yillar davomida yuqori palata tomonidan 140 ta qonun ma'qullangan bo'lsa-da, aksariyat qonunlarning ma'no-mazmuni Senatda ko'rib chiqilganidan so'ng sezilarli darajada o'zgarmagan.

Ma'lumki, qonunlar muhokamasining boshlang'ich bosqichlarida milliy va hududiy manfaatlar nuqtayi

nazaridan Senat a'zolarining mazkur muhokamada faol qatnashishlari talab etiladi. Afsuski, shu maqsadda tuzilgan ishchi guruhlar faoliyatiga ayrim Senat a'zolarining yuzaki yondashish holatlari uchrab turadi.

Garchi Senat qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo'lmasa-da, bu hol uning qonunlarni takomillashtirish bo'yicha taklif ko'rsatishiga monelik qilmaydi. Tan olish kerakki, bu borada yuqori palata vakillari tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va madaniy sohalaridagi muammolarni chuqur tahlil qilib, qonunchilikni rivojlantirishga oid asoslangan takliflarni kiritish masalasi, afsuski, talab darajasida emas.

Ikkinchidan, Senatning parlament nazoratiga oid amaldagi vakolatlaridan to'liq foydalanilmayapti. O'tgan 4 yil davomida Senat tomonidan atigi 10 ta parlament so'rovi yuborilgani ham buning tasdig'idir.

Ijro hokimiyati organlari faoliyati ustidan samarali parlament nazoratini amalga oshirish talab etilayotgan hozirgi sharoitda bunday holat bizni albatta qoniqtirmaydi.

To'g'ri, keyingi vaqtda Senat tomonidan markaziy va mahalliy davlat organlari rahbarlarining axborotini eshitish, huquqni qo'llash amaliyotini joylarga chiqib o'rganish yuzasidan 131 ta nazorat-tahlil tadbirlari o'tkazilgan. Ammo mazkur tadbirlarning natijadorligi past bo'lib, ularning aksariyati faqat tadbir o'tkazish uchun nomiga tashkil etilmoqda.

Parlament nazorati doirasida aniqlangan tizimli muammolarni umumlashtirib, ijtimoiy-iqtisodiy, sud-huquq

va boshqa sohalarga oid qonunchilikni va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha aniq, asoslangan takliflarni ishlab chiqish va amalga oshirish ishlari qoniqarli emas. Ayniqsa, bu borada xalqaro huquq talablarini hamda rivojlangan xorijiy davlatlarning qonunchiligini o'rganish, ularning ilg'or yuridik tajribasini qo'llash bo'yicha tashabbuslarni ilgari surish borasida Senat faoliyatida o'zgarish sezilmayapti.

Uchinchidan, hammamiz bilamizki, Senat – bu Oliy Majlisning hududiy vakillik palatasidir. Biroq Senat faoliyatida hududlarning manfaatlarini inobatga olish, umuman, hududlarga oid masalalarni ko'rib chiqish yaqin-yaqingacha e'tibordan chetda qolib kelgani hech kimga sir emas.

Yuqori palata tomonidan muayyan hududni subvensiya (dotatsiya)dan chiqarish bo'yicha hokimning axboroti biror marta ham tinglanmagan. Faqatgina 2018-yilda Senat tarixida ilk marotaba tegishli viloyat hokimining hududlarni rivojlantirish yuzasidan hisobotini eshitish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Jumladan, Andijon, Buxoro, Farg'ona viloyatlari hokimlarining hududlarni rivojlantirish hamda xalq deputatlari mahalliy Kengashlari faoliyati haqidagi hisobotlari eshitildi. Lekin bular hali yetarli emas.

Ayni vaqtda yuqorida zikr etilgan parlament eshituvlari bo'yicha qabul qilingan qarorlarning mazmuni asosan hokimlik va mahalliy davlat idoralariga umumiy ruhdagi topshiriqlar berish bilan cheklanib qolmoqda.

Bu hujjatlarda har tomonlama chuqur tayyorlangan, har bir hududdagi ijtimoiy muammolarni yechishga, aholining og'irini yengil qilishga qaratilgan aniq vazifalar o'z ifodasini topmayapti. Shu bilan birga, ushbu qarorlar ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish ishlari ham sust olib borilmoqda.

To'rtinchidan, ma'lumki, Senat zimmasiga xalq deputatlari mahalliy Kengashlari bilan amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yish, ularning ish samaradorligini oshirish vazifasi ham yuklangan. Ushbu masala bo'yicha yuqori palatamizda maxsus komissiya ham tuzilgan.

Mazkur yo'nalishda dastlab muayyan tadbirlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, oxirgi yillarda Senat tomonidan xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining faoliyatini kuchaytirish bo'yicha ishlar tizimli asosda olib borilmayapti. Vaholanki, joylardagi mahalliy Kengashlar deputatlarining professional saviyasi va huquqiy savodxonligi, ularning deputatlik faoliyatini to'g'ri va samarali tashkil etish ko'nikmalari bugungi kun talablari darajasida emas, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, biz kelgusida hokimlarning ijro va vakillik hokimiyati rahbari sifatidagi vakolatlarini alohida-alohida ajratib qo'yishni o'z oldimizga vazifa qilib qo'ygan ekanmiz, Senatning xalq deputatlari mahalliy Kengashlari bilan samarali hamkorlikni tashkil etishdagi roli va mas'uliyati yanada ortishi tabiiy.

Beshinchidan, yana bir muhim masala – bu Senatning xalqaro yo'nalishdagi faoliyatini kuchaytirish bilan bog'liq.

Barchamizga ayonki, davlatimizning xalqaro maydondagi obro‘-e‘tiborini ko‘tarish, faol tashqi siyosat olib borish sohasida ham Senatning muhim vazifalari bor.

Bu sohada Senat, xususan, Raisning birinchi o‘rinbosari Sodiq Solihovich Safojev tomonidan ko‘pgina ishlar amalga oshirilayotganini albatta e‘tirof etishimiz kerak.

Katta hayotiy va senatorlik tajribasiga ega S.Safojev xorijiy davlatlar parlamentlari va xalqaro tashkilotlar bilan ko‘pqirrali va samarali hamkorlik aloqalarini kuchaytirish, mamlakatimizda olib borilayotgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalardagi tub islohotlarning ma‘no-mazmunini jahon jamoatchiligiga yetkazishda jonbozlik bilan faoliyat ko‘rsatmoqda.

Birgina shu yilning o‘zida Senat ishtiroki va shafeligida 50 dan ziyod xalqaro anjumanlar, seminarlar va davra suhbatlari o‘tkazildi.

Lekin yuqori palatamizning xalqaro yo‘nalishdagi ishining natijadorligiga yaxlit baho beradigan bo‘lsak, hali to‘la ishga solinmagan imkoniyatlar mavjud. Jumladan, Parlamentlararo Ittifoq, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Parlament assambleyasi, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi parlamentlararo assambleyasi va O‘zbekiston nomidan Oliy Majlis a‘zo bo‘lgan boshqa xalqaro parlament tashkilotlari bilan ishlash strategiyasini belgilaydigan, aniq va uzoq muddatni ko‘zlaydigan ish rejalarini Senat belgilab olishi lozim.

Umuman, parlamentlararo hamkorlik doirasida senatorlarning chet ellarga rasmiy tashriflari oldindan puxta rejalashtirilishi kerak, muzokaralar doirasida xorijiy sheriklar bilan muhokamaga qo'yiladigan masalalarni pishiq-puxta belgilab olish shart.

Oddiy qilib aytganda, parlamentlararo hamkorlikka oid tashriflarga yuqori natijadorlik nuqtayi nazaridan yondashishning vaqti-soati keldi.

Bundan tashqari, xorijiy investitsiyalar va tashqi savdo masalalariga oid tasdiqlangan ko'plab «yo'l xaritalari» ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo'yicha ham Senat faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan imzolangan xalqaro shartnomalarning ijrosini parlament nazorati tartibida muntazam o'rganishni yo'lga qo'yish lozim.

Aziz do'stlar!

Ma'lumki, har qaysi mamlakat, har qaysi xalq hayotida **Shaxs – Oila – Jamiyat – Davlat** degan tushuncha va **qadriyatlar** hal qiluvchi o'rin tutadi. Jamiyatning birlamchi va asosiy bo'g'ini bo'lgan oilani esa muhtaram ayol siymosisiz aslo tasavvur etib bo'lmaydi.

Xalqimiz azaldan muqaddas Ona zotiga, xotin-qizlarga doimo yuksak ehtirom ko'rsatib keladi. **Ayolga bo'lgan hurmat-e'tibor – bu avvalo oilaga, jamiyat kelajagiga bo'lgan hurmat-e'tibor ifodasidir.**

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, «Yer yuzidagi har qaysi jamiyatning madaniy darajasi uning ayollarga

nisbatan munosabati bilan belgilanadi», degan hikmatli soʻzlarda albatta chuqur maʼno bor.

Hozirgi globallashuv davrida xotin-qizlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy faolligini oshirish davr talabiga aylanmoqda.

Bugungi kunda yurtimizdagi davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1 ming 400 ga yaqin ayollar rahbarlik lavozimlarida ishlayotgan. Xotin-qizlarimiz orasidan Oliy Majlis Senatida – 17 nafar senator, Qonunchilik palatasida – 21 nafar deputat faoliyat olib bormoqda. Mahalliy kengashlarda esa xalq vakillarining 23 foizdan ziyodini xotin-qizlar tashkil etadi.

Respublika boʻyicha joriy yilning may oyida fuqarolar yigʻinlari raisligi uchun oʻtkazilgan saylovlarda 1 ming 25 nafar ayol oʻzini oʻzi boshqarish idoralari raisi lavozimiga saylandi.

Yurtimizdagi turli korxonalarda ishlayotgan rahbar ayollar soni ham oʻsib bormoqda. Bu koʻrsatkich 2017- yili 44,2 foizni tashkil etgan boʻlsa, 2019-yilda 45,3 foizga yetgan.

Xotin-qizlarning ulushi sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida 82 foizdan ziyodni, ilm-fan, taʼlim-tarbiya, madaniyat va sanʼat sohalarida 72 foizni, qishloq xoʻjaligida 45 foizdan ortiqni, sanoatda 38 foizni tashkil etmoqda. Yurtimizdagi jami tadbirkorlik subyektlari tarkibida tadbirkor ayollarning ulushi 29 foizdan iboratdir.

Shu o'ringda BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrishning joriy yil 11–17-mart kunlari bo'lib o'tgan, mamlakatimiz delegatsiyasi ham qatnashgan BMT Xotin-qizlar ahvoli bo'yicha komissiyasining 63-sessiyasida aytgan bir fikrini keltirmoqchiman. **«Qayerdagi siyosiy va ijtimoiy hayotda xotin-qizlar faol ishtirok etayotgan bo'lsa, o'sha joyda iqtisodiyot o'smoqda, barqarorlik mustahkamlanmoqda va fuqarolarning farovonligi yuksalmoqda»**, deb ta'kidladi A.Guterrish.

Bugungi kunda O'zbekistonda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ayollarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida to'laqonli ishtirok etishiga erishish, gender tenglik va reproduktiv salomatlikni ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan davlat siyosatiga jahon hamjamiyati, jumladan, BMT, Xalqaro mehnat tashkiloti, UNISEF, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti kabi nufuzli xalqaro ixtisoslashgan muassasalar tomonidan yuqori baho berilmoqda.

Barchamizni ruhlantirib, yangi kuch-quvvat bag'ishlaydigan bunday ijobiy o'zgarishlarga, avvalambor, yurtimizda xotin-qizlarning jamiyat hayotida munosib o'rin egallashi, ularning ijtimoiy nufuzini yanada yuksaltirishga qaratilgan salmoqli ishlarimiz mustahkam poydevor bo'layotganini ta'kidlash lozim.

O'tgan qisqa davrda bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2 ta farmoni, 2 ta qarori, Hukumatning 6 ta qarori va 4 ta farmoyishi qabul qilindi va ular izchil amalga oshirilmoqda. Albatta, sizlar

bularning barchasidan yaxshi xabardorsiz. Shuning uchun men bu masalaga batafsil to'xtalib o'tirmoqchi emasman.

Eng muhimi, bu ustuvor yo'nalish bizning doimiy e'tibor markazimizda bo'lib kelmoqda. Jumladan, xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish, ishga joylashtirish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun zarur sharoit yaratish, ularni uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha katta ishlar olib borilmoqda.

Misol uchun, «**Har bir oila – tadbirkor**» dasturini amalga oshirish doirasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun tijorat banklari tomonidan o'z biznesini tashkil etmoqchi bo'lgan 12 ming 651 nafar ayolga 1 trillion 235 milliard so'mdan ortiq kreditlar berildi. Shu bilan birga, Xotin-qizlar va oilani qo'llab-quvvatlash jamoat fondi hisobidan kam ta'minlangan oilalarga mansub 1 ming 949 nafar opa-singillarimizga 42 milliard so'm miqdorida kreditlar ajratildi.

Keyingi paytda yurtimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollarni zamonaviy uy-joylar bilan ta'minlash bo'yicha yangi tizim yaratildi. Ana shu tizim asosida 1 ming 564 nafar xotin-qizlar nafaqat uy-joyga, balki ish o'rinlariga ham ega bo'lib, ularning ertangi kunga ishonchi mustahkamlanib borayotgani g'oyat muhimdir.

Xabaringiz bor, bugungi kunda «**Besh ijobiy tashabbus**» doirasida boshlangan ishlarimiz tobora keng tarqalmoqda, xalqimiz bu harakatni har tomonlama qo'llab-quvvatlamokda. Xususan, xotin-qizlar bandligini

oshirishga doir beshinchi tashabbus bo'yicha 2019–2020-yillarda har bir tumanda tikuv-trikotaj korxonalarini qurish va ayollar uchun qariyb 57 mingta yangi ish o'rinlari yaratish ko'zda tutilmoqda. Bu loyihalar o'zining dastlabki natijalarini bermoqda. Lekin ularning samarasini oshirish uchun hali ko'p ish qilishimiz kerak.

Hurmatli majlis qatnashchilari!

E'tiboringizni yana bir muhim masalaga qaratmoqchiman. Ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligi bo'yicha o'tkazilgan oxirgi ijtimoiy so'rovlar ishtirokchilarining 70,2 foizi mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy faolligini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilganini qayd etgan. Ushbu so'rovda qatnashgan 81,5 foiz respondentlarning fikricha, ayollarning jamoat yoki siyosiy tashkilotlarda o'z faoliyatini amalga oshirishda hech bir shaxs va biror-bir holat ularga xalaqit bermaydi.

Shu o'rinda meni ongimizda chuqur ildiz otgan bir aqida ko'p o'ylantiradi. Biz doimo ayol – bu ona, oilamiz bekasi, deb ularni ulug'laymiz. Bu to'g'ri, albatta. Ammo **hozirgi kunda har bir xotin-qiz demokratik jarayonlarning kuzatuvchisi emas, balki faol va tashabbuskor ishtirokchisi bo'lmog'i shart.**

Afsuski, biz uzoq vaqt bu masalaga yetarlicha e'tibor bermasdan, hurmatli opa-singillarimizning dard-u tashvishlariga beparvo qarab kelganimiz tufayli yillar davomida to'planib qolgan ijtimoiy muammolarni hal

qilish bugun, ochig'ini aytish kerak, oson bo'lmayapti. Lekin qanchalik qiyin va murakkab bo'lmasin, muhtaram opa-singillarimiz uchun munosib ish va turmush sharoitlarini yaratib berish bo'yicha biz bor kuch va imkoniyatlarimizni to'la safarbar etamiz. Chunki, takror aytaman, **agar ayol, ona baxtli bo'lsa, oila baxtli bo'ladi, oila baxtli bo'lsa, butun jamiyat, davlat mustahkam va barqaror bo'ladi.**

Siyosiy-ijtimoiy hayotimizda hurmatli ayollari-mizning o'rni va nufuzini yanada mustahkamlash maqsadida quyidagi muhim vazifalarni amalga oshirishimiz zarur.

Birinchidan, bundan o'n yil oldin Senat a'zolari va Qonunchilik palatasi deputatlari tarkibida xotin-qizlar miqdori 20 foizdan ortiq edi. Endilikda bu ko'rsatkich yuqori palatada – 17 foizga, quyi palatada esa – 16 foizga tushib qoldi. Bu nimadan dalolat beradi?

Javob aniq: siyosiy partiyalarimiz o'z saflariga bilimli, tashabbuskor va tashkilotchi ayollarni jalb etish, ularning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirishga yetarlicha e'tibor bermayapti. Vaholanki, BMT ma'lumotlariga ko'ra, parlamentlarda ayollarning vakilligi butun dunyoda o'sib bormoqda va 2018-yilda bu ko'rsatkich 24,3 foizni tashkil etgan.

Sizlarga yaxshi ma'lumki, jahondagi demokratik tajribadan kelib chiqqan holda, mamlakatimiz saylov qonunchiligida parlament va mahalliy kengashlarga bo'ladigan saylovlarda xotin-qizlar orasidan ko'r-

satiladigan nomzodlar bo'yicha 30 foizlik kvota belgilangan.

Yurtimizda o'zining aql-zakovati, chuqur bilimi, katta hayotiy tajribasi, fidokorona mehnati, insoniy fazilatlari bilan hammaga o'rnak va namuna bo'lib kelayotgan opa-singillarimiz ko'plab topiladi. Bu yil Oliy Majlis va mahalliy Kengashlarga bo'lib o'tadigan saylovlarda ana shunday siyosiy saviyasi yetuk, mehnatkash va oqila ayollarimiz o'z salohiyatini namoyon etib, deputat va senator bo'lib saylansalar, men ishonaman, bundan davlatimiz ham, jamiyatimiz ham faqat katta naf ko'radi.

Parlamentga va mahalliy Kengashlarga saylanadigan ayollar sonining o'sishi qonun ijodkorligi jarayonida xotin-qizlarning manfaatlari va fikrlarini hisobga olish imkoniyatini beradi. Shuningdek, davlat budjeti shakllanishida gender tengligi masalalarini inobatga olish mumkin bo'ladi.

Ikkinchidan, Oliy Majlis tizimida xotin-qizlar masalalari bilan bevosita shug'ullanadigan biron-bir qo'mita mavjud emas.

To'g'ri, 2017-yili Qonunchilik palatasining Oila va ayollar masalalari bo'yicha komissiyasi tuzilgan edi. Bu tuzilma negadir ishlamadi, uning Nizomida belgilangan vazifalar qog'ozda qolib ketdi. Oqibatda bugungi kunda oilani mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, ayollarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga, ularning jamiyatdagi

mavqeyini oshirishga qaratilgan muayyan bir tuzilma Qonunchilik palatasida ham, Senatda ham yo‘q.

Uchinchidan, o‘tgan ikki yilda xalqaro andozalar talablari doirasida ayollar ahvolini tubdan yaxshilashga doir 15 ta normativ-huquqiy hujjat imzolangan va ijroga qaratilgan. Ammo qonun ijodkorlari o‘zlarining bu boradagi asosiy vazifasi bilan shug‘ullanish o‘rniga, hali ham «uxlab» o‘tiribdi.

Faollik va tashabbuskorlikni oshirish zarur. Yaqin vaqt ichida ikkita yangi qonun, ya’ni, **«Erkaklar va ayollarning teng huquqlari va imkoniyatlari kafolatlari to‘g‘risida»** hamda **«Ayollarni tazyiq va zo‘ravonliklardan himoya qilish to‘g‘risida»**gi qonunlarni qabul qilishimiz kerak.

To‘rtinchidan, mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlari jadal rivojlanmoqda. Lekin 9 mingdan ziyod nodavlat notijorat tashkilotdan faqatgina 376 tasi ayollar muammolari bilan shug‘ullanadi. Bu yetarli emas, albatta.

Ijtimoiy sharoiti og‘ir ayollarni qo‘llab-quvvatlash, xotin-qizlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni ish bilan ta‘minlash masalalarida bu tashkilotlarning ishtiroki yetarli darajada sezilmayapti. Ular faqat nomiga yig‘ilish va tadbirlar o‘tkazish bilan mashg‘ul bo‘lib qolmoqda.

Bu boradagi ahvolni tubdan yaxshilash uchun Senat faoliyatining asosiy yo‘nalishlari quyidagi masalalarga qaratilishi maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Avvalo, oilani mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, ayollarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va madaniy hayotda ayollarning ishtirokini kengaytirish bo'yicha qonun ijodkorligi va parlament nazoratini kuchaytirish lozim. Buning uchun qanday yangi qonunlar qabul qilish, qaysi qonunlarni o'zgartirish kerakligi haqida fuqarolarimiz, saylovchilar siz, hurmatli senatorlarimizdan aniq taklif va tavsiya kutmoqdalar.

Yana bir muhim masala – ayollarni ish bilan ta'minlash, xotin-qizlarning zamonaviy kasb-hunar-larni puxta egallashi uchun sharoit yaratish, ularning ishbilarmonlik ko'nikmalarini rivojlantirish, xotin-qizlarni tadbirkorlikka keng jalb etishdan iborat.

Navbatdagi dolzarb vazifa – ayollar sog'lig'ini mustahkamlash, oilalarning tibbiy madaniyatini oshirishda ko'maklashish, joylarda, xususan, mahallalarda, xotin-qizlar o'rtasida olib borilayotgan ma'rifiy-tarbiyaviy ishlar samaradorligini kuchaytirish bilan bog'liq. Bu borada, ayniqsa, qiz bolalarni hayotga tayyorlash, ularni zamonaviy bilim va kasb-hunarlarga o'rgatish, ilm-fan, madaniyat va san'at, sport sohalariga keng jalb etish orqali ularning qobiliyati va salohiyatini ro'yobga chiqarish muhim ahamiyatga ega ekanini, o'ylaymanki, barchamiz yaxshi tushunamiz.

Shular qatorida bizning mehr-oqibatli, oqko'ngil ayollarimizga mutlaqo yarashmaydigan salbiy illatlar, ya'ni, xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklar, jumladan,

jinoyatchilik, odam savdosi, oilaviy ajrimlar, erta nikohlarning, o'z joniga qasd qilish holatlarining oldini olish doimiy e'tiborimiz markazida bo'lishi zarur. Bu borada xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash bo'yicha mamlakatimiz o'z zimmasiga olgan xalqaro majburiyatlarni bajarish ham ustuvor vazifa hisoblanadi.

Keyingi paytda to'g'ri yo'ldan adashganlarni kechirish va sog'lom hayotga qaytarish, oila, mahalla va jamiyatda tinchlik va totuvlik muhitini mustahkamlash borasida boshlagan ishlarimizni izchil davom ettirishimiz lozim.

Mana shunday o'ta muhim va dolzarb vazifalarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida yangi tuzilma – Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha qo'mita tuzishni taklif etaman.

Muhtaram Senat a'zolari!

Hammangizga ma'lumki, Nig'matilla To'lqinovich Yo'ldoshev 2015-yildan buyon Senat Raisi lavozimida ishlab keldi. Shu o'tgan davr mobaynida Senat tomonidan erishilgan barcha yutuq va natijalarda uning ham munosib hissasi bor, albatta.

Men kecha N.Yo'ldoshevni O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori etib tayinlash haqidagi farmonga imzo chekdim. Shu munosabat bilan u Senat Raisi lavozimidan muddatidan oldin ozod etildi.

Hurmatli Nig'matilla To'lqinovich, sizga ushbu mas'uliyatli vazifada muvaffaqiyat tilaymiz.

Hurmatli senatorlar!

Endi Senatning yangi Raisini saylab olishimiz kerak. Bu lavozim egasiga qanday yuksak talablar qo'yilishini barchamiz albatta yaxshi tushunamiz.

Senat Raisi, avvalo, mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik islohotlarning mazmun-mohiyatini chuqur tushunadigan, ijtimoiy hayotimizda qonun va adolat ustuvorligini ta'minlash, oila, jamiyat va davlat institutlarini o'zaro uyg'un rivojlantirishga bilim va salohiyati, huquqiy tafakkuri yetadigan, katta tashkilotchilik qobiliyatiga ega, Senat faoliyatini bugungi yangi talablar darajasida tashkil etishga qodir shaxs bo'lishi kerak.

Biz bu borada ko'p fikrlashdik, jahon parlamentarizmi amaliyoti va rivojlangan demokratik davlatlar tajribasini ham o'rgandik.

Bildirilgan barcha fikr va takliflardan kelib chiqib hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 86-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi lavozimiga Tanzila Kamolovna Norboyeva nomzodini taklif etaman.

U 1956-yili Andijon viloyatida tug'ilgan, ma'lumoti oliy, Toshkent davlat universitetini tugatgan. O'z mehnat faoliyatini maktab o'qituvchiligidan boshlagan, Xalq demokratik partiyasida tuman kengashi kotibi, ushbu partiyaning Markaziy kengashi sho'ba mudiri, 1995-yildan 2010-yilga qadar O'zbekiston Respublikasi Hukumatida mas'ul lavozimlarda ishlagan.

2010–2016-yillarda O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi raisi vazifasida faoliyat yuritgan. 2016-yildan buyon O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari – O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi raisi lavozimida ishlab kelmoqda.

T.Norboyeva qayerda ishlamasin, o‘zining mehnat-sevarligi, bilim va tajribasi, talabchanlik va tashkilotchilik fazilatlari, o‘ziga ishonib topshirilgan vazifani mas’uliyat bilan ado etishi, kamtarligi bilan mamlakatimiz jamoatchiligi o‘rtasida munosib obro‘-e’tibor qozongan.

Tanzila Kamolovna Norboyeva nomzodini Senat Raisi lavozimiga tasdiqlash uchun ovozga qo‘yishni iltimos qilaman.

Hurmatli senatorlar!

Ishonchim komil, barchangiz Senatimizning yangi Raisi rahbarligida Vatanimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligi, jonajon O‘zbekistonimizning yorug‘ kelajagini ta’minlash uchun o‘zingizni ayamadan, katta kuchg‘ayrat bilan mehnat qilasizlar.

Shu ezgu maqsad yo‘lida barchangizga sihat-salomatlik, mas’uliyatli faoliyatingizda yutuq va omadlar tilayman.

E’tiboringiz uchun rahmat.

2019-yil 21-iyun

**DO‘STONA AMALIY HAMKORLIK
BARQAROR
RIVOJLANISH KAFOLATIDIR**

HAMKORLIKNING YANGI SUR'ATI

Muhtaram Emomali Sharipovich!

Hurmatli ommaviy axborot vositalari vakillari!

Xonimlar va janoblar!

Tojikiston Respublikasi Prezidenti, muhtaram Emomali Sharipovich Rahmonning birinchi davlat tashrifidan bag'oyat mamnunman.

Umumiy tarix, madaniyat, an'ana va urf-odatlar mushtarakligi asrlar davomida xalqlarimizni bog'lab kelgan.

Tojikiston Respublikasi Prezidenti, yirik davlat va siyosat arbobi muhtaram Emomali Sharipovich Rahmon rahbarligi ostida qardosh Tojikiston xalqi erishayotgan muvaffaqiyatlar bizni nihoyatda xursand qiladi.

Shuni alohida ta'kidlashni istardimki, 2018-yil O'zbekiston–Tojikiston munosabatlarining ko'p asrlik tarixida hech mubolag'asiz ulkan ijobiy o'zgarishlar davri bo'ldi. Juda qisqa vaqt ichida birgalikdagi sa'y-harakatlarimiz tufayli barcha yo'nalishlardagi hamkorlikka kuchli sur'at bag'ishlashga erishdik.

Mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlarni kengaytirishga qo'shayotgan katta shaxsiy hissangiz uchun sizga, hurmatli Emomali Sharipovich, alohida minnatdorlik bildirmoqchiman.

Ommaviy axborot vositalari vakillari oldida yana bir bor shuni tasdiqlamoqchiman: qo'shnimiz Tojikiston bilan do'stona munosabatlarni mustahkamlash O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Tojikiston Respublikasi Prezidentining mamlakatimizga birinchi bor davlat maqomida o'tayotgan ushbu tashrifi bundan dalolat beradi.

Bu tashrifga biz yaqin siyosiy muloqotimizning davomi sifatida qaraymiz hamda ikki tomonlama munosabatlarni yanada yuksak darajaga olib chiqishga, ularni yangi amaliy mazmun bilan boyitishga tayyormiz.

Bugun bo'lib o'tgan samarali muzokaralarning natijalari menga katta mamnuniyat bag'ishlashini alohida qayd etmoqchiman. Biz siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport, suv-energetika va boshqa muhim sohalardagi hamkorlikni mustahkamlashning dolzarb masalalarini muhokama qildik.

Bu borada qilingan keng ko'lamli va mashaqqatli ishlarning natijasi sifatida bugun munosabatlarimizda yangi bosqich boshlanganidan dalolat beruvchi Strategik sheriklik to'g'risidagi shartnoma imzolandi.

Muzokaralar yakunida jami 26 ta ikki tomonlama hujjatlar imzolandi.

Ko'rilgan aniq chora-tadbirlar tufayli o'zaro tovar ayirboshlash izchil ortmoqda. Joriy yilning birinchi yarim yilligida ikki tomonlama savdo qariyb o'ttiz foizdan ziyodga oshdi. Shu yili umumiy qiymati 300 million

dollardan ziyod savdo shartnomalari va bitimlar imzolandi, shundan 100 million dollardan ziyod kelishuvlar ushbu tashrif doirasida erishildi.

Shu bilan birga hali ishga solinmagan ulkan imkoniyatlar mavjud. Salohiyatimiz yiliga kamida 1 milliard dollarni tashkil etadi. Hukumatlararo komissiyaga o'zaro savdo hajmini oshirish va tarkibini diversifikatsiya qilishni izchil davom ettirishga topshiriq berdik.

Biznes tuzilmalar va chegaraoldi hududlar o'rtasida kooperatsiyani kengaytirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rish zarurligini qayd etdik.

Qurilish materiallari, tayyor to'qimachilik, oziq-ovqat, elektrotexnika mahsulotlari va boshqa tovarlar ishlab chiqarish loyihalarini, shu jumladan, ushbu loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlaridan foydalangan holda tezlashtirishga kelishib oldik.

Energetika sohasidagi samarali hamkorlik mustahkamlanib bormoqda. Tojikistonga tabiiy gaz yetkazib berish tiklandi. Tojikistondan elektr energiyasi sotib olish hajmi ortmoqda.

Bundan buyon ham transport va xalqaro tranzit yo'laklarini rivojlantirish sohasida yanada samarali hamkorlik qilish uchun amaliy sa'y-harakatlarni bajarishga tayyormiz.

Muzokaralar davomida terrorizm, ekstremizm, nar-kotrafik, transmilliy jinoyatchilik, xalqaro xavfsizlikka tahdid soladigan boshqa xavf-xatarlarga qarshi kurashishni chuqurlashtirish masalalari ham muhokama qilindi.

Shu munosabat bilan ikki mamlakat huquqni muhofaza qilish organlari, maxsus xizmatlari va mudofaa idoralari o'rtasida hamkorlikning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish muhimligini qayd etdik.

Muzokaralarda Markaziy Osiyo suv resurslaridan oqilona va adolatli foydalanish masalalariga batafsil to'xtaldik.

Bu borada ochiq muloqotni davom ettirishga, mintaqaning barcha davlatlari manfaatlarini hisobga olgan holda yirik loyihalarni amalga oshirishda o'zaro anglashuv va konstruktiv hamkorlikni mustahkamlashga tayyor ekanimizni tasdiqladik.

Hurmatli do'stlar!

Bugun muhtaram Emomali Sharipovich bilan xalqlarimizni yaqinlashtirishda eng muhim ahamiyat kasb etayotgan madaniy-gumanitar sohadagi o'zaro aloqalar faollashganini mamnuniyat bilan qayd etdik.

Oxirgi vaqtlarda bu borada ko'p ishlar qilinayotgani, o'ylaymanki, barchangizga yaxshi ma'lum. O'zaro Madaniyat kunlari, qo'shma konsertlar, teatr va kino festivallari, badiiy ko'rgazmalar, turli ijodiy uchrashuvlar o'tkazilmoqda. Mamlakatlarimiz fanlar akademiyalari, oliy ta'lim muassasalari, ijodiy uyushmalari va jamoat tashkilotlari o'rtasidagi aloqalar mustahkamlanmoqda.

Sizning, muhtaram Emomali Sharipovich, mazkur tashrifingiz arafasida O'zbekiston va Tojikiston ziyolilari uchrashib, mamlakatlarimiz madaniy-gumanitar hamkorligini yanada mustahkamlash istiqbollari muhokama etgani e'tiborlidir.

Bugun O'zbekistonda 1,5 millionga yaqin tojik millatiga mansub yurtdoshlarimiz istiqomat qilmoqda, mamlakat rivojiga katta hissa qo'shmoqda. Ular orasida O'zbekiston Respublikasining yuksak mukofotlari bilan taqdirlanganlar ko'p va biz bu bilan haqli ravishda faxrlanamiz.

Respublika tojik milliy madaniyat markazi va uning 10 ta hududiy filiali muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

Samarqand, Termiz va Farg'ona davlat universitetlarida, 245 umumta'lim maktabida o'qitish tojik tilida olib borilmoqda, tojik tilida chop etilayotgan 4 davriy bosma nashr mavjud, o'nlab teleko'rsatuv va radioeshittirishlar efirga uzatilmoqda.

Har bir o'zbek oilasida tojik adabiyotining klassiklari – Firdavsiy, Abu Abdullo Rudakiy, Abdurahmon Jomiy, Sadriddin Ayniyni yaxshi bilishadi va sevib mutolaa qilishadi. Mamlakatimizdagi ko'chalar va maydonlarga ularning nomi berilgan.

Xalqlarimizning buyuk shoir va mutafakkirlari Mavlono Jomiy va Hazrat Navoiy o'rtasidagi do'stlik haqiqiy qardoshlik munosabatlarimizga yorqin misoldir.

Shuni alohida ta'kidlamochimanki, buyuk ajdodlarimizning bebaho ijodiy merosini ko'z qorachig'idek avaylash va o'rganish har birimizning muqaddas burchimiz, kelgusi avlodlar oldidagi majburiyatimizdir.

Qadrli do'stlar!

O'zbekiston – Tojikiston munosabatlarida ro'y bera-yotgan ulkan ijobiy o'zgarishlar xususida hali ko'p gapirish mumkin.

E'tiboringizni qaratmoqchi bo'lgan eng muhim yutug'imiz ham borki, u ham bo'lsa ikki davlat rahbarlarining siyosiy irodasi va amaliy ishlari ham O'zbekiston, ham Tojikistondagi millionlab odamlarning yuragidan chuqur joy olmoqda.

Munosabatlarimizdagi muhitning o'zi o'zgardi.

Chegaraning ikki tomonida yashayotgan, yillar davomida ma'lum vaziyat taqozosi bilan o'z qarindoshlari, do'st-u yaqinlarini ko'ra olmagan odamlarning kayfiyati o'zgardi.

Ushbu muammoning naqadar ahamiyatli ekanini, undan aziyat chekkan insonlar taqdirini tasavvur qilish uchun chegaralarimizdagi o'tish punktlari ochilganda, mamlakatlarimiz o'rtasidagi transport qatnovi qayta tiklanganda ularning yuz-u ko'zidagi samimiy shodlikni ko'rishning o'zi kifoya.

Barchangizni ishontirib aytaman: davlatlararo munosabatlarimizni tubdan yaxshilash yo'lida muhtaram Emomali Sharipovich bilan shu kungacha qilgan barcha ishlarimiz – bu hali boshlanishi! Bu birinchi qadamlar, xolos!

Biz bundan buyon ham xalqlarimiz o'rtasidagi buzilmas do'stlik ko'prigini har tomonlama mustahkamlash borasida barcha kuch va imkoniyatlarimizni ishga solamiz.

Muhtaram Emomali Sharipovich!

Hurmatli ommaviy axborot vositalari vakillari!

So'zim yakunida Tojikiston Respublikasi Prezidenti, do'stim va qardoshim, muhtaram Emomali Sharipo-

vichning mamlakatimizga birinchi davlat tashrifi ikki tomonlama hamkorlikning yangi ufqlar ochganini alohida ta'kidlamogchiman.

Ushbu tashrif yakunlari juda natijador va samarali bo'ldi. Ular O'zbekiston – Tojikiston munosabatlarini strategik sheriklik, o'zaro hurmat, do'stlik va yaxshi qo'shnichilik asosida mustahkamlashga ikkala tomonning ham intilishi qat'iy ekanini yana bir bor tasdiqladi.

E'tiboringiz uchun rahmat.

*Tojikiston Respublikasi Prezidenti
Emomali Rahmonning O'zbekistonga davlat
tashrifi doirasida ommaviy axborot
vositalari vakillari
uchun bayonot*

2018-yil 17-18-avgust

XALQLARIMIZNING BUGUNI VA KELAJAK TAQDIRI MUSHTARAK

Assalomu alaykum, qadrli do'stlar!

Muhtaram Emomali Sharipovich!

Do'stoni aziz, barodaroni Tojikiston!

Mehmononi oliyqadr!

Ijzat dihed, ba shumo va dar siymoi shumoyon
ba xalqi barodari Tojikiston az nomi xudam va xalqi
O'zbekiston hurmat-u ehtiromi izhor namoyam.

Xush omaded ba zamini O'zbekiston!

Aziz do'stlar!

Sizlarni Tojikiston Respublikasi Prezidenti, muhtaram
Emomali Sharipovich Rahmonning mamlakatimizga
ilk davlat tashrifi munosabati bilan tashkil etilgan
O'zbekiston va Tojikiston san'at ustalari ishtirokidagi
tantanali konsertda qutlash bizga katta mamnuniyat
bag'ishlaydi.

O'zbekiston ushbu tashrifga oliy darajadagi mulo-
qotimizning mantiqiy davomi, o'zaro munosabatlari-
mizni izchil rivojlantirishga kuchli sur'at bag'ishlay-
digan, ularni yangi, yanada chuqur va amaliy mazmun
bilan boyitadigan hodisa, siyosiy irodamiz va intilishi-
mizning namoyishi sifatida qaraydi.

O'zbek va tojik xalqlari bir daraxtning ikki shoxi,
bir daryoning ikki irmog'iga o'xshaydi. Bizning

muqaddas dinimiz, yerimiz va suvimiz bir. Quvonch-u tashvishlarimiz, taqdirimiz mushtarak.

Shu munosabat bilan buyuk tojik shoiri va mutafakkiri Abdurahmon Jomiyning soʻzlarini keltirish oʻrinli, deb oʻylayman.

«Bu hayotda eng asosiysi, eng muhimi – barcha shodlik va kulfatlarni baham koʻrish mumkin boʻlgan ishonchli va samimiy doʻsting boʻlishidir», degan edi bu ulugʻ zot.

Aziz doʻstlar, eʼtibor bering, ana shu soʻzlarga Mavlono Jomiyning oʻzining maʼnaviy va ijodiy ustozlari deb hisoblagan buyuk Mir Alisher Navoiyning **«Doʻst boʻlmasa, bu dunyo zulmatda qolur»,** degan soʻzlari naqadar hamohangdir!

Bugun koʻhna va hamisha navqiron Samarqand zaminini oʻzlaridan oʻlmas meros qoldirgan ikki buyuk shoir sharafiga oʻrnatilgan yodgorlik majmuasi bezab turgani chuqur ramziy maʼnoga ega.

Ana shunday ulugʻ ajdodlarning avlodi ekanimizdan barchamiz haqli ravishda faxrlanishimiz mumkin. Ularning ezgu oʻgitlari beqiyos boyligimiz boʻlmish tinchlikni, oʻzbek va tojik xalqlarining doʻstligi va birodarligini asrab-avaylash va mustahkamlashga ruhlantiradi.

Biz yashayotgan goʻzal zaminni farzand va nabiralimiz uchun, bugungi va kelgusi avlodlarning baxt-saodati va farovonligi yoʻlida yanada obod qilish – bizning umumiy maʼnaviy burchimiz.

Aziz do'stlar!

O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi hamkorlikning barcha yo'nalishlari bo'yicha yangi muvaffaqiyatlarga erishilganini chuqur mamnuniyat bilan qayd etmoqchiman.

Keyingi vaqtda bo'lib o'tgan samarali va konstruktiv uchrashuv va muzokaralar, biz erishgan amaliy kelishuvlar munosabatlarimiz solnomasida yangi yorqin sahifa ochdi.

Bunday siyosat, bunday yondashuv mamlakatlarimiz millionlab aholisining hayotiy manfaatlariga, orzu-umidlariga to'liq javob beradi. Shu sababli O'zbekiston va Tojikistonning ko'pmillatli xalqlari bu boradagi sa'y-harakatlarimizni qizg'in qo'llab-quvvatlayotgani tabiiydir.

Bugun biz muhtaram Emomali Sharipovich bilan tarixiy hujjat – O'zbekiston Respublikasi va Tojikiston Respublikasi o'rtasida strategik sheriklik to'g'risidagi shartnomani imzoladik. Bu uzoq muddatli maqsadlarimiz mushtarakligi, oldimizda turgan muhim vazifalarni birgalikda hal etishga bo'lgan intilishimiz umumiy ekanining yaqqol tasdig'i bo'ldi.

Ishonchim komil, Tojikiston Respublikasi Prezidenti, do'stim va birodarim, hurmatli Emomali Sharipovich Rahmonning davlat tashrifi O'zbekiston–Tojikiston munosabatlari rivojiga kuchli turtki beradi, uni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.

Bugun O'zbekiston va Tojikiston tomonidan Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari bilan bir qatorda olib

borilayotgan do'stlik va yaxshi qo'shnihilik siyosati tufayli butun mintaqada siyosiy, savdo-iqtisodiy, ham madaniy-ma'naviy hamkorlik muhiti tubdan o'zgardi.

Hozirgi murakkab, mas'uliyatli pallada barchamiz bir tan-u bir jon, bir-birimizga mehribon bo'lishimiz zarur ekanini hayotning o'zi tasdiqlayotganini biz, ulkan mintaqamizda yashayotgan barcha odamlar yaxshi anglaymiz. Hech shubhasiz, keyingi vaqtlarda ancha kengaygan, ta'bir joiz bo'lsa, yangi quvvatga ega bo'lgan madaniy-gumanitar hamkorlik bu borada muhim o'rin tutadi.

Aziz do'stlar, o'zingiz ayting, o'zbek va tojik xalqlarining boy madaniyati, urf-odat va an'analarini bir-biridan alohida tasavvur qilish mumkinmi o'zi?

Bizdek ikki yaqin xalq bu dunyoda yana qayerda bor?

Ming yillar davomida yonma-yon yashagan, ko'plab sinovlarni birgalikda boshidan kechirgan o'zbek va tojikning do'st-u birodarligi ko'plab madaniyat va san'at arboblارimiz asarlarida asosiy mavzu bo'lgan. Bunga yorqin misol – ham Tojikiston, ham O'zbekiston zamonaviy adabiyotining asoschisi buyuk Sadriddin Ayniyning ijodi.

Shu bilan birga, samimiy do'stligimizni tarannum etgan, o'z otashin satrlarini xalqlarimiz birodarligiga bag'ishlagan G'afur G'ulom va Mirzo Tursunzoda, Zulfiya va Mirsaid Mirshakar, Boqi Rahimzoda va Mirtemir, Erkin Vohidov va Mo'min Qanoat, Abdulla Oripov va Loyiq Sherali kabi va boshqa ko'plab barcha-

mizga yaxshi ma'lum bo'lgan shoir va adiblarning nomlarini keltirish mumkin.

Fursatdan foydalanib, O'zbekiston va Tojikiston ziyolilariga yana bir bor murojaat qilmoqchiman: bizga suv bilan havodek zarur ushbu ezgu an'anani har tomonlama mustahkamlashimiz va kengaytirishimiz lozim. Bir-birimizdan ko'proq o'rganishimiz, tajriba almashishimiz lozim. Birgalikda ilmiy tadqiqotlar, madaniyat va san'at kunlari, festivallar, ko'rgazmalar, ijodiy safarlar o'tkazish, hamkorlikda spektakl va filmlar yaratishimiz zarur.

Bir so'z bilan aytganda, xalqlarimiz, ayniqsa, yosh avlod yanada yaqin bo'lishi, ularni do'stlik, birodarlik va yaxshi qo'shnichilik ruhida tarbiyalash uchun zarur bo'lgan barcha imkoniyatlarni ishga solishimiz kerak.

Shu munosabat bilan Tojikiston Prezidenti, muhtaram Emomali Sharipovichga ushbu ezgu ishga qo'shayotgan ulkan shaxsiy hissasi uchun, davlatlarimiz o'rtasidagi ko'pqirrali hamkorlikni yanada mustahkamlashga qaratayotgan e'tibori va sa'y-harakatlari uchun samimiy minnatdorligimni bildirmoqchiman.

Hurmatli do'stlar!

Musiqaning maftunkor ohanglari, shoir va rassomlar tomonidan yaratilgan nafis obrazlar – sehrli san'atning chegara bilmas bu olami hayotimizga yuksak ma'nomazmun, uyg'unlik va go'zallik baxsh etadi.

Shu munosabat bilan, ayniqsa, bugungi tahlikali zamonda mamlakatlar va xalqlar o'rtasidagi madaniy-

gumanitar hamkorlikni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu ma'noda, o'zbek va tojik xalqlari madaniyatining boyligi, xilma-xilligi va shu bilan birga, hayratlanarli darajada o'xshashligini yaqqol namoyon etadigan bugungi do'stlik oqshomi ma'naviy yaqinligimiz va qardoshligimizni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Qadrli mehmonlar!

Barchamiz Mavlono Jomiy Hazrat Navoiyga bag'ishlab yozgan satrlarni yaxshi bilamiz:

*Zakovating nuri baxsh etdi safo,
Navoiy, lutfingdan topdi u navo.*

Asrlar osha unga atoqli o'zbek shoiri quyidagi satrlarni bitgan:

*Ikki daryo irmog'idek she'rlar jarangi ila,
Bizga bir qo'shiq kuylar Jomiy va Navoiylar.*

Darhaqiqat, bugun barchamiz chin yurakdan buyuk va go'zal navo – do'stlik qo'shig'ini kuylamoqdamiz.

Aziz do'stlar!

Muhtaram mehmonlar!

Biz O'zbekiston va Tojikiston do'stligida yangi sahifa ochdik.

Xalqlarimizning yangi tarixi boshlandi, bu iqtisodiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyot, tinchlik, barqarorlik va farovonlik davri bo'lishiga ishonaman.

Hurmatli do'stlar!

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga muvofiq Tojikiston Respublikasi Prezidenti, hurmatli

Emomali Sharipovich Rahmon qardosh o'zbek va tojik xalqlarining ko'p asrlik o'zaro do'stlik rishtalarini mustahkamlash, O'zbekiston va Tojikiston Respublikalari o'rtasidagi yaxshi qo'shnichilik va hamjihatlik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohalaridagi aloqalarni yangi bosqichga ko'tarish ishlariga qo'shgan alohida hissasi uchun «El-yurt hurmati» ordeni bilan mukofotlandi.

Ana shu yuksak ordenni muhtaram Emomali Sharipovichga topshirishga ruxsat bergaysiz.

Qadrli Emomali Sharipovich!

Ushbu yuksak mukofot bilan sizni chin yurakdan muborakbod etaman, sizga mustahkam sog'lik, davlat rahbari lavozimidagi ko'pqirrali faoliyatingizga yangi yutuqlar, qardosh Tojikiston xalqiga esa baxt-saodat va farovonlik tilayman.

Do'stligimiz quyoshi yo'limizni hamisha yoritsin!

Do'stii xalqihoi o'zbek-u tojik abadiy bod!

O'zbek va tojik xalqlarining do'stligi abadiy bo'lsin!

E'tiboringiz uchun rahmat.

*Tojikiston Respublikasi Prezidenti
Emomali Rahmonning O'zbekistonga amalga
oshirgan davlat tashrifi doirasida Tojikiston va
O'zbekiston san'at ustalari ishtirokida tashkil etilgan
konsert dasturining tantanali ochilish marosimidagi nutq*

2018-yil 17-avgust

KO‘PASRLIK DO‘STLIK VA QARDOSHLIK RISHTALARI BILAN BOG‘LANGAN XALQLAR

Muhtaram Emomali Sharipovich!

Aziz tojik birodarlar!

Do‘stoni aziz!

Sizni, hurmatli Emomali Sharipovich hamda Tojikiston delegatsiyasi a‘zolarini saxovatli va mehmondo‘st O‘zbekiston zaminida qutlashdan bag‘oyat mamnunman.

Sizning mamlakatlarimiz o‘rtasidagi ko‘pqirrali munosabatlar va o‘zaro manfaatli hamkorlik tarixida yangi sahifa ochgan O‘zbekiston Respublikasiga birinchi davlat tashrifingiz timsolida Dushanbedagi muloqotimizning mantiqiy davomini ko‘ramiz.

Biz O‘zbekiston – Tojikiston munosabatlari davlatlarimiz taraqqiyoti va farovonligi yo‘lida yanada kengayib, mustahkamlanib borishiga qat’iy ishonamiz. Buning uchun barcha asoslar mavjud. Ko‘p asrlik do‘stlik va qardoshlik rishtalari, muqaddas dinimiz, madaniyatimiz, urf-odat va an‘analarimiz mushtarakligi bizni bog‘lab turadi.

Hozirgina bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston va Tojikiston san‘at ustalari ishtirokidagi ajoyib konsert tarixiy va madaniy mushtarakligimizni yana bir bor tasdiqladi.

Sizlarni, aziz tojik do'stlarimizni O'zbekistonda ochiq ko'ngil va samimiyat bilan, o'zimizga eng yaqin odamlar, qardoshlarimiz sifatida kutib olganda bizni chulg'ab oladigan hissiyotlar haqida gap ketar ekan, siz, muhtaram, Emomali Sharipovich, bu fikr va tuyg'ularimizni buyuk Abu Abdullo Rudakiyning quyidagi o'lmas satrlari orqali ifodaladingiz:

**Dunyoning shodligi yig'ilsa butun,
Do'stlar diydoridan bo'lolmas ustun.**

Darhaqiqat, bundan yaxshiroq aytib bo'lmaydi.

Aziz do'stlar!

O'zbekiston qardosh Tojikiston barcha sohalarda erishayotgan salmoqli yutuqlardan samimiy quvonadi.

«Yaxshi rahbar – el-yurt baxti» degan tojik maqolining naqadar to'g'ri ekanini hayotning o'zi tasdiqlamoqda. Taqdir Prezident Emomali Rahmon qiyofasida tojik xalqiga eng namunali fazilatlar – siyosiy donishmandlik, mardlik, odamlarni birlashtirish iste'dodiga ega bo'lgan betakror tarixiy shaxsni ato etdi.

Yirik davlat va siyosat arbobi Emomali Sharipovich Rahmon rahbarligida Tojikiston Respublikasi bugun tinch va osoyishta hayot hukm surayotgan, jadal ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot ta'minlanayotgan, xalqaro hamjamiyatdagi nufuzi ortib borayotgan mamlakatga aylandi.

Mustaqil Tojikistonning eng muhim muvaffaqiyatlari do'stim va qardoshim, muhtaram Emomali

Sharipovichning bevosita uzoqni ko‘zlab olib borayotgan siyosati va fidokorona mehnatining natijasi ekaniga qat’iy ishonaman.

Sizning davlatlarimiz o‘rtasidagi birodarlik aloqalari, yaqin qo‘shnichilik va samarali hamkorlikni mustahkamlashga qo‘shayotgan ulkan shaxsiy hissangizni alohida ta’kidlashni istardim.

Bugun biz ushbu munosabatlarni sifat jihatidan yangi darajaga olib chiqdik – O‘zbekiston Respublikasi va Tojikiston Respublikasi o‘rtasidagi strategik sheriklik to‘g‘risidagi shartnomani imzoladik.

Ustuvor yo‘nalishlardagi sheriklik, jumladan, iqtisodiyot, kooperatsiya, xavfsizlik, madaniyat va san’at sohalarida, hududlar o‘rtasidagi ikki tomonlama hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan muhim shartnomalar ham imzolandi.

Bugun erishilgan kelishuvlar, hech shubhasiz, mamlakatlarimiz rivojida ulkan ahamiyat kasb etadi.

Yana bir marta shuni ta’kidlamoqchimanki, Tojikiston biz uchun ishonchli va sadoqatli do‘stdir. O‘zbekiston ochiq, ishonchga asoslangan muloqotni yanada kengaytirishga qat’iy intiladi hamda keng ko‘lamli hamkorlik uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishga tayyor.

Xalqlarimiz do‘stligi ming yillar davomida shakllanib, mustahkamlanib borgan, shuning uchun bugungi haqiqiy do‘stona munosabatlarimiz kelgusi avlodlarga namuna bo‘lishi uchun qo‘limizdan kelgan barcha choralarni ko‘rish – bizning burchimiz.

Muhtaram Emomali Sharipovich!

Do'stoni aziz!

Birgalikdagi sa'y-harakatlar bilan strategik sheriklik uchun mavjud ulkan salohiyatni qardosh mamlakatlارimiz va xalqlarimiz farovonligi yo'lida samarali ro'yobga chiqarishimizga ishonchim komil.

E'tiboringiz uchun rahmat.

*Tojikiston Respublikasi Prezidenti
Emomali Rahmonning O'zbekistonga davlat
tashrifi doirasida uyushtirilgan qabul
marosimidagi nutq*

2018-yil 17-avgust

TURKIY KENGASH DOIRASIDA O‘ZARO SAMARALI HAMKORLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISHDAN MANFAATDORMIZ

Muhtaram Sooronbay Sharipovich!

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Xonimlar va janoblar!

Avvalo, Qirg‘iziston Respublikasi Prezidenti, hurmatli Sooronbay Sharipovich Jeenbekovga samimiy mehmondo‘stlik va ushbu uchrashuv yuqori darajada tashkil etilgani uchun minnatdorlik bildirishga ruxsat bergaysiz.

Bugun, biz qardosh Qirg‘iziston zaminida, asrlar davomida xalqlarimizni bir-biriga bog‘lab kelayotgan do‘stlik, mushtarak ma‘naviy qadriyatlar va hamkorlik rishtalari mustahkam ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilmoqdamiz.

Kelgusi yili o‘n yilligi nishonlanadigan Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi ko‘p tomonlama munosabatlarimizni yanada rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

Hozirgi vaqtda Kengashning siyosiy kun tartibida biror-bir muammo yoki kelishmovchilik mavjud emasligini alohida qayd etish lozim.

Bizning mamlakatlarimiz dolzarb xalqaro va mintaqaviy masalalarda o‘zaro mos yoki yaqin qarash va yondashuvlarga amal qilib kelmoqda.

Ayni vaqtda xalqlarimizning hayotiy manfaatlariga to'la javob beradigan iqtisodiyot, investitsiya, innovatsiya, transport va kommunikatsiya, turizm, ilm-fan, ta'lim va madaniyat kabi ustuvor sohalarda o'zaro hamkorlik faol rivojlanmoqda.

Hurmatli delegatsiyalar a'zolari!

Barchamiz ko'rib turibmiz, bugungi kunda xalqaro maydondagi beqaror vaziyat global taraqqiyot jaryonlariga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Dunyodagi asosiy markazlar o'rtasidagi munosabatlarda o'zaro strategik ishonch yo'qolib, oqibatini oldindan aytib bo'lmaydigan vaziyatlar vujudga kelmoqda.

Afg'oniston muammosining hanuzgacha hal etilmayotgani, shuningdek, Yaqin Sharqda harbiy-siyosiy keskinlik saqlanib qolayotgani mintaqamizdagi vaziyatga bevosita ta'sir o'tkazmoqda.

Mintaqada tinchlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlashda global va mintaqaviy tahdidlar, ayniqsa, terrorizm va ekstremizmga qarshi faol kurashish zarurati tobora ortib bormoqda.

Ayni vaqtda birgalikdagi sa'y-harakatlarimiz natijasida keyingi vaqtda Markaziy Osiyoda muhim ijobiy o'zgarishlar yuz bermoqda.

Shu yil iyun oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan Markaziy Osiyo bo'yicha qabul qilingan rezolyutsiya, hech shubhasiz, mintaq xalqlari hayotida tarixiy voqea bo'ldi.

O'zbekistonning Turkiy kengashga a'zo mamlakatlar bilan o'zaro savdo hajmi oxirgi bir yilda 40 foizdan ziyodga oshganini bugungi uchrashuvimizda alohida qayd etishni istardim.

Ta'kidlash kerakki, bu ko'rsatkich va natijalar hali bizning salohiyatimiz darajasida emas, albatta.

Biz bundan ko'ra ancha yuqori marralarga erishishni mo'ljallaganmiz va buning uchun barchamizda keng imkoniyatlar mavjud.

Hurmatli hamkasblar!

Biz Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi doirasida, o'zaro manfaatli sheriklik uchun keng imkoniyatlar mavjudligini ko'rib turibmiz. Shu ma'noda, bizning nuqtayi nazarimizga ko'ra, hamkorligimizning g'oyat muhim bo'lgan quyidagi yo'nalishlariga to'xtalib o'tmoqchiman.

Birinchidan, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni yanada kengaytirish zarur.

Eng avvalo, mamlakatlarimizdagi yetakchi sanoat korxonalari, investitsiya kompaniyalari, bank-moliya institutlari va tadbirkorlik tuzilmalari o'rtasida kooperatsiya aloqalarini kuchaytirish lozim.

Qo'shma biznes-loyihalarni muhokama qilish va amalga oshirish maqsadida, Turkiy davlatlar ishbilarmonlar kengashining navbatdagi yig'ilishini Toshkentda o'tkazishni taklif etamiz. Ushbu tadbirga mamlakatlarimiz mintaqalarining vakillarini ham keng jalb qilishni muhim, deb hisoblaymiz.

Shu bilan birga, davlatlarimiz o'rtasida eksport-import hajmini keskin oshirish uchun eng qulay sharoitlar yaratish va to'siqlarni bartaraf etish maqsadida Kengash doirasida Savdoni rivojlantirish to'g'risida ko'p tomonlama bitim qabul qilishni taklif etamiz.

Ikkinchidan, bizning birgalikdagi sa'y-harakatlarimiz transport yo'nalishlarining o'zaro integratsiyalashgan tarmog'ini yaratishga qaratilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Bu, o'z navbatida, mamlakatlarimizning asosiy dunyo va mintaqa bozorlariga chiqishini ta'minlaydi. Bu o'rinda so'z avvalo xalqaro transport koridorlari, jumladan, mintaqamizni Xitoy, Janubi-Sharqiy va Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq va Yevropa davlatlari bilan bog'laydigan avtomobil, temir va havo yo'llari haqida bormoqda.

Keyingi vaqtda mintaqamizda transport infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha bir qator muhim strategik loyihalar amalga oshirilganini alohida ta'kidlash lozim. Jumladan, Ozarbayjonda yangi Alyat dengiz savdo porti ochildi, Qozog'istonda «Do'stlik» va «Xorgos» transport-logistika komplekslari qurib bitkazildi. Shuningdek, yaqinda Oqtov shahrida Qo'riq porti ishga tushirildi. O'zbekistonni ushbu port bilan qisqa yo'l orqali bog'lash imkonini beradigan Aqjigit-Beynov yo'li kengaytirilmoqda. Turkmanistonda mintaqadagi yirik xalqaro aeroport, Amudaryo orqali o'tadigan avtomobil va temiryo'l ko'priklari, Turkmanboshi shahrida zamonaviy dengiz porti ishga tushirildi.

Turkiyaning Istanbul shahrida yiliga 150 million passajirga xizmat ko'rsatish imkoniga ega bo'lgan dunyodagi eng katta aeroportlardan biri qurilmoqda, Bosfor bo'g'ozi ostidan o'tgan «Marmaray» va «Yevroosiyo» avtomobil va temiryo'l tunnellari barpo etildi.

Turkiyaning «Mersin» portigacha eng yaqin marshrut ochib bergan Boku–Tbilisi–Kars temiryo'lining foydalanishga topshirilishi, shuningdek, joriy yilda ishga tushirilgan Andijon – O'sh – Ergashtom – Qashqar avtomobil koridorining rivojlantirilishi albatta katta imkoniyatlar yaratadi.

Ayni vaqtda biz Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston temir yo'lining qurilishi ham boshlanadi, deb umid qilamiz.

Fursatdan foydalanib, O'zbekiston uchun ham muhim bo'lgan mana shunday strategik transport-kommunikatsiya loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirganlari uchun barcha sheriklarimizga minnatdorlik bildiraman.

Uchinchidan, bizning nazarimizda, mamlakatlari-mizni innovatsion asosda rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Bugungi kunda biz axborot-kommunikatsiya yutuqlari, ilg'or texnologiyalar hayotga shiddat bilan kirib kelayotgani va barcha sohalarda keng qo'llanayotganini ko'rib turibmiz.

Har qanday davlatning uzoq istiqbolda ham raqobatbardosh bo'lishi va barqaror taraqqiyoti aynan ana shu omillarga bog'liq ekani sir emas.

Shu munosabat bilan biz ushbu yo‘nalishdagi dastur va loyihalarni amalga oshirish maqsadida innovatsion taraqqiyot uchun mas’ul bo‘lgan idoralar, ilmiy tadqiqot markazlari va venchur kompaniyalarimiz o‘rtasida yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va kengaytirishni taklif etamiz.

To‘rtinchidan, turizmni rivojlantirish bo‘yicha ulkan imkoniyatlar mavjud.

Biz Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining «Turkiy kengash – zamonaviy Ipak yo‘li» deb nomlangan qo‘shma sayyohlik loyihasini qo‘llab-quvvatlaymiz.

Shu bilan birga, O‘zbekistonning qadimiy Xiva shahrini 2020-yilda Turkiy dunyoning madaniy poytaxti, deb e‘lon qilish masalasini ko‘rib chiqishni taklif etamiz.

Ma‘lumki, mintaqamiz xalqlari islom sivilizatsiyasining noyob madaniy-tarixiy merosiga hamda muqaddas ziyoratgohlarga ega. Ushbu durdonalarning katta qismi UNESCO tomonidan jahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Ana shu bebaho boylikni inobatga olgan holda, mamlakatlarimiz o‘rtasida ziyorat turizmini keng rivojlantirishni taklif etamiz.

Beshinchidan, madaniy-gumanitar sohadagi aloqalarni har tomonlama mustahkamlash katta ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan keyingi paytda Markaziy Osiyo mamlakatlarida bu sohada to‘plangan ijobiy tajriba haqida to‘xtalmoqchiman.

Biz o‘zaro hamkorlikni rivojlantirishda mintaqamiz xalqlarining qadimiy tarixi va boy madaniyatiga, ma’naviy-axloqiy qadriyatlariga, do‘stlik va hamjihatlik an’analariga tayanib ish olib bormoqdamiz. Bu boradagi yorqin misollar sifatida 2018-yilning Qozog‘istonda O‘zbekiston yili, deb e’lon qilinishi, shuningdek, O‘zbekiston, Turkmaniston, Qirg‘iziston va Tojikistonda birgalikda o‘tkazilgan madaniyat kunlari va qo‘shma konsertlar, festivallar, ko‘rgazmalar va boshqa ko‘plab tadbirlarni keltirish mumkin. Ular mamlakatlarimiz jamoatchiligi o‘rtasida katta qiziqish uyg‘otmoqda.

Bunday ijobiy tajribani Turkiy kengash doirasida, uning barcha a’zolari ishtirokida o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘lardi, deb o‘ylayman. Shuningdek, biz turkiy davlatlarning buyuk adiblari, olim va mutafakkirlari asarlarining yagona elektron katalogini yaratishni taklif etamiz.

Oltinchidan, bizning bunyodkorlik ruhidagi dastur va rejalarimiz faqat tinchlik va barqarorlik sharoitida amalga oshirilishi mumkinligini barchamiz yaxshi anglaymiz. Shuning uchun, ko‘p tomonlama hamkorligimizning poydevorini tashkil etadigan muhim masalalardan biri mamlakatlarimiz huquq-tartibot idoralarining terrorizm, ekstremizm, uyushgan jinoyatchilik, giyohvandlik va odam savdosiga qarshi kurashish bo‘yicha o‘zaro sa’y-harakatlarini muvofiq-lashtirishdan iborat bo‘lmog‘i lozim.

Hurmatli davlat rahbarlari!

Bugungi notinch zamonda yoshlarni ilm-ma'rifat asosida tarbiyalash, ularni begona va zararli g'oyalar ta'siridan himoya qilishda islom sivilizatsiyasining noyob ma'naviy merosi va qadriyatlari g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» bo'yicha maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish tashabbusini ilgari surdi. Turkiy kengashga a'zo mamlakatlar, bizning ushbu tashabbusimizni qo'llab-quvvatlaydilar, deb ishonaman.

Ajdodlarimiz qoldirgan boy merosni har tomonlama chuqur o'rganish, muqaddas dinimizning asl insonparvarlik mohiyatini xalqimiz va jahon jamoatchiligiga yetkazish maqsadida biz O'zbekistonda Islom sivilizatsiyasi markazini, islom dinining ezgulik, adolat va insonparvarlik g'oyalari negizida turli millat va xalqlarni birlashtirishga intilgan buyuk mutafakkir bobomiz Imom Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy tadqiqot markazini, «Jaholatga qarshi – ma'rifat» deb ataladigan muhim tamoyilimizni amalga oshirishda asosiy o'rin tutadigan Xalqaro islom akademiyasi kabi ilmiy-ma'rifiy tuzilmalarni tashkil etdik.

Biz Turkiy kengashga a'zo mamlakatlarning yetakchi olimlari va mutaxassislarini ushbu tuzilmalar bilan faol hamkorlik o'rnatishga chaqiramiz va o'z

tomonimizdan barcha amaliy yordamni ko'rsatishimizni ta'kidlab o'tmoqchiman.

Hurmatli hamkasblar!

Qadrli do'stlar!

O'zbekiston bugun keyingi o'n yil davomida birinchi marta Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining anjumanida ishtirok etmoqda. Ta'kidlash lozimki, biz keyingi paytda Turkiy kengashga a'zo mamlakatlar bilan, avvalo, mintaqadagi yaqin qo'shnilarimiz bilan siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnik, madaniy-gumanitar va boshqa sohalar bo'yicha ikki tomonlama hamkorligimizni yanada kuchaytirmoqdamiz. Bu, o'z navbatida, O'zbekistonning Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi doirasida hamkorlik munosabatlarini rivojlantirishi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Biz ushbu xalqaro tuzilmaning kelajak istiqboliga va unda O'zbekistonning faol ishtirok etishiga katta umid va ishonch bilan qaraymiz.

Turkiy kengash doirasida davlatlarimiz o'rtasida o'zaro samarali hamkorlikni yanada rivojlantirishdan manfaatdormiz. Hozirgi bosqichda uning faoliyatida mamlakatimiz uchun amaliy jihatdan qiziqish uyg'otadigan yo'nalishlar bo'yicha ishtirok etishga tayyor ekanimizni bildiraman.

Biz Kengash doirasida ilgari qabul qilingan ko'p tomonlama bitimlarga O'zbekistonning qo'shilishiga doir masalalarni albatta atroflicha ko'rib chiqamiz. O'ylaymanki, shundan so'ng bizning Turkiy kengash

bilan hamkorlik sohalarimiz va yo‘nalishlarimiz mantiqiy va amaliy mazmun kasb etadi. Aminmanki, bugungi sammitimiz natijalari davlatlarimizning samarali hamkorligi uchun yangi imkoniyatlar ochadi, mamlakatlarimiz va xalqlarimiz taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Fursatdan foydalanib, qardosh Qirg‘iziston diyorida kuni kecha boshlangan Ko‘chmanchi xalqlarning umumjahon o‘yinlarining sermazmun va yuksak saviyada o‘tishini tilayman.

Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashiga raislikni qabul qilgani munosabati bilan Qirg‘iziston Respublikasi Prezidenti, hurmatli Sooronbay Sharipovich Jeenbekov sha’niga aytilgan tabriklarga men ham qo‘shilaman. Bu muhim va mas’uliyatli vazifani ado etishda Sizga, hurmatli Sooronbay Sharipovich, kuch-g‘ayrat va muvaffaqiyatlar tilayman.

E’tiborlaringiz uchun rahmat.

*Qirg‘iziston Respublikasining Cho‘lponota shahrida
bo‘lib o‘tgan Turkiy tilli davlatlar
hamkorlik kengashi sammitidagi ma’ruza*

2018-yil 3-sentabr

IKKI XALQ MANFAATLARIGA MOS HAMKORLIK

Muhtaram Prezident Janobi Oliylari!

Hurmatli ommaviy axborot vositalari vakillari!

Xonimlar va janoblar!

Biz hozirgina Misr Arab Respublikasi Prezidenti, muhtaram Abdulfattoh as-Sisi Janobi Oliylari bilan samarali uchrashuv va muloqotimizni yakunladik.

Prezident Janobi Oliylarining O'zbekistonga birinchi rasmiy tashrifi ikki mamlakat munosabatlarida chindan ham tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi, deb to'la ishonch bilan aytmoqchiman.

Ochiq, do'stona va amaliy ruhda o'tgan muzokaralar kun tartibidagi barcha masalalar yuzasidan yondashuv va qarashlarimiz o'xshashligini ko'rsatdi.

Birinchidan, siyosiy sohaga oid muzokaralarimizda mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, xalqaro terrorizm va diniy ekstremizm, uyushgan jinoyatchilik va giyohvandlikka qarshi kurash masalalarini ko'rib chiqdik.

Biz bu borada amaliy idoralararo aloqalarni o'rnatish va Qo'shma ishchi guruhini tashkil etishga qaror qildik.

Ikkinchidan, biz Misr davlati bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasidagi hamkorligimizni yanada

faollashtirish bo'yicha hamfikir ekanimizni ta'kidlab aytmoqchiman.

Uchinchidan, Afg'oniston zaminida mustahkam tinchlik va barqarorlik o'rnatish yo'lida sa'y-harakatlarimizni birlashtirishga alohida urg'u berildi.

Yuqorida zikr etilgan masalalar bo'yicha Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasidagi siyosiy maslahatlashuvlarni muntazam ravishda o'tkazishga kelishib oldik.

To'rtinchidan, savdo-sotiq va investitsiya sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirish, shu maqsadda mamlakatlarimiz imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanish masalalari muzokaralarimiz markazida bo'ldi.

Biz bugungi holat mavjud salohiyatimizga mos emasligini ta'kidlab, ikki tomonlama savdo aylanmasini yaqin yillarda yanada oshirish, eksport qilishda transport xarajatlarini kamaytirish uchun zarur choralar ko'rishni maqsad qilib qo'ydik.

Suv va qishloq xo'jaligi, energetika, neft-kimyo, mashinasozlik, elektrotexnika, tekstil, charm-galantereya, farmatsevtika kabi sohalarda aniq loyihalar amalga oshirish imkoniyatlari ta'kidlandi.

Bu borada bugungi biznes forum o'tkazilishi, savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha Hukumatlararo qo'shma komissiya ishini faollashtirish va O'zbekiston – Misr Ish-bilarmonlar kengashi tashkil etish bo'yicha kelishuvlarimiz muhim omil bo'ladi.

Beshinchidan, ma'lumki, Misr turizm sohasida katta tajriba va salohiyatga ega mamlakat.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ham ushbu tarmoq jadal rivojlanmoqda.

Shu sababdan biz «ziyosat turizmi» doirasida:

– Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi qadimiy shaharlarimizni ko‘rish, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Bahouddin Naqshband, Shohizinda, Chor Bakr, Mir Arab majmualarini ziyorat qilish uchun Misrdan keladigan sayyohlar oqimini ko‘paytirish;

– Toshkent, Qohira va Xurgada o‘rtasida aviaqatnovlarni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha masalalarni muhokama qildik.

Madaniy-gumanitar sohadagi hamkorlik bo‘yicha ham muzokaralarda ijobiy natijalarga erishildi.

Garchi bizning oramizdagi masofa nisbatan uzoq bo‘lsa-da, ko‘ngillarimiz yaqin ekanini alohida ta’kidlash joiz.

Bu haqda gapirganda, Movarounnahr va Misr diyorida yashab ijod qilgan Imom Buxoriy va Ibn Moja, Imom Termiziy va Ibn Xaldun singari ko‘plab ulug‘ bobokalonlarimiz qoldirgan noyob ilmiy-ma’rifiy meros butun musulmon ummatining bebaho boyligi ekani barchamizga iftixor bag‘ishlaydi.

Xususan, bu borada bizning buyuk vatandoshimiz Ahmad Farg‘oniy beqiyos ma’naviy jasorat ko‘rsatgan, deb aytishga haqlimiz.

Bu benazir inson Misr zaminida yashab, o‘zining o‘lmas asarlari va kashfiyotlarini, jumladan, «Miqyosi Nil» nomi bilan mashhur bo‘lgan suv o‘lchash inshootini yaratgan.

Biz bu ulug' allomaning jahon miqyosida obro'-e'tibor qozonishi uchun o'z vaqtida munosib sharoit va imkoniyat yaratib bergan, uning xotirasini hamisha e'zozlab kelayotgan Misr xalqidan doimo minnatdormiz.

Go'zal Qohira shahrida Ahmad Farg'oni bobomizga o'rnatilgan muhtasham haykalni biz xalqlarimiz o'rtasidagi azaliy do'stlikning yorqin ramzi sifatida qabul qilamiz.

Mana shunday noyob, mushtarak ilmiy merosimizga tayanib, Misr va O'zbekistonda Ahmad Farg'oniyni yangi-yangi vorislari va izdoshlarini tarbiyalab voyaga yetkazishni biz o'zimiz uchun ustuvor vazifa sifatida belgilab oldik.

Shu maqsadda Misrdagi mashhur Al-Azhar majmuasi va boshqa ilmiy tadqiqot muassasalari bilan O'zbekiston xalqaro Islom akademiyasi, Samarqanddagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqotlar va Toshkentdagi Islom sivilizatsiyasi markazlari o'rtasida faol hamkorlik o'rnatish borasida ham kelishib oldik.

Oliy ta'lim sohasidagi aloqalarni kuchaytirish maqsadida ikki mamlakat oliy ta'lim muassasalari o'rtasida o'zaro hamkorlik to'g'risida Bitim imzolanganini qaydetish lozim.

Mamlakatlarimiz o'rtasidagi o'zaro savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar munosabatlarni kengaytirishda hududlararo hamkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Shu nuqtayi nazardan biz Namangan va Iskandariya viloyatlari o'rtasida hamkorlik to'g'risida bitim imzolanganini yuqori baholaymiz.

Bugun bo'lib o'tgan muzokaralar yakuniga ko'ra, siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalaridagi hamkorlikka oid 12 ta hukumatlararo va idoralararo hujjatlar imzolandi.

Hurmatli anjuman qatnashchilari!

O'zbekistonda Misrning mumtoz va zamonaviy madaniyati va san'atiga qiziqish juda katta.

Xususan:

– Jo'rji Zaydon, Najib Mahfuz, Toha Husayn, Jamol al-G'itoni, Abdurahmon al-Hamisiy kabi shoir va yozuvchilar;

– Abdulhalim Hofiz singari atoqli san'atkorlar;

– Magida Maxluf, Obayd Muhammad Abdulhalim Abduljavod kabi olimlarning ilmiy-ijodiy izlanishlari bizga yaxshi ma'lum.

Ayniqsa, mashhur adib Jo'rji Zaydonning Misr va Mo-varounnahrning mushtarak tarixiga oid «Arusi Fargana», ya'ni, «Farg'ona kelini» tarixiy romanini o'zbek kitobxonlari sevib o'qiydilar.

Ta'kidlash joizki, ushbu asar bizning milliy romanchiligimizga asos solgan ulug' o'zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriy ijodiga, xususan, uning tarixiy mavzudagi «O'tkan kunlar» romanining yaratilishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Muhtaram do'stlar!

Bizning xalqimizda «Mehr ko'zda» degan dono naql bor.

O'ylaymanki, biz qanchalik ko'p uchrashsak, muloqot qilsak, o'zaro bordi-keldilarni yo'lga qo'yib, turli sohalarda samarali hamkorlikni kuchaytirsak, bu albatta xalqlarimizning ezgu intilishlari va manfaatlariga to'la mos keladi.

Chunki, Misr xalqining hikmatli maqolida aytilganidek, «Do'stlik – Allohning ne'mati va uning bizga ko'rsatgan marhamatidir».

Ishonchim komilki, ushbu kelishuvlar O'zbekiston va Misr o'rtasidagi munosabatlarni sifat va mohiyat jihatidan boyitib, o'zaro manfaatli hamkorligimizni yangi, yuqori bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

Fursatdan foydalanib, Misr xalqiga va uning rahbari, muhtaram Abdulfattoh as-Sisi Janobi Oliylariga yana bir bor chuqur hurmat va ehtiromimni bildirib, do'st Misr Arab Respublikasi xalqiga tinchlik, doimiy ravnaq va farovonlik tilab qolaman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

*Misr Arab Respublikasi rasmiy delegatsiyasi
bilan kengaytirilgan tarkibdagi uchrashuvdan
so'ng matbuot anjumanidagi nutq*

*Toshkent shahri,
2018-yil 5-sentabr*

ILMIY-MA'RIFIY HAMKORLIKNI KUCHAYTIRISH – DAVR TALABI

Bismillohir Rahmonir Rahiym. Assalomu alaykum va rahmatullohi va barakotuhu.

Qozog'iston Respublikasi Prezidenti muhtaram Nursulton Nazarboyev Janobi Oliylari!

Islom hamkorlik tashkiloti Bosh kotibi, muhtaram doktor Ahmad al-Usaymin Janobi Oliylari!

Hurmatli davlat va hukumat rahbarlari!

Xonimlar va janoblar!

Islom hamkorlik tashkilotining ushbu nufuzli sammitining mavzusi, ya'ni, **«Fan, texnologiyalar, innovatsiyalar va islom olamini modernizatsiya qilish»** degan g'oya bugun har qachongidan ham dolzarbdir.

Ta'kidlash kerakki, Islom olami jahon fani va sivilizatsiyasiga qo'shgan beqiyos hissasi bilan faxrlanishga to'la haqlidir.

Xususan, Markaziy Osiyo hududi Sharq Renessansining yirik markazlaridan biri sifatida butun dunyoda ma'lum va mashhur bo'lgan.

Bu haqda gapirganda, avvalo, ulug' vatandoshlarimiz – algoritm asoschisi Muhammad Xorazmiy, qomusiy olim Ahmad Farg'oniy, geodeziya va mineralogiya fanlari rivojiga ulkan hissa qo'shgan Abu Rayhon Beruniy,

G'arbda Avitsenna nomi bilan tanilgan Ibn Sino, davlat arbobi va buyuk astronom Mirzo Ulug'bek singari mutafakkir zotlarning nomlarini hurmat bilan tilga olamiz.

Bugungi notinch va tahlikali zamonda taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda buyuk ajdodlarimiz qoldirgan, butun insoniyatning ma'naviy boyligi bo'lgan bebaho merosning o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Ana shunday ezgu maqsad bilan o'tgan yili Toshkentda o'tkazilgan tashkilotimizning Tashqi ishlar vazirlari kengashining 43-sessiyasida Samarqandda Imom Buxoriy nomidagi Xalqaro ilmiy tadqiqot markazini tashkil etish g'oyasini ilgari surgan edik va hozir bu borada mamlakatimizda keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Fursatdan foydalanib, tashkilotimizga a'zo davlatlar rahbarlariga, xususan, Islom taraqqiyot bankining prezidenti Bandar Hajar Janobi Oliylariga tashabbusimizni qo'llab-quvvatlaganlari uchun minnatdorchilik bildiraman.

Bugungi kunda O'zbekiston kitob fondlarida 100 mingdan ziyod qo'lyozmalar saqlanmoqda, ularning asosiy qismi UNESCOning Butunjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Ayni vaqtda biz O'zbekiston poytaxti Toshkentda Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish ishlarini boshladik. Va Tashkilotga a'zo mamlakatlarni faol hamkorlikka chaqiramiz.

Bu markazni «**Jaholatga qarshi – ma’rifat**» shiori ostida barpo etishni davrning o‘zi taqozo etmoqda.

Hurmatli sammit ishtirokchilari!

O‘zbekiston Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashiga raisligi davrida «**Ta’lim va ma’rifat – tinchlik va bunyodkorlik sari yo‘l**» g‘oyasini ilgari surgani albatta bejiz emas.

Bugungi kunda O‘zbekistonda 300 dan ortiq ilmiy tadqiqot muassasasi, ilmiy-ishlab chiqarish korxonalari va innovatsiya markazlari faoliyat olib bormoqda.

Keyingi paytda mamlakatimizda yangi ilmiy-innovatsion tuzilmalar – Genomika va bioinformatika markazi, Quyosh energiyasi xalqaro instituti, Yuqori texnologiyalar markazi, O‘zbek-yapon yoshlar innovatsiya markazi tashkil etildi.

Biz Islom hamkorlik tashkilotining Fan va texnologiyalar sohasida hamkorlik bo‘yicha Doimiy qo‘mitasi faoliyatini yuksak baholaymiz va uning ishida yanada faol ishtirok etishni rejalashtirganmiz.

Tashkilotimizning mazkur yo‘nalishda 2005–2015-yillarga mo‘ljallangan O‘n yillik harakatlar dasturi natijalari belgilangan maqsadlarga erishilganidan dalolat beradi.

Ayni vaqtda ko‘plab musulmon mamlakatlari ilmfan va texnologiyalar sohasida rivojlangan davlatlardan sezilarli darajada orqada qolayotganini tan olish lozim. Masalan, a‘zo davlatlarning faqatgina 11 ta oliy ta’lim muassasasi jahonning 500 ta eng yaxshi universiteti reytingidan o‘rin olgan, xolos.

Yoki 2015-yilda dunyo bo'yicha patent olish borasidagi murojaatlarda bu mamlakatlarning hissasi atigi bir-u o'ndan to'qqiz foizni tashkil etgan. Tashkilotga a'zo davlatlarda 2016-yilda e'lon qilingan ilmiy maqolalarning qariyb 80 foizi 7 ta davlat hissasiga to'g'ri kelgan.

Aksariyat musulmon mamlakatlari boy tabiiy zaxiralarga, katta moliyaviy salohiyatga ega bo'lsa-da, iqtisodiyotga innovatsion g'oya va texnologiyalarni joriy etishda faollik ko'rsata olmayotganini afsus bilan qayd etish lozim.

O'ylaymanki, fundamental fan sohalarini rivojlantirish, davrning dolzarb muammolariga ilmiy yechimlar topishga qaratilgan hamkorlikni yo'lga qo'yish islom olamining ilmiy-texnologik salohiyatini oshirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Mirzo Ulug'bekning astronomiya fani rivojidagi bebaho hissasini e'tiborga olib, Samarqand shahrida zamonaviy teleskop o'rnatish to'g'risidagi taklifni biz minnatdorlik bilan qabul qilamiz.

Biz Islom hamkorlik tashkilotining 2016–2025-yillarga mo'ljallangan O'n yillik harakatlar dasturi va uning ustuvor yo'nalishlarini to'la qo'llab-quvvatlaymiz hamda quyidagi vazifalarga alohida e'tibor qaratish kerak, deb hisoblaymiz.

Birinchidan, global iqlim o'zgarishlari muammosi. Aksariyat mintaqalarda tuproq yemirilib, unumdor yerlar qisqarib bormoqda, cho'llanish, suv yetishmasligi,

qurg'oqchilik, aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash jiddiy muammoga aylanmoqda.

Orolbo'yidagi ekologik falokat tufayli bu tahdidlar bizning mintaqamiz uchun yanada katta xavf tug'dirmoqda. Biz **«personallashtirilgan qishloq xo'jaligi»** konsepsiyasini ishlab chiqishda hamkorlik qilishni taklif etamiz.

Bu konsepsiya qishloq xo'jaligi ekinlarining muayyan muhit, tuproq, o'g'it, suv va biostimulyatorlarga nisbatan reaksiyasini inobatga olib, ularning aniq genotiplariga e'tibor qaratishni nazarda tutadi.

Ikkinchidan, ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyalashgan hamkorlikni yo'lga qo'yish zarur, deb hisoblaymiz. Shu munosabat bilan Qozog'iston Prezidenti muhtaram Nursulton Abishevich Nazarboyevning barqaror va inklyuziv iqtisodiy taraqqiyotga erishish, o'zaro manfaatli hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan musulmon davlatlari o'rtasida infratuzilmalar bo'yicha integratsiyani tashkil etish haqidagi tashabbusini qo'llab-quvvatlaymiz.

Uchinchidan, yuqorida zikr etilgan Doimiy qo'mitaning a'zo davlatlar hududida oltita Yuqori samarali kompyuter markazini tashkil etish to'g'risidagi tavsiyasiga muvofiq, shunday markazlardan birini O'zbekistonda joylashtirishga tayyor ekanimizni bildiramiz.

Biz yosh olimlarga bilim va tajriba almashish, birgalikda tadqiqotlar o'tkazish imkonini beradigan

Musulmon olami yosh olimlari xalqaro markazini tuzishni taklif etamiz.

To‘rtinchidan, Doimiy qo‘mita homiyligida O‘zbekistonda Muhammad Xorazmiy xotirasiga bag‘ishlab, yosh matematiklar o‘rtasida xalqaro olimpiadani tashkil etishni taklif qilamiz.

Beshinchidan, musulmon dunyosida erishilayotgan ilm-fan yutuqlarini munosib taqdirlash hamda ularni xalqaro miqyosda ommalashtirish uchun Islom hamkorlik tashkilotining maxsus mukofotini ta’sis etish maqsadga muvofiq, deb o‘ylaymiz.

Oltinchidan, muqobil energiya manbalarini keng miqyosda o‘zlashtirish barchamiz uchun g‘oyat dolzarb ahamiyatga ega. Shu boisdan bu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqot ishlari va tajriba-innovatsion loyihalarni birgalikda, xususan, investitsiyalar kiritish hisobidan amalga oshirishga tayyor ekanimizni bildiramiz.

Yettinchidan, a‘zo davlatlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishi, aholining munosib hayot darajasini ta’minlash maqsadida Fan va texnologiyalar bo‘yicha sammitni har uch yilda bir marta o‘tkazishni va ushbu taklif qo‘llab-quvvatlangan taqdirda, keyingi sammitni 2020-yilda O‘zbekistonda o‘tkazishga tayyor ekanimizni bildirmoqchiman.

Muhtaram anjuman ishtirokchilari!

Bugungi sammit musulmon ummatining birdamligini mustahkamlash, xalqlarimizning ravnaqi va farovonligi yo‘lidagi tarixiy qadam, desak, ayni haqiqat bo‘ladi.

Ishonchim komil, ushbu anjuman buyuk alloma Mirzo Ulug‘bek Buxoro shahrida bunyod etgan madrasa peshtoqiga bitilgan **«Ilm egallash har bir muslim va muslima uchun farzdir»**, degan hadisi sharifni hayotimiz qoidasiga aylantirishga xizmat qiladi.

Fursatdan foydalanib, Islom hamkorlik tashkiloti Bosh kotibi, doktor Yusuf bin Ahmad al-Usaymin Janobi Oliylariga, Tashkilotimizning Fan va texnologiyalar sohasida hamkorlik bo‘yicha Doimiy qo‘mitasi raisi, Pokiston Islom Respublikasi Prezidenti Mamnun Husayn Janobi Oliylariga musulmon olamidagi ilmiy hamkorlikni kuchaytirish borasidagi amaliy sa’y-harakatlari uchun tashakkur bildiraman.

Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti muhtaram Nursulton Abishevich Nazarboyevni go‘zal Ostona shahrida «EKSPO – 2017» xalqaro ko‘rgazmasining muvaffaqiyatli o‘tgani bilan samimiy tabriklayman hamda bugungi sammit yuksak saviyada tashkil etilgani uchun chuqur minnatdorchilik izhor etaman.

E’tiboringiz uchun tashakkur.

*Qozog‘iston Respublikasi poytaxti
Ostona shahrida Islom hamkorlik tashkilotining Fan
va texnologiyalar bo‘yicha
birinchi sammitida so‘zlangan nutq
2018-yil 10-sentabr*

UZOQ MUDDATLI VA O‘ZARO MANFAATLI MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISH YO‘LIDA

Muhtaram Aleksandr Grigoryevich!

Hurmatli ommaviy axborot vositalari vakillari!

Xonimlar va janoblar!

Avvalo aziz mehmonlarimiz – Belarus Respublikasi Prezidenti, muhtaram Aleksandr Grigoryevich Lukashenko va barcha belarus do‘stlarimizni bag‘rikeng o‘zbek diyorida samimiy qutlashdan mamnunman.

Aleksandr Grigoryevich, Siz va sizning timsolingizda do‘st belarus xalqiga yuksak hurmatimiz va eng ezgu tilaklarimizni izhor etishga ijozat bergaysiz.

Biz Belarus davlatining jadal taraqqiyoti, Belarus Respublikasi Prezidenti, hurmatli Aleksandr Grigoryevich Lukashenkoning chuqur o‘ylangan va uzoqni ko‘zlab amalga oshirilayotgan siyosati mahsuli bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi milliy dastur va loyihalar muvaffaqiyatli ijro etilayotganidan chin dildan xursandmiz.

Bugungi kunda Belarusda olib borilayotgan izchil va tub islohotlar siyosati, mamlakatning barqaror taraqqiyotini ta‘minlash borasidagi natijalar dunyo hamjamiyatida e‘tirof etilayotganini qayd etish bizga g‘oyat ulkan mamnuniyat bag‘ishlaydi.

Bugun hurmatli Aleksandr Grigoryevichga mamlakatlarimiz va xalqlarimiz o'rtasidagi do'stona aloqalarni mustahkamlash yo'lidagi sa'y-harakatlari uchun chuqur minnatdorlik izhor etamiz.

Bizning mamlakatimizga 24 yil davomida ilk bor amalga oshirilgan ushbu rasmiy tashrif O'zbekiston va Belarus munosabatlari tarixida alohida o'rin egallaydi, ikki tomon uchun ham dolzarb bo'lgan masalalarni muhokama qilish imkonini berdi.

Eng asosiysi – bu uchrashuv davlatlarimizning o'zaro hamkorlikka bo'lgan samimiy intilishini ko'rsatadi, uzoq muddatli va o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirish hamda mustahkamlashdan manfaatdor ekanidan dalolat beradi.

Hurmatli do'stlar!

Bizning xalqlarimizni umumiy tarix, Ikkinchi jahon urushi yillarida fashist bosqinchilariga qarshi olib borilgan umumiy kurash bog'lab turadi.

Siz bilan bizning ota-bobolarimiz Belarus zaminini ozod qilish uchun bo'lgan janglarda chinakam mardlik va jasorat ko'rsatgani haqida ko'plab misollar keltirish mumkin. Birinchi Belarus frontida xizmat qilgan 14 nafar o'zbekistonlik jangchilarga Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni berilgan, 4411 nafar askar va ofitserlarimiz jangovar orden va medallar bilan taqdirlangan.

Minsk shahrida bizning hamyurtimiz – afsonaviy partizan, Sovet Ittifoqi Qahramoni Mamadali Topivol-

diyev nomiga qo'yilgan ko'cha borligini bilamiz. Bu jasur insonning qahramonligi haqida ikki mamlakat kinematograflari «Unutilmas qo'shiq» deb nomlangan filmni suratga olishgan.

Urush yillarida O'zbekiston front oldidan va okkupatsiya qilingan hududlardan, jumladan, Belarusdan evakuatsiya qilingan yuz minglab insonlarni o'z bag'riga oldi.

Toshkentda boshpana topgan atoqli ilm-fan, madaniyat va san'at arboblari orasida buyuk belarus shoiri Yakub Kolas va uning oilasi ham bo'lgan. Bizning poytaxtimizda u o'zbek zamini, xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlikni tarannum etadigan ajoyib asarlar yaratgan.

Bugun biz muhtaram Aleksandr Grigoryevich bilan Yakub Kolas xotirasiga hurmat bajo keltirib, Toshkent shahrida Belarus xalq shoiri sharafiga o'rnatilgan byust poyiga gullar qo'yamiz.

Yaqinda Yakub Kolasning «Qadrdon qo'shiqlar» deb nomlangan mashhur asarlar to'plami o'zbek tilida nashrdan chiqarildi.

Muhtaram Aleksandr Grigoryevich, Sizga ushbu kitobning ilk nusxasini taqdim etishdan behad mamnunman.

Aziz do'stlar!

Ko'pmillatli O'zbekiston xalqi Toshkent zilzilasi ro'y bergan 1966-yilning og'ir damlarida belarus do'stlarimiz yordamga birinchilardan bo'lib oshiqqanini doimo minnatdorlik tuyg'ulari bilan eslaydi. Ular

poytaxtimizni tiklashda ishtirok etdi, yangi uylar, bog'cha va maktablar qurdi.

Hech shubhasiz, vaqt va hayot sinovidan o'tgan do'stligimiz o'zbek-belarus munosabatlarini yanada rivojlantirish uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

Bugungi uchrashuv ikki tomonlama hamkorlikning hozirgi holati va istiqbollari, mintaqaviy va xalqaro siyosatning dolzarb masalalariga oid fikr va qarashlarimiz yaqin va mushtarak ekanini yana bir karra namoyon etdi.

Biz siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya va madaniy-gumanitar sohalaridagi o'zaro aloqalarni yanada chuqurlashtirish istiqbollari haqida fikr almashdik. Ikki tomonlama hamkorlik bo'yicha Hukumatlararo komissiyaaning muhim roli qayd etildi.

Keng ko'lamli yo'nalishlar bo'yicha, jumladan, mintaqaviy darajada ham munosabatlarni rivojlantirishga kelishib oldik.

Bu borada, xususan, quyidagi yo'nalishlar haqida so'z bormoqda:

– yuksak o'sish sur'atlarini ta'minlash va yil boshidan buyon qariyb to'rt marta oshgan tovar aylanmasi hajmini yanada ko'paytirish. Maqsadimiz – yaqin yillarda bu ko'rsatkichni bir milliard dollargacha yetkazishdan iborat;

– qishloq xo'jaligi, chorvachilik va sabzavotchilik, mashinasozlik, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoati,

farmatsevtika, qurilish materiallari ishlab chiqarish va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida kooperatsiyani rivojlantirish.

Shuningdek, belarus hamkorlarimiz erishgan yuksak tajribani hisobga olgan holda, O'zbekistonda atom elektrostansiyasini qurish loyihasini amalga oshirishda faol hamkorlik qilish niyatidamiz.

Muzokaralar chog'ida madaniy-gumanitar sohadagi aloqalarni kengaytirish zarurligi qayd etildi.

Ishonchim komil, bugun ilm-fan va texnologiyalar, sog'liqni saqlash, oliy ta'lim va madaniyat sohalari, shuningdek, fanlar akademiyalari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan hujjatlar ushbu yo'nalishlardagi hamkorlik uchun mustahkam huquqiy asos yaratadi.

An'anaviy ishonch, do'stona va amaliy ruhda o'tgan muzokaralar natijalaridan mamnun ekanimni qayd etishni istardim.

Bugun qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi va Belarus Respublikasi Prezidentlarining Qo'shma bayonoti, 2019–2023-yillarga mo'ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi shartnoma va uning ijrosi bo'yicha dasturni hamkorlikda olib borilgan ishlarning salmoqli natijasi sifatida e'tirof etamiz. Umuman olganda, tashrif davomida hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha 19 ta hujjat imzolandi.

Bundan tashqari, yaqinda bo'lib o'tgan hamkorlikda tashkil etilgan biznes forum doirasida qiymati

230 million dollardan ortiq bo'lgan yangi shartnoma va bitimlar imzolandi.

Muhtaram Aleksandr Grigoryevich!

Hurmatli ommaviy axborot vositalari vakillari!

So'zimning nihoyasida tashrif yakunlari o'zbek va belarus xalqlarining bir-biriga yaqin bo'lish, chinakam sheriklik munosabatlarini yo'lga qo'yishga bo'lgan intilishlarini tasdiqlaganini yana bir bor qayd etishni istardim.

Belarus Prezidenti, do'stim, muhtaram Aleksandr Grigoryevich Lukashenkoning O'zbekistonga rasmiy tashrifi o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirishga turtki bo'ladi hamda O'zbekiston va Belarus o'rtasidagi munosabatlarni yangi, yanada yuksak darajaga olib chiqadi.

E'tiboringiz uchun rahmat.

*Belarus Respublikasi Prezidenti
Aleksandr Lukashenkoning O'zbekistonga rasmiy
tashrifi doirasida ommaviy axborot vositalari
vakillari bilan uchrashuvdagi nutq*

2018-yil 12-14-sentabr

O‘ZBEKISTON VA BELARUS MUNOSABATLARI TARIXIDA YANGI SAHIFA

Muhtaram Aleksandr Grigoryevich!

Qadrli do‘stlar!

Sizni, hurmatli Aleksandr Grigoryevich, barcha aziz mehmonlarimiz – Belarus Respublikasi delegatsiyasi a’zolarini go‘zal va mehmondo‘st O‘zbekiston zaminida ko‘rib turganimdan bag‘oyat mamnunman.

Sizga va do‘st Belarus xalqiga yuksak hurmat-ehtiromim hamda eng ezgu tilaklarimni bildirishga ijozat bergaysiz.

Sizning O‘zbekiston Respublikasiga oxirgi 24 yilda birinchi bor o‘tayotgan rasmiy tashrifingiz mamlakatlarimiz o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlar tarixida yangi sahifa ochdi.

O‘zbekiston va Belarus geografik jihatdan bir-biridan uzoq bo‘lsa-da, xalqlarimizni birlashtirib turadigan mushtarak jihatlar ko‘p.

Belarus xalqi o‘zbek xalqi kabi mehnatsevar, ezgu fazilatlarga boy, ochiqko‘ngil va samimiy xalq.

Biz Ikkinchi jahon urushi yillarida ulkan yo‘qotishlarga qaramasdan, dushmanga bosh egmagan belarus xalqining mardligi va matonatidan faxrlanamiz.

Barchamiz uchun g‘oyat murakkab bo‘lgan o‘sha davrda O‘zbekiston frontning oldingi marralaridan va

dushman tomonidan egallangan hududlardan, jumladan, Belarusdan minglab odamlarni o'z bag'riga oldi. Ishchi va xizmatchilar bilan birga qator zavod va fabrikalar ham yurtimizga ko'chirib keltirildi.

Shuningdek, Toshkentda Belarus fanlar akademiyasi joylashtirildi. O'sha davrda poytaxtimizda belarus ziyolilarining eng yorqin namoyandalari – shoir va yozuvchilar Yakub Kolas, Eli Ognetsvet, Mendel Model, Lev Penkovskiy, akademiklar Veselovskiy, Gorev, Lipatov, Jebrak va ko'plab mashhur insonlar yashagan.

Belarus do'stlarimizning 1966-yilgi zilziladan keyin Toshkentni tez fursatda tiklashdagi beg'araz yordamini doimo minnatdorlik bilan eslaymiz va yuksak qadrlaymiz.

Bugungi kunda O'zbekistonda belarus millatiga mansub 19 ming nafarga yaqin fuqarolarimiz istiqomat qilmoqda. Ular orasida mamlakatimiz taraqqiyotiga qo'shgan katta hissasi uchun O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari – faxriy unvonlar, orden va medallarga sazovor bo'lganlar ko'p.

Respublikamizda ikkita belarus madaniyat markazi faoliyat yuritmoqda, belarus yurtdoshlarimizga o'z madaniyati, tili va an'analarini asrashi va rivojlantirish uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Bugun muhtaram Aleksandr Grigoryevich bilan poytaxtimizda belarus xalqining atoqli farzandlaridan biri Yakub Kolas sharafiga o'rnatilgan byustga gul qo'yib, uning xotirasiga hurmat bajo keltirdik. Mamlakatimizda

bu shoirning ijodi, ayniqsa o‘zbek zamini va xalqlarimiz do‘stligi tarannum etilgan «O‘zbekiston», «Solor», «Chimyon» va boshqa she‘rlari yaxshi ma’lum. Ularda, jumladan, quyidagi satrlarni o‘qish mumkin:

**Shum urushning og‘ir yili
Panoh topdim senda men ham.
Kuyga monand o‘zbek dili,
Qo‘shiq aytdik birga, hamdam.**

Aziz mehmonlar!

Do‘st Belarus Respublikasi barcha sohalarda erishayotgan salmoqli yutuqlar O‘zbekiston xalqiga katta mamnuniyat bag‘ishlaydi.

Hech shubhasiz, bugungi Belarusning barcha yorqin muvaffaqiyatlari uning Prezidenti, butun xalq tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan, o‘z Vataniga mamlakatining milliy manfaatlarini ta‘minlash borasidagi bosh mezonga amal qilgan holda, fidokorona xizmat qilayotgan hurmatli Aleksandr Grigoryevichning nomi bilan bog‘liq.

Shuni alohida qayd etmoqchimanki, Aleksandr Grigoryevich siyosiy donishmandlik, mardlik kabi noyob fazilatlar, odamlarni olijanob maqsadlar yo‘lida birlashtirish iste’dodiga ega. Uning rahbarligida Belarus Respublikasi tinchlik va osoyishtalik, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot ta‘minlanayotgan mamlakatga aylandi.

Muhtaram Aleksandr Grigoryevich, davlatlarimiz o'rtasidagi do'stona munosabatlar va samarali hamkorlikni mustahkamlashga qo'shayotgan ulkan shaxsiy hissangizni alohida ta'kidlashni istardim.

Bugun ishonch va ochiqlik ruhida, amaliy muhitda juda samarali muzokaralar bo'lib o'tdi. Ularning yakuniga ko'ra, barcha ustuvor yo'nalishlar bo'yicha ikki tomonlama hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan muhim shartnoma va bitimlar imzolandi.

Yana bir bor shuni ta'kidlamoqchimanki, Prezident Aleksandr Grigoryevich Lukashenkoning rasmiy tashrifi Belarus biz uchun ishonchli va sodiq sherik ekanini ko'rsatdi.

Hurmatli Aleksandr Grigoryevich!

Aziz do'stlar!

O'zbekiston va Belarus xalqlarini minglab rishtalar bilan bog'lab turgan hamda sheriklikni yanada mustahkamlashga xizmat qilayotgan do'stona aloqalarimiz, haqiqatdan ham, bizning bebaho boyligimizdir.

Birgalikdagi sa'y-harakatlar bilan hamkorlik uchun mavjud ulkan salohiyatni mamlakatlarimiz va xalqlarimiz farovonligi yo'lida samarali ro'yobga chiqarishimizga ishonaman.

*Belarus Respublikasi Prezidenti
Aleksandr Lukashenkoning
O'zbekistonga rasmiy tashrifi doirasida
o'tkazilgan qabul marosimidagi nutq*

2018-yil 12-14-sentabr

SHARQ VA G'ARB ADABIYOTI O'RTASIDAGI OLTIN KO'PRIK

O'zbekiston va Hindiston mamlakatlari o'rtasidagi do'stlik aloqalari qadim o'tmishga borib taqaladi. Ma'naviy va axloqiy qadriyatlar, hayot tarzining, ajdodlarga hurmat va ehtirom, vatanparvarlik, mehnatsevarlik singari insoniylik tuyg'ularining o'zaro uyg'unligi, bir so'z bilan aytganda, tarixiy taraqqiyotning o'zi bu ikki mamlakatning ko'p jihatdan yaqin va mushtarak bo'lib yashashiga imkoniyat yaratgan.

Bu haqda gapirganda, Buyuk ipak yo'li va savdo aloqalarining tadrijiy taraqqiyoti, o'tmishdagi ulug'alloma va adiblarimizning Hindistonga bag'ishlangan asarlari, bu yurtda faoliyat yuritgan Boburiylar saltanati, Bahouddin Naqshband tomonidan asos solingan naqshbandiya tariqatining hind diyorida keng tarqalishi singari ko'plab misollarni keltirish mumkin.

Ma'lumki, har bir millatning qalbini, uning ezgu maqsadlari va orzu-intilishlarini tushunish, anglab yetishda uning adabiyoti va san'ati beqiyos o'rin tutadi.

Shu ma'noda, O'zbekistonda do'st va qardosh hind xalqi adabiyotini o'rganish, uni ona tilimizga tarjima qilish va targ'ib etish borasida katta tajriba to'plangan, aniqrog'i, o'ziga xos ijodiy maktab yaratilgan, desak, ayni haqiqat bo'ladi.

Xususan, hind xalqining milliy ma'naviyati va noyob qadriyatlarini o'zida mujassam etgan «Ramayana» va «Mahobhorat» singari eposlar, o'nlab mashhur hind adib va shoirlarining asarlari mohir tarjimonlarimiz tomonidan o'zbek tiliga o'girilib, muntazam ravishda nashr etib kelinmoqda. Hindistonlik kinosan'atkorlar tomonidan yaratilgan go'zal badiiy filmlar o'zbek tomoshabinlari qalbidan chuqur joy olgan.

Xalqlarimiz o'rtasida shakllangan mustahkam adabiy hamkorlik haqida so'z borar ekan, bu o'rinda, hech shubhasiz, buyuk adib va mutafakkir, Sharq mamlakatlari vakillari orasida adabiyot sohasida birinchi bo'lib Nobel xalqaro mukofotiga sazovor bo'lgan Robindranat Tagor ijodi haqida alohida to'xtalish joiz.

O'zbek kitobxonlari bir asrdan ortiq vaqt davomida hind xalqining ulug' farzandi Robindranat Tagorning betakror ijodiy merosidan bahramand bo'lib kelmoqda. Bu ulug' zot nafaqat hind xalqiga, ayni paytda barcha Sharq xalqlari, jumladan, o'zbek xalqiga ham birdek aziz va suyukli siymodir.

Tarixga nazar salsak, bu olamshumul yozuvchining o'lmas asarlarini xalqimizga yetkazishdek ezgu vazifani ilk bor atoqli o'zbek shoiri Abdulhamid Cho'lpon o'z zimmasiga olganini ko'ramiz.

Cho'lpon 1920-yilda Robindranat Tagorning «Bog'bon» nomli to'plamiga kiritilgan she'rlaridan namunalar tarjima qilib, adabiy jurnalda nashr ettiradi. «Mening Sharq va G'arb adabiyoti o'rtasida oltin

ko'prik bo'lib xizmat qilgan yozuvchi bilan o'z xalqimni tanishtirish istagim bor», deb ta'kidlaydi Cho'lpon o'sha paytda yozgan «Ulug' hindi» nomli maqolasida.

Oradan ko'p o'tmay, Cho'lpon «Tagor va tagorshunoslik», «Tagor kim?» nomli turkum maqolalar e'lon qiladi, ulug' adibning noyob iste'dodiga yuksak baho berib, «Bizga yangi davrning Tagorlari kerak», degan muhim fikrni ilgari suradi.

1956-yilda Robindranat Tagorning «Nur va soyalar» nomli hikoyalar to'plamini o'zbek kitobxonlari katta qiziqish bilan kutib oldilar. 1958–1965-yillarda yozuvchining sakkiz jildlik «Tanlangan asarlar»ining Toshkentda nashr etilishi esa madaniy hayotimizda muhim voqea bo'ldi.

Ta'kidlash joizki, yurtimizdagi yetakchi teatr – O'zbek milliy akademik drama teatrida adibning «Shakuntala» asari hamda «Halokat» romani asosida badiiy yetuk spektakllar yaratilgan. «O'zbekfilm» kinostudiyasi tomonidan 1961-yilda «Halokat» romani, 1970-yilda «Nur va soyalar» hikoyasi asosida suratga olingan badiiy filmlarni xalqimiz bugun ham sevib tomosha qiladi.

Biz Robindranat Tagorning o'lmas ijodiy merosi bilan o'zbek kitobxonlarini tanishtirishga munosib hissa qo'shgan zahmatkash tarjimonlar – Abdulhamid Cho'lpon, Mirtemir, Maqsud Shayxzoda, To'xtasin Jalolov, Asqad Muxtor, Shuhrat, Erkin Vohidov, Jumaniyoz Jabborov, Qodir Mirmuhammedov, Ma'ruf Hakim,

Amir Fayzulla singari o'nlab ijodkorlarimizning nomlarini hurmat bilan tilga olamiz.

O'zbek hindshunos olimlarining ta'biri bilan aytganda, «Tagor Himolay cho'qqilarining ortida tug'ilib o'sdi va ana shu cho'qqilardan ham yuksak balandlikka ko'tarila oldi». Tagor shaxsiyati va asarlari bilan yaqindan tanishgan har bir inson uning gumanistik dunyoqarashi naqadar keng ekanidan hayratga tushadi va bu ulkan adib timsolida yuksak salohiyatli, donishmand bir suhbatdosh, benazir ustoz bilan muloqot qilgandek bo'ladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda hind adabiyoti va san'atiga, xususan, Tagor ijodiga qiziqish va e'tibor har doimgidan ham yuqori, desak, adashmagan bo'lamiz.

Hozirgi vaqtda Tagor asarlarini tarjima qilish, uning serqirra ijodini tahlil va tadqiq qilish ishlari izchil davom etmoqda. Turli nashriyotlarimiz tomonidan Tagor asarlari yirik tirajlarda nashr etilmoqda. Uning ijodidan namunalar maktab darsliklaridan o'rin olgan. Toshkent davlat sharqshunoslik institutida adib ijodiy merosi talabalarga maxsus fan sifatida o'qitilayotganini qayd etish lozim. Gumanitar yo'nalishdagi ilmiy tadqiqot institutlarimizda Tagor ijodi bo'yicha yangi izlanishlar olib borilmoqda. Yurtimizdagi ta'lim muassasalari, madaniy maskanlarda adib ijodiga bag'ishlangan tadbirlar, ilmiy anjumanlar muntazam o'tkazib kelinmoqda.

Albatta, turli xalqlar va millatlar o'rtasidagi do'stlik va hamjihatlik tuyg'ularini mustahkamlashda adabiy aloqalarning o'rni va ahamiyati beqiyos.

O'ylaymanki, dunyo xalqlarining qalbida, yuragida bezavol yashab kelayotgan Robindranat Tagor asarlari-ning o'zbek o'quvchilariga taqdim etilayotgan, sakkiz jilddan iborat ushbu muhtasham yangi nashri bu yo'lda yana bir muhim qadam bo'ladi.

Mazkur badiiy majmua xalqimizning nafaqat zabardast so'z san'atkoriga, ayni paytda uning siymosida do'st va qardosh Hindiston xalqiga, uning ko'hna tarixi va boy madaniyatiga, yorug' kelajagiga bo'lgan hurmati va ishonchining yana bir yorqin namunasidir.

Buyuk adib va mutafakkir Robindranat Tagor o'zining ibratli faoliyati, o'lmas asarlari bilan insoniyatni hamisha ezgulik sari chorlayveradi.

*Robindranat Tagorning o'zbek tilida nashr etilgan
8 jildli asarlar to'plamiga yozilgan so'zboshi*

2018-yil 17-sentabr

BUYUK QALB SOHIBI

Hurmatli o'quvchi, Siz hind xalqining buyuk farzandi, milliy-ozodlik uchun tolmas kurashchi, ulug' va benazir inson Mahatma Gandi haqida ko'p eshitgansiz, uning o'z Vatani va bashariyat oldidagi tarixiy xizmatlari bilan kinofilmlar, kitoblar, teleko'rsatuvlar orqali yaqindan tanishgansiz. Butun dunyoda Mahatma, ya'ni, buyuk qalb sohibi degan nom bilan ma'lum-u mashhur bo'lgan bu betakror shaxsning serqirra hayoti va faoliyati, yuksak fazilatlari O'zbekiston ahli uchun ham g'oyat qadrlidir.

Mahatma Gandining o'zbek kitobxonlariga taqdim etilayotgan «Mening hayotim» asarining ushbu yangi nashri, hech shubhasiz, ma'naviy hayotimizdagi katta voqeadir.

Mahatma Gandi avvalo buyuk mutafakkir va gumanist, hind xalqining ulug' yo'lboshchisi edi. Ana shunday benazir fazilatlari, o'z xalqiga bo'lgan ulkan muhabbati va sadoqati tufayli u Hindistonning qon to'kmasdan milliy mustaqillikni qo'lga kiritishi yo'lida cheksiz fidoyilik ko'rsatdi. Uning «ahimsa», ya'ni, zulmga qarshi kuch ishlatmaslik haqidagi ta'limoti ma'rifiy dunyo ahli orasida ayniqsa mashhurdir.

Gandi nafaqat o'z yurtida, balki butun yer yuzida zulm va zo'ravonlikka barham berishga munosib hissa qo'shdi. 2007-yil 15-iyunda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 2-oktabr «Xalqaro zulmga qarshi kurash kuni» deb e'lon qilinib, Gandi ta'limoti jahon miqyosida e'tirof etildi.

Mahatma Gandi adolat va haqiqatni zulm va istibdodga qarshi qo'yib, inson o'zining sobit irodasi bilan naqadar beqiyos kuch va imkoniyatlarga ega ekanini isbotladi.

«O'zimning «mahatma» degan nomimga shu ma'noda baho berar ekanman, men bu so'z zamirida faqat odamlarga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'usini ko'raman», – deb ta'kidlaydi muallif «Mening hayotim» kitobida.

Ma'lumki, Hindiston ko'pmillatli, ko'pkonfessiyali va ko'ptilli davlat. Bunday rang-baranglik har qanday mamlakatning ulkan boyligi bo'lishi bilan birga, o'z navbatida qanchadan qancha murakkab muammo va ziddiyatlarni tug'dirishi tarixdan yaxshi ma'lum.

Mahatma Gandi ana shunday nozik va o'ta qiyin masalani oqilona hal qilish maqsadida, Hindistonni birlashtirish yo'lida o'zini ayamasdan buyuk xizmat qildi.

Gandi dunyodagi barcha dinlar odamzodni ma'naviy poklik, to'g'rilik va birodarlikka chaqirishini alohida uqtiradi. Xususan, islom dinining insonparvarlik mohiyatiga yuksak baho beradi. «Muhammadning

qanday ulug' va olijanob shaxs ekanini bilib, chuqur hayratga tushdim», – deb yozadi u o'z kitobida.

Mahatma Gandi tom ma'noda xalq yo'lboshchisi edi. U yoshligidan boshlab to umrining oxirigacha xalq xizmatida bo'lishni butun hayotining ma'no-mazmuni, o'zi uchun yuksak sharaf deb bildi. O'zi quyi tabaqaga mansub bo'lgani uchun el-ulusning orzu-armonlari, dard-u tashvishlari unga nihoyatda yaqin edi.

«Mening hayotim» kitobini o'qir ekanmiz, muallif o'z umri va siyosiy faoliyati davomida ne-ne sinov va mashaqqatlarga duch kelganini yurak-yurakdan his etamiz. Ana shunday qiyinchiliklarga qaramasdan, u e'tiqodi va tanlagan yo'lidan ortga qaytmadi. O'z xalqiga, uning olijanob fazilatlariga, Hindistonning yorug' kelajagiga bo'lgan qat'iy ishonch unga eng og'ir va mushkul vaziyatlarda kuch-quvvat baxsh etdi. Uning mustahkam irodasi va matonati har qanday odamni ham lol qoldiradi.

«Mening keyingi hayotim hammaning ko'z o'ngida, ochiq va oshkor kechdiki, unda xalqqa ma'lum bo'lmagan bironta voqea yoki hodisa topilmaydi», deb e'tirof etadi muallif.

Darhaqiqat, bepoyon Hindistonni boshdan oyoq poy-u piyoda kezib chiqqan Mahatma Gandi millionlab odamlar, avvalo, miskin va yo'qsillar, beva-bechora va nogironlarning dardiga malham bo'lishga intildi. Nafaqat o'z yurti, balki jahon miqyosida ulkan obro'-

e'tibor va hurmatga sazovor bo'lganiga qaramasdan, hamisha kamtar va kamsuqum umr kechirdi.

«Hindistonning ijtimoiy hayotida menga o'xshagan mavqeni egallagan odam har jihatdan boshqalarga o'rnak bo'lib xizmat qilishi kerak», deb ta'kidlar ekan, bunday deb aytishga u ma'naviy jihatdan to'la haqli edi.

Ulug' mutafakkir, buyuk qalb egasining hayot yo'lini, hayot falsafasini o'zida mujassam etgan ushbu kitobni mutolaa qilar ekanmiz, Mahatma Gandi o'zi ilgari surgan yuksak axloqiy mezonlarga umr bo'yi amal qilib yashaganiga ishonch hosil qilamiz.

Eng muhimi, Hindistondek buyuk davlatni mustaqil taraqqiyot yo'liga olib chiqib, uning rivojlanish yo'llarini belgilab berganiga qaramasdan, bu ulug' inson doimo o'z faoliyatidan qoniqmasdan yashagani ayniqsa e'tiborga loyiq. U kitobning so'nggi sahifalarida buni ochiq e'tirof etadi.

Mahatma Gandi zamonaviy ilm-fan, madaniyat, sog'liqni saqlash, tarix va ma'naviyatni tiklash, yoshlar tarbiyasiga qanday katta ahamiyat bergani bizga yaxshi ma'lum. O'zbekistonda ham bugungi kunda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarning ma'no-mazmuni avvalo oliy qadriyat bo'lgan inson manfaatlarini ta'minlashdek ustuvor vazifalarni amalga oshirishga qaratilganini alohida ta'kidlashni istardim.

«Bolalarning ma'naviy-ruhiy tarbiyasi ularning jismoniy va aqliy tarbiyasiga qaraganda ancha qiyin

ish... Ma'naviy tarbiyasiz hech qanday ta'lim foyda keltira olmasligiga va hatto zarar keltirishi mumkinligiga aminman».

Gandining chuqur ma'noli bu so'zlari bugungi murakkab zamonda yanada muhim va dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Albatta, jahon tarixidan munosib o'rin olgan bu ulug' zotning teran mazmunli ushbu asari haqida yana uzoq fikr yuritish mumkin. U o'zining haqqoniy ruhi, keng qamrovi, ibratli voqealar, tarixiy dalillar va insoniy hissiyotlarga nihoyatda boyligi bilan o'quvchi qalbida o'chmas taassurot qoldiradi.

Eng muhimi, Mahatma Gandining mamlakatimizdagi yetakchi «O'zbekiston» nashriyoti tomonidan qayta nashr etilgan «Mening hayotim» kitobi ko'pni ko'rgan, mehnatkash, bag'rikeng, samimiy va olijanob hind xalqini, uning qadimiy tarixi va boy madaniyatini bizga yanada yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

*Mahatma Gandining «Mening hayotim»
kitobiga yozilgan so'zboshi*

2018-yil 17-sentabr

SIYOSIY MULOQOT VA HAR TOMONLAMA HAMKORLIK YANADA MUSTAHKAMLANMOQDA

Muhtaram Narendra Modi Janobi Oliylari!
Hurmatli ommaviy axborot vositalari vakillari!
Xonimlar va janoblar!

Avvalo Hindiston Bosh vaziri, janob Narendra Modi va barcha hind do'stlarimizga samimiy qabul va mehmondo'stlik uchun chin dildan minnatdorlik izhor qilmoqchiman.

Qadimiy tarix, boy madaniyat, yuksak siyosiy, iqtisodiy va intellektual salohiyatga ega bo'lgan mamlakat – Hindiston xalqiga chuqur hurmatimni ifoda etishga ijozat bergaysiz.

Biz ko'p asrlik tarixiy va madaniy rishtalar bilan bog'langan mamlakatlarimiz va xalqlarimiz o'rtasidagi munosabatlarning hozirgi darajasini yuksak qadrlaymiz.

Yana bir bor qayd etmoqchiman: Hindiston bilan strategik hamkorlikni mustahkamlash – O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Bugun Qo'shma bayonot qabul qilingani, hukumatlararo va idoralararo muhim hujjatlar imzolangani an'anaviy do'stona va amaliy ruhda o'tgan muzokaralarimiz mahsuli bo'ldi.

Biz siyosiy muloqotni yanada mustahkamlash, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy va gumanitar hamkorlikni tubdan kengaytirish, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti singari nufuzli xalqaro tuzilmalar doirasidagi o‘zaro aloqalarni davom ettirishdan manfaatdor ekanimizni tasdiqladik.

Ko‘rib chiqilgan barcha masalalar bo‘yicha qarashlarimiz va fikrlarimiz mushtarak yoki o‘zaro yaqin ekanini ta’kidlamoqchiman.

Bugun Hindiston dunyodagi yirik mamlakatlardan biri sifatida global muammolarni hal etishda faol ishtirok etmoqda. Shuni hisobga olgan holda, O‘zbekiston Hindiston doimiy a‘zo sifatida BMT Xavfsizlik kengashi tarkibiga kirishi uchun uni qo‘llab-quvvatlashga tayyor ekanini bildiradi.

Muzokaralar chog‘ida terrorizm va ekstremizm, narkotik moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash yo‘lidagi hamkorlikdagi sa’y-harakatlarni muvofiqlashtirish masalalari bo‘yicha fikr almashildi.

Bizlar uchun umumiy bo‘lgan muammo – Afg‘onistonda davom etayotgan qarama-qarshilikka jiddiy e’tibor qaratildi. Biz bu muammoni harbiy yo‘l bilan hal etib bo‘lmasligi haqidagi fikrda yakdilmiz. Tinchlik o‘rnatishning yagona yo‘li – bu Afg‘oniston hukumati va muxolifat o‘rtasida siyosiy muloqot o‘rnatishdir.

Qadrli do‘stlar!

Biz savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlikning amaldagi holatini tanqidiy tahlil qildik.

So'nggi yillarda mamlakatlarimiz o'rtasida tovar aylanmasi qariyb uch yuz million dollarni tashkil qilmoqda. Uning hozirgi darajasi ikki mamlakat salohiyatiga mos kelmasligini tan olish kerak. Shu munosabat bilan biz yaqin yillarda o'zaro savdo hajmini kamida ikki marta oshirish uchun imkoniyatimiz yetarli ekanini qayd etdik.

Tashrif asnosida mamlakatlarimizning yetakchi kompaniyalari o'rtasida uch milliard dollar hajmidagi bitim va shartnomalar imzolandi.

Hind hamkorlarimiz ilg'or tajriba va texnologiyalarga ega sohalar va tarmoqlarda qo'shma loyiha va dasturlarni amalga oshirishda ko'mak berishlari haqida kelishib oldik. Jumladan:

- zamonaviy xizmatlar sektorini rivojlantirish. Bu borada Hukumatlararo komissiyalar doirasida qo'shma ishchi guruh shakllantiriladi;

- Hindiston dasturiy texnologiyalari parklari jamiyatini jalb etgan holda, qo'shma texnopark tashkil etish, Toshkentda yetakchi hind universitetlari filialini ochish;

- O'zbekistonda zamonaviy ko'p tarmoqli tibbiyot markazlari va farmatsevtika korxonalarini tashkil etish;

- Toshkent, Samarqand va Buxoro shaharlarida zamonaviy mehmonxonalar qurish;

- O'zbekistonda istiqbolli uglevodorod va volfram konlarini o'zlashtirish;

- tayyor to'qimachilik, charm mahsulotlarini ishlab chiqarish va boshqa ko'plab loyihalar.

Bundan tashqari, yetakchi banklarimiz o'rtasida qo'shma loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Ikki mamlakatda yangi transport koridorlari va logistika markazlari salohiyatini rivojlantirish sohasida yaqin hamkorlik qilishga kelishib oldik.

Hududlararo aloqalar bo'yicha ham ulkan salohiyat mavjud. Tashrif chog'ida Gujarat shtati va Andijon viloyati, Agra va Samarqand singari tarixiy shaharlar o'rtasida sheriklik munosabatlari o'rnatildi.

Ta'lim, ilm-fan, turizm, madaniyat, san'at, jumladan, kinematografiya sohalarida o'zaro hamkorlik uchun ulkan imkoniyatlar bor.

Hindistonlik hamkorlarimiz bilan muzokaralarda yoshlar siyosati sohasida hamkorlik to'g'risida kelishib oldik. O'zbek-hind yoshlar festivalini o'tkazish bu boradagi ilk qadamlardan biri bo'lishi mumkin.

Bosh vazir Janobi Oliylari, fursatdan foydalanib, Sizga yaqinda yurtimizda o'zbek tilida nashr etilgan buyuk hind yozuvchisi va mutafakkiri Robindranat Tagorning sakkiz jildlik asarlar to'plamini taqdim etmoqchiman. Ushbu nashr uchun so'zboshi yozish men uchun yuksak sharaf. Bu xalqlarimiz o'rtasida mustahkamlanib borayotgan ma'naviy aloqalarning yana bir ramzi bo'lib qolsin.

So'zimning yakunida Sizga, Bosh vazir janoblari, mehmondo'stlik va yuksak darajada tashkil etilgan davlat tashrifi uchun minnatdorlik bildiraman.

Tashrif natijalari O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarida yangi sahifani ochishiga ishonchim komil.

Janobi Oliylari, sizni o'zingiz uchun qulay vaqtda davlat tashrifi bilan O'zbekistonga kelishga yana bir bor taklif qilaman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

*Hindistonga davlat tashrifi davomida
ommaviy axborot vositalari vakillari
bilan uchrashuvdagi nutq*

*Dehli shahri,
2018-yil 30-sentabr - 1-oktabr*

KO'PASRLIK DO'STLIK AN'ANALARIGA ASOSLANGAN HAMKORLIK

Muhtaram Prezident Janobi Oliylari!

Hurmatli Bosh vazir Janobi Oliylari!

Xonimlar va janoblar!

Sizlarga bag'rikeng hind diyoridagi samimiy qabul va mehmondo'stlik uchun cheksiz hurmatim va chuqur minnatdorligimni izhor etishga ijozat bergaysiz.

Ma'lumki, Hindiston – dunyoga betakror sivilizatsiya va madaniyatni ato etgan ko'hna diyordir. Bu qadimiy va ayni damda navqiron mamlakatda jadal sur'atlarda kechayotgan yangilanish jarayonlari ko'z qorachig'idek asrab-avaylanayotgan tarixiy va madaniy-ma'naviy meros bilan uyg'unlikda ro'y bermoqda.

Mamlakatimizda Toshkent shahridagi ko'chalarga Mahatma Gandi, Javoharla'l Neru va Lal Bahodir Shastri kabi buyuk siymolarning nomlari berilgani hind xalqiga yuksak hurmat-ehtirom ifodasidir. Poytaxtimizda atoqli davlat arbobi Shastri byusti ham o'rnatilgan.

Hind tilini chuqurlashtirib o'rgatishga ixtisoslashtirilgan maktab va Toshkent davlat sharqshunoslik institutida hindshunoslik bo'limi faoliyat yuritmoqda. O'zbek tilida «Mahobhorat» va «Ramayana» dostonlari,

Mahatma Gandi, Robindranat Tagor hamda boshqa ko'plab hind mutafakkirlari, yozuvchi va shoirlarining asarlari bir necha bor nashr etilgan. Hind musiqasi, qo'shiqlari, raqsi va kinosi o'zbek xalqiga juda yaqin va tushunarli, yurtimizda katta shuhrat qozongan. Ayniqsa, hind filmlari o'zbek ekranlaridan tushmaydi.

Dehlining «Jamiyai milliyai Islomiya» universitetida o'zbek tili va adabiyoti o'qitilishi bizga ma'lum va biz buni qadrlaymiz.

Hindistonning iqtisodiyot, ilm-fan va texnika, madaniyat va san'at, tibbiyot va ta'limni rivojlantirish borasidagi katta yutuqlari yuksak hurmat va e'tirofga munosibdir.

Hurmatli do'stlar!

Prezident janoblari bilan amaliy va ishonch ruhida o'tgan bugungi uchrashuv, Bosh vazir janoblari, Hindiston hukumati va parlament a'zolari bilan muzokaralar natijalaridan behad mamnunligimni izhor qilmoqchiman. Ular ko'pasrlik do'stlik, ma'naviy va madaniy yaqinlik, mushtarak urf-odat va an'analarga asoslangan hamkorligimiz uzoq istiqbolga qaratilganini yana bir bor tasdiqladi.

Ochiq muloqotni davom ettirish va parlamentlararo aloqalarni rivojlantirish zarur ekaniga ishonchimiz komil.

Savdo-iqtisodiy, innovatsion, sarmoyaviy, moliyaviy, transport-kommunikatsiya, gumanitar va boshqa sohalardagi samarali hamkorlikni kengaytirish niyatidamiz.

Hind xalqining buyuk o'g'loni Mahatma Gandi ta'biri bilan aytganda: **«Qalban yaqin insonlar o'rtasidagina munosib va mustahkam do'stlik rishtalari kurtak otishi mumkin».**

Ko'pasrlik mustahkam do'stlikka asoslangan strategik sheriklik va o'zaro manfaatli hamkorlik munosabatlari bundan buyon ham mamlakatlarimiz va xalqlarimiz manfaatlari yo'lida yanada rivojlanib, mustahkamlanib borishiga ishonchim komil.

E'tiboringiz uchun rahmat.

*Hindistonga amalga oshirilgan davlat tashrifi
doirasidagi qabul marosimidagi nutq*

*Dehli shahri,
2018-yil 30-sentabr - 1-oktabr*

BIZ UNESCO BILAN HAMKORLIKNI BUNDAN BUYON HAM RIVOJLANTIRISH TARAFDORIMIZ

Hurmatli Odri Azule xonim!

Siz bilan uchrashib turganimdan bag'oyat xursandman. Uchrashuvimiz mening Yevropaga ilk tashrifim dasturini ochib berayotganida ramziy ma'no bor.

Sizni katta amaliy tajriba va dunyo madaniyati, ilm-fani, ta'limi rivojiga oid strategik qarashga ega bo'lgan xalqaro miqyosdagi atoqli arbob sifatida bilamiz va UNESCO direktori sifatidagi qizg'in faoliyatingizni qo'llab-quvvatlaymiz.

Sizning BMT tashkil topgan vaqtdan tubdan farq qiladigan yangi dunyoda yashamoqdamiz, degan fikringizga qo'shilaman.

Biz UNESCOning ta'lim, madaniyat, ilm-fan, kommunikatsiyalar, inson huquqlari va gender tengligini global darajada rivojlantirish borasidagi rolini yuksak qadrlaymiz. Shu o'rinda Javoharlar Neruning quyidagi so'zlarini keltirib o'tmoqchiman: «UNESCO – insoniyat vijdoni».

26-oktabr kuni O'zbekiston UNESCOga a'zo bo'lganiga 25 yil to'ladi. Bu vaqt mobaynida xalqaro miqyosda ko'plab buyuk ajdodlarimiz, shuningdek, dunyo

tamadduni o'choqlari hisoblangan Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlarimizning tarixiy sanalari nishonlandi.

To'rtta shahrimiz Butunjahon merosi ro'yxatiga, bizning milliy san'atimiz, an'ana va urf-odatlarimiz durdonasi bo'lgan «Shashmaqom», «Katta ashula», askiya, Navro'z, palov, atlas va adras texnologiyalari esa Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritildi.

2018-yil sentabr oyida Shahrisabzda birinchi Xalqaro maqom san'ati forumi muvaffaqiyatli o'tkazildi.

Men zamonaviy xavf-xatarlarga qarshi kurashda «yumshoq kuch» sifatida ta'limning rolini oshirishdagi sa'y-harakatlaringizni qo'llab-quvvatlayman.

Bizning bu boradagi tashabbuslarimiz BMT Bosh Assambleyasining «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» rezolyutsiyasi va Yoshlar huquqlari bo'yicha konvensiyasini qabul qilishdan iboratdir.

Biz UNESCO shafeligida quyidagi loyihalarni amalga oshirmoqchimiz:

– Samarqandda – tinchlik, bag'rikenglik madaniyati, ekstremizmga qarshi kurashni shakllantirish bo'yicha Mirzo Ulug'bek nomidagi xalqaro institut ochish;

– Toshkent axborot texnologiyalari universiteti negizida ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha mintaqaviy markaz tashkil qilish. Chunki bu sohadagi tajriba biz uchun o'ta muhim;

– O'zbekistonda Markaziy Osiyo yosh olimlari mintaqaviy forumini o'tkazish.

Men Sizning «Bizni madaniyat bog‘lab turadi va u insoniyatning asosi hisoblanadi», degan fikringizga to‘liq qo‘shilaman.

UNESCOning qurolli to‘qnashuvlar va madaniy qadriyatlarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashda madaniyatni himoya qilish bo‘yicha strategiyasini qo‘llab-quvvatlayman. Mazkur masalalarda katta tajribaga ega ekaningizdan xabarim bor.

Biz UNESCO bilan O‘zbekistondagi mavjud me‘moriy yodgorliklarni asrash yo‘lidagi hamkorligimizni kengaytirishda davom etamiz.

UNESCOning «Markaziy Osiyo tamadduni tarixi» nomli olti jildidan iborat kitob-albomlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish niyatidamiz.

Samarqanddagi Xalqaro turizm universitetida UNESCOning «Madaniy turizm» kafedrasini ochishni, o‘zaro hamkorlikda 2019-yil Toshkent shahrida «Axborot texnologiyalari madaniy merosni saqlash yo‘lida» mavzusida Osiyo forumini o‘tkazishni taklif qilaman.

Siz bu masalalarga ulkan e‘tibor qaratishingizni bilaman.

Madaniyat, ta‘lim, innovatsiyalar, kutubxona va muzey ishi sohalaridagi qonunlarni ishlab chiqishda biz UNESCOning yordamiga muhtojmiz.

O‘zbekiston bugungi kunda jahon hamjamiyati bilan yaqin hamkorlik qilishga juda katta ahamiyat bermoqda. Biz dunyo ahli mamlakatimizni yaqindan bilishini, xalqimizning boy tarixi va madaniyatini o‘z ko‘zi bilan

ko'rishini istaymiz. Bu borada turizm imkoniyatlari muhim rol o'ynaydi. Biz yurtimizda turizmni rivojlantirish uchun yuksak e'tibor qaratmoqdamiz. Fransiya biz sayyohlari uchun vizasiz tartib joriy qilgan Yevropa Ittifoqidagi ilk mamlakatdir.

Biz bundan buyon ham UNESCO bilan hamkorlikni mustahkamlash tarafdorimiz. Ilk bor qabul qilingan mamlakat dasturi va UNESCO huzurida O'zbekistonning to'laqonli vakolatxonasi ochilishi aynan shundan dalolat beradi.

Sizni O'zbekistonga taklif qilaman.

*Fransiyaga amalga oshirilgan
rasmiy tashrif doirasida
UNESCO Bosh direktori Odri Azule
bilan uchrashuvdagi nutq*

*Parij shahri,
2018-yil 8-oktabr*

AQL-IDROK OVOZI

Hurmatli kitobxonlar!

Sizning e'tiboringizga taqdim etish sharafiga muyassar bo'lganim ushbu nashr – Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makronning «Revolyutsiya» nomli kitobi 2016-yilda chop etildi va qisqa muddatda milliy bestsellerga aylandi.

Ko'plab mustaqil, nufuzli ekspertlar ta'kidlaganidek, mazkur kitobni Fransiyadagi siyosiy jarayonlar bilan qiziqadigan har bir kishi albatta o'qib chiqishi kerak.

Bu fikrga qo'shimcha qilib men, bu kitob o'z Vatanining istiqboli va ravnaqi uchun qayg'uradigan, uning taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga intiladigan barcha insonlar uchun g'oyat foydali asardir, deb aytgan bo'lardim.

Ushbu kitob Emmanuel Makronning hayotiy va siyosiy qarashlarini, uning «buyuk o'zgarishlar» davrida Fransiyaning bugungi va ertangi kunini qanday tasavvur qilishini o'zida ifoda etadi.

Muallifning so'zlariga qaraganda, u davlat rahbari sifatida o'zining birinchi navbatdagi vazifasini Fransiyaning buyukligini hamda fransuz xalqining o'z kelajagiga bo'lgan ishonchini tiklashdan iborat, deb anglaydi.

Fransiya – ulkan siyosiy, iqtisodiy va intellektual salohiyatga ega bo‘lgan, dunyodagi yetakchi va qudratli davlatlardan biri. U o‘zining qadimiy tarixi va boy madaniyati, ulug‘ davlat va siyosat arboblari, mashhur islohotchilar, mutafakkir va olimlar, shoir va kompozitorlari bilan butun jahonda shuhrat qozongan.

O‘zbek xalqi bu go‘zal va betakror mamlakatga doimo katta hurmat va e‘tibor bilan qarab keladi. Bizning mamlakatlarimiz o‘rtasidagi aloqalarga bundan ko‘p asrlar muqaddam asos solingan. O‘zbek va fransuz xalqlarining ikki buyuk ajdodi – Amir Temur va Karl VI o‘rtasidagi diplomatik yozishmalar bu fikrning tasdig‘idir.

1402-yili Fransiya qiroliga yo‘llagan maktublaridan birida o‘sha paytda Osiyo qit‘asidagi eng qudratli saltanat hukmdori bo‘lgan Sohibqiron Amir Temur, jumladan, shunday deb yozadi: **«Siz, A’lo hazratlari, o‘z savdogarlaringizni bizning yurtimizga yuborsangiz. O‘z navbatida, biz ularning hurmat-izzatini saqlash, ularga hech kim zo‘rlik ko‘rsatmasligini ta’minlaymiz. Chunki dunyo savdo ahli bilan oboddir»**. Bu dono so‘zlar bugun, bizning zamonamizda ham o‘zining dolzarb ahamiyatini yo‘qotgan emas.

Ishonchim komil, mamlakatlarimiz va xalqlarimiz o‘rtasidagi ezgu hamkorlik an‘analarini nafaqat tiklash, har ikki davlat taraqqiyotiga xizmat qiladigan o‘zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, ayni paytda, ularni bugungi globalizatsiya sharoitiga mos keladigan yangi, yuksak darajaga ko‘tarish vaqti keldi.

Mamlakatlarimiz oldida turgan vazifalar va amalga oshirilayotgan keng ko'lamli demokratik islohotlarning mushtarak xususiyatlarga ega ekani va bu o'zgarishlardan kutilayotgan natijalar ham ko'p jihatdan o'xshash ekanini inobatga oladigan bo'lsak, bunday hamkorlik yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli Prezident Emmanuel Makron tomonidan Fransiyada amalga oshirilayotgan kompleks o'zgarishlar O'zbekistonda katta qiziqish va e'tibor bilan kuzatilmoqda. Bu o'zgarishlar avvalo konstitutsiyaviy islohotlarni amalga oshirish, jamiyatni yanada birlashtirish, davlat boshqaruvi tizimi va soliq qonunchiligini takomillashtirish, tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, sotsial sohani rivojlantirish kabi ustuvor yo'nalishlarni qamrab olgani bilan ahamiyatlidir.

Fransiya Prezidentining siyosiy va iqtisodiy dasturi to'la ifoda etilgan ushbu kitob mamlakatimiz akademik va ishbilarmon doiralari, olimlar va amaliyotchilar tomonidan sinchiklab o'rganilmoqda.

Shunisi e'tiborliki, o'z kitobiga «Revolyutsiya» deb nom berganiga qaramasdan, muallif «Shok terapiya»si g'oyasini ilgari surmaydi. Uning fikricha: «Yangi munosabatlarni o'rnatish uchun avval yaratilgan barcha narsalarni buzib tashlashning hojati yo'q». Bu g'oya bizning yurtimizda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan, puxta o'ylangan, ijtimoiy yo'naltirilgan

islohotlar falsafasi bilan uyg'un va hamohang ekanini qayd etish lozim.

Prezident Emmanuel Makronning ushbu kitobda bayon etilgan tashqi siyosat sohasidagi qarashlari ham muhim ahamiyatga ega. Uning nuqtayi nazariga ko'ra, Fransiya tashqi siyosatining zamirida dunyodagi barcha mamlakatlar, birinchi navbatda, Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlash g'oyasi mujassam bo'lishi kerak.

Bugun O'zbekiston ham tashqi siyosat borasida ayni shunday yondashuvga rioya qilmoqda. Jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasidagi qo'shni davlatlar bilan do'stlik va hamkorlik aloqalarini mustahkamlashni biz ustuvor vazifa, deb belgilaganmiz va bu yo'lda muhim amaliy qadamlar qo'ymoqdamiz.

Emmanuel Makron olib borayotgan pragmatik siyosat alohida e'tiborni tortadi. «Revol्यूtsiya» kitobi Fransiya rahbarining islohotlar dasturi haqida ma'lumot berish bilan birga, muallifning shaxsiyati haqida, uning beqiyos aql-zakovati va intellektual salohiyati, turli sohalarda ulkan bilimga ega ekani, siyosatchi va fuqaro sifatidagi donishmandligi va uzoqni ko'ra bilishidan dalolat beradi.

Dunyodagi ko'pgina xorijiy tillar qatorida bugun o'zbek tilida ham nashr etilgan bu asar turli bo'g'indagi rahbarlar, ekspert va mutaxassislar, keng jamoatchilik uchun zarur amaliy qo'llanma bo'lib qoladi, deb ishonaman.

Fransiya Respublikasi Prezidentining dasturiy ahamiyatga ega bo'lgan ushbu asariga yozgan so'zboshimni men Emmanuel Makronning quyidagi fikri bilan yakunlashni istardim: **«Fransiya dunyoda o'z so'ziga ega, jahon ahli uning ovozigacha quloq soladi, chunki bu – aql-idrok ovozidir».**

*Fransiya Respublikasi Prezidenti
Emmanuel Makronning o'zbek tilida nashr etilgan
«Revolyutsiya» kitobiga yozilgan so'zboshi*

2018-yil 8-oktabr

«TEMUR TUZUKLARI» YOKI DAVLAT BOSHQARUVINING QOMUSI

O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi o'zaro do'stlik va hamjihatlik haqida so'z borar ekan, men bu hamkorlik rishtalarining qadimiy tarixga ega ekanini ta'kidlashni istardim.

Ushbu tarix silsilasida Sohibqiron Amir Temur alohida o'rin egallaydi. Bu ulug' shaxs haqli ravishda dunyo tarixidagi eng buyuk davlat arboblardan biri, yengilmas sarkarda deya e'tirof etiladi. Ayni paytda, u ilm-fan, madaniyat va san'at homiysi sifatida ham mashhur. Uning bunyodkorlik sohasidagi tarixiy xizmatlari beqiyos.

Aynan Amir Temur va uning avlodlarining sa'y-harakatlari bilan Samarqand o'z davrining eng go'zal va obod shahriga, tom ma'noda yer yuzining sayqaliga aylangan. Dunyoning eng katta va boy kutubxonalari, mashhur dorilfununlar – rasadxona va madrasalar, ulug' allomalar mana shu zaminda faoliyat ko'rsatgan.

Amir Temur ikki nafar sodiq navkari va vafodor yori bilan birga dushman asirligidan qutulganidan so'ng tez orada yirik qo'shin to'plab, Hindistondan Misrgacha, Afg'onistondan Rossiyaga qadar bo'lgan keng makonni zabt etgan. Bunday beqiyos zafarning zamirida, hech shubhasiz, Sohibqironga xos bo'lgan o'z

qo‘shini va tarafdorlarini ishontira-inontira bilish salohiyati mujassam. Yanada muhimi, Amir Temur harbiy yurishlar vaqtida hamisha o‘zining nechog‘lik daho strateg ekanini amalda yaqqol namoyon etgan.

«Temur tuzuklari» asarida Amir Temurning tarjimai holiga doir ma’lumotlar ham, Sohibqironning faqat o‘zigagina ayon bo‘lgan xos fikrlari hamda shaxsiy mushohadalari ham, ulug‘ ajdodimizning Movarounnahrni mo‘g‘ullar zulmidan ozod qilib, o‘z saltanatining gullab-yashnashi uchun zarur sharoitlar yaratish, ona shahri Keshni obod qilish, dunyo poytaxti – muazzam Samarqandda hozirgacha ko‘zlarni quvnatib turgan muhtasham obidalar bunyod etish borasidagi bilim va tajribalari ham bayon etilgan.

Amir Temurning hayot sirlarini anglab yetishda bebaho qo‘llanma bo‘lmish ushbu kitobda ifoda etilgan g‘oya va qarashlari nafaqat o‘z davri, balki bugungi va kelgusi avlodlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, bu buyuk va betakror siymoga har bir masalada uzoqni ko‘zlab, yurt manfaati, xalq farovonligini o‘ylab ish tutish bilan bog‘liq ibratli fazilatlar xos bo‘lgan.

Sohibqiron tafakkurining mahsuli bo‘lgan «Temur tuzuklari» asarida ham: **«Tajribamda ko‘rilgan-kim, azmi qat’iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir»** yoki **«Bilagi zo‘r birni, bilimi zo‘r mingni yiqar»**, degan – tinchlik, ma’rifat, ezgu tashabbus

g'oyalari har tomonlama aniq, ishonarli va ta'sirchan tarzda yoritilgan hikmatli maslahat va yo'riqlar, shavkatli ajdodimiz ta'biri bilan aytganda, to'ra va tuzuklar ko'p.

Atoqli fransuz adibi Viktor Gyugoning **«Butun dunyoda tinchlik g'oyasi – barcha millatlar mulkidir. U eng yuksak baxt-saodat sifatida tinchlikni talab qiladi»**, degan so'zlari ana shu tuzuklarga hamohangligi bilan bizni ham hayratga soladi, ham xursand qiladi.

Amir Temurning shon-u shuhrati, hayoti va faoliyatiga bo'lgan qiziqish jahonning turli mamlakatlarida tobora ortib bormoqda. Bu mavzuda nafaqat Sharqda, balki G'arbda ham necha yuz yillardan buyon muntazam ilmiy va badiiy asarlar yaratib kelinmoqda. Shu o'rinda Fransiyaning bizning madaniyatimiz, tilimiz, buyuk ajdodlarimiz merosini o'rganish borasida ham peshqadam ekanini mamnuniyat bilan ta'kidlayman.

Chindan ham, fransuz sharqshunoslari ushbu sohada kashshoflik qilganlar va ajoyib natijalarga erishganlar. Bu fikrimning tasdig'i uchun birgina misol keltiraman. Fransiyalik taniqli olim, O'zbekiston Respublikasining Davlat mukofoti – «Shuhrat» medali sovrindori Lyusen Kerenning «Samarqandga, Amir Temur davriga sayohat» nomli salmoqli ilmiy asari 2006-yili xalqaro miqyosda keng nishonlangan Sohibqironning 670 yillik tavallud to'yi arafasida Parijda fransuz tilida nashr etilgandi.

Fransiya – insoniyat ruhi ulug‘vorligi va aql ziyosi ramzi, jahonga ko‘plab atoqli arboblarning yetkazib bergan buyuk mamlakatdir. Sizlar «Tamerlan» deb ataydigan buyuk bobomiz Amir Temur Fransiya Qirolligi Sharh VI bilan XIV va XV asrlardayoq o‘zaro maktublar almashib, mamlakatlarimiz o‘rtasida mustahkam siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalarni o‘rnatish haqida qizg‘in muzokaralar olib borganlari tarixdan yaxshi ma‘lum.

Kornelning «Sid» nomli tragediyasida «**Nimadir yetilishi uchun vaqt kerak**» degan dono fikr aytilgan. Demoqchimanki, xalqlarimizning azaliy do‘stona munosabatlarini, davlatlarimiz o‘rtasidagi teng va o‘zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini tubdan yangi, yuksak bosqichga ko‘tarish vaqti kelganiga ishonchim komil.

Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron Janobi Oliylariga, tarix va adabiyotning bilimdoni bo‘lgan olijanob insonga «Temur tuzuklari» kitobi forsiy asliyatining faksimile nusxasini va bu asarning mashhur fransuz sharqshunosi, professor Lui-Matyo Langle tomonidan 1787-yili yuksak saviyada bajarilgan fransuzcha tarjimasini taqdim etish menga beqiyos mamnuniyat bag‘ishlaydi.

Fransuz tilida nashr etilgan «Temur tuzuklari» kitobiga yozilgan so‘zboshi

2018-yil 8-oktabr

HUDUDLARARO ALOQALARNI JADAL RIVOJLANTIRISH STRATEGIK SHERIKLIK VA ITTIFOQCHILIK MAQSADLARIGA TO'LA MOSDIR

Muhtaram Vladimir Vladimirovich!

Hurmatli hududlar rahbarlari va vakillari!

Qadrlı forum ishtirokchilari!

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti, muhtaram Vladimir Vladimirovich Putin va Rossiya delegatsiyasi a'zolarini «O'zbekiston – Rossiya» birinchi hududlararo hamkorlik forumidagi ishtiroki munosabati bilan samimiy qutlayman.

Ushbu forumning yuqori nufuzi va yuksak darajada tashkil etilgani ikki tomon ham hamkorlikdan manfaatdor ekani, bu borada ulkan salohiyat mavjudligining yana bir yorqin tasdig'idir.

Strategik sherigimiz va ittifoqchimiz – Rossiya Federatsiyasi bilan barqaror va ishonchga asoslangan munosabatlarimizni yuksak qadrlaymiz va samimiy hurmat qilamiz.

Bugun to'liq o'zaro anglashuv, ishonch va ochiqlik muhitida o'tgan muzokaralarimiz ko'pqirrali hamkorlikni xalqlarimiz manfaati yo'lida kengaytirish va mustahkamlash borasidagi intilishimiz qat'iy ekanini ko'rsatdi. Bunda biz hududlararo aloqalarga muhim ahamiyat qaratmoqdamiz.

Hurmatli forum ishtirokchilari!

Ushbu tadbirda siz ishbilarmonlik sohasidagi hamkorlikning haqiqatan ham amaliy masalalarini, sheriklikning aniq loyiha va dasturlarini muhokama qilmoqdasiz.

Men bunday yondashuvni chin dildan qutlayman va qo'llab-quvvatlayman.

Hududlarimiz o'rtasidagi aloqalar yuqori sur'at va samaradorlik kasb etgan. Yil davomida o'zaro 40 dan ortiq tashrif uyushtirildi.

Oxirgi oylarning o'zida mamlakatimizning barcha 14 ta hududi rahbarlari Rossiya Federatsiyasining 26 ta subyektida bo'ldi.

Bugungi qo'shma forumda Rossiyaning 18 ta subyekti rahbarlari va vakillari ishtirok etmoqda. Ilgari bunday natija bo'lmagan.

Alohida ta'kidlashni istardimki, o'zaro hamkorlikning aniq yo'nalishlarini aynan sizlar belgilaysiz.

Yuqori texnologik qo'shma korxonalar tashkil etish, xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarish va uchinchi mamlakatlar bozorlarini o'zlashtirish uchun kooperatsiyani kengaytirish borasidagi sa'y-harakatlarimizni kuchaytirishimiz zarur.

Samarali hamkorligimizga bir nechta misol keltiraman. Bular:

– Ivanovo viloyati kompaniyalari ishtirokida mamlakatimiz hududlarida qo'shma to'qimachilik klasteri yaratilgani;

– Tataristondagi sheriklarimiz bilan birgalikda Toshkent viloyatida kimyoviy o‘g‘itlar hamda Qoraqalpog‘istonda farmatsevtika preparatlari ishlab chiqarilayotgani;

– qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazib berishni tashkil etishdagi kooperatsiya hamda Moskva, Boshqirdiston, Orenburg va Rossiyaning boshqa subyektlaridagi ulgurji-taqsimot markazlari infratuzilmasidan foydalanish;

– meva-sabzavot yetishtirish va Moskva bozorlariga yetkazib berish uchun Surxondaryo viloyatida zamonaviy agromajmua yaratilgani;

– Sverdlovsk viloyati bilan birgalikda Qashqadaryo viloyatida yengil va og‘ir metall konstruksiyalari ishlab chiqarish bo‘yicha zavod qurilishi.

Bunday loyihalar kam emas. Eng muhim natija – mamlakatlarimiz hududlari o‘rtasida mustahkam va uzoq muddatli sheriklik munosabatlari tashkil topdi.

Ishontirib aytaman: bu yerda o‘tirgan o‘zbekistonlik hamkasblaringiz – hukumat a‘zolari, vazirliklar, idoralar, hududlar rahbarlari – ushbu loyihalarni amalga oshirishda har tomonlama ko‘maklashadi.

Muhtaram Vladimir Vladimirovich!

Hurmatli forum ishtirokchilari!

Bugun biz Rossiya Federatsiyasi bilan hamkorlikda yangi, ya’ni, atom energetikasini rivojlantirishdek strategik yo‘nalishni ochmoqdamiz.

Bu yerda hududlar rahbarlari ishtirokida O‘zbekistonda birinchi atom elektr stansiyasini qurish loyi-

hasini boshlash bo'yicha tantanali marosim bo'lib o'tishi menga mamnuniyat bag'ishlaydi. Ushbu loyiha yangi klasterni shakllantiradi, uni amalga oshirish mamlakatimizning sanoat sohasidagi salohiyatini yanada rivojlantirish hamda iqtisodiyotimizning turli tarmoqlarida yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladi.

So'zimning yakunida shuni qayd etishni istardimki, hududlararo forum mamlakatlarimiz hududlari o'rtasidagi ishbilarmonlik aloqalari va o'zaro amaliy hamkorlik uchun samarali maydon bo'lishga mo'ljallangan.

Ushbu forumni har yili o'tkazishni taklif qilaman.

Barcha ishtirokchilarga muvaffaqiyatlar va yangi istiqbolli loyihalarni tilayman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

*«O'zbekiston – Rossiya» birinchi hududlararo
hamkorlik forumidagi nutq*

*Toshkent shahri,
2018-yil 19-oktabr*

O'ZBEKISTON – ROSSIYA MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICI

Muhtaram Vladimir Vladimirovich!

Hurmatli ommaviy axborot vositalari vakillari!

Xonimlar va janoblar!

Sizni, hurmatli Vladimir Vladimirovich va rossiyalik do'stlarimizni O'zbekiston zaminida chin dildan qutlayman.

Rossiya Federatsiyasida avvalo jahon miqyosidagi yirik davlat arbobi Vladimir Vladimirovich Putin tomonidan donishmandlarcha, uzoqni ko'zlab amalga oshirilayotgan qat'iy siyosat tufayli erishilayotgan ulkan muvaffaqiyatlar O'zbekiston xalqiga mamnuniyat bag'ishlaydi.

Davlatlarimiz o'rtasidagi do'stona aloqalar va har tomonlama hamkorlikni mustahkamlash yo'lidagi izchil shaxsiy sa'y-harakatlari uchun Rossiya Federatsiyasi Prezidentiga alohida minnatdorlik bildiraman.

Bu haqda gapirganda, mamlakatimizning ko'pmillatli xalqi nomidan sizga, hurmatli Vladimir Vladimirovich, Moskva shahrida O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovga haykal o'rnatilgani va tantanali ravishda ochilgani uchun tashakkurimizni bildirishga ijozat bergaysiz.

Siz bilan muntazamlik kasb etgan uchrashuv va suhbatlarimiz O‘zbekiston – Rossiya o‘rtasidagi strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari rivojiga kuchli sur‘at bag‘ishladi.

Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Bugun an‘anaviy ishonch, ochiqlik va amaliy ruhda o‘tgan muzokaralar ham buni yana bir bor tasdiqladi.

Biz ikki tomonlama hamkorlikning holati va uni mustahkamlash istiqbollarini muhokama qildik.

Rossiya O‘zbekistonning muhim savdo sherigidir. Yil boshidan buyon o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 30 foizga oshdi. Joriy yilda o‘zaro savdo hajmi olti milliard dollargacha bo‘lishi, yaqin yillarda esa o‘n milliard dollarga yetishi kutilmoqda.

O‘zbekistonning meva-sabzavot mahsulotlarini Rossiyaga yetkazish bo‘yicha «yashil yo‘lak» tashkil etilgani uchun Rossiya tomonidan minnatdormiz. Bu amaliyotni mamlakatimizning boshqa mahsulotlari, jumladan, to‘qimachilik mahsulotlariga nisbatan ham tatbiq etish to‘g‘risida kelishib oldik.

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritilgan Rossiya investitsiyalari 8,5 milliard dollardan oshdi.

Rossiyaning yetakchi kompaniyalari va banklari bilan umumiy qiymati qariyb 25 milliard dollarga teng yangi investitsiya kelishuvlari va savdo shartnomalari tayyorlandi.

Biz mamlakatlarimiz hududlari o‘rtasidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqalarni rivojlantirishdan manfaatdormiz.

Ushbu tashrif doirasida birinchi «O‘zbekiston – Rossiya» hududlararo hamkorlik forumi o‘tkazilgani, uning yakunida qiymati 2 milliard dollardan ortiq loyihalar shakllantirilgani bu borada katta ahamiyatga ega.

Bugun hurmatli Vladimir Vladimirovich bilan birgalikda strategik sherikligimizning yangi loyihasiga – O‘zbekistonda birinchi atom elektr stansiyasi qurilishiga start beramiz. Uning barpo etilishi mamlakatimizning sanoat sohasidagi salohiyatini rivojlantirish hamda iqtisodiyotimizning turli tarmoqlarida yangi ish o‘rinlarini yaratishga xizmat qiladi.

Muzokaralar mamlakatlarimizning dolzarb mintaqaviy va xalqaro masalalarga doir yondashuvlari o‘zaro mos va yaqin ekanini tasdiqladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti, MDH, SHHT va boshqa nufuzli xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar doirasida o‘zaro hamkorlik davom ettiriladi.

Xavfsizlik masalalari doimo e’tiborimiz markazida bo‘ladi. Terrorizm, ekstremizm, ayniqsa, yoshlar orasida radikallashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha sa’y-harakatlarni muvofiqlashtirish yuzasidan batafsil fikr almashildi.

Biz harbiy va harbiy-texnik sohalardagi o‘zaro hamkorlikni ham har tomonlama muhokama qildik.

Madaniy-gumanitar, avvalo, ilm-fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash va turizm sohalaridagi aloqalarni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratmoqdamiz.

Kuni kecha Toshkentda Rossiyaning yetakchi oliy ta’lim muassasalarining 80 nafar rahbari ishtirokida

bo'lib o'tgan «Yangi iqtisodiyot uchun yangi kadrlar» birinchi ta'lim forumi bu aloqalarning kengayib borayotganidan dalolat beradi. Ushbu forum doirasida 100 dan ortiq kelishuv imzolandi.

Rossiya oliy ta'lim dargohlarida tahsil olayotgan xorijlik talabalar soni bo'yicha O'zbekiston MDH mamlakatlari orasida yuqori o'rinlardan birini egallayotganini ta'kidlamogchiman.

O'zbekistonda sifatli ta'lim olish uchun joriy o'quv yilidan boshlab Olmaliq shahrida Moskva po'lat va qotishmalar instituti filiali ish boshladi. Shuningdek, mamlakatimizda Moskva davlat xalqaro munosabatlar instituti, MMFI milliy tadqiqot yadro universiteti, Butunrossiya kinematografiya davlat instituti, Moskva energetika instituti, Rossiya kimyo-texnologiya universiteti filiallarini ochishni rejalashtirmoqdamiz. Bu boradagi hamkorlik davom ettiriladi.

Ilm-fan sohasidagi hamkorlikni ham faollashtirishga kelishib oldik. Jumladan, Suffa platosida yuqori quvvatli radioteleskop barpo etish loyihasi bunga yorqin misoldir. Ushbu loyihani amalga oshirishni biz Vladimir Vladimirovich bilan bir necha oy avval muhokama qilgan edik. Bugun esa tegishli «yo'l xaritasi» qabul qilinmoqda. Yaqin kelajakda Rossiyaning fazo kemasida O'zbekiston fuqarosi uchishi mumkinligini inkor etmayman.

Xalqlarimizni yanada yaqinlashtirish maqsadida mamlakatimizda O'zbekiston – Rossiya yoshlarining to'rtinchi forumini o'tkazishga kelishib oldik.

E'tiboringizni barchamiz uchun muhim bo'lgan yana bir mavzuga qaratmoqchiman. 2020-yilda Ikkinchi jahon urushida erishilgan g'alabaning 75 yilligini munosib nishonlash uchun mamlakatimizda maxsus dastur ishlab chiqilmoqda. Uning doirasida Toshkentda «G'alaba» bog'i majmuasini barpo etish rejalashtirilgan. Ushbu maskan fashizmga qarshi kurashimiz ramzi bo'ladi, yosh avlodni tarixga hurmat, vatanparvarlik va xalqlar do'stligi ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Buyuk rus madaniyati O'zbekiston jamiyati ma'naviy hayotining ajralmas qismi bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. Aholi, avvalo, yoshlarni rus adabiyotining eng sara namunalaridan keng bahramand qilish maqsadida o'zbek tilida 100 jildlik «Rus mumtoz adabiyoti durdonalari» to'plamini nashr etishni rejalashtirganmiz.

Aziz do'stlar!

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti, muhtaram Vladimir Vladimirovich Putinning O'zbekistonga davlat tashrifi ikki tomonlama keng ko'lamli hamkorlikni yanada rivojlantirishga kuchli sur'at bag'ishlashiga ishonaman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

*Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning
O'zbekistonga amalga oshirgan davlat tashrifi
doirasida OAV vakillari bilan uchrashuvdagi nutq*

2018-yil 19-21-oktabr

ROSSIYA – VAQT VA HAYOT SINOVIDAN O‘TGAN UZOQ MUDDATLI STRATEGIK SHERIK VA ITTIFOQCHI

Hurmatli Vladimir Vladimirovich!

Aziz do‘stlar!

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti – hurmatli Vladimir Vladimirovich Putin va Rossiyaning nufuzli delegatsiyasini mehmondo‘st o‘zbek diyorida qutlash menga yuksak mamnuniyat bag‘ishlaydi.

Rossiya – bizning ishonchli, vaqt va hayot sinovidan o‘tgan uzoq muddatli strategik sherigimiz va ittifoqchimiz.

Biz mamlakatlarimiz o‘rtasidagi mustahkam va ishonchli munosabatlarni yuksak qadrlaymiz.

Bugungi muzokaralarimiz ko‘pqirrali hamkorlikni kengaytirishga bo‘lgan o‘zaro intilishimizni yana bir karra namoyon etib, mintaqaviy va xalqaro kun tartibidagi masalalarda qarash va yondashuvlarimiz o‘zaro yaqin ekanini tasdiqladi.

Hurmatli Vladimir Vladimirovich, sizning O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi an‘anaviy do‘stona aloqalarni mustahkamlashga qo‘shayotgan bebaho hissangizni alohida qayd etishni istardim. Sizning har tomonlama ko‘magingiz ikki mamlakat o‘rtasidagi hamkorlikni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish imkonini berdi.

Moskvada Birinchi Prezidentimiz Islom Abdugʻaniyevich Karimov haykali tantanali ravishda ochilgani uchun sizga alohida minnatdorlik izhor etaman.

Shuni alohida qayd etmoqchiman: biz dunyodagi yirik mamlakat sifatida Rossiyaning yuksak nufuzi va roli, shuningdek, siz, hurmatli Vladimir Vladimirovich tomoningizdan amalga oshirilayotgan chuqur oʻylangan islohotlarni yuksak qadrlaymiz.

«Bugungi kunda butun dunyo oʻtish davrini boshidan kechirmoqda, bunday sharoitda oʻzgarishlarga tayyor va qodir, harakatdan toʻxtamayotgan va olgʻa intilayotgan rahbargina peshqadam boʻla oladi», deb haq gapni aytdingiz.

Siz, hurmatli Vladimir Vladimirovich dunyo miqyosidagi yetuk siyosatchisiz.

Hurmatli doʻstlar!

Oʻzbekiston va Rossiya oʻrtasidagi munosabatlar chuqur tarixiy ildizga ega.

XV asrdayoq buyuk oʻzbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy «Iskandar devori» deb nomlangan dostonida yovuz kuchlarga qarshi kurashda rus jangchilari koʻrsatgan jasurlik va qahramonlikni faxr bilan tilga oladi.

Oʻzbek xalqi 1941-yil qish faslida qamalda qolgan Leningradda, havodan bombalar yogʻilib turganiga qaramasdan, rus olimlari, shoir va yozuvchilari Davlat Ermitajida Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligini tantanali ravishda nishonlaganini doimo minnatdorlik

tuyg‘usi bilan yodga oladi. Hozirgi kunda bizning kinematograflarimiz gumanizmning yuksak ideallariga sadoqatning yorqin namunasi bo‘lgan ushbu voqeaga bag‘ishlangan badiiy filmni suratga olish ustida ishlamoqda.

O‘zbek xalqi ko‘pmillatli, bag‘rikeng va samimiy Rossiya xalqiga hamisha cheksiz hurmat bilan qaraydi, og‘ir damlarda uni qo‘llab-quvvatlaydi, yutuqlaridan quvonadi.

Shu damlarda buyuk rus yozuvchisi Lev Tolstoyning ushbu hikmatli so‘zlari yodga tushadi: **«Chinakam do‘st bo‘lish uchun o‘zaro ishonch hukmron bo‘lishi kerak».**

Rossiya timsolida biz aynan shunday sadoqatli do‘st va hamkorni ko‘ramiz. Bugungi tashrif esa bunga yana bir yorqin dalildir.

E’tiboringiz uchun rahmat.

*Rossiya Federatsiyasi Prezidenti
Vladimir Putinning O‘zbekistonga
davlat tashrifi doirasida
uyushtirilgan qabul marosimidagi nutq*

2018-yil 19-21-oktabr

KO'PQIRRALI HAMKORLIKNING YANGI UFQLARI

Bosh vazir Janobi Oliylari, muhtaram Narendra Modi!
Gujarat shtati gubernatori, hurmatli Prakash Koli
janoblari!

Gujarat shtati katta vaziri, hurmatli Vidjay Rupani
janoblari!

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Xonimlar va janoblar!

Avvalo, «**Jo'shqin Gujarat**» sammitiga taklif
etganingiz hamda delegatsiyamizga ko'rsatilayotgan
katta e'tibor va mehmondo'stlik uchun Bosh vazir
Janobi Oliylariga hamda Gujarat hukumatiga samimiy
minnatdorlik bildiraman.

Betakror Gujarat o'zining qadimiy tarixi va noyob
madaniyati bilan nafaqat Hindistonda, balki butun
jahonda mashhur ekanini yaxshi bilamiz. U asrlar
davomida savdo va tadbirkorlikda yetakchi hudud bo'lib
kelgan. Bugun esa zamonaviy Hindistonning biznes
ruhini namoyon etmoqda.

Bu yurtda Mahatma Gandi, Sardor Patel kabi
Hindiston davlatining asoschilari bo'lmish buyuk zotlar

tavallud topgan. Bu zamin mening do‘stim – Bosh vazir Narendra Modining vatani hamdir.

Janob Bosh vazir, Sizning Gujarat misolida butun Hindistonni modernizatsiya, innovatsiya va barqaror taraqqiyotning global markaziga aylantirishga qaratilgan harakatlaringiz o‘z natijalarini bermoqda. Men Gujaratga kelib, bunga yana bir bor amin bo‘ldim.

Hurmatli sammit ishtirokchilari!

Hindiston bilan uzoq muddatli strategik sheriklikni mustahkamlash – O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

O‘tgan yili Modi Janobi Oliylari bilan bo‘lgan samarali uchrashuvlarimiz ko‘pqirrali munosabatlarimiz rivojiga ulkan turtki berdi.

O‘zaro hamkorligimizni kengaytirish uchun quyidagi masalalarga alohida to‘xtalib o‘tmoqchiman.

Birinchidan, eramizdan avvalgi III–II mingyillikda hind zaminini Markaziy Osiyo bilan Buyuk Hindiston yo‘li bog‘lagani yaxshi ma’lum.

Bugun ham Markaziy va Janubiy Osiyo bozorlari o‘rtasidagi ishonchli savdo va transport kommunikatsiyalarini yaratish har qachongidan dolzarb ahamiyatga egadir.

Biz Trans-afg‘on temir yo‘li loyihasini muhokama qilmoqdamiz. Istiqbolda bu yo‘l Janubiy Osiyoga, jumladan, Choxbahor porti orqali Hindistonga chiqish imkonini beradi.

Ikkinchidan, biz yetakchi hind kompaniyalarining ilg'or texnologiyalari va innovatsiyalarini keng jalb etishdan manfaatdormiz.

Telekommunikatsiya, informatsion texnologiyalar, dasturiy ta'minot, qishloq xo'jaligi, qayta tiklanadigan energiya hamda ushbu sohalar uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash bo'yicha qo'shma loyihalarni amalga oshirishni taklif etamiz. Shu maqsadda Toshkent shahrida qo'shma texnopark tashkil etish bo'yicha amaliy ishlarni boshladik.

Uchinchidan, biz mamlakatimizga Hindistondan sarmoyalarni jalb etish uchun hind kompaniyalariga eng qulay sharoit va keng imtiyozlarni yaratib beramiz.

Biz avvalo, kimyo sanoati, energetika, farmatsevtika, to'qimachilik, charm-poyabzal, turizm sohalaridagi istiqbolli loyihalarni amalga oshirishdan manfaatdormiz. Andijon viloyatida birinchi o'zbek-hind erkin farmatsevtika zonasi yaratilishi bu boradagi sheriklikning yorqin misolidir.

To'rtinchidan, Gujarat ikki tomonlama hamkorlikni kuchaytirishda muhim rol o'ynashiga ishonchim komil.

Gujaratning ulkan iqtisodiy salohiyati va Andijon viloyati bilan sheriklik aloqalaridan kelib chiqib, shoh Bobur Mirzo tug'ilgan va ulug' Akbar-shoh ajdodlarining vatani bo'lmish Andijonda O'zbekiston – Hindiston mintaqalari biznes-forumini shu yili o'tkazishni taklif qilamiz.

Beshinchidan, madaniyat, ilm-fan, ta'lim, tibbiyot sohalarida aloqalarni yanada rivojlantirishga alohida e'tibor beramiz.

2020-yilda Hindistonda O'zbekiston madaniyati yilini hamda O'zbekistonda Hindiston madaniyati yilini o'tkazishni taklif etamiz.

Har ikki davlatda aholining katta qismi yoshlar ekanini inobatga olgan holda, joriy yilda yurtimizda O'zbek va hind yoshlari festivalini o'tkazishni rejalashtirmoqdamiz. Hech shubhasiz, bu kelajakdagi munosabatlarimiz uchun eng katta investitsiya bo'ladi.

Muhtaram sammit ishtirokchilari!

Hurmatli do'stim, Modi Janobi Oliylari, Sizni va buyuk hind xalqini yaqinlashib kelayotgan milliy bayram – Respublika kuni bilan samimiy tabriklayman.

Ushbu fursatdan foydalanib, barchangizni sammit doirasida tashkil etilgan O'zbekiston ko'rgazmasiga taklif qilaman. Sizlar bu yerda mamlakatimizning sanoat, investitsiya va sayyohlik salohiyati, boy tariximiz va madaniyatimiz bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'lasiz.

So'zimning yakunida sammitning barcha ishtirokchilariga katta muvaffaqiyat tilayman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

Hindiston Respublikasida bo'lib o'tgan

«Jo'shqin Gujarat – 2019»

IX xalqaro investitsiya sammitida

so'zlangan nutq

2019-yil 18-yanvar

GYOTE DAHOSIGA YUKSAK EHTIROM

Bugungi kunda O'zbekistonda buyuk nemis shoiri va mutafakkiri, mashhur davlat va jamoat arbobi Yohann Volfgang Gyote nomini bilmaydigan, uning go'zal asarlarini sevib mutolaa qilmaydigan kitobxonni topish qiyin.

Yangi davr nemis adabiyotining asoschisi Y.V.Gyote-ning noyob merosi umumbashariy madaniyat rivojiga beqiyos hissa qo'shgan Gomer va Dante, Servantes va Balzak, Shekspir va Tolstoy, Hofiz Sheroziy va Alisher Navoiy kabi daho san'atkorlarning o'lmas asarlari qatorida xalqimiz ma'naviy xazinasidan munosib va mustahkam o'rin egallagan.

Tarixga nazar tashlasak, yurtimizda nemis adabiyoti bilan ilk bor tanishuv aynan Gyote she'rlarining tarjimasi bilan boshlanganiga, ya'ni, 1913-yilda «Oyina» jurnalida nemis xalq ertaklari bilan birga shoir ijodidan namunalar e'lon qilinganiga guvoh bo'lamiz.

Bir asrdan ziyod vaqt davomida Gyote asarlari atoqli so'z san'atkorlarimiz tomonidan ona tili-mizga katta mehr va hurmat bilan tarjima qilinib, kitobxonlarimiz bu ulkan va bebaho merosdan bahramand bo'lib kelmoqdalar.

Ulug' adibning «Faust» tragediyasi, «Yosh Verterning iztiroblari» romani, «G'arb-u Sharq devoni», ko'plab she'rlari, maktub va suhbatlari, uning hayoti va ijodi haqidagi kitoblar yetakchi nashriyotlarimiz tomonidan

o'zbek tilida muntazam ravishda yirik adadlarda chop etib kelinmoqda.

Shoir serqirra ijodiy faoliyatining gultoji bo'lgan «Faust» tragediyasi haqli ravishda nafaqat nemis, balki jahon adabiyotining ham shoh asarlaridan biri sanaladi.

Gyote ijodiga xos teran falsafiy ruh bilan yo'g'rilgan, barcha zamonlarning ijtimoiy muammolari, umumbashariy g'oyalar, olam va odamdagi komillik orzusi aks etgan bu nodir asar har bir fikrleydigan insonni mushohada qilishga, ezgulik va yovuzlik mohiyatini teran anglashga da'vat etadi. Bu dunyoda hayot bor ekan, adolat, mehr-muhabbat, mardlik va olijanoblik odamzodga yor ekan, ezgulik yovuzlik ustidan albatta g'alaba qozonishiga ishonch bag'ishlaydi.

Bizga ma'lumki, G'arb adabiyotida o'rta asrlardan buyon doktor Faust timsoliga bag'ishlab o'nlab badiiy va falsafiy asarlar yaratilgan bo'lsa-da, ularning hech birida bu obraz Gyote talqinidek olamshumul mohiyat kasb eta olmagan va bu darajada shuhrat qozonmagan.

Azaldan falsafiy tafakkurga moyil, ma'naviy fazilatlarini yuksak baholaydigan o'zbek xalqi uchun «Faust» tragediyasi benihoya qadrlidir. Bu durdona asar o'tgan asrning 70-yillari boshida O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov tarjimasida o'zbekona ohangda jaranglab, adabiyot muxlislari qalbidan chuqur joy olgan edi. «Faust» keyinchalik olmonshunos olim Poshali Usmon tomonidan asliyatdan ona tilimizga qayta tarjima qilingani ham o'zbek ziyolilari va kitobxonlarining

Gyote dahosiga bo'lgan ulkan qiziqish va e'tiboridan dalolat beradi.

O'z navbatida, Gyote Sharq mamlakatlari tarixi, madaniyati va adabiyotini yuksak hurmat va ixlos bilan o'rgangani, «G'arb-u Sharq devoni»da «bulbul», «hur», «mug'anniy», «mufti», «fatvo», «tilsim», «mirzo», «darvesh» kabi so'zlarni aslyatda qo'llagani alohida e'tiborga loyiqdir.

Bugungi kunda ko'plab buyuk alloma va adiblarni voyaga yetkazib, jahon adabiyoti va madaniyati rivojiga unutilmas hissa qo'shgan o'zbek va nemis xalqlari o'rtasidagi o'zaro do'stlik va hamkorlik rishtalari turli soha va yo'nalishlarda tobora mustahkamlanib borayotgani bizni mamnun etadi.

O'zbekistonda ahil va hamjihat yashab kelayotgan 130 dan ziyod millat va elat vakillari qatorida 4 mingdan ortiq nemis millatiga mansub yurtdoshlarimiz ham Vatanimiz taraqqiyotiga muhim hissa qo'shib kelayotgani, ularning munosib vakillari davlatimizning yuksak mukofotlariga sazovor bo'lgani bilan barchamiz faxrlanamiz.

Men o'rta maktabda o'qigan kezlarimni xotirlar ekanman, taqdir taqozosi bilan Jizzax viloyatining olis Zomin tumaniga kelib qolgan, men bilan birga ta'lim olgan nemis sinfdoshlarimni, ularning tirishqoqligi, bilimga chanqoqligi, tartib-intizomi va jamoat ishlarida faolligiga doimo havas va hurmat bilan qaraganimni yaxshi eslayman. Ana shu do'stlarim bilan samimiy munosabatlarimiz hozir ham davom etmoqda. Ularning

qalbidagi olijanob xususiyat va fazilatlarining kamol topishida nemis milliy adabiyoti, xususan, Gyote asarlari hal qiluvchi rol o'ynaganiga ishonaman.

Yurtimizda yashovchi nemislarning etnik o'ziga xosligi, an'ana va urf-odatlarini rivojlantirish va saqlab qolish maqsadida 1992-yildan buyon Respublika nemis milliy madaniy markazi faoliyat olib bormoqda.

Ta'kidlash joizki, ayni paytda O'zbekistondagi 1600 dan ziyod maktabda nemis tili xorijiy til sifatida o'qitilmoqda. Ularga 3 mingdan ortiq yuqori malakali pedagoglar saboq bermoqda.

Bizning xalqimizda «Adabiy do'stlik – abadiy do'stlik» degan hikmatli naql bor. Xalqlarimiz o'rtasida qadimdan mavjud bo'lgan do'stlik an'alarini yanada mustahkamlashda madaniy-gumanitar, xususan, adabiy aloqalarning o'рни va ahamiyati beqiyos ekanini barchamiz yaxshi anglaymiz va bu yo'nalishdagi amaliy ishlarimizni bundan buyon ham izchil davom ettiramiz.

Nemis xalqining buyuk farzandi Yohann Volfgang Gyotega, do'st Germaniya xalqiga yuksak hurmat-ehtiromimiz ramzi sifatida chop etilayotgan «Faust» asarining o'zbek tilidagi ushbu yangi nashri mamlakatimiz adabiyot ixlosmandlarining nafaqat kitob javonidan, balki qalbi va yuragidan munosib joy egallaydi, deb ishonaman.

*Buyuk nemis shoiri Y.V.Gyotening «Faust» kitobi
tarjimasining yangi nashriga so'zboshi
2019-yil 20-yanvar*

O‘ZBEKISTON MADANIYATINING YANGI QIRRALARI – DUNYO E‘TIBORIDA

O‘zbekiston xalqining benihoya boy va rang-barang madaniyati necha ming yillar davomida yorqin tarixiy voqealar silsilasida, o‘lkamizning betakror tabiati va turli madaniyatlarning bir-biriga ilhombaxsh ta’siri natijasida shakllanib, ravnaq topib kelmoqda.

Buyuk ipak yo‘li chorrahasida joylashgan bugungi O‘zbekiston hududida turli davrlarda o‘ziga xos sivilizatsiyalar vujudga kelgan. Ushbu o‘lka fan va madaniyat markazi sifatida butun dunyoga dong taratgan, bu yerda hayratomuz go‘zallikka ega shaharlar barpo etilgan, buyuk shoirlar va allomalar yashab ijod qilgan. Buyuk ilmiy kashfiyotlar, adabiyot va san’at, xalq og‘zaki ijodining o‘lmas obidalari shu maskanda yaratilgan. Bu noyob milliy, tarixiy-madaniy meros, haqli ravishda butun insoniyat xazinasini bo‘lib, ayni paytda xalqimizning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan ulkan hissasidan dalolat beradi.

Ana shu maskanga mansub arxeologik topilmalar, noyob qo‘lyozmalar, nafis miniatyuralar, xalq hunarmandchiligining ijod namunalari nafaqat O‘zbekiston, balki boshqa mamlakatlarning ham muzey fondlarida saqlanmoqda.

Men mamnuniyat bilan e'tiboringizga havola etayotgan «Germaniya Federativ Respublikasi to'plamlari» kitob-albomi Germaniya muzeylari va shaxsiy kolleksiyalarda saqlanayotgan mana shunday durdonalar haqida hikoya qiladi.

O'zbekistonda nashr qilingan, ikki mamlakatning san'atshunos olimlari va tarixchilari, fotorassomlari va jurnalistlarining mashaqqatli mehnati evaziga dunyoga kelgan bu ajoyib kitob xalqlarimizning o'zaro hurmat-ehtiromi, mustahkam do'stligi, bir-birining tarixi va madaniyatiga bo'lgan samimiy qiziqishining amaliy ifodasidir.

Nafis bezaklar bilan sayqallangan mazkur nashr Germaniya davlat kutubxonasida, Berlindagi Islom san'ati va etnologiya muzeylarida, Shtutgart, Gamburg, Leypsig, Drezden, Xernxut va Lyubek muzeylarida, Manfred Bumiller shaxsiy kolleksiyasida avaylab saqlanayotgan serqirra madaniy merosimizning bir qismi haqida, shuningdek, o'zbek xalqining me'morchiligi va san'ati, adabiyoti, badiiy hunarmandchilik an'alarining rivojlanish tarixi haqida har tomonlama ma'lumot beradi.

Ushbu fundamental asar xalqimizning madaniyati va mentaliteti, dunyoqarashi va ma'naviyatining mustahkam asosi bo'lgan uning milliy madaniy merosi to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirishga yordam beradi.

Men O'zbekistonning sharaflı o'tmishi va betakror madaniyatining yangi qirralarini jahonga namoyon

etuvchi bu bebaho eksponatlarni ko'zqorachig'iday asrab, ularni ilmiy jihatdan o'rganib kelayotgan germaniyalik olimlarga samimiy minnatdorligimni izhor etaman.

O'ylaymanki, kitob-albom nafaqat tarixchi va sharqshunoslar, avvalo yoshlar, qadim Sharq sivilizatsiyasining beshiklari, o'zbek davlatchiligi tarixi bilan qiziqadigan barcha kishilar uchun foydadan xoli bo'lmaydi.

Ushbu kitob-albom o'z ko'lamiga ko'ra beqiyos bo'lgan xalqaro loyiha doirasida tayyorlanayotgan «O'zbekistonning madaniy merosi jahon to'plamlarida» turkumining bir qismi hisoblanadi.

Shuni mamnuniyat bilan qayd etishni istardimki, bunday ilmiy-ma'rifiy loyihalarni amalga oshirish O'zbekiston va Germaniya hamkorligining muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

O'zbekistonda ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash va rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda davlatlarimiz o'rtasida konstruktiv siyosiy muloqot yo'lga qo'yilgan, iqtisodiy hamkorlik tobora kengayib bormoqda.

O'zaro munosabatlarda madaniy-gumanitar aloqalar alohida o'rin tutadi. Bundan 25 yil muqaddam Germaniya va O'zbekiston o'rtasida madaniy hamkorlik to'g'risidagi hukumatlararo bitim imzolangan edi. Nemis va o'zbek diyorida o'tkazilayotgan tadbirlarda ikki mamlakatning ijodiy jamoalari, madaniyat va san'at

arboblari faol ishtirok etmoqda. Jumladan, germaniyalik san'atkorlar qadimiy va navqiron Samarqand shahrida o'tkazib kelinayotgan «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivalida muntazam qatnashib kelmoqdalar. Joriy yilda ular O'zbekistonda ilk bor o'tkazilgan Xalqaro maqom san'ati anjumanida ham munosib ishtirok etishdi.

Mamlakatimizda nemis shoir va yozuvchilari-ning asarlariga har doim qiziqish katta bo'lib kelgan. 1913-yildayoq mashhur «Oyina» jurnalida o'zbek tilida nemis xalq ertaklari, Yohann Volfgang Gyote, Genrix Geyne singari buyuk nemis shoirlarining asarlari chop etilgan edi. Bugun Respublikamizda Fridrix Shiller, Erix Mariya Remark, German Gesse, Stefan Sveyg, Erix Kestner, Genrix Mann, aka-uka Grimmlar singari buyuk so'z ustalarining asarlari o'zbek tiliga o'girilib, qayta-qayta nashr etilmoqda.

Madaniyat sohasidagi hamkorlik serqirra, uning salohiyati cheksiz. Ishonchim komilki, e'tiboringizga havola etilayotgan ushbu kitob-albom davlatlarimiz o'rtasidagi munosabatlarni, madaniyatlararo muloqotni mustahkamlashga, mamlakatlarimiz va xalqlarimizni yanada yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

*«O'zbekistonning madaniy merosi
jahon to'plamlarida» turkumining
«Germaniya Federativ Respublikasi to'plamlari»
kitob-albomiga so'zboshi*

2019-yil 20-yanvar

O‘ZBEKISTON VA GERMANIYA O‘RTASIDA HAMKORLIKNI MUSTAHKAMLASH UCHUN BARCHA IMKONIYATLAR MAVJUD

Muhtaram Federal kansler xonim!

Hurmatli ommaviy axborot vositalari vakillari!

Xonimlar va janoblar!

Germaniya Hukumati va shaxsan sizga, Federal kansler xonim, mamlakatingizga tashrif bilan kelish taklifi hamda ko‘rsatilgan samimiy mehmondo‘stlik uchun chuqur minnatdorlik bildirishga ijozat bergaysiz.

So‘zimning avvalida barchangizni joriy yil may oyida nishonlanadigan Germaniya Federativ Respublikasi tashkil topganining 70 yilligi bilan samimiy muborakbod etmoqchiman.

Germaniya O‘zbekistonning uzoq muddatli va ishonchli sherigi ekanini alohida qayd etish joiz.

Munosabatlarimizni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, ularga haqiqiy sheriklik ruhini bag‘ishlash borasidagi bizning intilishimiz qat’iyydir.

Bugun delegatsiyamiz germaniyalik sheriklar bilan siyosat va xavfsizlik, savdo, texnologiya va innovatsiyalar, investitsiyalar, ta’lim va madaniyat sohalaridagi hamkorlikning holati va istiqbollarini atroflicha muhokama qilishni rejalashtirgan.

Shu munosabat bilan quyidagilarni alohida ta’kidlashni istardim.

Birinchidan, mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlar ochiqlik, o'zaro ishonch va yuksak darajadagi hurmatga asoslangani bilan ajralib turadi. Biz buni yuksak qadrlaymiz.

Alohida qayd etaman: O'zbekistondagi qat'iy islohotlar hamkorligimizni mustahkamlash uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda va qulay sharoitlar yaratmoqda.

Ikkinchidan, biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasida yanada yaqin hamkorlik qilish tarafdorimiz.

Munosabatlarimizni Germaniya tashabbusi bilan ishlab chiqilayotgan Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha yangi strategiyasi doirasida ham mustahkamlash niyatidamiz.

Uchinchidan, biz zamonaviy xavf-xatar va tahdidlarga qarshi kurashda o'zaro hamkorlikni kuchaytirishni rejalashtirganmiz.

Afg'onistonda tinchlik jarayonini tez fursatda boshlash bu boradagi muhim masaladir.

Afg'oniston iqtisodiyotini qayta tiklashda, ushbu mamlakatda yirik infratuzilmaviy va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishda faol hamkorlik qilishimizga umid qilamiz.

To'rtinchidan, biz inson huquq va erkinliklarini ta'minlash sohasida amaliy ruhdagi muloqotni rivojlantirishga tayyormiz.

Asosiy maqsadimiz O'zbekistonda davlat boshqaruvi tizimi shaffofligiga erishish va korrupsiyaga butunlay barham berishdan iborat.

Beshinchidan, biz Germaniya bilan investitsiyaviy va texnologik hamkorlikni tubdan kengaytirishga intilamiz.

O'tgan yili o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 700 million yevroni, Germaniya kompaniyalari tomonidan mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalar hajmi esa qariyb 1 milliard yevroni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichlarni yanada oshirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud.

Tashrif arafasida Berlinda tashkil etilgan biznes-forum muvaffaqiyatli o'tdi. Umumiy qiymati 8 milliard yevrodan ziyod yangi loyihalarni amalga oshirish yuzasidan kelishuvlarga erishildi.

Bundan tashqari, Germaniyaning yetakchi kompaniya va banklarining mamlakatlarimizdagi loyihalarini shaxsan qo'llab-quvvatlash uchun ertaga Myunxenda ularning rahbarlari bilan uchrashuv o'tkazaman.

Ishbilarmonlik va madaniy aloqalarni, sayyohlik sohasidagi hamkorlikni faollashtirish maqsadida joriy yildan boshlab biz Germaniya fuqarolari uchun vizasiz tartibni joriy etdik.

Mamlakatlarimiz o'zaro yanada yaqin bo'lishini chin dildan istayman.

Bugungi kunda O'zbekistonda 400 mingdan ortiq maktab o'quvchilari va talabalar nemis tilini o'rganmoqda.

Germaniyaning ilg'or ta'lim usullarini joriy etgan holda, nemis tilini chuqurlashtirib o'qitish bo'yicha ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ini kengaytirishda biz Germaniyaning ko'magiga tayanamiz. Shuningdek, Germaniyaning oliy va kasbiy ta'lim sohasidagi yetakchi oliy ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish niyatidamiz.

Muhtaram Federal kansler xonim!

Xonimlar va janoblar!

Muzokaralarimiz muvaffaqiyatli o'tib, ikki tomonlama munosabatlarni tubdan yangi darajaga olib chiqishga xizmat qilishi, ularni aniq amaliy mazmun bilan boyitishiga ishonaman.

Mamlakatlarimiz o'rtasidagi sheriklikni rivojlantirishga qaratayotgan katta e'tibori va shaxsiy hissasi uchun Federal kansler xonimga chuqur minnatdorlik bildirmoqchiman.

Go'zal mamlakatingiz va butun Germaniyaning do'st xalqiga eng ezgu tilaklarimni qabul etgaysiz.

E'tiboringiz uchun rahmat.

*Germaniya Federativ Respublikasiga
rasmiy tashrif doirasidagi
brifingda so'zlangan nutq*

*Berlin shahri,
2019-yil 21-23-yanvar*

QOZOG‘ISTON – YAQIN QO‘SHNIMIZ, ISHONCHLI HAMKORIMIZ VA QALIN SHERIGIMIZ

Hurmatli Qosim-Jo‘mart Kemelevich!

Xonimlar va janoblar!

Assalomu alaykum, aziz mehmonlar!

Siz, azizlarni mehmondo‘st O‘zbekiston zaminida yana bir bor qutlaymiz.

Butun O‘zbekiston xalqi nomidan birodar Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jo‘mart Kemelevich Toqayevni mamlakatimizga ilk bor davlat tashrifi munosabati bilan chuqur mamnuniyat izhor etishga ruxsat bergaysiz.

Hurmatli Qosim-Jo‘mart Kemelevich!

Aziz do‘stlar!

Xonimlar va janoblar!

Bugun sizlarni O‘zbekistonda Qozog‘iston yilining tantanali ochilish marosimida qutlashdan mamnunman.

Qozog‘iston Respublikasining Birinchi Prezidenti, Elboshi, og‘am, muhtaram Nursulton Abishevich Nazarboyevning 2017-yil sentabr oyida mamlakatimizga davlat tashrifi chog‘ida biz o‘tgan yili Qozog‘istonda O‘zbekiston yilini, bu yil esa yurtimizda Qozog‘iston yilini o‘tkazishga kelishib olgan edik.

Fursatdan foydalanib, ko'pmillatli O'zbekiston xalqi nomidan Nursulton Abishevichga mamlakatlarimiz o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shniçilik va sheriklik munosabatlarini mustahkamlashga qo'shgan beqiyos hissasi, shuningdek, mamlakatingizda o'tkazilgan ajoyib, yorqin va unutilmas O'zbekiston yili tadbirlari uchun samimiy minnatdorlik izhor qilmoqchiman.

Bugun muhtaram Qosim-Jo'mart Kemelevich bilan birgalikda O'zbekistonda Qozog'iston yilining ochilishi mamlakatlarimiz o'rtasida strategik sheriklik munosabatlari jadal rivojlanib, o'zaro ishonç va qo'llab-quvvatlash, birodarlik rishtalari uzviy mustahkamlanib borayotganidan dalolatdir.

Bu muhim voqelik, shuningdek, xalqlarimiz o'rtasidagi azaliy va samimiy do'stlik, madaniy va ma'naviy yakdillik ramzidir.

Qozog'istonning Abay Qo'nonboyev, Muxtor Avetov, Axmet Baytursunov, Ilyos Esenberlin, O'ljas Sulaymonov va boshqa ko'plab atoqli madaniyat namoyandalari tinçlik va ezgulikni asrash, xalqlarimizga xos yuksak insoniy fazilatlarni tarannum etgan.

O'zining jo'shqin asarlari bilan ular ushbu ezgu qadriyatlarni hozirgi avlodga yetkazish, mamlakatlarimiz, xalqlarimiz o'rtasidagi an'anaviy do'stlik va yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini kengaytirishga ulkan hissa qo'shgan.

Shu munosabat bilan men hamkorligimiz kelajagiga katta nekinlik bilan qaramoqdaman va O'zbekistondagi Qozog'iston yili tadbirlari ushbu ko'p asrlik aloqalarni yanada mustahkamlashiga ishonçim komil.

Bugungi kunda Qozog‘iston butun dunyoga davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida, jumladan, zamonaviy raqobatbardosh iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi turmush darajasi va sifatini izchil oshirish bo‘yicha erishilgan salmoqli muvaffaqiyatlarini namoyon qilayotganini katta mamnuniyat bilan ta’kidlamoqchiman.

Ishonchim komilki, mamlakatimizda Qozog‘iston yili tadbirlari nafaqat ushbu yo‘nalishdagi ishlar natijalarini namoyish qilish imkonini beradi, balki mamlakatlarimiz san’ati, ilm-fani, ta’limi, biznesi vakillari o‘rtasida o‘zaro manfaatli aloqalarni kengaytirish, bilim va yutuqlarni almashish uchun yangi ufqlar ochib beradi.

Bularning barchasi madaniyatlarni boyitish, xalqlarimizni yanada yaqinlashtirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Yurtimizda yaqinda o‘tkazilgan Xalqaro baxshichilik san’ati festivalida qozog‘istonlik Uljan Baybusinova Gran-priga sazovor bo‘lgani ham quvonarli hol.

Barcha qozog‘istonlik do‘stlarimizni samimiy qutlayman!

Aziz do‘stlar!

O‘ylaymanki, O‘zbekistonda Qozog‘iston yili qar-dosh mamlakat san’at ustalarining katta konsert dastu-ri – ko‘pmillatli Qozog‘istonning yorqin va serqirra namoyishi bilan boshlanishida ramziy ma’no mujassam.

Darhaqiqat, she’riyat, musiqa va qo‘shiq xalqlarning eng pok va go‘zal orzu-umidlari, ezgu intilishlarini ifoda etadi.

Shu munosabat bilan qozog‘istonlik do‘stlarimiz, barcha ishtirokchilarga ushbu bayram konsertini

tashkil qilganliklari uchun samimiy minnatdorlik izhor qilmoqchiman.

Hurmatli do'stlar!

Qozoq xalq maqolida aytilganidek: «**Туысы жақын – жақын емес, кұнысы жақын – жақын**».

Biz qardosh Qozog'iston bilan yo'lga qo'yilgan do'stlik va yaxshi qo'shnichilik rishtalarini qadrlaymiz va eng yaqin qo'shnimiz bilan muloqot hamda ko'p-qirrali hamkorlikni mustahkamlashga intilamiz.

Biz bir-birimizga hamisha yelkadosh bo'lib kelganmiz, xavf-xatarlarga qarshi birgalikda kurashganmiz, bugun esa umumiy yorqin kelajagimizni ham birga qurmoqdamiz.

O'ylaymanki, ulug' bobokalonlarimiz Alisher Navoiy va Abay Qo'nonboyevlarning muqaddas ruhi bizni bu yo'lda qo'llab-quvvatlaydi.

Biz xalqlarimiz, farzandlarimiz va nabiralarimiz tinchligi va farovonligi yo'lida qo'limizdan kelgan barcha ishlarni qilamiz!

Hurmatli Qosim-Jo'mart Kemelevich!

Muhtaram qozog'istonlik do'stlar!

Bugungi kun o'zbek-qozoq munosabatlarida yangi, tarixiy sana sifatida xalqlarimiz o'rtasidagi qardoshlik aloqalarini rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratadi, deb ishonaman.

Yana bir bor O'zbekistonga xush kelibsiz!

E'tiboringiz uchun rahmat!

*O'zbekistonda Qozog'iston yilining
tantanali ochilish marosimidagi nutq
Toshkent shahri,
2019-yil 15-aprel*

STRATEGIK SHERIKLIK VA UZOQ MUDDATLI MAQSADLAR MUSHTARAKLIGI

Muhtaram Qosim-Jo'mart Kemelevich!

Hurmatli ommaviy axborot vositalari vakillari!

Xonimlar va janoblar!

Sizlar va barcha qozog'istonlik do'stlarimizni mehmondo'st va saxovatli o'zbek diyorida qutlayman.

Sizni, muhtaram Qosim-Jo'mart Kemelevich, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishganingiz bilan yana bir bor samimiy tabriklashga ijozat bergaysiz.

Qozog'iston xalqi farovonligi va gullab-yashnashi yo'lidagi faoliyatingizda Sizga ulkan zafarlar tilayman.

Fursatdan foydalanib, ko'pmillatli O'zbekiston xalqi nomidan qozoq xalqining atoqli o'g'loni, Qozog'iston Respublikasi Birinchi Prezidenti, Elboshi, og'am, muhtaram Nursulton Abishevich Nazarboyevga o'zbek-qozoq munosabatlarini mustahkamlash va ko'pqirrali hamkorlikni kengaytirishga qo'shgan ulkan, bebaho hissasi uchun chuqur minnatdorlik izhor etishga ruxsat etgaysiz.

Qozog'istonning barcha salmoqli yutuqlari bevosita shu insonning nomi bilan bog'liq: davlatchilikni mustahkamlash, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish, zamonaviy va raqobatdosh iqtisodiyotni shakllantirish,

mamlakatning xalqaro miqyosda ortib borayotgan obro‘-e‘tibori shular jumlasidandir.

Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti, muhtaram Qosim-Jo‘mart Toqayevning ilk davlat tashrifi O‘zbekistonga amalga oshirilayotganini biz yuksak baholaymiz.

Bunda biz Qozog‘istonning mamlakatimiz bilan strategik sheriklikni yanada chuqurlashtirishga qaratilgan yo‘lining davomiyligining yaqqol ifodasini ko‘ramiz.

Bu ikki tomonning ham butun mintaqada tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni mustahkamlashga bo‘lgan intilishining tasdig‘idir.

Ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokida yana bir bor Qozog‘iston bilan har tomonlama do‘stona aloqalarni rivojlantirish O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanini ta’kidlab o‘tmoqchiman.

Muhtaram Qosim-Jo‘mart Toqayev bilan bugungi uchrashuvimiz ochiqlik va to‘liq o‘zaro anglashuv ruhida o‘tganini chuqur mamnuniyat bilan qayd etishni istardim.

Biz strategik munosabatlarimizni rivojlantirish yo‘lidagi uzoq muddatli maqsadlarimiz mushtarak ekanini tasdiqladik. Ikki tomonlama hamkorlik kun tartibiga doir, shuningdek, mintaqaviy va xalqaro masalalarni atroflicha muhokama qildik.

Xavfsizlik borasidagi yangi tahdid va xatarlarning oldini olish va ularga qarshi kurash bo‘yicha birgalikdagi sa’y-harakatlarni kuchaytirish muhimligi ta’kidlandi.

Afg'onistonda tinchlik o'rnatish bo'yicha muzokarlarni tezlik bilan boshlashga ko'maklashish, shuningdek, ushbu mamlakatda muhim infratuzilma va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni yanada birlashtirish zarurati qayd etildi.

Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi doirasidagi hamkorlikni faollashtirishdan ikki tomon ham manfaatdor ekanini tasdiqladik.

Shuningdek, qozog'istonlik do'stlarimizga Orol-bo'yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha ko'ptomonlama Trast fondi faoliyat boshlashini qo'llab-quvvatlagani uchun minnatdorlik izhor qilmoqchiman.

Hurmatli do'stlar!

Bo'lib o'tgan muzokaralar davomida savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga ham alohida e'tibor qaratildi.

O'tgan yili mazkur yo'nalishdagi faoliyatimiz samarali bo'lganini ta'kidlab o'tmoqchiman. O'zaro tovar aylanmasi 50 foizga ortib, 3 milliard dollardan oshdi. Biz yaqin yillarda bu ko'rsatkichni 5 milliardga yetkazishga bo'lgan o'zaro intilishimizni tasdiqladik.

Transport, logistika va sanoat kooperatsiyasi sohalarida qo'shma loyihalarni amalga oshirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Turizm, madaniyat, ilm-fan va ta'lim yo'nalishlaridagi almashinuvlarni amalga oshirishdan manfaatdorligimiz bildirildi. Biz Hukumatlararo komissiyada raislik qilish maqomini mamlakatlarimiz Bosh vazirlari darajasiga ko'tarishga

kelishib oldik. Shuningdek, 2018-yilda Qozog‘istonda O‘zbekiston yili muvaffaqiyatli o‘tgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Bugun O‘zbekistonda Qozog‘iston yilining ochilish marosimi bo‘lib o‘tishi Qozog‘iston Prezidentining mazkur davlat tashrifining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Ushbu yorqin voqea ikki qardosh mamlakat va xalq o‘rtasidagi do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik rishtalarini yanada mustahkamlashga xizmat qilishi shubhasiz. Hurmatli jurnalistlar, barchangizni ushbu tantanali marosimda ishtirok etishga taklif qilaman.

So‘zimning nihoyasida Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti, muhtaram Qosim-Jo‘mart Kemelevichning O‘zbekistonga davlat tashrifi ikki tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini chuqurlashtirishga yangicha sur‘at bag‘ishlashiga ishonch bildirmoqchiman.

E’tiboringiz uchun tashakkur.

*Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti
Qosim-Jo‘mart Toqayevning O‘zbekistonga
davlat tashrifi chog‘ida ommaviy axborot
vositalari vakillari bilan uchrashuvdagi nutq*

2019-yil 15-aprel

XALQLARIMIZ DO‘STLIGI VA BIRODARLIGINING YORQIN TIMSOLI

Hurmatli Mun Chje In Janobi Oliylari!

Hurmatli Kim Chjon Suk xonim Janobi Oliyalari!

Qadrli do‘stlar! Xonimlar va janoblar!

Bugun biz ko‘pmillatli O‘zbekiston xalqi uchun muhim bo‘lgan voqea – Toshkentda Koreys madaniyati va san‘ati uyining ochilishi marosimida ishtirok etmoqdamiz.

2016-yilning may oyida bizning birgalikdagi tashabbusimiz asosida bunyod etilayotgan ushbu binoning poydevoriga tamal toshi qo‘yish marosimida ishtirok etgan edim.

So‘nggi yillar davomida ushbu noyob binoning qurilishi hurmatli Prezident Mun Chje In bilan birgalikda bizning e‘tiborimiz markazida bo‘ldi.

Bugun, mana, o‘zbek va koreys me‘morlari, muhandislari, quruvchilari, dizaynerlarining birgalikdagi sa’y-harakatlari bilan ushbu ajoyib san‘at koshonasi bunyod etildi.

Poytaxtimizni bezab turgan ushbu muhtasham bino qiyofasida zamonaviy me‘moriy yechimlar an‘anaviy koreys madaniyatiga xos bezaklar bilan uyg‘unlashib ketganini ko‘rmoqdamiz.

Bugungi marosimda qadrdon do'stim va birodarim, Koreya Respublikasi Prezidenti janob Mun Chje In va uning rafiqasi Kim Chjon Suk xonim ishtirok etayotgani biz uchun katta sharaftir. Bu mamlakatlarimiz o'rtasida qaror topgan mustahkam do'stlik, ochiqlik va o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlarning yaqqol tasdiq'idir.

Kecha biz janob Mun Chje In bilan nihoyatda samarali muloqot o'tkazdik, muhim qarorlar va hujjatlar qabul qildik, O'zbekiston – Koreya hamkorligini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'taradigan Alohida strategik sheriklik to'g'risidagi deklaratsiyani qabul qildik. Biz muvaffaqiyatli o'tgan biznes forumda ishtirok etdik, yorqin va barchamiz uchun unutilmas bo'lgan ikki xalq san'atkorlarining qo'shma konsertini tomosha qildik.

Toshkentda Koreys madaniyati va san'ati uyini bunyod etishda ko'rsatgan yordami uchun Koreya Respublikasi hukumatiga va barcha koreys do'stlarimizga samimiy minnatdorlik bildirishdan g'oyat mamnunman. Shu munosabat bilan qadimiy koreys maqolini keltirishni istar edim: «Birgalikda bunyod etilgan minora mustahkam bo'ladi».

Hurmatli xonimlar va janoblar!

80 yildan ko'proq vaqt avval Uzoq Sharqdan minglab koreyslar taqdir taqozosi bilan o'zbek zaminiga kelib qolgan. O'zbekiston xalqi ko'chirib keltirilgan koreyslarga o'ziga xos bag'rikenglik bilan yordam qo'lini uzatdi.

O'sha davrdagi qiyinchiliklarga qaramasdan, ularni iliq qarshi olib, boshpana berdi va oxirgi burda nonini ular bilan birga baham ko'rdi.

O'zining mehnatsevarligi, hayot mashaqqatlariga chidamliligi va mustahkam irodasi bilan, shuningdek, dunyoqarashimiz va qadriyatlarimiz o'xshash bo'lgani tufayli koreyslar bu zaminda o'zlarining ikkinchi Vataniga ega bo'ldi. Ular O'zbekistonning teng huquqli va hurmatli fuqarolariga, ko'pmillatli xalqimizning ajralmas qismiga aylandi. Biz ularning mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qo'shgan hissasini yuksak baholaymiz. Masalan, sobiq Ittifoq davrida 137 nafar o'zbekistonlik koreyslar o'sha paytdagi oliy mukofotga – Mehnat qahramoni unvoniga sazovor bo'ldi. Bugungi kunda O'zbekistondagi koreyslar MDHdagi eng ko'psonli diasporalardan biri bo'lib, 180 ming kishini tashkil etadi. Ularning 300 nafari mustaqillik yillarida davlatimizning yuksak mukofotlariga sazovor bo'lgan. Ularning orasida senator Valeriy Tyan, senator, maktabgacha ta'lim vaziri Agrepina Shin, mamlakatimizning Koreya Respublikasidagi elchisi Vitaliy Fen, Koreys madaniy markazlari uyushmasining raisi, deputat Viktor Pak, general-mayor Dmitriy Pan, akademik Vladimir Kim, madaniyat arboblari Galina Shin, Vladimir An, Iskra Shin va boshqa taniqli shaxslar bor.

Bizning mamlakatimizda koreys madaniyati, tili va urf-odatlarini saqlash va rivojlantirish uchun barcha

shart-sharoitlar yaratilgan. Biz bundan buyon ham buning uchun barcha imkoniyatlarni ishga solamiz.

O'tgan yilning iyun oyida koreys diasporasi tomonidan ularning O'zbekistonda istiqomat qilayotganlarining sakson yilligi munosabati bilan poytaxtimizning «Do'stlik bog'i»da bag'rikenglik, qalb harorati va g'amxo'rlik, o'zbek zaminidagi tinch va osoyishta hayot uchun minnatdorlik ramzi sifatida monument o'rnatilganida chuqur ramziy ma'no bor. O'zbek xalq maqolida ta'kidlanganidek, «Xalq do'stligi – yurt boyligi».

Hurmatli do'stlar!

Shuni ta'kidlashni istardimki, mamlakatimizda Koreyaning qadimiy va ko'pqirrali madaniyatiga qiziqish doimiy ravishda ortib bormoqda. Respublikamizning 12 ta oliy o'quv yurti, 48 maktabi va litseylarida koreys tili o'qitiladi. O'nlab koreys tili va madaniyati markazlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Poytaxtimizda barpo etilgan Koreys madaniyati va san'ati uyi, hech shubhasiz, keng jamoatchilik va avvalo, o'sib kelayotgan yosh avlodni o'ziga jalb etadigan maskanga, madaniyatlarni o'zaro boyitish markaziga aylanadi. Bularning barchasi jamiyatimizda o'zaro tushunish, millatlararo tinchlik va hamjihatlikning yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Ishonchim komilki, Koreys madaniyati va san'ati uyi koreys xalqining ko'pasrlik madaniyatini asrab-avaylash va boyitishga munosib hissa qo'shadi.

Qadrli do'stlar!

Sizlarni O'zbekiston va Koreya do'stligining yangi timsollaridan biri bo'lgan ushbu ajoyib saroyning ochilishi bilan yana bir bor muborakbod etaman.

Aminmanki, bugungi kun alohida strategik hamkorlik darajasiga ko'tarilgan o'zbek-koreys munosabatlarida yangi, yorqin sahifa bo'lib qoladi.

E'tiboringiz uchun rahmat.

*Koreya Respublikasi Prezidenti
Mun Chje Inning O'zbekistonga davlat tashrifi
doirasida Koreys madaniyati va san'ati uyining
ochilishiga bag'ishlangan marosimdagi nutq*

2019-yil 18-aprel

O‘ZARO MANFAATLI VA UZOQ MUDDATLI HAMKORLIK

Muhtaram Mun Chje In Janobi Oliylari!

**Koreya Respublikasining yetakchi kompaniyalari,
banklari va tashkilotlari rahbarlari!**

Hurmatli mehmonlar!

Xonimlar va janoblar!

Koreya Respublikasi Prezidenti muhtaram Mun Chje In janoblarining O‘zbekiston Respublikasiga birinchi davlat tashrifi doirasida bo‘lib o‘tayotgan O‘zbekiston – Koreya biznes forumining barcha ishtirokchilarini samimiy qutlashdan behad mamnunman.

Bugungi uchrashuvimiz mening 2017-yil noyabr oyida Koreya Respublikasiga amalga oshirgan tashrifim davomida Seulda bo‘lib o‘tgan sermahsul muloqotning mantiqiy davomidir.

Men bugun ushbu zalda O‘zbekiston bozorida faol ish olib borayotgan koreyalik barcha sheriklarimizni, shuningdek, bizning mamlakatimizga o‘zaro manfaatli va uzoq muddatli hamkorlik o‘rnatish bo‘yicha qat’iy maqsad bilan kelgan yangi do‘stlarimizni ko‘rib turganimdan xursandman.

O‘zbekistonga xush kelibsiz, aziz do‘stlar!

Hurmatli forum ishtirokchilari!

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston va Koreya o‘rtasidagi munosabatlar misli ko‘rilmagan yuksak bosqichga – alohida strategik sheriklik darajasiga ko‘tarildi.

Muhtaram Prezident Mun Chje In janoblari bilan bugun o'tkazgan muzokaralarimiz amaliy hamkorlikni kengaytirish borasidagi intilishimiz va qat'iy qarorimizni yana bir bor namoyon etdi.

Biz ishbilarmonlik aloqalarini rivojlantirish masallari-
lariga alohida e'tibor qaratdik hamda iqtisodiyotning
turli tarmoqlarida qo'shma loyihalarni amalga oshirish
uchun eng qulay sharoitlarni yaratish muhim ekanini
tasdiqladik.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirila-
yotgan izchil islohot va o'zgarishlar benihoya ulkan
g'oya va loyihalarni hayotga dadil joriy etish uchun keng
imkoniyatlar ochmoqda.

Koreyalik do'stlarimizni ishontirib aytmoqchi-
manki, biz O'zbekistonda qonun ustuvorligi va bozor
iqtisodiyoti tamoyillariga qat'iy amal qilmoqdamiz.

Mening komandam eng birinchi kunlardan boshlab
sog'lom va ochiq raqobat muhitini yaratish, davlatning
iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirish, mulk va
investitsiyalarni ishonchli himoya qilishni ta'minlash
ustida izchil ish olib bormoqda.

Biz biznes yo'lidagi barcha to'siqlarni bartaraf
etmoqdamiz, korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash olib
bormoqdamiz.

O'tgan yili mamlakatimizda yangi qo'shma korxona-
lar soni 3 barobar ko'paydi. Ularning orasida Koreya
kapitali ishtirokida tashkil etilgan 160 ta korxona
mavjud.

Biz yaqinda misli ko'rilmagan islohotlarni boshladik – birinchi marta yerga xususiy egalik huquqini joriy etdik. Bunday sa'y-harakatlarimiz turli xalqaro reytinglarda o'z ifodasini topmoqda.

So'nggi yillarda «Doing Business» reytingida O'zbekiston biznes uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha islohotchi mamlakatlar orasida yetakchi o'nta davlat qatoridan joy oldi.

O'tgan yili «S&P», «Fitch» va «Moody's» agentliklari bizning mamlakatimizga ilk bor «barqaror» suveren reytingini berdi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti O'zbekistonning kredit reytingini oshirdi.

Biz, shuningdek, xalqaro kapital bozoriga ham muvaffaqiyatli kirib bordik – 1 milliard dollar qiymatidagi yevro obligatsiyalarni birinchi marta joylashtirdik.

Hurmatli biznes forum ishtirokchilari!

Koreyaning yetakchi kompaniya va banklari rahbarlari!

Biz bundan buyon ham Koreya biznesining mamlakatimizdagi ishtirokini kengaytirish uchun eng qulay sharoitlarni yaratishga tayyormiz. Chunki Koreya kompaniyalari biz uchun faqat investitsiya va zamonaviy texnologiyalar emas. Ular avvalo ishonchli va uzoq muddatli sheriklarimizdir.

Bugungi kunda Koreya investitsiyalarining O'zbekiston iqtisodiyotidagi umumiy hajmi 7 milliard dollardan oshdi. Koreya milliy neft korporatsiyasi, KOGAS, «Lotte Group», «Samsung», «Hyundai», «GS», «SK», «POSCO», «Youngone», «Shindong resources», Eximbank va ko'zga

ko‘ringan boshqa ko‘plab peshqadam kompaniyalar va banklar yurtimizda ustuvor yo‘nalishdagi investitsiya loyihalarini amalga oshirishda faol ishtirok etmoqda. Biz ularning ilg‘or tajribasi, zamonaviy texnologiyalari va menejment sohasidagi yutuqlarini jalb etishdan manfaatdormiz.

Chuqur mamnuniyat bilan qayd etmoqchiman: ushbu tashrif doirasida umumiy qiymati 12 milliard dollardan ziyod muhim kelishuvlarga erishildi va bitimlar imzolandi. Ular energetika, neft-gaz, ximiya va tog‘-kon, mashinasozlik va elektrotexnika, transport va logistika, to‘qimachilik va oziq-ovqat sanoati, infratuzilmalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli tibbiyot kabi ustuvor yo‘nalishlarni qamrab oladi.

Biz farmatsevtika sohasida strategik hamkorlikni yo‘lga qo‘yish haqida kelishib oldik. «Bo‘stonliq-farm» erkin iqtisodiy hududi negizida eng zarur dori vositalarini birgalikda ishlab chiqaramiz. Shuningdek, men O‘zbekistondagi eng yirik «Angren» iqtisodiy hududini – «Inchon» erkin iqtisodiy zonasi boshqaruviga berish bo‘yicha kelishuvga erishganimizni e‘lon qilishdan mamnunman. Ushbu qadam biznes uchun qulay sharoitlar yaratish, investorlarga xizmat ko‘rsatish va ularni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha Koreyaning eng ilg‘or standartlarini joriy etishga qaratilgan.

Fursatdan foydalanib, Koreya biznesini ushbu erkin iqtisodiy hududlarni rivojlantirish dasturlari doirasidagi yangi imkoniyatlardan faol foydalanishga chaqiraman.

Umid qilamizki, shu kabi yangi loyihalarning amalga oshirilishi anjumanimizda ishtirok etayotgan, O'zbekiston iqtisodiyotiga sarmoya kiritish istagida bo'lgan, salohiyatli investorlar uchun yaxshi amaliy misol bo'lib xizmat qiladi.

Hurmatli xonimlar va janoblar!

Ishonchim komil, bugungi forum ikki mamlakat tadbirkorlari o'rtasida samarali aloqalar va ishonch muhitini mustahkamlash, hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash, o'zaro manfaatli bitimlar tuzish imkoniyatlarini yaratadi.

Biz O'zbekistonda Koreya biznesi vakillarini kutmoqdamiz. Yangi tashabbus va loyihalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga tayyormiz. Bu yo'lda Sizlarga katta muvaffaqiyatlar tilayman.

*O'zbekiston – Janubiy Koreya biznes forumining
ochilish marosimida so'zlangan nutq*

2019-yil 19-aprel

O‘ZBEK–KOREYS MUNOSABATLARI TARIXIDAGI MUHIM VOQEA

Muhtaram Mun Chje In Janobi Oliylari!

Hurmatli ommaviy axborot vositalari xodimlari!

Xonimlar va janoblar!

Koreya Respublikasi Prezidenti muhtaram Mun Chje In janoblarini va barcha koreyalik do‘stlarimizni o‘zbek zaminida chin yurakdan qutlash menga katta mamnuniyat bag‘ishlaydi.

Biz Prezident Mun Chje In janoblarining mamlakatimizga davlat tashrifini o‘zbek-koreys munosabatlari tarixidagi muhim voqea sifatida qabul qilamiz.

Men bugun an‘anaviy do‘stlik, ochiqlik va o‘zaro anglashuv ruhida kechgan muzokaralarning samarali natijalaridan to‘la qoniqish hosil qilganimni alohida ta’kidlashni istardim.

Ushbu muzokaralar bizning siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi uzoq muddatli manfaatlarimizga to‘la mosligini, xalqaro va mintaqaviy muammolar, xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash masalalari bo‘yicha pozitsiyalarimiz yaqin ekanini namoyish etdi.

Bugun imzolangan Alohida strategik sheriklik to‘g‘risidagi deklaratsiya davlatlarimiz o‘rtasidagi muno-

sabatlarning mutlaqo yangi bosqichga ko'tarilganini yaqqol ko'rsatmoqda.

Biz xalqaro tashkilotlar doirasida bir-birimizni doimo qo'llab-quvvatlab kelmoqdamiz.

O'zbekiston Koreya Respublikasining global xavfsizlikni ta'minlash borasida katta ahamiyatga ega bo'lgan, Koreya yarim orolidagi o'zaro hamjihatlikni mustahkamlashga yo'naltirilgan tinchliksevar siyosatini ma'qullaydi. Biz bu g'oyat muhim jarayonda muhtaram Prezident Mun Chje In janoblarining qat'iy sa'y-harakatlarini to'la qo'llab-quvvatlashimizni yana bir bor bildiramiz.

Xonimlar va janoblar!

Hurmatli Mun Chje In janoblari bilan birgalikda biz ikki tomonlama savdo-iqtisodiy, investitsiya-viy va texnologik hamkorlikning bugungi holatini atroflicha tahlil qildik. Uni yanada rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjudligi haqida yagona xulosaga keldik.

Biz o'tgan yili mamlakatlarimiz o'rtasida o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 2 milliard dollarga o'sganini ijobiy baholadik. Ayni vaqtda bu ko'rsatkichlarni yanada oshirish uchun barcha sa'y-harakatlarimizni safarbar etishga kelishib oldik.

Investitsiya va innovatsiyalar sohasida yaqin hamkorlik qilish masalalari ham e'tiborimiz markazida bo'ldi.

Bugungi kunda mamlakatimizda Koreya kapitali ishtirokida 600 dan ortiq korxona faoliyat ko'rsatmoqda.

Koreya Respublikasining O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritgan sarmoyalarining umumiy hajmi 7 milliard dollardan oshdi.

Koreyaning yetakchi kompaniya va banklarining investitsiyalarini jalb qilish hisobidan umumiy qiymati 12 milliard dollardan ziyod qo'shma loyihalarni amalga oshirish bo'yicha imzolangan bitimlar katta ahamiyat kasb etadi.

Men muhtaram Prezident janoblariga Koreya kompaniyalari mamlakatimizda o'zlarini erkin va qulay his qilishlari uchun har tomonlama qo'llab-quvvatlashimizni alohida aytib o'tdim.

Umuman olganda, iqtisodiyotning turli tarmoqlari va ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha Koreya tajribasi biz uchun nihoyatda zarur ekanini ta'kidlamoqchiman.

Bugungi kunda Koreyaning bir qator malakali mutaxassislari O'zbekistonning turli vazirlik va idoralarida yuqori lavozimlarda faoliyat ko'rsatmoqda. Misol uchun, Koreya fuqarosi Li Dong Vuk O'zbekiston Bosh vaziri o'rinbosariga maslahatchi, sog'liqni saqlash vaziri o'rinbosari lavozimida ishlamoqda.

Gumanitar soha – aloqalarimizning yana bir muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Biz ta'lim, ilm-fan, raqamli tibbiyot, informatsion texnologiyalar sohasidagi hamkorligimizni yanada kengaytirishdan manfaatdormiz. Masalan, O'zbekistonning maktabgacha ta'lim tizimiga Koreya tajribasi

keng joriy etilmoqda. Va shu asosda shahar va tumanlarimizda bolalar bog'chalari tashkil qilinmoqda.

Davlatlarimiz va xalqlarimizni yanada yaqinlashtirishda yurtimizdagi koreys diasporasi katta rol o'ynamoqda.

Ertaga Toshkentda tantanali ravishda ochiladigan, koreys xalqining ma'naviy va madaniy merosini saqlashga xizmat qiladigan – Koreys madaniyati va san'ati uyi abadiy do'stligimizning yana bir yorqin timsolidir.

Hurmatli do'stlar!

So'zimning yakunida muhtaram Prezident Mun Chje In janoblariga o'zbek-koreys hamkorligini kengaytirish borasidagi chuqur o'ylangan yondashuvi uchun, mamlakatimiz va xalqimizga yuksak ehtiromi, samimiy munosabati uchun yana bir bor minnatdorlik bildiraman.

Erishilgan kelishuvlar va imzolangan salmoqli hujjatlar ikki xalq manfaatlariga to'la javob beradi, deb ishonaman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

*Koreya Respublikasi Prezidenti
Mun Chje Inning O'zbekistonga rasmiy tashrifi
doirasida ommaviy axborot vositalari vakillari
bilan bo'lgan uchrashuvdagi nutq*

2019-yil 19-aprel

«BIR MAKON – BIR YO‘L» – IQTISODIY TARAQQIYOTNING YANGI IMKONIYAT VA MANBALARI

Hurmatli Si Szinpin Janobi Oliylari!

Hurmatli delegatsiya rahbarlari!

Xonimlar va janoblar!

Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Janob Si Szinpinga «Bir makon – bir yo‘l» ikkinchi forumida ishtirok etish uchun taklif qilgani va an‘anaviy iliq mehmondo‘stlik uchun bildirilayotgan minnatdorlik so‘zlariga qo‘shilishga ijozat bergaysiz.

Xalqaro mintaqaviy hamkorlikka doir masalalar Markaziy Osiyo, jumladan, dengiz portlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri chiqish imkoniga ega bo‘lmagan bizning mamlakatimiz uchun doimo dolzarb bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi.

O‘zbekiston avval-boshdanoq «Bir makon – bir yo‘l» tashabbusini qo‘llab-quvvatlagan, uning amalga oshirilishi mamlakatlarimizning barqaror taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi. Biz «davra suhbatini»ning Qo‘shma kommyunikesi qabul qilinishini ma‘qullaymiz. Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Janob Si Szinpin nutqida bayon etilgan «Bir makon – bir yo‘l» doirasidagi hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlarini qo‘llab-quvvatlaymiz.

Mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish mushtarak maqsadlarimizga erishishga faol xizmat qilishi, iqtisodiy o'sishning yangi manbalarini ochish imkonini berishi va pirovardida mamlakatlarimiz xalqlari hayot darajasining oshishini ta'minlashiga ishonchimiz komil.

Shu munosabat bilan, bizning nazarimizda, quyidagi muhim vazifalarni amaliy jihatdan hal etish zarur.

Birinchi. Markaziy Osiyo mintaqasining tranzit salohiyatini ro'yobga chiqarish va Xitoy – Markaziy Osiyo – G'arbiy Osiyo iqtisodiy koridorini shakllantirish. Bu borada Janubiy transport yo'lagini shakllantiradigan Qashqar – Ergashtom – O'sh – Andijon – Toshkent avtomobil yo'lagi ishga tushirilishi bilan ulkan istiqbollar ochiladi. Shu munosabat bilan O'zbekiston – Qirg'iziston – Xitoy hamda Mozori Sharif – Kobul – Peshovar temir yo'llari qurilishi loyihalari alohida ahamiyat kasb etadi.

«Bir makon – bir yo'l» tashabbusi doirasidagi bunday loyihalarning kafolatli moliyalashtirilishini ta'minlash maqsadida xalqaro taraqqiyot institutlari va hamkor davlatlar ishtirokida «Markaziy Osiyo mamlakatlari va Afg'oniston uchun moliyaviy muloqot» tashkil etishni taklif qilamiz. Aminman, mazkur mexanizm Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki va «Ipak yo'li» fondi bilan birga mintaqada o'zaro manfaatli infratuzilma loyihalarini ilgari surishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, Sariq dengiz portlari – Markaziy Osiyo – Yevropa yo'nalishi bo'ylab temir yo'lda yuk

tashishga bir xil tarif o'rnatish ham iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchi. «Yashil iqtisodiyot» va «aqlli» qishloq xo'jaligini rivojlantirish. Oziq-ovqat xavfsizligiga erishishga qaratilgan eng zamonaviy texnologiyalar va ilg'or yechimlarni joriy etish maqsadida agroinnovatsiyalar qo'shma markazini tashkil etishning istiqboli katta, deb o'ylaymiz.

Uchinchi. Orol dengizining qurishi oqibatida yuzaga kelgan ekologik vaziyatni bartaraf etish eng muhim umumiy vazifamizdir. Sheriklarimizni BMTning Orolbo'yi mintaqasi uchun Trast fondi hamda Orolbo'yi hududida ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasini tashkil etish bo'yicha loyihani amalga oshirishda ishtirok etishga chaqiramiz.

To'rtinchi. Inson kapitalini rivojlantirish uchun mamlakatlarimiz ilmiy va gumanitar salohiyatidan keng foydalanish lozim. Shu munosabat bilan ilmiy va innovatsion faoliyatning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha sheriklikning yaxlit tizimini shakllantirish kerak, deb hisoblaymiz. Zamonaviy ta'lim va yangi bilimlardan ayniqsa yoshlar teng foydalanishini ta'minlash asosiy vazifalarimizdir. Ishonchim komilki, qariyb 130 ta universitetni o'z ichiga olgan yangi Ipak yo'li Universitetlar alyansi uni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun samarali maydoncha bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Beshinchi. Turizm sohasida almashinuylarni rivojlantirish, buning uchun «Ipak yo'li» brendi ostida

qo'shma dastur va mahsulotlarni ilgari surish maqsadida dunyo tamaddunlari va madaniyatlarining tarixiy chor-ahasida joylashgan Samarqandda Ipak yo'li Xalqaro turizm assotsiatsiyasini tashkil etish tarafdorimiz. Ushbu tashabbus doirasida mamlakatlarimizda har yili «Bir makon – bir yo'l» turistik forumlarini o'tkazishni taklif qilamiz.

Hurmatli forum ishtirokchilari!

Yevroosiyo makonida xavfsizlik va taraqqiyotni ta'minlash, hech shubhasiz, «Bir makon – bir yo'l» tashabbusidan ko'zlangan maqsad va vazifalarga erishishning hal qiluvchi omilidir. Afg'onistondagi vaziyatni tezlik bilan barqarorlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu mamlakatda tinchlik o'rnatish nafaqat uning iqtisodiy tiklanishiga xizmat qiladi, balki Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalarida yangi taraqqiyot manbalarini yaratadi. Bu va boshqa dolzarb masalalarni biz joriy yilning kuzida Toshkentda bo'lib o'tadigan Afg'oniston bo'yicha navbatdagi Mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik konferensiyasida (RECCA) muhokama qilish niyatidamiz.

Shuningdek, «SHHT – Afg'oniston» muloqot guruhi doirasidagi o'zaro hamkorlikni Afg'onistonda tinchlik o'rnatish bo'yicha boshqa shakldagi muloqot vositalari bilan faollashtirishni taklif qilamiz. Bu, shuningdek, o'zaro bog'liq aloqalarni rivojlantirish, jumladan, Afg'onistonni mintaqaviy iqtisodiy munosabatlarga integratsiya qilishga doir loyihalarni amalga oshirish uchun ishonchli tayanch maydon bo'lib xizmat qilishiga aminman.

Xitoylik sheriklarimiz tomonidan ilgari surilgan «Bir makon – bir yo‘l» forumi ishtirokchi mamlakatlarning xalqaro terrorizmga qarshi kurashish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazilishini qo‘llab-quvvatlaymiz. Bizning bepoyon mintaqamizda barqaror taraqqiyotga qaratilgan tahdid va xatarlarga qarshi kurash yo‘lidagi sa’y-harakatlarni birlashtirish maqsadida navbatdagi uchrashuvni belgilangan formatda Toshkentda o‘tkazishni taklif qilamiz.

Aziz do‘stlar!

Ishonchim komil, bizning tarixiy va madaniy merosimiz, oldimizda turgan maqsad va vazifalarning o‘xshashligi, shuningdek, intilishlarimizning mushtarakligi kelajakka katta ishonch bilan qarashga imkon beradi. Xalqlarimiz «Bir makon – bir yo‘l» tashabbusi doirasidagi birgalikdagi sa’y-harakatlarimizning ijobiy natijalarini oxir-oqibatda albatta sezishi kerak.

Fursatdan foydalanib, do‘st xitoy xalqini yaqinlashib kelayotgan Xitoy Xalq Respublikasi tashkil etilganining 70 yilligi bilan samimiy qutlash, unga yangi zafarlar va ravnaq tilashga ijozat bergaysiz.

E’tiboringiz uchun rahmat.

*«Bir makon – bir yo‘l»
ikkinchi xalqaro forumidagi nutq
XXR, Pekin shahri,
2019-yil 27-aprel*

O‘ZBEKISTON VA GERMANIYA: O‘ZARO ISHONCHGA ASOSLANGAN, YUKSAK DARAJADAGI MULOQOT

Hurmatli Federal Prezident Janobi Oliylari!

Hurmatli Germaniya delegatsiyasi a’zolari!

Sizlarni mehmondo‘st o‘zbek diyorida samimiy qutlashga ruxsat bergaysiz.

Avvalo, Sizlarni va butun nemis xalqini davlatingiz Konstitutsiyasi qabul qilingani va Germaniya Federativ Respublikasi tashkil etilganining 70 yilligi bilan chin qalbidan muborakbod etaman. Ushbu qutlug‘ sanalar nemis hamkorlarimiz – Konrad Adenauer va Fridrix Ebert nomidagi jamg‘armalar bilan birgalikda bizning mamlakatimizda ham keng nishonlanmoqda.

Biz Germaniyaga chuqur hurmat va katta xayrixohlik tuyg‘ulari bilan qaraymiz. Nemis xalqining mehnatkashligi va iste’dodidan chin dildan hayratga tushamiz. Shakllangan barqaror hamkorlik aloqalarimizni yuksak baholaymiz va qadrlaymiz.

Hurmatli janob Federal Prezident, shu yilning yanvar oyida Siz bilan bo‘lgan uchrashuvni katta iliq taassurotlar bilan eslayman. Sizning bugungi tashrifingizga biz Berlindagi muloqotimizning mantiqiy davomi hamda O‘zbekiston – Germaniya hamkorligini yanada rivojlantirish bo‘yicha noyob imkoniyat deb qaraymiz.

Hurmatli delegatsiya a'zolari!

Bizning tor doiradagi muzokaralarimiz an'anaviy tarzda oshkora va do'stona muhitda o'tdi, ishonchlilik va mazmunlilik xususiyatiga ega bo'ldi. O'ylaymanki, janob Federal Prezident, bularning barchasi ko'p jihatdan Sizning O'zbekiston va Markaziy Osiyo haqidagi chuqur bilimingiz, bizning mintaqamizda sodir bo'layotgan jarayonlar mohiyatini chuqur tushunishingiz bilan bog'liqdir.

Bizning tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishimiz – umumiy sa'y-harakatlar bilan Markaziy Osiyoni barqaror va gullab-yashnagan hududga aylantirishdan iborat. Hurmatli janob Federal Prezident, Siz 2007-yildayoq asos solgan Yevropa Ittifoqining yangi mintaqaviy Strategiyasi doirasida biz amaliy muloqot va hamkorlikni rivojlantirishga tayyormiz. Umid qilamizki, Yevropa parlamentiga bo'lib o'tgan saylov natijalari yangi strategiyaning samarali amalga oshirishiga ko'maklashadi.

Sizning yordamingizda 2008-yilda ishga tushirilgan, mintaqa mamlakatlari suv resurslaridan samarali foydalanishga ko'maklashishga yo'naltirilgan «Suv sohasidagi tashabbus» alohida e'tiborga sazovordir.

Hurmatli janob Federal Prezident!

Xonimlar va janoblar!

Bugun bo'lib o'tgan muzokaralar davomida biz savdo-iqtisodiy hamkorlik borasidagi ustuvor masalalarni ko'rib chiqdik. Barcha kelishuv va loyihalar bo'yicha amaliy ishlar boshlandi.

Bizning mamlakatimizga ko'rsatilayotgan moliyaviy-texnik yordam uchun Germaniya hukumatiga alohida minnatdorlik bildiraman. Tashrif arafasida bo'lib o'tgan muzokaralar yakunlari bo'yicha moliyaviy-texnik yordam hajmini jiddiy ravishda oshirish yuzasidan muhim kelishuvlarga erishildi. Bugun tegishli Bayonnoma imzolanadi.

Mamlakatimizdagi ustuvor dastur va loyihalarni amalga oshirishda nemis hamkorlarimiz tomonidan, jumladan, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati yo'nalishi bo'yicha yordam ko'rsatilishi davom ettirilishiga umid qilamiz.

O'zbekiston va Germaniya o'rtasida ilm-fan, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash sohalarida o'zaro hamkorlik aloqalari jadal rivojlanmoqda. Mamlakatimizda nemis tili va madaniyatiga qiziqish ortib bormoqda. Sizning «Maktablar: istiqboldagi sheriklar» tashabbusingiz muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Hozirgi paytda O'zbekistonda Kant, Gegel va Shiller tili bo'lgan nemis tilini 400 mingdan ziyod o'quvchi va talabalar o'rganmoqda. Mamlakatimizda nemis tili o'qitiladigan maktablarning umumiy soni qariyb 1700 tani tashkil etadi. So'nggi bir yil davomida nemis tili bo'yicha 400 dan ziyod yangi sinflar ochildi.

Biz O'zbekistonda istiqomat qilayotgan nemislar masalalari bo'yicha hukumatlararo komissiya va Madaniy hamkorlik bo'yicha qo'shma komissiya faoliyatini qo'llab-quvvatlaymiz.

Ishonchim komilki, Toshkentda buyuk nemis shoiri va mutafakkiri Gyote haykalining ochilishi xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik va hamkorlikning yangi timsoliga aylanadi.

Janob Federal Prezident!

Qadrli do'stlar!

Biz Germaniya bilan uzoq muddatli va ko'pqirrali aloqalarni rivojlantirishga, o'zaro ishonchga asoslangan, yuksak darajadagi muloqotni saqlashga muhim ahamiyat beramiz. Aminmanki, bugungi muzokaralar natijalari O'zbekiston – Germaniya munosabatlarida yangi ufqlarni ochib beradi.

Sizning mamlakatimizga tashrifingiz, hech shubhasiz, O'zbekiston va Germaniya sherikligini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'taradi.

*Germaniya Federativ Respublikasi Federal Prezidenti
Frank-Valter Shtaynmayerning O'zbekistonga rasmiy
tashrifi doirasidagi uchrashuvda so'zlangan nutq*

2019-yil 27-may

O‘ZBEKISTON VA GERMANIYA – ISHONCHLI, MUHIM VA UZOQ MUDDATLI HAMKORLARDIR

**Muhtaram Federal Prezident Janobi Oliylari!
Hurmatli ommaviy axborot vositalari vakillari!
Xonimlar va janoblar!**

**Germaniya Federativ Respublikasi Federal Prezidenti
Frank-Valter Shtaynmayer Janobi Oliylari va barcha
germaniyalik do‘stlarimizni O‘zbekiston zaminida
samimiy qutlashdan g‘oyat mamnunman.**

**O‘zbekiston xalqi va jamoatchiligi Germaniyaga,
uning mehnatkash va iste’dodli xalqiga katta hurmat va
xayrixohlik bilan qaraydi.**

**Biz mamlakatlarimiz o‘rtasida qaror topgan mustah-
kam do‘stlik va hamkorlik aloqalarini yuksak baholay-
miz.**

**Muhtaram Shtaynmayer Janobi Oliylari, biz Sizni
dunyo miqyosida katta obro‘-e‘tiborga ega bo‘lgan
davlat va siyosat arbobi, o‘zbek xalqining yaqin do‘sti
deb bilamiz.**

**Ikki tomonlama munosabatlar rivojiga qo‘shayotgan
ulkan hissangiz uchun chuqur minnatdorlik bildirishga
ruxsat etgaysiz.**

**Bu Sizning yurtimizga samimiy do‘stligimizning
yaqqol tasdig‘i bo‘lgan uchinchi tashrifingizdir.**

Fursatdan foydalanib, aziz mehmonlarimizni Germaniya Federativ Respublikasi tashkil topgani va uning Konstitutsiyasi qabul qilinganining 70 yilligi bilan chin qalbidan tabriklashga ijozat bergaysiz.

O'tgan davrda yuksak taraqqiy topgan, zamonaviy demokratik davlatga aylangan Germaniya hayotidagi bu muhim tarixiy sanalar O'zbekistonda ham keng nishonlandi.

Bizning mamlakatimizda ushbu yubileyga bag'ishlab o'tkazilgan O'zbekiston – Germaniya yuridik forumi jamoatchiligimizda katta qiziqish uyg'otdi.

Hurmatli xonimlar va janoblar!

Bugungi muzokaralarimiz shu yil yanvar oyida Berlin shahrida bo'lib o'tgan tarixiy uchrashuvlarimizning mantiqiy davomi sifatida ochiq va samarali ruhda kechdi.

Janob Federal Prezident, o'ylaymanki, bu ko'p jihatdan Sizning O'zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasi haqidagi chuqur bilimingiz va bu yerda kechayotgan jarayonlar mohiyatini tushunishingiz bilan bog'liq.

Uchrashuvlar chog'ida biz muhokama qilingan barcha masalalar hamda dolzarb xalqaro va mintaqaviy muammolar bo'yicha qarashlarimiz yaqin va mushtarak ekanini yana bir bor tasdiqladik.

O'zbekiston va Germaniya aloqalarining bugungi holatini xolisona baholab, ularni yanada rivojlantirish uchun ustuvor yo'nalish va vazifalarni belgilab oldik. Ta'kidlash joizki, hozirgi kunda mamlakatlarimiz

o'rtasidagi munosabatlarning jadal rivojiga to'sqinlik qiladigan hech qanday muammo mavjud emas.

Eng asosiysi – biz o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada faollashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni ko'rish bo'yicha qat'iy siyosiy irodani namoyish etdik.

Avvalambor, biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida bir-birimizni o'zaro qo'llab-quvvatlashni davom ettirishga tayyormiz. Biz Germaniyaning ushbu nufuzli tashkilot Xavfsizlik Kengashiga doimiy a'zo bo'lish borasidagi intilishini qo'llab-quvvatlaymiz.

Shu bilan birga, Germaniya Hukumatining Orolbo'yi mintaqasi aholisi xavfsizligi uchun Trast fondiga ko'magini alohida minnatdorlik bilan ta'kidlashni istardim.

Biz Germaniya davlati va shaxsan Shtaynmayer Janobi Oliylari tashabbusi bilan 2007-yilda qabul qilingan va hozirgi vaqtda qayta ko'rib chiqilayotgan Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha strategiyasi doirasidagi keng qamrovli hamkorlikdan manfaatdormiz.

Muzokaralarimiz chog'ida xalqaro terrorizm, ekstremizm va narkotrafikka qarshi kurash, Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta'minlash yuzasidan batafsil fikr almashdik. Biz Afg'onistonda tinchlikka erishish, barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, infratuzilmalarni tiklash va aholining turmush sharoitlarini yaxshilashga doir loyihalarni birgalikda amalga oshirishga kelishib oldik.

Germaniyaning ulkan iqtisodiy-industrial, ilmiy-texnologik salohiyati va tajribasi asosida innovatsion, savdo-sotiq aloqalarini kengaytirish – biz uchun ustuvor yo‘nalishdir.

Yanvar oyida Berlinda imzolangan shartnoma va bitimlarimiz bugun hayotga izchil joriy etilmoqda. Jumladan, «Siemens», «The Linde Group», «Thyssen», «Volkswagen», «Man», «CLAAS», «LEMKEN», «Knauf», «Deutsche Kabel», «Oberhofer» kabi yirik nemis kompaniyalari bilan birgalikda O‘zbekistonda yuqori texnologiyalar, sanoat va qishloq xo‘jaligi, energetika, transport-logistika, infratuzilmalar sohasidagi loyihalar jadal amalga oshirilmoqda.

Investitsiya va texnologiyalar bo‘yicha Qo‘shma qo‘mitaning faoliyatiga alohida ahamiyat berilmoqda.

Biz O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va Germaniyaning «Integra» va «VAMED» kompaniyalari o‘rtasida Toshkent shahrida Yadro meditsinasi markazini tashkil etish, shuningdek, sog‘liqni saqlash sohasida boshqa bir qator qo‘shma loyihalarni amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratamiz.

Muhtaram do‘stlar!

O‘zbekistonda Germaniya madaniyati, nemis tili va adabiyotiga doimo samimiy hurmat hamda yuksak qiziqish bilan qarab kelingan.

O‘tgan asrning 20-yillarida 100 nafardan ziyod o‘zbek yigit va qizlari Germaniyaning yetakchi oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga yuborilgani bunga yaqqol misol bo‘lishi mumkin.

Hozirgi kunda esa ushbu davlatda mamlakatimizning 700 dan ortiq iqtidorli yoshlari ta'lim olmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda 400 mingdan ortiq talaba va o'quvchilar nemis tili va adabiyotini o'rganmoqda.

Muzokaralar chog'ida biz kelgusida Germaniya bilan ilm-fan va ta'lim, madaniyat va san'at sohalarida hamkorligimizni yanada kuchaytirish to'g'risida ham fikr almashdik.

Bugun Toshkentda buyuk shoir va mutafakkir Gyote byustining ochilishi xalqlarimiz o'rtasidagi mustahkam do'stlikning yana bir yorqin timsoli bo'lib qoladi.

Hurmatli xonimlar va janoblar!

So'zimning nihoyasida mehnatsevar va olijanob nemis xalqiga samimiy ehtiromimni bildirib, Germaniya davlatiga ravnaq va farovonlik tilab qolaman.

E'tiboringiz uchun tashakkur.

*Germaniya Federativ Respublikasi Federal Prezidenti
Frank-Valter Shtaynmayerning O'zbekistonga rasmiy
tashrifi doirasida ommaviy axborot vositalari vakillari
bilan uchrashuvdagi nutq*

2019-yil 28-may

KENG MINTAQAVIY HAMKORLIK UCHUN NOYOB IMKONIYATLAR

Muhtaram Sooronbay Sharipovich!

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Sooronbay Sharipovich Jeenbekovga yana bir bor samimiy qabul uchun minnatdorlik izhor qilmoqchiman.

Zamonaviy xalqaro munosabatlar tub o'zgarishlar davrini boshdan kechirmoqda.

Bir tomondan, dunyoda yangi axborot-texnologiya tartiblari shakllanmoqda.

Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot innovatsion rivojlanish uchun noyob imkoniyatlar yaratib bermoqda.

Boshqa tomondan, yirik davlatlar o'rtasidagi manfaatlar kurashi kuchayib, jahon bozorida raqobat keskinlashmoqda. Demografik va ekologik muvozanatsizlik kuchayib, oziq-ovqat va suv xavfsizligi bilan bog'liq muammolar jiddiy tus olmoqda.

Bularning barchasi terrorizm, ekstremizm, narkotrafik, transchegaraviy uyushgan jinoyatchilik va qurolli nizolar sharoitida sodir bo'lmoqda.

Bugungi kunda biz uchun xavfsizlikni ta'minlashda kelishilgan siyosatni yuritish, davlatlarimiz barqaror taraqqiyoti va ravnaqi uchun qulay sharoitlar shakllantirish muhim.

SHHT roli va mavqeyini yanada mustahkamlash bizning «Shanxay ruhi» hamda tashkilot tamoyil va qadriyatlariga nechogʻli amal qilishimizga bogʻliq boʻladi.

Yaqinda Pekinda «Bir makon – bir yoʻl» forumi muvaffaqiyatli oʻtkazildi. Ertaga Dushanbeda Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari boʻyicha kengashning sammiti boʻlib oʻtadi.

SHHT bilan bir qatorda bu muloqot maydonlari barchamiz uchun umumiy sheriklik makonini shakllantiradi.

Bu mintaqamizda zamonaviy taraqqiyotning eng muhim masalalari boʻyicha yondashuvlarni moslashtirishga xizmat qiladi.

Hurmatli yigʻilish ishtirokchilari!

Bizning fikrimizcha, Markaziy Osiyo bundan keyin ham SHHTning ustuvor yoʻnalishlaridan biri boʻlib qolishi zarur.

Bugungi kunda mintaqamiz nisbatan barqaror, ishonchli va iqtisodiy jihatdan mustahkam boʻlib bormoqda.

Bu keng miqyosli hamkorlik, muhim mintaqaviy loyihalarni ilgari surish uchun qulay sharoit va noyob imkoniyatlar yaratadi.

Xitoy – Qirgʻiziston – Oʻzbekiston temir yoʻli qurilishi shular jumlasidan. Bu oʻzaro savdoni rivojlantirish va mamlakatlarimizga investitsiyalar oqimini oshirishga kuchli turtki berishi shubhasiz.

Shu bilan birga, mintaqa barqarorligi ko'p jihatdan Afg'onistondagi vaziyat bilan belgilanadi. O'zbekiston afg'on muammosini tinch yo'l bilan hal etish jarayonini to'liq qo'llab-quvvatlaydi.

Bugun qabul qilinayotgan «SHHT – Afg'oniston» Muloqot guruhining harakatlariga doir «Yo'l xaritasi», shuningdek, ushbu mamlakatni ustuvor infratuzilma loyihalarini ilgari surish orqali mintaqaviy hamkorlikka jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, biz global tus olgan va millionlab insonlar hayoti, Markaziy Osiyo mamlakatlarining ekologik farovonligi va iqtisodiy taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan Orol inqirozi oqibatlarini bartaraf etish uchun sa'y-harakatlarni birlashtirish tarafdorimiz.

Mazkur muammoni hal etish uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligidagi Orolbo'yi mintaqasi uchun ko'p sheriklik Trast fondi tashkil etildi.

Bu yerda Ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi yaratish bo'yicha yaqin hamkorlik qilish niyatidamiz.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

SHHT doirasidagi amaliy hamkorlikni kengaytirishga oid takliflarim bilan o'rtoqlashmoqchiman.

Birinch. Hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha quyidagi muhim hujjatlarni ishlab chiqishni taklif qilamiz:

– o‘zaro aloqalar, samarali iqtisodiy va transport yo‘laklarini rivojlantirish bo‘yicha SHHT Hamkorlik strategiyasi;

– «Aqlli» qishloq xo‘jaligi va agroinnovatsiyalarni joriy etish sohasida o‘zaro hamkorlik konsepsiyasi.

Ikkinchi. Mamlakatlarimizda zamonaviy resurs tejovchi va ekologik toza texnologiyalarni keng joriy etish maqsadida SHHTning «Yashil belbog‘» dasturini qabul qilish dolzarb ahamiyatga ega, deb hisoblaymiz.

Uchinchi. Axborot texnologiyalari rivojlanishiga mas‘ul idoralar rahbarlarining muntazam uchrashuvlari mexanizmini joriy etish, shuningdek, kiberxavfsizlik masalalari bo‘yicha o‘zaro hamkorlik dasturini ishlab chiqishni taklif qilamiz.

To‘rtinchi. Mamlakatlarimiz ishbilarmon doiralari o‘rtasidagi aloqalarni faollashtirish maqsadida SHHTning Iqtisodiy forumini muntazam o‘tkazish tarafdorimiz. Ilk forumni Samarqand shahrida o‘tkazishga tayyormiz.

Beshinchi. SHHT doirasida parlamentlararo muloqotni tiklashga doir tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlaymiz. Ushbu yangi mexanizm Tashkilot imkoniyatlarini kengaytirib, faoliyatimizga parlamentariylar, siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyati institutlarini jalb qilish imkonini beradi.

Oltinchi. SHHT shahar va mintaqalarining tarixiy-madaniy merosini ommalashtirish va turistik salohiyatini yanada to‘liq namoyon etish muhim, deb hisoblaymiz.

Yana bir yaxshi an'anaga asos solishni taklif qilamiz: har yili Tashkilotda raislik qiluvchi mamlakatdagi shaharlardan birini SHHT sayyohlik va madaniy poytaxti, deb e'lon qilish.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Yana bir bor muhtaram Sooronbay Sharipovichga mehmondo'stlik va Sammitni yuksak darajada tashkil etgani uchun minnatdorlik bildiraman.

Muhtaram Vladimir Vladimirovichga Shanxay hamkorlik tashkilotiga raislik qilishda chin ko'ngildan muvaffaqiyatlar tilayman.

E'tiboringiz uchun rahmat!

*Shanxay hamkorlik tashkiloti davlat rahbarlari
kengashi majlisida so'zlangan nutq*

*Qirg'iziston Respublikasi, Bishkek shahri,
2019-yil 14-iyun*

MAMLAKATLAR VA XALQLAR O‘RTASIDAGI ISHONCH – XAVFSIZLIK VA BARQAROR TARAQQIYOTNING MUHIM SHARTIDIR

Muhtaram Emomali Sharipovich!

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Xonimlar va janoblar!

Tojikiston Respublikasi Prezidenti muhtaram Emomali Rahmonga Sammitni yuksak darajada tashkil etgani uchun alohida minnatdorlik izhor qilmoqchiman.

Bugungi kunda Kengash Osiyoda umumiy va bo‘linmas xavfsizlik hududi yaratish uchun nufuzli xalqaro platforma hisoblanadi.

Hurmatli Sammit ishtirokchilari!

Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimi tobora ortib borayotgan beqarorlik va kutilmagan hodisalar bilan izohlanadi.

Ulkan iqtisodiy va intellektual salohiyatga ega Osiyo qit‘asi mamlakatlari jiddiy xatarlarga duch kelmoqda.

Bu, avvalo, ekologiya, demografiya, migratsiya, hayot va ta’lim darajasi pastligi muammolaridir. Ular ijtimoiy nizolarning asosiy manbayi, ekstremizm va terrorizm mafkurasi tarqalishi uchun sharoit yaratadigan muhitdir. Ayniqsa, yoshlar o‘rtasidagi radikallashuv jarayoni tashvish uyg‘otadi.

Biroq eng muhimi, bugungi kunda jahon ishonch inqiroziga yuz tutmoqda. Zero, mamlakatlar va xalqlar o'rtasidagi ishonch xavfsizlik va barqarorlikning eng muhim shartidir.

Barchamiz jahon kuch markazlari o'rtasida raqobat kuchayib borayotganining guvohi bo'lmoqdamiz. Boz ustiga, ayrim ekspertlar, u hatto oshkora qurolli to'qnashuvga aylanib ketish ehtimolini ham inkor etmaydi.

Eng dahshatlisi, jamoat ongida ushbu global xatarning ulkan xavfini his qilish susayib bormoqda.

Nazarimizda, ishonch inqirozini bartaraf etish va xavfsizlikni mustahkamlash yo'lida, birinchi navbatda, inson kapitalini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish zarur.

Shu munosabat bilan o'zaro hurmat va jamoaviy mas'uliyatga asoslangan Kengashimiz faoliyati har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Osiyoda ishonch muhiti va xavfsizlikni yanada mustahkamlash uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim.

Birinchidan, Afg'onistondagi vaziyatni tartibga solish Osiyo mintaqasidagi barqarorlikning muhim omili hisoblanadi.

Biz tinchlikka erishishga qaratilgan har qanday formatdagi muzokaralarni qo'llab-quvvatlaymiz.

Bu borada Rossiya, Xitoy va Qo'shma Shtatlar ishtirokida Afg'oniston bo'yicha uch tomonlama uchrashuvlar natijalarini mamnuniyat bilan qayd etamiz.

Afg'onistonda tinchlik o'rnatish va ushbu mamlatda yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirish butun mintaqa uchun yangi strategik imkoniyatlar yaratishini alohida qayd etmoqchiman.

Ikkinchidan, yoshlar salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun qulay sharoit yaratish, ularning radikallashtiruviga qarshi kurashish va sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Bizning tashabbusimiz bilan BMT Bosh Assambleya-sining «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» rezolyutsiyasi qabul qilingan, shuningdek, Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiya ishlab chiqilmoqda.

Biz fan, ta'lim sohalari va madaniy-gumanitar yo'nalishdagi hamkorlikning muvofiqlashtiruvchisi bo'lishga tayyormiz. Xalq diplomatiyasi doirasidagi aloqalarni, jumladan, turizm bo'yicha forumlarni tashkil etish orqali faollashtirishni muhim deb hisoblaymiz. Shubhasiz, bu xalqlarimiz o'rtasidagi ishonch va o'zaro anglashuvning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Uchinchidan, dinlararo hamjihatlikni mustahkamlash, ma'rifat va madaniyatlarni o'zaro boyitish masalalari bo'yicha tizimli muloqotni yo'lga qo'yishni taklif qilamiz.

Xususan, Toshkentdagi O'zbekiston islom sivilizatsiyasi markazi va Samarqanddagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy

tadqiqot markazi buning uchun samarali platforma bo'lib xizmat qilishi mumkin.

To'rtinchidan, o'zaro iqtisodiy aloqalar va mintaqaviy savdoni rivojlantirish borasidagi sa'y-harakatlarni kuchaytirish lozim.

Bunda, avvalo, butun mintaqaning tranzit va iqtisodiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish imkonini beradigan ustuvor infratuzilma loyihalari haqida so'z bormoqda.

Beshinchidan, sheriklikni biznes darajasida rivojlantirish barqaror iqtisodiy taraqqiyot drayveri hisoblanadi.

Hamkorlik konsepsiyasiga muvofiq, ushbu sohada Kichik biznes bo'yicha mintaqaviy forum ta'sis etishni taklif qilamiz.

Va nihoyat, bugungi kunda tobora keskin tus olayotgan ekologik xatarlar ham xavfsizlik va barqaror taraqqiyotga jiddiy tahdiddir. Orol muammosi global miqyosdagi ekologik va gumanitar halokatdir. U allaqachon Orolbo'yi aholisi genofondi, hayoti va sog'lig'i bilan bog'liq ayanchli oqibatlarga olib keldi.

Orol inqirozi oqibatlarini bartaraf etish uchun sa'y-harakatlarni birlashtirish lozim, deb hisoblaymiz.

Ayni shu maqsadda O'zbekiston tashabbusi bilan BMT shafeligida donorlik mablag'larini jalb qilish va Orolbo'yi mintaqasida aniq loyihalarni amalga oshirish uchun ko'p sheriklik asosidagi Trast fondi tashkil etildi.

Muhtaram delegatsiyalar rahbarlari!

Hurmatli Kengash ishtirokchilari!

Barchamiz xavfsizlik – yaxlit tushuncha va ishonch esa uning fundamental asosi ekanini yaxshi anglaymiz.

Bu borada Osiyo mintaqasidagi hamkorlikning mavjud dinamikasini saqlab qolish muhim.

Hamkorlikda izlanish va o‘zaro manfaatli qarorlar qabul qilish tinchlik, barqarorlik va taraqqiyotni ta’minlash singari ezgu maqsadlarimizga erishish imkonini beradi.

E’tiboringiz uchun rahmat.

*Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha
Kengashning beshinchi sammitida so‘zlangan nutq*

*Tojikiston Respublikasi, Dushanbe shahri,
2019-yil 15-iyun*

TABRIK VA QUTLOVLAR

«O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘LLARI» AKSIYADORLIK JAMIYATI JAMOASIGA

Qadrli do‘stlar!

Hurmatli temiryo‘lchilar!

«O‘zbekiston temir yo‘llari» aksiyadorlik jamiyati tizimida mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilar, quruvchi va muhandislar, mashinist va vagon kuzatuvchilari, soha faxriylarini, samarali mehnati bilan mamlakatimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan barcha yurtdoshlarimizni O‘zbekiston Respublikasi temiryo‘l transporti xodimlari kuni bayrami bilan samimiy tabriklab, sizlarga o‘zimning ezgu tilaklarimni va chuqur hurmatimni izhor etaman.

O‘z kasbiga sadoqatli va fidoyi sizlar kabi minglab yurtdoshlarimizning sidqidildan qilayotgan mehnati, bilim va tajribasi tufayli temiryo‘l tarmog‘i xodimlari el-yurtimiz o‘rtasida haqli ravishda obro‘-e‘tibor va ehtiromga sazovor bo‘lib kelmoqda.

Ta’kidlash joizki, mamlakatimiz temiryo‘l tizimi mustaqil davlatimiz bilan birgalikda katta taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. O‘tgan chorak asr davomida puxta o‘ylangan, uzoq muddatga mo‘ljallangan strategiya asosida tarmoqni har tomonlama rivojlantirish bo‘yicha ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi.

«O'zbekiston temir yo'llari» aksiyadorlik jamiyati tashkil etilgan kundan buyon yuk tashish hajmi 2,1 marta, yo'lovchi tashish hajmi 2 barobar ko'paygani, temir-yo'llar orqali 1,5 milliard tonna yuk tashilib, 370 million nafar yo'lovchi o'z manziliga yetkazilgani sizlarning fidokorona mehnatingiz tufayli amalga oshirilgan ishlar salmog'i naqadar katta ekanining yaqqol tasdig'idir.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan Harakatlar strategiyasi doirasida barcha soha va tarmoqlar singari temiryo'l tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda.

Hozirgi vaqtda mamlakatimiz bo'yicha yuklarning 60 foizdan ziyodi, yo'lovchilarning esa 75 foizdan ortig'i temiryo'l transporti orqali manzillariga yetkazilayotganini inobatga oladigan bo'lsak, ushbu soha iqtisodiyotimiz rivojida qanday muhim va katta mavqeni egallab turganini yanada chuqurroq his qilamiz.

Tizimdagi sanoat korxonalari davr talabiga mos texnologiyalar bilan jihozlanib, ularda zamonaviy yo'lovchi va yuk vagonlari ishlab chiqarilmoqda. Bu esa mamlakatimizda tobora rivojlanib borayotgan transport mashinasozligi sohasida ham temiryo'lchilarimiz o'zining munosib o'rnini topganidan dalolat beradi.

Jumladan, birgina «Quyuv-mexanika zavodi» korxonasida harakatlanadigan tarkibni ta'mirlash bazasini rivojlantirish, vagonsozlikni tashkil etish va quyuv korxonasini rekonstruksiya qilishga qaratilgan katta ko'lamdagi loyihaning amalga oshirilishi natijasida yangi yuk vagonlari, ko'p tonnali konteynerlar ishlab

chiqarilishini kengaytirish va yuk vagonlarini kapital ta'mirlash va qayta tiklash ishlarini yanada jadallash-tirish imkoniyati yaratilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston temiryo'llari trans-mintaqaviy transport koridorlarining eng muhim bo'g'ini sifatida xalqaro temiryo'llar tashuvi tizimida munosib o'rin egalladi. Bu borada amalga oshirilgan katta ko'lam-dagi ishlarning barchasi iqtisodiyotimizda yuksak natijalarni qo'lga kiritishga asos bo'lmoqda. Temiryo'l-chilarimiz tomonidan istiqloq yillarida 1500 kilometrdan ortiq yangi temiryo'llarning barpo etilgani, 1800 kilo-metrlik temiryo'l liniyalarining elektrlashtirilgani mamlakatimizni modernizatsiya qilishda ulkan qadam bo'ldi.

Eng asosiysi, bu o'zgarishlar xalqimiz hayotida o'zining ijobiy samarasini ko'rsatmoqda.

E'tiborli jihati shundaki, bunday ishlarimiz bugungi kunda ham izchillik bilan davom ettirilmoqda. Jumladan, hozirgi vaqtda Toshkent metropolitenining «Sergeli – Olmazor», «Do'stlik–Rohat–Qo'yliq bozori» yo'nalish-larida Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan yer usti halqa metro liniyalarini qurish ishlari jadal sur'atlar bilan olib borilayotganidan jamoatchiligimiz yaxshi xabardor.

«O'zbekiston temir yo'llari» aksiyadorlik jamiyati-niing ko'pmillatli jamoasi temiryo'l transporti kom-munikatsiyalarini rivojlantirish, takomillashtirish va rekonstruksiya qilish, temiryo'l orqali yuk va yo'lovchi tashish xavfsizligini ta'minlash borasida ham salmoqli ishlarni amalga oshirmoqda.

maqsadida uzoq muddatli imtiyozli kreditlar berish, ularning oila a'zolariga tadbirkorlik faoliyati uchun imtiyozli kreditlar ajratish tizimi yo'lga qo'yildi.

Ana shu ishlarning davomi sifatida shu yil 5-sentabrda qabul qilingan **«Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»**gi Prezident farmoni soha taraqqiyotida yangi ufqlar ochib beradi, deb o'ylayman.

Farmonda, jumladan, xalq ta'limi muassasalarini boshqarish tizimini takomillashtirish, moddiy-texnik va o'quv-metodik bazasini mustahkamlash, nodavlat umumta'lim maskanlari tarmog'ini yanada rivojlantirish, «Zamonaviy maktab» davlat dasturini tayyorlash, ishlab turgan pensioner o'qituvchilarga pensiyalarini to'liq miqdorda to'lash kabi masalalar aniq belgilab qo'yilganidan sizlar albatta xabardorsiz.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishga ham ustuvor ahamiyat berilmoqda. Yangi oliy o'quv yurtlari bilan birga chet eldagi nufuzli universitetlarning filiallari ochilmoqda, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalari oshirilmoqda, ko'pgina yo'nalishlar bo'yicha sirtqi bo'limlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Bularning barchasi ta'lim-tarbiya jarayonlarining sifati va darajasini zamon talablari asosida tubdan yaxshilash, zahmatkash ustozlarimiz, mazkur sohada faoliyat ko'rsatayotgan barcha fidoyi insonlar uchun munosib mehnat sharoitlari yaratish, ularning qadr-

Temiryo‘lchilarimiz yana bir yo‘nalish – ko‘mir sanoatini texnik jihatdan qayta jihozlash, modernizatsiya qilish, kon ishlarining samaradorligini oshirish, resurslarni tejaydigan yangi, progressiv texnologiyalarni joriy etish, aholiga ko‘mir mahsulotlarini yetkazib berish ishlarida ham o‘zlarining yuqori salohiyatini namoyon etmoqdalar.

Sizlarning fidokorona mehnat qilib, uzog‘imizni yaqin qiladigan ravon yo‘llar, Toshkent shahrida va yurtimizning boshqa hududlarida o‘nlab zamonaviy ko‘priklar qurib, Vatanimiz obodligiga munosib hissa qo‘shayotganingiz alohida tahsinga sazovor.

Shuningdek, temiryo‘l sohasi ishchi-xodimlarining «Obod qishloq», «Obod mahalla» dasturlari doirasida ijtimoiy sohada, xususan, tabiiy sharoiti, iqlimi og‘ir hududlarga toza ichimlik suvi yetkazib berish, qishloq va mahallalarni obod qilish, xalqimiz farovonligini oshirish, arzon uy-joylar, ta’lim-tarbiya, sog‘liqni saqlash muassasalari, madaniyat va sport maskanlarini barpo etish yo‘lida olib borayotgan ezgu ishlarini mamnuniyat bilan ta’kidlashni istardim.

O‘zbekiston temiryo‘l tarmog‘ining kelajagi, avvalo, sohaga zamonaviy bilimga ega, ilg‘or texnologiyalarni puxta o‘zlashtirgan, o‘z kasbiga sodiq, Vatanimizga farzandlik mehri bilan yashaydigan yosh mutaxassis va ishchilarni keng jalb etish bilan bevosita bog‘liqdir.

Yurtimizdagi 3 ta temiryo‘l kasb-hunar kolleji, akademik litsey va Toshkent temiryo‘l muhandislari institutini har yili 3 mingdan ziyod yosh mutaxassislar

tamomlab, hayotga yo‘llanma olayotgani mamlakatimiz temiryo‘l transportining kelgusi taraqqiyoti uchun ishonchli poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ayni vaqtda sizlarning oldingizda yuk va yo‘lovchi tashish hajmini oshirish bilan bir qatorda, hududlarning iqtisodiy salohiyatini yanada yuksaltirish, boy mineral-xomashyo resurslarini kompleks o‘zlashtirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, tarmoq korxonalari uchun mutaxassislar tayyorlash, iqtisodiyot tarmoqlari va aholining ko‘mir mahsulotlariga tobora o‘sib borayotgan talabini qondirishga yo‘naltirilgan investitsiyaviy loyihalarni amaliyotga tatbiq etish kabi muhim va ustuvor vazifalar turibdi.

Ishonamanki, 87 ming nafardan ortiq yuqori malakali, o‘z kasbiga sadoqatli, fidoyi va ilg‘or temiryo‘lchilar jamoasi bu vazifalarni chuqur his etgan holda, o‘zlarining bor bilim, malaka va kuch-g‘ayratlarini safarbar etib, zimmalaridagi burchlarini sharaf bilan ado etadilar.

Hurmatli temiryo‘l transporti xodimlari!

Sizlarni kasb bayramingiz bilan yana bir bor chin qalbindan tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, olijanob faoliyatingizda va shaxsiy hayotingizda yutuq va omadlar, oilalaringizga baxt-u saodat, fayz-u baraka tilayman.

*Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
2018-yil 3-avgust*

**«O‘ZBEK MUMTOZ VA ZAMONAVIY
ADABIYOTINI XALQARO MIQYOSDA
O‘RGANISH VA TARG‘IB QILISHNING
DOLZARB MASALALARI» MAVZUSIDAGI
XALQARO KONFERENSIYA
ISHTIROKCHILARIGA**

Hurmatli konferensiya qatnashchilari!

Qadrli do‘stlar!

Xonimlar va janoblar!

Avvalambor, siz azizlarni – dunyoning olis va yaqin turli qit’a va mintaqalaridan yurtimizga tashrif buyurgan muhtaram mehmonlarimizni bugungi adabiy anjuman-ning ochilishi bilan chin qalbindan muborakbod etaman.

Sizlarning ushbu nufuzli xalqaro konferensiyadagi ishtirokingizni biz birinchi navbatda o‘zbek xalqiga, uning qadimiy va boy ma’naviy merosiga, zamonaviy adabiyotiga bo‘lgan chuqur hurmat va e’tiborning amaliy ifodasi sifatida qabul qilamiz.

Biz sizlarning har biringizni o‘zbek adabiyoti va madaniyatining mohir bilimdoni va jonkuyar targ‘ibot-chisi, O‘zbekistonning chinakam do‘sti, ma’naviyat sohasidagi ishonchli hamkorimiz deb bilamiz va sizlarning olijanob faoliyatingizni yuksak baholaymiz.

Fursatdan foydalanib, milliy adabiyotimizni o‘z yurtingizda va xalqaro maydonda beg‘araz targ‘ib va tashviq etib kelayotganingiz uchun barchangizga samimiy

minnatdorlik izhor etishni o'zimning sharaflı burchim, deb bilaman.

Muhtaram anjuman ishtirokchilari!

G'oyat muhim va dolzarb mavzuga bag'ishlangan ushbu konferensiya O'zbekiston Respublikasining mustaqillik bayrami arafasida bo'lib o'tayotgani o'ziga xos ramziy ma'noga ega.

Bundan yigirma yetti yil oldin xalqimizning xohish-irodasi va azm-u qarori bilan qo'lga kiritilgan milliy mustaqillik biz uchun jahon xalqlarining erkin va ozod oilasiga teng huquqli a'zo bo'lib kirish, dunyo hamjamiyati bilan barcha sohalarda, jumladan, madaniy-gumanitar sohada samarali hamkorlik o'rnatish imkonini yaratib berdi.

Bugungi kunda O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga qadam qo'ymoqda. Biz milliy tiklanishdan – milliy yuksalishga erishishni o'z oldimizga eng muhim va ustuvor vazifa qilib qo'ydik. Bu ulug' maqsadga esa jahon ahli bilan hamjihat va hamkor bo'lib yashash, ochiq demokratik jamiyat qurish, hayotimizda milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini yanada keng qaror toptirish orqaligina erishish mumkinligini biz yaxshi anglaymiz.

Ayni shu nuqtayi nazardan qaraganda, o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilish, ko'pqirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish, o'ylaymanki, katta ahamiyatga ega.

Ayniqsa, hozirgi notinch va tahlikali zamonda butun bashariyat oldida paydo bo'layotgan, biz ilgari duch kelmagan g'oyat murakkab muammolar, global xavf-xatarlarni birgalikda bartaraf etish, shu yo'lda barcha ezgu niyatli insonlarni birlashtirishda, dunyo aholisining qariyb uchdan bir qismini tashkil etadigan yoshlarni gumanistik g'oyalar ruhida tarbiyalashda badiiy so'z san'atining o'rni va mas'uliyatini har qachongidan ham yuksaltirish zarurligini bugun hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Bu borada O'zbekistonda amalga oshirilayotgan e'tiborga molik ishlar, xususan, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat, san'at va adabiyot sohalarini izchil rivojlantirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida ilm va ijod ahlini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kitobxonlik madaniyatini oshirish kabi vazifalar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangani haqida sizlar konferensiya ishi davomida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lasiz, deb o'ylayman.

Bu haqda gapirganda, bir fikrga alohida urg'u berishni o'rinli, deb bilaman.

Biz O'zbekistonda **«Adabiy do'stlik – abadiy do'stlik»** degan chuqur ma'noli tamoyilga amal qilgan holda, jahon adabiyotining durdona asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish va nashr etish masalasiga g'oyat jiddiy e'tibor qaratmoqdamiz.

Yurtimizda dunyo adabiyotining bebaho mulki bo'lgan ming-minglab asarlar tarjima qilinib, kitobxonlar qalbidan joy olgani, badiiy tarjima va tarjimashunoslik bo'yicha o'ziga xos ijodiy maktab shakllanganini alohida ta'kidlash lozim.

Shu bilan bir qatorda, asrlar davomida komil inson tarbiyasi, adolatli jamiyat, shaxs erkinligi, Vatan ozodligi, bunyodkorlik, bag'rikenglik va baynalmilalchilik, odamiylik kabi o'lmas fazilatlarni tarannum etib kelayotgan mumtoz va zamonaviy adabiyotimizning eng sara namunalarini xorijiy tillarga o'girish va chet ellarda targ'ib etish bo'yicha ham mamlakatimizda katta ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada respublikamiz ta'lim muassasalarida o'zbek tili bilan birga qoraqalpoq, rus, tojik, qozoq, qirg'iz, turkman tillarida ta'lim berish yo'lga qo'yilgani, oliy o'quv yurtlarimizda ingliz, fransuz, nemis, ispan, yapon, xitoy, koreys, arab filologiyasi maxsus fan sifatida o'qitilayotgani muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ayni vaqtda bu sohada ham oldimizda ko'pgina dolzarb va muhim vazifalar turganini ham qayd etish zarur. Xususan, hozirga qadar jahon adabiyotidan ona tilimizga tarjima qilingan aksariyat asarlar vosita tillar orqali amalga oshirilgan va bu hol bugungi kunda ham davom etmoqda. Yosh tarjimonlarimiz asliyat tilini yaxshi bilsalar-da, ko'p hollarda ularda badiiy mahorat yetishmayapti. Xuddi shunday holatni o'zbek adabiyoti namunalarini boshqa tillarga tarjima qilish sohasida ham kuzatish mumkin.

Bugun mamlakatimizda sizlarning faol sa'y-harakatingiz bilan birinchi bor o'tkazilayotgan ushbu xalqaro konferensiya mana shunday muhim ijodiy muammolarni atroflicha muhokama qilish, bu borada xalqaro tajriba, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Internet imkoniyatlaridan yanada keng-

roq foydalanish, do'stlik aloqalarini tiklash va mustahkamlash, ijodiy uyushmalar, adabiy nashrlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, o'zaro bordi-keldilarni yo'lga qo'yishga doir amaliy takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi, deb ishonaman.

Bu muhim yo'nalishda biz sizlar bilan har tomonlama samarali hamkorlik qilishga doimo tayyormiz. Jumladan, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshida sizlarning ishtirokingizda **O'zbek adabiyotining xorijiy do'stlari** kengashini tuzish va uning faoliyatini tizimli asosda tashkil etish bu yo'ldagi dastlabki amaliy qadam bo'lishi mumkin.

Muhtaram do'stlar!

Bundan yuz yil muqaddam buyuk o'zbek shoiri Abdulhamid Sulaymon o'g'li – Cho'lpon «**Adabiyot yashasa, millat yashar!**» degan otashin da'vat bilan maydonga chiqqan edi.

Hayot va tarix sinovlaridan o'tgan teran ma'noli bu so'zlar bugun ham o'z ahamiyati va qimmatini yo'qotgan emas. Darhaqiqat, adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi.

Mana shunday ezgu va sharaflı ishga o'z hayotini bag'ishlagan siz, azizlarga sihat-salomatlik, ijodiy yutuqlar, baxt va omad, konferensiya ishiga muvaffaqiyat tilayman.

*Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti*

2018-yil 7-avgust

MAMLAKATIMIZ QURILISH SOHASI XODIMLARIGA

Muhtaram do'stlar!

Hurmatli quruvchilar!

Siz, azizlarni – mamlakatimizning qurilish sohasini ravnaq toptirishga munosib hissa qo'shib kelayotgan barcha yurtdoshlarimizni bugungi kasb bayramingiz – Qurilish sohasi xodimlari kuni bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etaman.

Mana shu qutlug' ayyomda sizlarga o'z nomimdan, xalqimiz nomidan ezgu tilaklar va chuqur minnatdorlik bildiraman.

Biz sizlarning timsolingizda o'z mehnati bilan shahar va qishloqlarimizda, butun yurtimizda yangi ishlab chiqarish korxonalari, muhim ijtimoiy obyektlar, muhtasham uy-joylar, yo'l va ko'priklar barpo etib, hayotimizni yanada obod, go'zal va tarovatli etish yo'lida fidokorona mehnat qilib kelayotgan olijanob kasb egalarini ko'ramiz.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda, butun mamlakatimiz kabi, qurilish sohasi ham o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko'tarilmoqda.

Iqtisodiyotimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar, ijtimoiy hayotimizdagi ulkan o'zgarishlar, jumladan, «Obod qishloq», «Obod mahalla» dasturlari doirasida belgilab olgan vazifalarimiz soha rivojini mutlaqo

yangicha tarzda, zamonaviy ilm-fan va innovatsiya yutuqlari asosida tashkil etishni talab etmoqda.

Bunyodkorlik yo‘nalishidagi ishlarimizning miqyosi va ko‘lamini birgina «Obod qishloq» davlat dasturi doirasida mamlakatimizdagi 159 ta tumanda 416 ta qishloqni obodonlashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan bosh rejalar asosida qisqa muddatda 320 ta maktab, 231 ta maktabgacha ta’lim, 148 ta sog‘liqni saqlash muassasasi va 77 ta mahalla fuqarolar yig‘ini binolari, ko‘plab ko‘cha va maydonlar, jamoat maskanlarida katta qurilish ishlari olib borilayotganida ko‘rish mumkin.

Bu borada davlat – xususiy sheriklik munosabatlari, qurilish tashkilotlari va aholi hamkorligi kabi yangicha faoliyat shakllari samarali qo‘llanayotganini alohida ta’kidlash lozim.

«Obod mahalla» dasturi bo‘yicha 2018-yilda mamlakatimizning 148 ta mahallasida ta’mirlash, ichimlik suvi, elektr, tabiiy gaz tarmoqlari, ichki yo‘llar, ijtimoiy soha va bozor infratuzilmasi obyektlarida qurilish-ta’mirlash ishlari boshlanib, o‘zining dastlabki natijalarini berayotgani barchamizni albatta quvontiradi.

Butun yurtimizni qamrab olgan ana shunday salmoqli ishlarda, shuningdek, bu yil namunaviy loyihalar asosida quriladigan 3,5 million kvadrat metrdan iborat 28 435 ta arzon uy-joylarni barpo etishda biz, avvalo, sizlarning professional malakangiz, bilim va tajribangiz, yuksak mahoratingizga tayanamiz.

Xalqimizning hayot sifati va darajasini oshirishga bevosita xizmat qiladigan bunday ezgu ishlar haqida

gapirganda, aholi punktlarini qurishda kompleks yondashuv asosida uy-joy, turli bino va inshootlar bilan birga hududlarda ijtimoiy infratuzilma obyektlari, savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalari, ta'lim, tibbiyot va madaniyat muassasalari, yangi istirohat bog'lari va xiyobonlar, favvoralar, bolalar maydonchalari va sport maskanlari bunyod etilayotganini mamnuniyat bilan ta'kidlash lozim.

2018-yilgi Investitsiya dasturi bo'yicha 1 114 ta ijtimoiy soha obyektlarida keng ko'lamli qurilish, rekonstruksiya va kapital ta'mirlash ishlari olib borilmoqda.

Bugungi kunda «sahrodagi mo'jiza» deb e'tirof etilayotgan Qandim gazni qayta ishlash kompleksi, yurtimizdagi yangi-yangi erkin iqtisodiy zonalar, sanoat hududlaridagi yirik obyektlar qurilishi, turli kommunikatsiya tarmoqlari – bularning barchasi sizlarning mashaqqatli va sharaflı mehnatingiz natijasi ekanini xalqimiz yaxshi biladi va yuksak qadrlaydi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda qurilish materiallari sanoati jadal rivojlanib borayotgani ham soha taraqqiyotida muhim rol o'ynamoqda. Birgina uy-joy binokorligida foydalanilayotgan sifatli qurilish materiallari-ning 95 foizi mahalliy korxonalarda ishlab chiqarilayotgani buni yaqqol tasdiqlaydi. Eng muhimi, bunday o'zgarishlar qad ko'tarayotgan imoratlarning mustahkamligini va narxi nisbatan arzonligini ta'minlashga, yangi ish o'rinlari yaratishga xizmat qilmoqda.

Ayni paytda zamon, islohotlarimizning o'zi barcha jabhalar qatori ushbu sohada ham yangi, yanada dolzarb vazifalarni oldimizga qo'yimoqda.

Xususan, aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, qishloqlarni tuman markazlari bilan bog'laydigan zamonaviy yo'llar qurish, namunaviy loyihalar asosida yangi bog'chalar, maktablar, oilaviy poliklinikalar barpo etish, bozor infratuzilmasi obyektlari va servis shoxobchalarini ko'paytirish, aholi va pudrat tashkilotlar, tadbirkorlik subyektlarini qurilish materiallari bilan markazlashgan holda ta'minlash tizimini yo'lga qo'yish, qurilish bozorini yangi innovatsion xizmatlar bilan to'ldirib borish, soha uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash kabi masalalar biz uchun g'oyat dolzarbdir.

Ishonaman, qo'li gul, azm-u shijoatli O'zbekiston quruvchilari bor bilim va tajribasi, kuch va imkoniyatlarini safarbar etib, bunday ulug'vor vazifalarni albatta sharaf bilan ado etadilar.

Aziz va muhtaram qurilish sohasi xodimlari!

Sizlarni kasb bayramingiz bilan yana bir bor chin qalbindan tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt va xonadonlaringizga fayz-u baraka tilayman.

Yurtimiz obodligi, xalqimiz farovonligi yo'lida olib borayotgan xayrli ishlaringizda doimo yutuq va muvaffaqiyatlar yor bo'lsin!

*Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti*

2018-yil 10-avgust

**«MARKAZIY OSIYO XALQARO
TRANSPORT YO‘LAKLARI TIZIMIDA:
STRATEGIK ISTIQBOLLAR VA
FOYDALANILMAGAN IMKONIYATLAR»
XALQARO KONFERENSIYASI
ISHTIROKCHILARIGA**

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari va mehmonlari!
Xonimlar va janoblar!

Markaziy Osiyo mintaqasining transport masalalariga bag‘ishlangan xalqaro forumda ishtirok etayotgan siz, azizlarning barchangizni O‘zbekiston zaminida chin dildan qutlashga ijozat bergaysiz.

Bugungi konferensiyada ishtirok etayotgani uchun mehmonlarimiz – xalqaro tashkilotlar, moliyaviy tuzilmalar, diplomatik missiyalar rahbarlariga samimiy minnatdorlik bildiraman.

Avvalo, Markaziy Osiyo mamlakatlari rahbarlari-ning umumiy sa’y-harakatlari bilan qisqa muddatda mintaqamizda o‘zaro ishonch va yaxshi qo‘shnichilikka asoslangan yangi siyosiy muhit shakllanganini qayd etishni istardim. Barcha darajadagi muloqotlar faollashdi, amaliy, o‘zaro manfaatli va ko‘pqirrali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish borasida muhim tarixiy qadamlar tashlandi. Shu yil 15 mart kuni Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining birinchi maslahat uchrashuvi buning yorqin dalilidir.

2018-yil 22-iyun kuni BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus rezolyutsiya qabul qilingani mintaqaviy hamkorlikning yangi bosqichini boshlab beradigan tarixiy voqea bo'ldi.

Markaziy Osiyodagi barcha mamlakatlarning hamkorlikka samimiy intilishi va umumiy kelajak uchun mas'uliyatni his etishi mintaqamizning barqaror taraqqiyoti va farovonligining mustahkam kafolatidir.

Savdo-iqtisodiy, energetika va madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorlik yangi sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Suv-energetika resurslaridan oqilona foydalanish, davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalarida o'zaro maqbul qarorlar qabul qilishga erishildi. Transport sohasidagi turli cheklov va to'siqlarni bartaraf etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mintaqa mamlakatlari o'rtasida viza va bojxona tartib-taomillari soddalashtirildi, qo'shimcha o'tkazish punktlari ochildi, avtomobil, temiryo'l va havo transporti qatnovlari tiklandi va bu borada o'nlab yangi yo'nalishlar yo'lga qo'yildi.

Ammo, hayotning o'zi bunday chora-tadbirlar yetarli emasligini ko'rsatmoqda.

Eng yirik xalqaro bozorlarni o'zaro bog'lab turgan Markaziy Osiyoning muhim geostrategik joylashuvini hisobga olgan holda, mintaqamizning xalqaro transport yo'laklari tizimiga integratsiyalashuvini jadallashtirish maqsadida mamlakatlarimiz sa'y-harakatlarini birlashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda dengiz portlariga to'g'ridan to'g'ri chiqish imkoniga ega bo'lmagan mintaqa davlatlarining transport-tranzit xarajatlari sezilarli darajada katta bo'lib, ular eksport qilinayotgan mahsulot qiymatining 70–80 foizigacha yetmoqda.

Bojxona tartib-taomillarining mukammal emasligi oqibatida yuk tashuvchilar tovarlarni yetkazib berishga ketadigan vaqtning 40 foizgacha bo'lgan qismini behuda yo'qotmoqda. Jahon bankining logistika sohasidagi samaradorlik indeksiga ko'ra, Markaziy Osiyo mamlakatlari 167 davlat orasida quyi o'rinlarni egallab kelmoqda. Bularning barchasi butun mintaqa transport sektori raqobatbardoshligining pasayishiga olib kelmoqda.

Shu munosabat bilan Toshkentda o'tayotgan konferensiya Markaziy Osiyoda yangi integratsiya jarayonlarini boshlash nuqtayi nazaridan muhim rol o'ynashi mumkin.

Mamlakatlarimiz oldida tranzit salohiyatini yanada rivojlantirish va milliy iqtisodiyotlar tarkibida transport sohasi ulushini oshirish vazifasi turibdi. Transport infratuzilmasiga zamonaviy texnologiyalar va xorijiy investitsiyalarni jalb etish, yangi istiqbolli transport yo'laklarini shakllantirish mazkur vazifani amaliy jihatdan hal etishga yordam beradi.

BMT ekspertlarining hisob-kitoblariga ko'ra, Markaziy Osiyo mamlakatlarining kooperatsiya aloqalarini samarali yo'lga qo'yish natijasida mintaqa yalpi ichki mahsuloti o'n yilda kamida ikki barobar ko'payishi mumkin.

Shuni hisobga olib, biz Ashxobod bitimi doirasida Rossiya – Qozog‘iston – O‘zbekiston – Turkmaniston – Eron – O‘mon – Hindiston submintaqaviy transport yo‘lagini shakllantirishni boshladik.

Biz O‘zbekiston – Qirg‘iziston – Xitoy temiryo‘li qurilishi tez fursatda boshlanishiga katta umid bildiramiz. Istiqbolda bu yo‘l «Sharq-G‘arb» loyihasi doirasida Xitoydan boshlanadigan, Qirg‘iziston va O‘zbekiston orqali o‘tadigan, keyinchalik yangi barpo etilgan Boku – Tbilisi – Kars temiryo‘l magistrali orqali Janubiy va Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq mamlakatlari va O‘rta yer dengizi portlariga olib chiqadigan yangi transport yo‘lagining muhim bo‘g‘ini bo‘lib qoladi.

Mintaqaviy yo‘laklarni rivojlantirish haqida so‘z borganda, ushbu jarayonga Afg‘onistonni jalb etish muhim ekanini qayd etmasdan o‘tolmaymiz. Qurib bitkazilgan Hayraton – Mozori Sharif temiryo‘li va loyihalashtirilayotgan Mozori Sharif – Hirot magistrali «Shimol-Janub» loyihasi doirasida Eron, Pokiston va Hindiston temiryo‘llariga hamda Choxbahor va Gvadar portlariga olib chiqadigan yangi transport yo‘lagini shakllantirish imkonini beradi.

Hurmatli forum ishtirokchilari!

Mintaqamiz mamlakatlarini xalqaro, jumladan, dengiz orqali yuk tashish tizimiga integratsiya qilish xususida so‘z yuritar ekanmiz, ayni vaqtda ushbu ijobiy jarayonga qator omillar to‘siq bo‘layotganini qayd etish lozim.

Bu, avvalo, Markaziy Osiyoda transport qatnovini rivojlantirish, to'siqlarni bartaraf etish, mintaqa davlatlarining viza, tranzit va bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, tarif siyosatini uyg'unlashtirish, transport infratuzilmasini takomillashtirish, istiqbolli transport yo'laklarini shakllantirish bo'yicha yagona qarash va yondashuvlar mavjud emasligi bilan bog'liq.

Shu munosabat bilan quyidagilarni taklif etamiz:

Birinchidan, Jahon banki, Osiyo va Islom taraqqiyot banklari, boshqa xalqaro institutlar ekspertlari yordamida Markaziy Osiyoning mintaqaviy transport yo'laklarini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va shu asosda Markaziy Osiyo transport tizimini barqaror rivojlantirish bo'yicha mintaqaviy dastur qabul qilish zarur, deb o'ylaymiz.

Ikkinchidan, mintaqa mamlakatlari Shanxay hamkorlik tashkiloti faoliyatida muhim rol o'ynashini hisobga olib, ushbu tashkilot doirasida transportda yuk tashish jarayonlarini integratsiyalashtirgan holda boshqarish tizimini yaratish lozim.

Uchinchidan, transport-logistika sohasida mavjud muammolarni hal etishda muvofiqlashtiruvchi tuzilma bo'ladigan Markaziy Osiyo mamlakatlari transport kommunikatsiyalari bo'yicha mintaqaviy kengashni shakllantirish maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, mintaqaning turizm jozibadorligini oshirish maqsadida transport kommunikatsiyalari va infratuzilmasini birgalikda rivojlantirish zarur. Jahon

turizm tashkiloti bilan birgalikda Markaziy Osiyoda turizm xablarini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish ayni shu maqsadga xizmat qilgan bo'lar edi.

Umid qilamanki, anjumanda ma'qullanadigan ana shu va boshqa tashabbuslarni amalga oshirish Markaziy Osiyoda barqarorlikni ta'minlashda, uni iqtisodiy rivojlangan mintaqaga aylantirishda, eng muhim xalqaro transport-tranzit markazlaridan biri sifatida mintaqamizning jahon transport xizmatlari bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Bugungi konferensiya natijalari mintaqamizni xalqaro transport yo'laklari tizimiga integratsiya qilishga doir yangi yondashuv va ustuvor yo'nalishlarni ishlab chiqish, Markaziy Osiyoning ishga solinmagan ulkan salohiyatini mamlakatlarimiz va xalqlarimizning umumiy manfaatlari yo'lida safarbar etishda foydali bo'lishiga ishonaman.

*Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti*

2018-yil 20-sentabr

O'ZBEKISTON O'QITUVCHI VA MURABBIYLARIGA

Muhtaram ustozlar!

Qadrli do'stlar!

Siz, azizlarni, sizlarning timsolingizda o'z hayotini yosh avlod tarbiyasidek sharaflı ishga bag'ishlagan barcha yurtdoshlarimizni 1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan samimiy muborakbod etaman.

Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyniing: **«Inson tafakkurining quvvati va kengligi avvalo muallim tarbiyasiga bog'liq»** degan so'zlari sizlarning mashaqqatli, ayni vaqtda olijanob faoliyatingizga berilgan yuksak bahodir, desak, o'ylaymanki, adashmagan bo'lamiz.

Haqiqatan ham, biz o'zimizdagi jamiki yaxshi fazilatlar, hayotda erishayotgan barcha yutuqlarimiz uchun siz, azizlardan umrbod qarzdormiz.

Ushbu qutlug' ayyomda sizlarning sha'ningizga eng go'zal so'zlar, ezgu tilaklarimizni izhor etar ekanmiz, barchamizning kamol topishimiz, jamiyatda munosib o'rin egallashimizda bor bilim va tajribasini, qalb haroratini baxsh etib kelayotgan mehridaryo ustozlarimizga chin yurakdan minnatdorlik bildiramiz.

Hurmatli do'stlar!

Barchamiz yaxshi tushunamiz, ta'lim-tarbiya – har qaysi davlat va jamiyatning nafaqat bugungi, balki ertangi kunini ham hal qiladigan eng muhim va ustuvor masaladir.

Shuning uchun mamlakatimizda bu masalaga davlat miqyosida ulkan e'tibor qaratilmoqda.

Bu haqda gapirganda, oxirgi vaqtda mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini mutlaqo yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladigan bir necha muhim qarorlar haqida alohida to'xtalishni o'rinli, deb bilaman.

Avvalo, 2017-yil 30-sentabrda qabul qilingan Prezident qaroriga muvofiq yurtimizda birinchi marta Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi. Shu asosda o'tgan qisqa davrda ushbu tizim tubdan yangicha negizda tashkil etilgani, 980 dan ortiq bog'cha qurilib, ishga tushirilgani, bu maskanlarda ta'lim-tarbiya ishlari mazmun va sifat jihatidan eng ilg'or usul va vositalar yordamida olib borilayotganini qayd etish lozim.

Yana bir muhim hujjat – 2018-yil 14-avgustda qabul qilingan Prezident qaroriga binoan boshlang'ich va yuqori sinf o'qituvchilarining maoshlari tenglashtirildi, yangi yildan boshlab mutaxassis o'qituvchilarning oshirilgan oylik ish haqi miqdori 54 foizga, oliy toifali pedagoglarniki esa 64 foizga yetishi ko'zda tutilmoqda.

Shu bilan birga, pedagog xodimlarni namunaviy arzon uy-joylar, avtotransport vositalari bilan ta'minlash

maqsadida uzoq muddatli imtiyozli kreditlar berish, ularning oila a'zolariga tadbirkorlik faoliyati uchun imtiyozli kreditlar ajratish tizimi yo'lga qo'yildi.

Ana shu ishlarning davomi sifatida shu yil 5-sentabrda qabul qilingan **«Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»**gi Prezident farmoni soha taraqqiyotida yangi ufqlar ochib beradi, deb o'ylayman.

Farmonda, jumladan, xalq ta'limi muassasalarini boshqarish tizimini takomillashtirish, moddiy-texnik va o'quv-metodik bazasini mustahkamlash, nodavlat umumta'lim maskanlari tarmog'ini yanada rivojlantirish, «Zamonaviy maktab» davlat dasturini tayyorlash, ishlab turgan pensioner o'qituvchilarga pensiyalarini to'liq miqdorda to'lash kabi masalalar aniq belgilab qo'yilganidan sizlar albatta xabardorsiz.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishga ham ustuvor ahamiyat berilmoqda. Yangi oliy o'quv yurtlari bilan birga chet eldagi nufuzli universitetlarning filiallari ochilmoqda, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalari oshirilmoqda, ko'pgina yo'nalishlar bo'yicha sirtqi bo'limlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Bularning barchasi ta'lim-tarbiya jarayonlarining sifati va darajasini zamon talablari asosida tubdan yaxshilash, zahmatkash ustozlarimiz, mazkur sohada faoliyat ko'rsatayotgan barcha fidoyi insonlar uchun munosib mehnat sharoitlari yaratish, ularning qadr-

qimmatini yuksaltirishga qaratilgani bilan ayniqsa ahamiyatlidir.

Yurtimizda joriy yil Investitsiya dasturi doirasida 356 ta ta'lim muassasasida 684 milliard 700 million so'mlik, «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlari bo'yicha esa 371 ta umumta'lim maktabida 424 milliard so'mdan ziyod qurilish-rekonstruksiya va ta'mirlash ishlari amalga oshirilmoqda.

Bu haqda so'z yuritganda, shu yil avgust oyiga qadar davlat budjetidan 12 trillion 366 milliard so'm yoki yalpi xarajatlarning 26 foizdan ziyodi aynan ta'lim-tarbiya sohasiga yo'naltirilganini hisobga oladigan bo'lsak, ushbu tizimdagi islohotlarimizning ko'lami va miqyosi yanada yaqqol ayon bo'ladi.

Albatta, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ana shunday ulkan ishlarning amaliy ta'siri va natijadorligini ta'minlashda o'qituvchi va murabbiylarning o'rni va roli beqiyos ekanini hammamiz yaxshi tushunamiz.

Shuning uchun ham yoshlarni milliy va umum-bashariy qadriyatlar ruhida, zamonaviy bilim va kasb-hunarlar, xorijiy tillarni puxta egallagan, Vatanimiz va xalqimizga sadoqatli insonlar etib voyaga yetkazishda avvalo sizlarga tayanamiz.

Ayniqsa, butun dunyoda murakkab va tahlikali vaziyat hukm surayotgan hozirgi vaqtda yoshlar hayotiga tahdid solayotgan xavf-xatarlarning oldini olish, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashishda sizlarning ibratli faoliyatingiz ulkan ahamiyatga ega.

Shu boradagi o'ta mas'uliyatli vazifalar sizlardan o'z ustingizda tinimsiz ishlash, farzandlarimizni yangicha tafakkur, yuksak insoniy tuyg'ular bilan oshno etish, ularda mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatini uzluksiz rivojlantirib borishni talab etmoqda.

Ishonchim komil, millati, tili va dinidan qat'i nazar, Vatanimizning har bir farzandini o'z bolasidek sevib, ardoqlab, ularni barkamol insonlar etib tarbiyalash uchun sidqidildan mehnat qilayotgan siz, hurmatli O'zbekiston o'qituvchi va murabbiylari bu vazifalarni albatta sharaf bilan ado etasiz.

Bu yo'lda sizlarni doimo qo'llab-quvvatlash, barcha zarur sharoitlarni yaratib berish uchun davlatimiz va jamiyatimiz o'zining bor kuch va imkoniyatlarini bundan buyon ham ayamaydi.

Aziz va muhtaram ustozlar!

Barchangizni bugungi umumxalq bayrami bilan yana bir bor samimiy tabriklayman.

Olijanob va mas'uliyatli faoliyatingizda kuch-g'ayrat, yutuq va omadlar, xonadonlaringizga baxt-u saodat, fayz-u baraka tilayman.

Hech qachon kam bo'lmang, mehribon ustozlar!

*Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti*

2018-yil 28-sentabr

INSON HUQUQLARI BO'YICHA OSIYO FORUMI ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli forum ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblar!

Inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumining barcha ishtirokchilari va mehmonlarini qadimiy Samarqand shahrida qutlash hamda Butunjahon inson huquqlari deklaratsiyasi qabul qilinganining 70 yilligi bilan tabriklash menga katta mamnuniyat bag'ishlaydi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi janob Antoniu Guterrishga bizning mintaqamizda birinchi marta bo'lib o'tayotgan ushbu forumni o'tkazish haqidagi tashabbusni qo'llab-quvvatlagani uchun samimiy tashakkur bildiraman.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti, BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi, Xalqaro migratsiya tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, boshqa hamkor tashkilotlar, Osiyo mamlakatlarining inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarining yuqori martabali vakillari, shuningdek, ko'zga ko'ringan xorijiy davlat va jamoat arboblari, inson huquqlari sohasidagi yetakchi ekspertlar, O'zbekistonda akkreditatsiyadan o'tgan diplomatik

missiya rahbarlari ushbu forumda ishtirok etayotganidan minnatdorman.

«Butunjahon inson huquqlari deklaratsiyasi qabul qilinganining 70 yilligi yakunlari: zamonaviy tahdidlar va real voqelik» mavzusida o'tkazilayotgan mazkur anjumanning dolzarbligi ana shu asosiy hujjatning o'rni va ahamiyatini mustahkamlash borasidagi sa'y-harakatlarni birlashtirish zarurati bilan belgilanadi.

BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari Mishel Bachelet xonim ta'kidlaganidek, «biz yuksak adolat va tenglik sari harakat qilgan taqdirdagina yanada barqaror tinchlik, xavfsizlik va taraqqiyotga erishmog'imiz mumkin». Men bu muhim prinsipni to'liq qo'llab-quvvatlayman.

Tarix shundan dalolat beradiki, dunyodagi barcha sivilizatsiyalar, madaniyat va dinlar inson huquqlari to'g'risidagi tayanch tushunchalarning shakllanishiga asos bo'lgan insonparvarlik g'oyalari ta'sirida vujudga kelgan.

Masalan, bundan 2700 yil muqaddam Osiyo hududida yaratilgan eng ko'hna yozma yodgorlik – «Avesto» kitobida inson huquq va erkinliklari, millatlararo munosabatlarni o'zaro hurmat va ishonch tamoyillari negizida barpo etish g'oyalari muhim o'rin tutadi, zo'ravonlik va adolatsizlik rad etiladi.

Shuningdek, Sharqning buyuk huquqshunoslaridan biri Burhoniddin Marg'inoniy XII asrdayoq o'zining

«Hidoya» asarida har bir insonning haq-huquqini saqlash zarurligi to'g'risida muhim g'oyani ilgari surgan edi.

Ana shu muqaddas qadriyatlar bugun ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan va mazkur Forum kun tartibiga hamohangdir.

Ta'kidlash joizki, 70 yil avval qabul qilingan Butunjahon inson huquqlari deklaratsiyasi butun dunyoda demokratiya va insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirish borasida yangi imkoniyatlar ochdi.

Afsuski, bugungi kunda biz barchamiz ana shu ijobiy jarayonga to'sqinlik qilayotgan murakkab va ziddiyatli tendensiyalar kuchayib borayotganiga guvoh bo'lib turibmiz.

Bu o'rinda jahonda, jumladan, Janubi-Sharqiy Osiyodan tortib Yaqin Sharqqacha bo'lgan makonda qurolli to'qnashuvlar kuchayib, o'zaro ishonchsizlik va nizolar, millatlar va konfessiyalararo ixtiloflar chuqurlashib borayotgani, barqaror taraqqiyotga qarshi boshqa global tahdid va xatarlar haqida so'z bormoqda.

Ilojsiz holda o'z yurtini tashlab ketayotgan kishilar va qochqinlar soni tobora ortib borayotgani, ta'lim va tibbiy yordamdan foydalanish imkoniyati yo'qligi, odam savdosi va majburiy mehnat, ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash, qashshoqlik va ochlikka barham berish zarurati bilan bog'liq muammolar murakkablashib borayotganiga biz chetdan tomoshabin bo'lib qarab turolmaymiz.

Shu ma'noda, bizning qat'iy ishonchimizga ko'ra, jami 4,5 milliarddan ziyod aholi istiqomat qilayotgan Osiyo mintaqasining kelajagi ko'p jihatdan Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2030-yilga qadar barqaror taraqqiyot sohasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga tayyor bo'lishga, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha samarali mintaqaviy mexanizmni shakllantirishga bog'liq.

Hurmatli forum ishtirokchilari!

Bugun biz O'zbekiston milliy taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ygan bir davrda «Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak» degan bosh tamoyilga amal qilmoqdamiz. Aynan ana shu tamoyil 2021-yilgacha O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasini amalga oshirishning asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Biz parlament vakolatlarini sezilarli darajada kengaytirdik, jamoatchilik nazorati institutlarini mustahkamladik, fuqarolik jamiyatini faol rivojlantirmoqdamiz. Sud tizimi va huquqni muhofaza qilish organlari tubdan isloh qilinmoqda. Oila instituti va jamiyatning ma'naviy-axloqiy negizini mustahkamlash bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda, barkamol avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda.

Inson huquqlari sohasidagi xalqaro tuzilmalar bilan yaqin sheriklik kengaymoqda, huquqni himoya qilish borasida hukumatga qarashli bo'lmagan tashkilotlar bilan amaliy muloqot yo'lga qo'yilgan.

Biz ana shu muhim ishlarni qat'iy davom ettiramiz. Bizning ustuvor vazifamiz inson salohiyatini ro'yobga chiqarishga har tomonlama ko'maklashish, uning asosiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlashdan iborat.

Bu jamiyatda tinchlik va barqarorlik, farovon hayotni ta'minlashning asosiy shartidir.

Ishonchim komil, Forum yakunida qabul qilinadigan Samarqand deklaratsiyasi inson huquqlari sohasidagi xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga, bu ezgu ishni yangi, yanada yuksak pog'onaga olib chiqishga xizmat qiladi.

Anjuman doirasida ishtirokchilar tomonidan ilgari suriladigan taklif va tashabbuslar hamda ularning xulosalari inson huquqlari sohasida milliy dastur va strategiyalarni ishlab chiqishda inobatga olinadi.

Forumning barcha ishtirokchilari va mehmonlariga samarali faoliyat olib borishni, ularning mamlakatimizga tashrifi mazmunli o'tishini tilayman.

*Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti*

2018-yil 22-noyabr

«NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI» DAVLAT KORXONASI JAMOASI VA NAVOIY SHAHRI AHLIGA

Aziz do'stlar!

Sizlarni Navoiy kon-metallurgiya kombinati va Navoiy shahri tashkil etilganining 60 yilligi bilan chin qalbidan muborakbod etaman.

O'tgan tarixan qisqa davrda ming-minglab ishchi va mutaxassislarning fidokorona mehnati tufayli Qizilqum sahrosida rivojlangan ishlab chiqarish, transport va ijtimoiy infratuzilmasini o'zida mujassam etgan, nafaqat yurtimiz, balki chet ellarda ham mashhur bo'lgan zamonaviy ishlab chiqarish majmuasi qad rostladi.

Kombinatning qurilishi hududdagi mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega ulkan mineral boyliklarning keng miqyosda o'zlashtirilishini boshlab berdi.

Ta'kidlash joizki, 60 yil muqaddam bu zaminda mazkur sanoat majmuasi negizida bunyod etilgan, buyuk shoir va mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy nomi bilan atalgan mamlakatimizning eng ko'rkam va zamonaviy shaharlaridan biri – Navoiy shahri ham bugun o'z yubileyini nishonlamoqda.

Kon boshqarmalari va yirik sanoat obyektlari negizida Uchquduq, Zarafshon, Nurobod, Zarkent va Marjonbuloq shaharlari barpo etildi.

Zamonaviy shaharsozlikning yorqin namunalari bo'lgan ushbu maskanlar yil sayin obod bo'lib, har tomonlama ravnaq topmoqda.

Hududda yangi korxonalar qurilmoqda, jahon andozalari darajasidagi texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish quvvatlari kengaymoqda.

Yetakchi xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlik aloqalari mustahkamlanayotgani xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini berib, butun tarmoqning barqaror faoliyatini ta'minlamoqda.

Bugungi kunda o'zbek oltinining yuqori sifati butun dunyoda e'tirof etilgani, mamlakatimiz oltin-valuta zaxiralari ortib, iqtisodiy salohiyati yuksalib borayotganida ham iqtisodiyotimiz lokomotivi bo'lmish Navoiy kon-metallurgiya kombinatining ko'pmillatli mehnat jamoasining xizmatlari beqiyos.

Oltin, uran, nodir metallar, fosforit xomashyosi konlarini o'zlashtirish bilan birga kombinat qurilish va dastgohsozlik sanoati uchun keng turdagi mahsulotlar, shuningdek, xalq iste'moli tovarlarini ishlab chiqarayotgani quvonarlidir.

Gigant korxonaning ko'pming kishilik jamoasi keyingi yillarda yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli yangilanishlar, iqtisodiyot tarmoqlari va butun mamlakatimizni tubdan isloh etish va modernizatsiya qilishda faol ishtirok etayotgani tahsinga sazovor.

Davlatimiz tomonidan Navoiy kon-metallurgiya kombinatini har tomonlama rivojlantirishga birinchi

darajali vazifa sifatida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, NKMKni 2026-yilgacha rivojlantirish dasturi doirasida umumiy qiymati 3 milliard dollardan ziyod qariyb 30 ga yaqin yirik investitsiya loyihasi bosqichma-bosqich amalga oshirilib, 30 mingdan ortiq ish o'rinlari yaratiladi.

Bu yo'nalishda hozirning o'zida ko'p ishlar qilinmoqda. Jumladan, «Auminzo-Amantoy» oltin ruda konini o'zlashtirish va uning asosida gidrometallurgiya zavodini barpo etish, texnogen chiqindilarni qayta ishlash majmuasini qurish, «Muruntov» karyerini o'zlashtirish ishlari jadal sur'at bilan davom ettirilmoqda.

Kombinat negizida tashkil etilgan O'zbekiston Fanlar akademiyasining Navoiy filiali hududning innovatsion va texnologik taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shmoqda.

Hurmatli do'stlar!

Mamlakatimizda strategik islohotlarning yangi bosqichi boshlangan bugungi kunda butun xalqimiz, jumladan, kombinat jamoasi va Navoiy shahri aholisi oldida g'oyat muhim vazifalar turibdi.

Xususan, bu yerda qator yangi yuqori texnologik ishlab chiqarishlarni yaratishimiz, raqobatbardosh sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirishimiz, hududning ulkan tabiiy, ishlab chiqarish, mehnat va intellektual salohiyatini yanada to'liq ro'yobga chiqarishimiz lozim.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatining yuksak professional malakali ahil va iste'dodli jamoasi hamda

boy tajriba va mahoratga ega, yurtimiz va xalqimizga sodiq Navoiy shahri ahli ana shunday keng miqyosli vazifalarni muvaffaqiyatli ado etishiga ishonaman.

Siz, azizlarga mustahkam sogʻlik, baxt-saodat, Vatanimiz farovonligi yoʻlidagi bunyodkorona mehnatingizda yangi zafarlar tilayman.

*Shavkat MIRZIYOYEV,
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti*

2018-yil 23-noyabr

O‘ZBEKISTON XALQIGA YANGI YIL TABRIGI

Qadrli vatandoshlar!

Muhtaram do‘stlar!

Mana shu hayajonli, fayzli damlarda jonajon O‘zbekistonimizga 2019-yil kirib kelmoqda.

Siz, azizlarni, ko‘pmillatli xalqimizni Yangi yil bayrami bilan chin qalbidan muborakbod etaman.

Barchangizga ulug‘ boylik bo‘lgan oilaviy baxt va salomatlik tilayman.

Aziz yurtdoshlar!

2018-yilda barcha sohalarda xalqimizning fido-korona mehnati evaziga katta o‘zgarishlarni amalga oshirdik.

Zamonaviy korxonalar, uy-joylar, yo‘llar, ko‘priklar qurildi. Ta’lim, tibbiyot, madaniyat va sport maskanlari barpo etildi.

Xorijiy davlatlar, avvalo, yaqin qo‘shnilarimiz bilan do‘stlik va hamkorlik yanada kuchaymoqda.

O‘zbekistonning xalqaro nufuzini oshirish uchun salmoqli ishlar qilindi.

Buning natijasini bugun har bir inson va oila, har bir jamoa o‘z misolida ko‘rmoqda. Eng muhimi, odamlarimizning ertangi kunga ishonchi ortmoqda.

Bir soʻz bilan aytganda, oʻtayotgan yil mamlakatimiz tarixida yorqin iz qoldirgan yil boʻldi.

Shu bois eski yilimizni shukronalik va rozilik bilan kuzatmoqdamiz.

Hurmatli doʻstlar!

Biz 2019-yilga **Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili**, deb nom berdik.

Faol investitsiyalar taraqqiyot uchun cheksiz imkoniyatlar eshigini ochadi.

Ijtimoiy rivojlanish esa xalqimiz turmush darajasi va sifatini keskin oshirishga xizmat qiladi.

Biz yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni, millatlar va fuqarolar oʻrtasida totuvlikni taʼminlashga ustuvor ahamiyat qaratamiz. Xalq bilan muloqotni yuqori bosqichga olib chiqamiz.

Tadbirkorlik va xususiy mulkni qoʻllab-quvvatlash ishlarini davom ettiramiz.

Diyorimizni yanada obod va koʻrkam qilish asosiy vazifamiz boʻlib qoladi.

Ehtiyojmand oilalar va yordamga muhtoj insonlarni himoya qilishga, aholi daromadlarini oshirishga eʼtiborni yanada kuchaytiramiz.

Muhtaram faxriylar, opa-singillarimiz va yoshlarimizga gʻamxoʻrlik koʻrsatish doimo diqqatimiz markazida boʻladi.

Ushbu fayzli oqshomda barcha davlat va xalqlarga, xorijiy doʻstlarimiz, hamkorlarimizga ezgu tilaklarimizni yoʻllaymiz.

Azizlarim, qadrdonlarim!

Xalqimizning barcha orzu-niyatlari ushalsin!

Farzandlarimiz, nabiralarimizning baxt-u kamolini
ko'raylik!

Go'zal va betakror yurtimiz tinch-osoyishta, olijanob,
bag'rikeng xalqimiz hamisha omon bo'lsin!

2019-yilning qadami qutlug' kelsin!

Yangi yil barchamizga muborak bo'lsin!

*Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti*

2018-yil 29-dekabr

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI TASHKIL ETILGANINING 27 YILLIGI VA VATAN HIMOYACHILARI KUNI MUNOSABATI BILAN BAYRAM TABRIGI

Hurmatli askar va serjantlar, ofitser va generallar,
Qurolli Kuchlarimizning muhtaram faxriylari!

Qadrli yurtdoshlar!

Sizlarni, sizlarning timsolingizda butun xalqimizni
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil
etilganining 27 yilligi va Vatan himoyachilari kuni
bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etaman.

Ushbu qutlug‘ ayyomda o‘z hayotini Vatan
himoyasidek ulug‘ ishga bag‘ishlagan siz, azm-u
shijoatli harbiylarimizni sharaflab, xalqimiz, mamlakati-
miz tinchligi va xavfsizligi yo‘lidagi xizmatlaringiz
uchun barchangizga chuqur minnatdorlik bildiraman.

Mutafakkir shoir Alisher Navoiy bobomiz
aytganlaridek, bu dunyoda er yigitning eng buyuk, ezgu
va muqaddas vazifasi, avvalo, o‘z oilasi, Vatani va xalqini
munosib himoya qilishdan iboratdir.

Biz sizlar bilan – ana shunday g‘oyat mas’uliyatli va
olijanob vazifani sharaf bilan ado etib kelayotgan mard
va jasur, el-yurtga sadoqatli o‘g‘lonlarimiz bilan haqli
ravishda faxrlanamiz.

Aynan sizlarning yerda va ko'kda, suvda va quruqlikda olib borayotgan mardona xizmatlaringiz tufayli osmonimiz musaffo, bolalarimiz, mo'tabar onalarimiz, keksalarimiz xotirjam yashamoqda, yurtimiz obod, xalqimiz hayoti farovon bo'lmoqda.

Fursatdan foydalanib, o'z farzandlarini – Qurolli Kuchlarimizning askar va ofitserlarini Alpomishdek botir, chinakam vatanparvar insonlar etib tarbiyalagan barcha ota-onalarga, harbiylarimiz bilan hayot quvonchi va tashvishlarini doimo baham ko'rib kelayotgan ularning rafiqalari va oila a'zolariga katta rahmat aytishni o'zimning burchim deb bilaman.

Muhtaram vatandoshlar!

Mana shu bayram kunlarida barchamiz Vatan, xalq va armiya biri-biriga naqadar yaqin va mushtarak ekanini har qachongidan ham teran his etmoqdamiz.

Bu borada armiya va xalq birligini ta'minlashga qaratilgan mutlaqo yangi tuzilma – harbiy-ma'muriy sektorlar barcha hududlarda samarali faoliyat yuritayotgani g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Ana shunday islohotlar tufayli **«Armiya va xalq – bir tan-u bir jon!»** degan olijanob g'oya va amaliy harakat barcha bo'g'indagi hokimiyat va boshqaruv idoralari, mahalla, yoshlar, xotin-qizlar, nuroniylar tashkilotlari, ta'lim-tarbiya muassasalari faoliyatini, keng jamoatchilik hayotini qamrab olmoqda. Bu esa Vatan himoyasi chindan ham barchamizning nafaqat vazifamiz, balki sharaflı burchimizga aylanib borayotganidan yaqqol dalolat beradi.

Qadrli do'stlar!

Dunyo miqyosida xalqaro terrorizm, ekstremizm kabi xavf-xatarlar, milliy va global xavfsizlikka qarshi tahdidlar tobora ortib borayotgan hozirgi murakkab davrda Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini yuksaltirish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy qurol-yarog' va aslahalar bilan ta'minlash, harbiy xizmatchilarning jismoniy, ma'naviy-intellektual tayyorgarligini oshirish, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish eng ustuvor vazifamiz bo'lib qolmoqda.

Davlatimizning harbiy-siyosiy masalalar bo'yicha qat'iy pozitsiyasini ifoda etadigan yangi Mudofaa doktrinasi ishlab chiqildi. Amalga oshirilayotgan tub islohotlar natijasida milliy armiyamiz tezkor va ixcham, har qanday tahdidlarga munosib zarba berishga qodir bo'lgan jangovar kuchga aylanib bormoqda.

Barchamiz yaxshi anglaymiz: bu borada har bir harbiy xizmatchining professional bilim va malakasi, aqliy salohiyati, ruhiy tayyorgarligini oshirish, ularda vatanparvarlik fazilatlarini kamol toptirish o'ta muhim ahamiyatga egadir.

Biz davlatimiz mudofaa qudratini har tomonlama oshirish, yetuk va malakali harbiy kadrlarni tayyorlashga, Vatan himoyachilari, ularning oilalari uchun munosib hayot sharoitlarini yaratishga bundan keyin ham alohida e'tibor qaratamiz. Masalan, 2019-yilning o'zida harbiy xizmatchilar uchun imtiyozli kreditlar asosida 116 ta ko'pqavatli uy foydalanishga topshiriladi. Harbiy xiz-

matchilarning 700 dan ziyod farzandlari oliy ta'lim muassasalariga davlat granti asosida o'qishga qabul qilinadi. Shuningdek, harbiy shaharchalarni obod qilish, ularning hududida zamonaviy infratuzilmalar barpo etish bo'yicha olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar izchil davom ettiriladi.

Xalqimizning **«Bilagi zo'r birni yengadi, bilimi zo'r – mingni»** degan maqolida chuqur ma'no bor. Shu nuqtayi nazardan, Qurolli Kuchlarimizni modernizatsiya qilish, xususan, harbiy ta'lim sohasiga zamonaviy bilim, ilg'or xorijiy tajribalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha boshlagan ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur.

Ayni vaqtda shaxsiy tarkib o'rtasida milliy o'zlikni anglash va jangovar ruhni, vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirish, harbiy xizmatchilarning intellektual salohiyatini yuksaltirish ham doimo e'tiborimiz markazida bo'lishi lozim. Shu maqsadda yosh askar va kursantlar uchun harbiy qasamyod qabul qilishdan avval «O'zbekiston tarixi» fani va «Temur tuzuklari» kitobi bo'yicha sinov o'tkazish tartibini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o'rtasida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirish, ushbu sohadagi qadriyat va an'alarimizni targ'ib etish, askar va ofitserlarimizning zamon qahramonlari sifatidagi qiyofasini badiiy asarlar, spektakl va filmlar orqali keng yoritib berish alohida ahamiyatga ega. Bu borada taniqli

olimlar, adib va shoirlarimiz, ijodkor ziyolilar, madaniyat namoyandalari yanada samarali faoliyat olib boradilar, deb ishonch bildiraman.

Qadrli yurtdoshlar!

Mard va jasur Vatan himoyachilari!

Sizlarni ota-onalaringiz, oilalaringiz, butun xalqimiz bilan birgalikda keng nishonlayotgan bugungi shon-u sharaf ayyomi – Vatan himoyachilari kuni bilan yana bir bor tabriklar ekanman, sizlarga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, olijanob va mas’uliyatli faoliyatingizda ulkan yutuqlar tilayman.

Barchangizga el-yurtimizning yuksak mehri va ishonchi doimo yor bo‘lsin!

*Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti,
Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni*

2019-yil 12-yanvar

O‘ZBEKISTON XALQIGA RAMAZON HAYITI TABRIGI

Muhtaram vatandoshlar!

Dunyodagi jamiki musulmon ummati uchun mo‘tabar va qadrli bo‘lgan shu saodatli, ulug‘ ayyomda siz, azizlarni, yurtimizdagi barcha mo‘min-musulmonlar, butun xalqimizni Ramazon hayiti bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Muqaddas dinimizning ezgulik va insonparvarlik, mehr-shafqat kabi buyuk fazilatlari yanada yorqin namoyon bo‘ladigan ushbu shukuhli damlarda barchamiz, avvalo, Alloh taologa oilamiz, el-u yurtimiz bilan birgalikda bugungi qutlug‘ va barokatli kunlarga yetkazgani uchun behisob shukronalar aytamiz.

Ramazon oyining fayz-u tarovatidan bahramand bo‘lib, jamiyatimizda o‘zaro hurmat va ahillik muhitini mustahkamlash, muhtaram nuroniylar, ayollar va bolalarga mehr va e‘tibor ko‘rsatish, ehtiyojmand insonlarga beg‘araz yordam berish singari savobli ishlarni amalga oshirishga intilamiz.

Bunday olijanob maqsad va harakatlar mamlakatimizni taraqqiy topgan davlatlar qatoriga olib chiqish, xalqimizni hayotdan rozi qilishga qaratilgan islohotlarimizning ma‘no-mazmuniga har tomonlama uyg‘un va hamohang ekani, ayniqsa, e‘tiborlidir.

Shu ma‘noda, necha yuz yillik tarix va madaniyatimiz, milliy o‘zligimizning ajralmas qismiga aylanib ketgan muqaddas dinimizni asrash, ajdodlarimizning bebaho

ma'naviy-ma'rifiy merosini o'rganish va targ'ib etish biz uchun o'ta dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Keyingi vaqtda mamlakatimizda shu yo'nalishda katta ishlar amalga oshirilayotgani, tabarruk qadamjolar obod qilinib, yangi-yangi ilmiy, madaniy va diniy markazlar, ta'lim maskanlari tashkil etilayotgani barchangizga yaxshi ma'lum.

Bu yil muborak Ramazon kunlarida Termiz shahrida Hakim Termiziy, Toshkent shahrida Suzuk ota va Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf kabi ulug'ulamolarimizning nomlari bilan atalgan diniy majmualar, jome masjidlari foydalanishga topshirilgani, joylarda besh tashabbus va boshqa ijtimoiy-ma'naviy dasturlarimiz doirasida el-yurtimiz, xususan, yoshlar va xotin-qizlar uchun qulay mehnat va turmush sharoitlari yaratilayotgani bu yo'ldagi yangi qadamlar bo'ldi.

O'zbekistonning **«Jaholatga qarshi – ma'rifat»** degan tamoyil asosida jahon miqyosida tinchlik va osoyishtalikni saqlash, vijdon erkinligi va dinlararo bag'rikenglikni ta'minlash, islom dinining insonparvarlik mohiyatini xalqimiz va dunyo ahliga yetkazish borasidagi tashabbuslari xalqaro hamjamiyat tomonidan keng qo'llab-quvvatlanmoqda.

Shu ulug' ayyom kunlarida uzoq va yaqin davlatlarda yashayotgan mo'min-musulmon birodarlarimizni, barcha do'st va hamkorlarimizni samimiy qutlab, ularning xalqlari va mamlakatlariga tinchlik va barqarorlik, taraqqiyot va farovonlik tilaymiz.

Qadrli yurtdoshlar!

Go'zal diyorimizda muborak Ramazon shukuhi kezib yurgan shu kunlarda bayram kayfiyati barcha shahar

va qishloqlarimizga kirib borishi, bu ayyomni yanada mazmunli o'tkazish uchun sharoit yaratish maqsadida 5–6-iyun mamlakatimizda dam olish kunlari deb e'lon qilindi.

Buyuk bobomiz Imom Buxoriy hazratlaridan rivoyat qilingan hadisi sharifda aytilganidek, **«Chinakam musulmon o'ziga ravo ko'rgan barcha yaxshiliklarni boshqa insonlarga ham ravo ko'radi».**

Darhaqiqat, hayotda ezgu va savob amallarni bajarib, oilasi, farzandlari, el-yurtining baxt-u saodatini o'ylab, halol mehnat qilib yashash musulmon ahli uchun iymone'tiqodning muhim sharti hisoblanadi.

Ishonchim komil, din-u diyonatimiz va zamon ruhini qalbimizga chuqur singdirib, bugungi hayotning o'tkir talabi bo'lgan ilm-fan, innovatsiya va taraqqiyot yutuqlari bilan qurollanib, Vatanimiz ravnaqi yo'lida astoydil xizmat qilsak, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga albatta yetamiz.

Siz, aziz vatandoshlarimni muqaddas Ramazon hayiti bilan yana bir bor chin yurakdan qutlab, barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, xonadonlaringizga fayz-u baraka tilayman.

Niyati pok, maqsadlari ulug' xalqimizning shu tabarruk kunlarda qilayotgan barcha ibodatlari, ezgu duolari ijobat bo'lsin!

Muqaddas ayyom – Ramazon hayiti barchamizga muborak bo'lsin!

*Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
2019-yil 4-iyun*

MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARIGA

Qadrli do'stlar!

Avvalo siz, azizlarni kasb bayramingiz – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni bilan chin qalbidan muborakbod etaman.

Sizlarga o'zimning samimiy hurmatim, ezgu tilaklarimni bildirib, mashaqqatli va olijanob faoliyatingizda ulkan muvaffaqiyatlar tilayman.

Barchamizga yaxshi ayonki, matbuot, ommaviy axborot vositalari ishi hamma zamonlarda ham og'ir va mas'uliyatli bo'lgan. Mamlakatimiz yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilayotgan, ochiqlik va oshkoralik, so'z va fikr erkinligi hayotimiz mezoniga aylanib borayotgan hozirgi davrda bu mas'uliyat yanada kuchaymoqda.

Bugungi kunda dunyo shiddat bilan o'zgarmoqda. Barcha sohalar kabi axborot olish va uni yetkazish, ta'sirchan jamoatchilik fikrini shakllantirish borasida ham raqobat keskin tus olmoqda. Bunday murakkab sharoitda hayot yangi-yangi talab va vazifalarni oldimizga qo'yimoqda.

Shularning barchasini hisobga olib, mamlakatimizda ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Sohaga

oid qonun hujjatlarini takomillashtirish, milliy media makonda turli mulk shakli hamda siyosiy-ijtimoiy yo'nalishdagi ommaviy axborot vositalarining erkin faoliyat ko'rsatishi uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda.

Global tarmoqda Uz domenli veb-saytlar, axborot portallari soni tobora ko'payib, ular turli tillarda ish yuritmoqda.

Yangicha sharoitda axborot sohasidagi davlat siyosatini samarali amalga oshirish maqsadida sobiq O'zbekiston matbuot va axborot agentligi negizida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzurida Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tashkil etilganidan xabaringiz bor.

Ushbu agentlik tomonidan ommaviy axborot vositalari faoliyatini muvofiqlashtirish, jurnalistlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, xorijiy media kompaniyalar bilan hamkorlikni kuchaytirish, chet el veb-resurslari va saytlaridan to'liq foydalanish imkoniyatini yaratish, bir so'z bilan aytganda, axborot maydonidagi fikrlar xilma-xilligini ta'minlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ma'lumki, hozirgi kunda tobora tezkor va ko'ptarmoqli sohaga aylanib borayotgan ommaviy axborot vositalari uchun global media makonda keskin raqobatga dosh bera oladigan, faol grajdanlik pozitsiyasiga ega zamonaviy kadrlar tayyorlash oldimizda turgan eng muhim vazifadir. Ana shu zaruratni hisobga olgan holda tashkil etilgan O'zbekiston jurnalistika va ommaviy

kommunikatsiyalar universiteti an'anaviy bilim va ko'nikmalar bilan birga, innovatsion tafakkur, sohaga oid texnologiyalarni, xorijiy tillarni puxta egallagan kadrlar tayyorlash bo'yicha respublikamizdagi yetakchi oliy ta'lim muassasasiga aylanadi, deb ishonamiz.

Keyingi paytda mamlakatimiz ommaviy axborot vositalarida hayotimizdagi ijobiy o'zgarishlar tahlili, sog'lom tanqidiy ruh kuchayib borayotgani alohida e'tiborga loyiq.

Chunki bunday tendensiya islohotlarimiz samarasini oshirishga, jamoatchilik nazoratini, fuqarolarimizning ijtimoiy faolligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Eng muhimi, barcha darajadagi rahbar va mutasaddilarni el-yurt fikri bilan, zamon talablari bilan hisoblashgan holda ishlashga o'rgatadi.

Albatta, o'zining bilim va salohiyatiga, ishchanlik fazilatlariga ishongan rahbar tanqiddan qo'rqmaydi, ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikni xalq bilan muloqotning samarali vositasi, deb biladi. Aslida ham bunday muloqot taraqqiyotimizni ta'minlaydigan eng asosiy omillardan biridir.

Ayni vaqtda barchamiz bir haqiqatni unutmasligimiz zarur: axborot maydonidagi turli bahs va tortishuvlar, avvalo, haqqoniylik va xolislik tamoyillariga asoslanishi, qonun va odob qoidalari doirasida bo'lishi, shaxsiy g'araz va xusumatga, soxta obro' orttirish usuliga aylanib ketmasligi, inson shaxsi va sha'nini tahqirlashdan yiroq bo'lishi, bunday salbiy holatlarga bizning media maydonimizda mutlaqo o'rin bo'lmasligi kerak.

Hayotga doimo sergak ko'z bilan qaraydigan, xalq va Vatan manfaatini hamma narsadan ustun qo'yadigan siz, matbuot ahli, o'ylaymanki, bu haqiqatni har tomonlama chuqur anglaysiz.

Yana bir bor ta'kidlab aytmoqchiman, hayotimizdagi bugungi ulkan o'zgarishlar, islohotlarimiz mantig'i barchamizdan yangicha ishlashni, yangi g'oya va tashabbuslar bilan maydonga chiqishni talab etmoqda.

Shu ma'noda, ommaviy axborot vositalarining moddiy-texnik bazasini, kadrlar salohiyatini mustahkamlash, milliy matbuotimizning xalqaro maydonda munosib o'rin egallashiga erishish, Internet jurnalistikasini rivojlantirish, noshirlik ishi, kitob savdosi, obuna va targ'ibot masalalarida butun dunyoda o'zini oqlagan bozor mexanizmlarini keng joriy etish, ochiqlik va sog'lom raqobat sharoitida ishlashga o'rganish bo'yicha birgalikda hali ko'p ish qilishimiz kerak.

O'z navbatida, biz ommaviy axborot vositalarining faoliyat erkinligi kafolatlarini mustahkamlash, jurnalistlarning mashaqqatli mehnatini munosib baholash va rag'batlantirish, jamiyatda demokratik prinsiplar, fikrlar va qarashlar rang-barangligini ta'minlash borasida olib borayotgan ishlarimizni albatta izchil davom ettiramiz.

Aziz va muhtaram do'stlar!

Siz, azizlarni, sizlarning timsolingizda ko'psonli barcha muxlis va mushtariylaringizni bugungi qutlug' bayramingiz bilan yana bir bor samimiy tabriklayman.

Barchangizga sihat-salomatlik, yangi ijodiy yutuqlar,
xonadonlaringizga tinchlik-xotirjamlik, fayz-u baraka
tilayman.

*Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti*

2019-yil 27-iyun

O‘ZBEKISTON YOSHLARIGA BAYRAM TABRIGI

Qadrli farzandlarim!

Siz, aziz o‘g‘il-qizlarimni, sizlarning timsolingizda butun xalqimizni yurtimizda keng nishonlanayotgan Yoshlar kuni bilan chin qalbidan tabriklayman.

Ushbu qutlug‘ ayyomda barchamiz yoshlik inson umrining naqadar go‘zal va beg‘ubor fasli, ulkan orzu-umidlar, beqiyos imkoniyatlar davri ekanini yanada chuqur his qilib, siz, navqiron farzandlarimizga eng ezgu tilaklarimizni izhor etamiz.

O‘tgan qisqa davrda jamiyatimiz hayotidan mustahkam o‘rin egallagan bu bayram davlatimiz, xalqimiz o‘z farzandlarining baxti va kamoli uchun hech narsani ayamasligini, mamlakatimiz yoshlari ham Vatanimiz ravnaqi uchun xizmat qilishni o‘z hayotining mazmuni deb bilishini yaqqol ifoda etmoqda.

Haqiqatan ham, yoshlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta‘minlash yurtimizda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, doimo e‘tiborimiz markazida bo‘lib kelmoqda.

Buni keyingi ikki yilda shu sohaga oid 3 ta qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining o‘nlab farmonlari, qaror va farmoyishlari qabul qilingani

hamda shu asosda ulkan ishlar amalga oshirilgani ham yaqqol tasdiqlaydi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, hududlarda esa hokimlar raisligida Yoshlar masalalari bo'yicha idoralararo kengashlar, Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Yoshlar masalalari bo'yicha komissiya va «Yoshlar klubi» ish boshladi.

Yigit-qizlarimizning biznes loyihalari uchun «Yoshlar – kelajagimiz» jamg'armasi tomonidan bugungi kunga qadar 692 milliard 400 million so'mlik imtiyozli kreditlar ajratilib, 25 mingga yaqin yangi ish o'rni yaratilgani, respublikamiz bo'yicha 125 ta «Yoshlar mehnat guzari», 19 ta «Yosh tadbirkorlar» kovorking markazi foydalanishga topshirilgani ayniqsa e'tiborlidir.

Yurtimizda tashkil etilayotgan yangi-yangi bog'chalar, maktablar, oliy o'quv yurtlari, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari, madaniyat va sport inshootlari, «Temurbeklar maktabi», «Prezident maktablari», «Ijod maktablari» deb nom olgan mutlaqo yangi namunadagi ta'lim maskanlari bugungi globallashuv sharoitida raqobatga qodir bo'lgan yetuk kadrlarning yangi avlodini tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Keyingi paytda umumxalq harakatiga aylanib borayotgan besh ijobiy tashabbusning mazmuni va ahamiyatini yoshlarimiz chuqur tushunib, uni amalga oshirishda faol ishtirok etayotganini biz albatta yuksak baholaymiz. Bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan katta qurilish va obodonchilik ishlari bilan birga, «Yoshlar

kutubxonasi» turkumidagi 470 mingta badiiy adabiyotlar respublikamizdagi barcha maktablar hamda Yoshlar ittifoqining mahalliy kengashlariga bepul tarqatilgani muhim ahamiyatga ega.

Yosh avlodning sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun yaratilgan sharoitlar ham bugun o'zining amaliy natijasini bermoqda. Buning tasdig'ini yosh sportchilarimiz xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli qatnashib, 520 ta oltin, 544 ta kumush, 588 ta bronza medaliga sazovor bo'lganida ham ko'rish mumkin.

Azm-u shijoatli, navqiron yigit-qizlarimizning o'z sohasida, jamoat ishlarida erishayotgan yutuqlarini munosib rag'batlantirishga davlatimiz tomonidan katta ahamiyat berilmoqda.

Masalan, o'tgan yili ana shunday vatanparvar, fidoyi yuzlab yoshlarimiz «Do'stlik» ordeni va «Shuhrat» medali, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti, «Kelajak bunyodkori» medali, «O'zbekiston belgisi» ko'krak nishoni, O'zbekiston yoshlar ittifoqi mukofoti bilan taqdirlandi. Yana 28 nafar azamat yigitlarimiz yangi ta'sis etilgan «Mard o'g'lon» davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. Bugun ularning saflariga yana bir guruh faol yoshlarimiz qo'shilayotgani barchamizni quvontiradi.

Aziz farzandlarim!

Yoshlarimiz o'rtasida sog'lom turmush tarzini mustahkamlash, ayniqsa, ularning qariyb 50 foizini tashkil etadigan qiz bolalarni hayotga tayyorlash, uyushmagan yoshlar bilan ishlash, oilaviy ajrimlar, o'smirlar orasida

jinoyatchilik holatlarining oldini olish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Joriy yilning o'tgan davrida yoshlar jinoyatchiligi 2018-yilga nisbatan 37 foizga kamaygani, adashib xato yo'lga kirgan, o'z qilmishidan chin dildan pushaymon bo'lgan 599 nafar shaxs Yoshlar ittifoqi kafilligi asosida sud zalidan ozod qilinib, ularga yengil jazo turlari tayinlangani jamiyatimizda kechirimlilik, mehr-oqibat va o'zaro ishonch muhitini kuchaytirish yo'lidagi yangi qadamdir.

Biz yoshlarning mamlakatimiz hayotidagi demokratik jarayonlarda faol ishtirok etishiga, ularning siyosiy va ijtimoiy salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim.

Bu borada o'z saflarida 7 million 680 ming a'zoni birlashtirgan Yoshlar ittifoqi tomonidan joylarda olib borilayotgan ishlarni e'tirof etgan holda, ularni yanada kuchaytirish zarurligini ta'kidlash joiz. Ayniqsa, bu yil mamlakatimiz parlamenti va mahalliy kengashlarga bo'ladigan saylovlarda chuqur bilim, qat'iy grajdanlik pozitsiyasiga ega bo'lgan yoshlarimiz faol qatnashib, vakillik organlarida munosib o'rin egallasa, bu nafaqat yosh avlodning, balki butun xalqimiz manfaatlarini ta'minlashga katta hissa bo'lib qo'shiladi.

Qadrli yosh do'stlarim!

Bugungi notinch va tahlikali zamonda yoshlarning ongi va qalbini egallashga qaratilgan turli xavf-xatarlar tobora kuchayib borayotganini barchangiz yaxshi

bilasiz. Ularga qarshi kurashishda xalqimizning boy tarixi va madaniyati, buyuk ajdodlarimiz jasorati, jonajon O‘zbekistonimizning milliy manfaatlari biz uchun kuch-qudrat manbayi bo‘lib xizmat qiladi.

BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida O‘zbekiston tomonidan «Yoshlar huquqlari to‘g‘risida»gi konvensiyani ishlab chiqish tashabbusi ilgari surilgani jaholatga qarshi – ma’rifat tamoyili asosida olib borayotgan keng ko‘lamli ishlarimizning uzviy bir qismi bo‘lib, u yer yuzidagi ikki milliarddan ziyod yoshlarning haq-huquqlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga egadir.

Biz O‘zbekistonning buyuk kelajagini barpo etishga mahkam bel bog‘lagan ekanmiz, bu ulug‘ ishni ertaga emas, bugun boshlashimiz, buning uchun avvalo navqiron yoshlarimizga zarur sharoitlarni aynan bugun yaratib berishimiz kerak.

Shu munosabat bilan sizlarni ishontirib aytmoqchiman: biz yoshlarning orzu-intilishlari, ilg‘or g‘oya va tashabbuslarini ro‘yobga chiqarish maqsadida boshlagan ishlarimizni nainki davom ettiramiz, balki ularni yangi, yanada yuksak bosqichga ko‘taramiz.

Aziz o‘g‘il-qizlarim!

Bugun biz o‘z oldimizga qo‘ygan ulkan va mas’uliyatli vazifalar butun xalqimiz kabi sizlardan ham har tomonlama katta tayyorgarlik va safarbarlikni talab etmoqda.

Ishonchim komil, sizlar zamonaviy bilim va taraqqiyot cho‘qqilarini egallab, o‘z amaliy ishlaringiz, g‘ayrat-shijoatingiz bilan jonajon Vatanimizga munosib, sadoqatli farzandlar bo‘lasiz.

Sizlarni Yoshlar kuni bilan yana bir bor qutlab, barchangizga sihat-salomatlik, shaxsiy va ijtimoiy hayotingizda yangi yutuq va omadlar tilayman.

*Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti*

2019-yil 30-iyun

MUNDARIJA

YANGI O‘ZBEKISTON: TARAQQIYOT SARI DADIL ODIMLAR

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING OLIY MAJLISGA MUROJAATNOMASI <i>2018-yil 28-dekabr.....</i>	5
BILIMLI AVLOD – BUYUK KELAJAKNING, TADBIRKOR XALQ – FAROVON HAYOTNING, DO‘STONA HAMKORLIK ESA TARAQQIYOTNING KAFOLATIDIR <i>O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruza 2018-yil 7-dekabr.....</i>	57
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUSTAQILLIGINING YIGIRMA YETTI YILLIGIGA BAG‘ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQ <i>2018-yil 31-avgust</i>	86
MAQOM – MUSIQA SAN’ATI DURDONASI <i>Xalqaro maqom san’ati anjumanining ochilish marosimidagi nutq Shahrisabz, 2018-yil 6-sentabr.....</i>	97
MUQADDAS ONA, AYOL ZOTI – CHINAKAM MEHR BULOG‘I <i>Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlab o‘tkazilgan tantanali marosimdagi nutq 2019-yil 7-mart.....</i>	104
KO‘PTARMOQLI «HUMO ARENA» SPORT KOMPLEKSINING TANTANALI OCHILISH MAROSIMIDAGI NUTQ <i>2019-yil 15-mart.....</i>	123

NAVRO'Z UMUMXALQ BAYRAMIGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI TABRIK SO'Z <i>2019-yil 21-mart</i>	128
--	-----

FOLKLOR SAN'ATI – INSONIYATNING BOLALIK QO'SHIG'I <i>Xalqaro baxshichilik san'ati festivali ochilishiga bag'islangan tantanali marosimdagi nutq</i> <i>2019-yil 6-aprel</i>	133
---	-----

XOTIRA VA QADRLASH KUNIGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQ <i>2019-yil 9-may</i>	142
--	-----

OLIJ MAJLIS SENATINING YIGIRMANCHI YALPI MAJLISIDAGI NUTQ <i>2019-yil 21-iyun</i>	151
---	-----

DO'STONA AMALIY HAMKORLIK BARQAROR RIVOJLANISH KAFOLATIDIR

HAMKORLIKNING YANGI SUR'ATI <i>Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning O'zbekistonga davlat tashrifi doirasida ommaviy axborot vositalari vakillari uchun bayonot</i> <i>2018-yil 17-18-avgust</i>	174
--	-----

XALQLARIMIZNING BUGUNI VA KELAJAK TAQDIRI MUSHTARAK <i>Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning O'zbekistonga amalga oshirgan davlat tashrifi doirasida Tojikiston va O'zbekiston san'at ustalari ishtirokida tashkil etilgan konsert dasturining tantanali ochilish marosimidagi nutq</i> <i>2018-yil 17-avgust</i>	181
--	-----

KO'PASRLIK DO'STLIK VA QARDOSHLIK RISHTALARI BILAN BOG'LANGAN XALQLAR

Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning O'zbekistonga davlat tashrifi doirasida uyushtirilgan qabul marosimidagi nutq
2018-yil 17-avgust 188

TURKIY KENGASH DOIRASIDA O'ZARO SAMARALI HAMKORLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISHDAN MANFAATDORMIZ

Qirg'iziston Respublikasining Cho'lponota shahrida bo'lib o'tgan Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi sammitidagi ma'ruza
2018-yil 3-sentabr 192

IKKI XALQ MANFAATLARIGA MOS HAMKORLIK

Misir Arab Respublikasi rasmiy delegatsiyasi bilan kengaytirilgan tarkibdagi uchrashuvdan so'ng matbuot anjumanidagi nutq
Toshkent shahri, 2018-yil 5-sentabr 202

ILMIY-MA'RIFIY HAMKORLIKNI KUCHAYTIRISH – DAVR TALABI

Qozog'iston Respublikasi poytaxti Ostona shahrida Islom hamkorlik tashkilotining Fan va texnologiyalar bo'yicha birinchi sammitida so'zlangan nutq
2018-yil 10-sentabr 208

UZOQ MUDDATLI VA O'ZARO MANFAATLI MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISH YO'LIDA

Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenkoning O'zbekistonga rasmiy tashrifi doirasida ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvdagi nutq
2018-yil 12-14-sentabr 215

O'ZBEKISTON VA BELARUS MUNOSABATLARI TARIXIDA YANGI SAHIFA

Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenkoning O'zbekistonga rasmiy tashrifi doirasida o'tkazilgan qabul marosimidagi nutq
2018-yil 12-14-sentabr 221

SHARQ VA G'ARB ADABIYOTI O'RTASIDAGI OLTIN KO'PRIK	
<i>Robindranat Tagorning o'zbek tilida nashr etilgan 8 jildli asarlar to'plamiga yozilgan so'zboshi</i>	
2018-yil 17-sentabr.....	225
BUYUK QALB SOHIBI	
<i>Mahatma Gandining «Mening hayotim» kitobiga yozilgan so'zboshi</i>	
2018-yil 17-sentabr.....	230
SIYOSIY MULOQOT VA HAR TOMONLAMA HAMKORLIK YANADA MUSTAHKAMLANMOQDA	
<i>Hindistonga davlat tashrifi davomida ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvdagi nutq</i>	
<i>Dehli shahri, 2018-yil 30-sentabr - 1-oktabr</i>	235
KO'PASRLIK DO'STLIK AN'ANALARIGA ASOSLANGAN HAMKORLIK	
<i>Hindistonga amalga oshirilgan davlat tashrifi doirasidagi qabul marosimidagi nutq</i>	
<i>Dehli shahri, 2018-yil 30-sentabr - 1-oktabr</i>	240
BIZ UNESCO BILAN HAMKORLIKNI BUNDAN BUYON HAM RIVOJLANTIRISH TARAFDORIMIZ	
<i>Fransiyaga amalga oshirilgan rasmiy tashrif doirasida UNESCO Bosh direktori Odri Azule bilan uchrashuvdagi nutq</i>	
<i>Parij shahri, 2018-yil 8-oktabr.....</i>	243
AQL-IDROK OVOZI	
<i>Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makronning o'zbek tilida nashr etilgan «Revol'yutsiya» kitobiga yozilgan so'zboshi</i>	
2018-yil 8-oktabr	247
«TEMUR TUZUKLARI» YOKI DAVLAT BOSHQARUVINING QOMUSI	
<i>Fransuz tilida nashr etilgan «Temur tuzuklari» kitobiga yozilgan so'zboshi</i>	
2018-yil 8-oktabr	252

HUDUDLARARO ALOQALARNI JADAL RIVOJLANTIRISH STRATEGIK SHERIKLIK VA ITTIFOQCHILIK MAQSADLARIGA TO‘LA MOSDIR

«O‘zbekiston – Rossiya» birinchi hududlararo hamkorlik forumidagi nutq

Toshkent shahri, 2018-yil 19-oktabr..... 256

O‘ZBEKISTON–ROSSIYA MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHI

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning O‘zbekistonga amalga oshirgan davlat tashrifi doirasida OAV vakillari bilan uchrashuvdagi nutq

2018-yil 19-21-oktabr..... 260

ROSSIYA – VAQT VA HAYOT SINOVIDAN O‘TGAN UZOQ MUDDATLI STRATEGIK SHERIK VA ITTIFOQCHI

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning O‘zbekistonga davlat tashrifi doirasida uyushtirilgan qabul marosimidagi nutq

2018-yil 19-21-oktabr..... 265

KO‘PQIRRALI HAMKORLIKNING YANGI UFQLARI

Hindiston Respublikasida bo‘lib o‘tgan «Jo‘shqin Gujarat – 2019» IX xalqaro investitsiya sammitida so‘zlangan nutq

2019-yil 18-yanvar..... 268

GYOTE DAHOSIGA YUKSAK EHTIROM

Buyuk nemis shoiri Y.V.Gyotening «Faust» kitobi tarjimasining yangi nashriga so‘zboshi

2019-yil 20-yanvar..... 272

O‘ZBEKISTON MADANIYATINING YANGI QIRRALARI – DUNYO E‘TIBORIDA

«O‘zbekistonning madaniy merosi jahon to‘plamlarida» turkumining «Germaniya Federativ Respublikasi to‘plamlari» kitob-albomiga so‘zboshi

2019-yil 20-yanvar..... 276

**O'ZBEKISTON VA GERMANIYA O'RTASIDA HAMKORLIKNI
MUSTAHKAMLASH UCHUN BARCHA IMKONIYATLAR
MAVJUD**

*Germaniya Federativ Respublikasiga rasmiy tashrif doirasidagi
brifingda so'zlangan nutq*

Berlin shahri, 2019-yil 21-23-yanvar..... 280

**QOZOG'ISTON – YAQIN QO'SHNIMIZ, ISHONCHLI HAMKORIMIZ
VA QALIN SHERIGIMIZ**

*O'zbekistonda Qozog'iston yilining tantanali ochilish marosimidagi
nutq*

Toshkent shahri, 2019-yil 15-aprel..... 284

**STRATEGIK SHERIKLIK VA UZOQ MUDDATLI MAQSADLAR
MUSHTARAKLIGI**

*Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jo'mart Toqayevning
O'zbekistonga davlat tashrifi chog'ida ommaviy axborot vositalari
vakillari bilan uchrashuvdagi nutq*

2019-yil 15-aprel..... 288

**XALQLARIMIZ DO'STLIGI VA BIRODARLIGINING YORQIN
TIMSOLI**

*Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje Inning O'zbekistonga davlat
tashrifi doirasida Koreys madaniyati va san'ati uyining ochilishiga
bag'ishlangan marosimdagi nutq*

2019-yil 18-aprel..... 292

O'ZARO MANFAATLI VA UZOQ MUDDATLI HAMKORLIK

*O'zbekiston – Janubiy Koreya biznes forumining ochilish marosimida
so'zlangan nutq*

2019-yil 19-aprel..... 297

O'ZBEK – KOREYS MUNOSABATLARI TARIXIDAGI MUHIM VOQEA

*Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje Inning O'zbekistonga rasmiy
tashrifi doirasida ommaviy axborot vositalari vakillari bilan bo'lgan
uchrashuvdagi nutq*

2019-yil 19-aprel..... 302

**«BIR MAKON – BIR YO‘L» – IQTISODIY TARAQQIYOTNING
YANGI IMKONIYAT VA MANBALARI**

*«Bir makon – bir yo‘l» ikkinchi xalqaro forumidagi nutq
XXR, Pekin shahri, 2019-yil 27-aprel..... 306*

**O‘ZBEKISTON VA GERMANIYA: O‘ZARO ISHONCHGA
ASOSLANGAN, YUKSAK DARAJADAGI MULOQOT**

*Germaniya Federativ Respublikasi Federal Prezidenti Frank-
Valter Shtaynmayerning O‘zbekistonga rasmiy tashrifi doirasidagi
uchrashuvda so‘zlangan nutq*

2019-yil 27-may..... 311

**O‘ZBEKISTON VA GERMANIYA – ISHONCHLI, MUHIM VA UZOQ
MUDDATLI HAMKORLARDIR**

*Germaniya Federativ Respublikasi Federal Prezidenti
Frank-Valter Shtaynmayerning O‘zbekistonga rasmiy tashrifi doirasida
ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvdagi nutq*

2019-yil 28-may..... 315

**KENG MINTAQAVIY HAMKORLIK UCHUN NOYOB
IMKONIYATLAR**

*Shanxay hamkorlik tashkiloti davlat rahbarlari kengashi majlisida
so‘zlangan nutq*

*Qirg‘iziston Respublikasi, Bishkek shahri,
2019-yil 14-iyun..... 320*

**MAMLAKATLAR VA XALQLAR O‘RTASIDAGI ISHONCH –
XAVFSIZLIK VA BARQAROR TARAQQIYOTNING MUHIM
SHARTIDIR**

*Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha Kengashning
beshinchi sammitida so‘zlangan nutq*

*Tojikiston Respublikasi, Dushanbe shahri,
2019-yil 15-iyun..... 325*

TABRIK VA QUTLOVLAR

**«O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘LLARI» AKSIYADORLIK JAMIYATI
JAMOASIGA**

2018-yil 3-avgust..... 332

«O‘ZBEK MUMTOZ VA ZAMONAVIY ADABIYOTINI XALQARO MIQYOSDA O‘RGANISH VA TARG‘IB QILISHNING DOLZARB MASALALARI» MAVZUSIDAGI XALQARO KONFERENSIYA ISHTIROKCHILARIGA <i>2018-yil 7-avgust</i>	338
MAMLAKATIMIZ QURILISH SOHASI XODIMLARIGA <i>2018-yil 10-avgust</i>	343
«MARKAZIY OSIYO XALQARO TRANSPORT YO‘LAKLARI TIZIMIDA: STRATEGIK ISTIQBOLLAR VA FOYDALANILMAGAN IMKONIYATLAR» XALQARO KONFERENSIYASI ISHTIROKCHILARIGA <i>2018-yil 20-sentabr</i>	347
O‘ZBEKISTON O‘QITUVCHI VA MURABBIYLARIGA <i>2018-yil 28-sentabr</i>	353
INSON HUQUQLARI BO‘YICHA OSIYO FORUMI ISHTIROKCHILARIGA <i>2018-yil 22-noyabr</i>	358
«NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI» DAVLAT KORXONASI JAMOASI VA NAVOIY SHAHRI AHLIGA <i>2018-yil 23-noyabr</i>	363
O‘ZBEKISTON XALQIGA YANGI YIL TABRIGI <i>2018-yil 29-dekabr</i>	367
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUHLARI TASHKIL ETILGANINING 27 YILLIGI VA VATAN HIMOYACHILARI KUNI MUNOSABATI BILAN BAYRAM TABRIGI <i>2019-yil 12-yanvar</i>	370
O‘ZBEKISTON XALQIGA RAMAZON HAYITI TABRIGI <i>2019-yil 4-iyun</i>	375

MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARIGA <i>2019-yil 27-iyun</i>	378
O‘ZBEKISTON YOSHLARIGA BAYRAM TABRIGI <i>2019-yil 30-iyun</i>	383

Rasmiy nashr

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev

**NIYATI ULUG‘ XALQNING
ISHI HAM ULUG‘, HAYOTI YORUG‘
VA KELAJAGI FAROVON
BO‘LADI**

3-jild

Nashr uchun mas’ul *I. Ahmedov*

Badiiy muharrir *Sh. Xodjayev*

Texnik muharrirlar: *B. Karimov, T. Xaritonova*

Kichik muharrir *M. Salimova*

Musahhih *M. Ishonxonova*

Kompyuterda sahifalovchi *A. Sulaymonov*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158.14.08.2009.
Bosishga 2019-yil 17-sentabrda ruxsat etildi.
Bichimi 60x90 $\frac{1}{16}$. Ofset qog'ozi.
«Times New Roman» garniturasida ofset usulda bosildi.
Shartli bosma tabog'i 25,00. Nashr tabog'i 16,96.
Adadi 5 000 nusxa. Buyurtma № 19-458.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining
«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
100011. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20.
Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz
www.iptd-uzbekistan.uz

Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich

M 54 Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi
farovon bo'ladi. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2019. – 400 b.
ISBN 978-9943-25-820-4

UO'K 323.(575.1)

KBK 66.3(50')